

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

FUQAROLIK JAMIYATI VA HUQUQ TA’LIMI KAFEDRASI

I. Ergashev, A. Norboyev, B. Abdullayev, A. Xudaynazarov

JAHON SIYOSIY MAFKURAVIY
TA’LIMOTLAR TARIXI

**(60112100 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi
yo‘nalishi talabalari uchun uslubiy qo‘llanma)**

Toshkent – 2023

“Jahon siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi” fani bo’yicha tayyorlangan mazkur uslubiy qo’llanma O‘zbekiston Milliy universiteti rektorining 2021-yil 26-avgustdagi 1-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Jahon siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi” fan dasturi asosida tayyorlangan.

Uslubiy qo’llanma O‘zbekiston Milliy universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2022-yil “___” _____dagi ___-sonli bayoni bilan nashrga tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar:

- Ergashev I. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası professori, siyosiy fanlar doktori;
- Norboyev A. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası katta o‘qituvchisi;
- Abdullayev B. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası tayanch doktoranti;
- Xudaynazarov A. Chirchiq Davlat pedagogika universiteti “Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

- Bo‘tayev U. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrası mudiri, siyosiy fanlar bo‘yicha fan doktori (DSc);
- Norboyev T. Toshkent Moliya instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası professori v.b., siyosiy fanlar bo‘yicha fan doktori (DSc).

Mas’ul muharrir:

- Jumaniyozov X. Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası mudiri, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Mazkur uslubiy qo’llanmada “Jahon siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, jahondagi siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi, ularning rivojlanish bosqichlari, har bir davrda turli mamlakatlar uchun xos bo‘lgan siyosiy mafkuralarning o‘ziga xos jihatlari kompleks tahlil qilingan.

Uslubiy qo’llanma tadqiqotchilar va talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, undan 60112100 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabalari uchun ta’lim jarayonida, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish tavsiya etiladi.

Ergashev I., Norboyev A., Abdullayev B., Xudaynazarov A. Jahon siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi. Uslubiy qo’llanma. Toshkent. 2023. b.

KIRISH

“Jahon siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi” o‘quv fanining asosiy maqsadi – jahondagi siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi, ularning o‘ziga xos jihatlarini muhim hodisa sifatida kompleks tahlil qilishdan iborat.

O‘quv fanining asosiy vazifalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- jahondagi siyosiy mafkuraviy ta’limotlarning mohiyatini tahlil qilish;
- mafkuraviy jarayonlar tushunchasining mohiyatini tahlil qilish;
- jahondagi siyosiy mafkuraviy jarayonlarning o‘zaro ta’sirini o‘rganish;
- jahon siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tizimining mohiyati, tarkibi, umumiy qonuniyatlarini ochib berish;
- jahonning bugungi g‘oyaviy-mafkuraviy manzarasini tahlil qilish;
- mafkuraviy jarayonlarning kuchayishi sharoitida O‘zbekistonga bo‘ladigan ta’sirlarni belgilab olish.
- dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasini, unda kechayotgan g‘oyaviy kurashlardan ko‘zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berishga qaratilgan.

Mazkur uslubiy qo‘llanma O‘zbekiston Milliy universiteti rektorining 2021-yil 26-avgustdagi 1-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Jahon siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi” fan dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, ushbu yo‘nalishning 2-3-bosqich talabalarining boshqa fanlar, jumladan turdosh fanlardan olgan bilimlarini, fanlararo integratsiyani e’tiborga olgan holda tayyorlangan.

“Jahon siyosiy mafkuraviy ta’limotlar tarixi” fani bo‘yicha tayyorlangan uslubiy qo‘llanma oliy ta’lim muassasalarining bakalavriatida tahsil olayotgan “Milliy goya, ma’naviyat asoslari va huquq” ta’limi yo‘nalishi talabalari uchun tegishli fan dasturi asosida 60 soatlik ma’ruza mashg‘ulotlari mavzularini qamrab olgan.

Uslubiy qo‘llanmada insoniyat tarixida mavjud bo‘lgan siyosiy-mafkuraviy ta’limotlarning tarixiy voqeliklarda ifodalanishiga, ularning muayyan davrdan so‘ng u yoki bu ko‘rinishda boshqa ta’limotlar mohiyatiga singib ketganligiga ham e’tibor qaratilgan. Qadimgi davrdan hozirgi kunga ma’lum bo‘lgan siyosiy-mafkuraviy

ta'limotlarning rivojlanish tendensiyalari, yo'nalishlari va oqimlari yoritib berilgan. Qo'llanmaning yana bir yutuqli tomoni unda siyosiy mafkuraviy ta'limotlarning asl manbalari joylashtirilgan internetdagi saytlarga havolalar keltirilgan. Shuningdek, sakson ikkita tarixiy shaxs, mutafakkir, olimlarning rasmlari ham keltirilganligi qo'llanmaning ko'rgazmaliligini ta'minlagan.

Mazkur uslubiy qo'llanma Jahon siyosiy mafkuraviy ta'limotlar tarixi faniga bag'ishlangan dastlabki o'quv adabiyotlardan biri sifatida kamchiliklardan xoli emas, keyingi ilmiy-pedagogik faoliyatda uni yanada takomillashtirilib borishni e'tiborga olgan holda, mualliflar qo'llanma yuzasidan fikr-mulohaza va takliflarni kutib qoladi.

b.abdullayev@kspi.uz

https://t.me/bb_abdullayev

1-MAVZU: JAHON SIYOSIY-MAFKURAVIY TA'LIMOTLARI TARIXI FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI. ILK SIVILIZATSIYALAR MAFKURASI

Reja:

1. Jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixi fanining obyekti va vazifalari.
2. “Siyosat”, “g‘oya”, “mafura”, “tarix” tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati va namoyon bo‘lish shakllari.
3. Jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixi o‘quv fanining asosiy metodlari va undagi davriylik.
4. Qadimgi Sharq insoniyat sivilizatsiyasining beshigi. Dastlabki davlat va siyosiy mafkuralarning Sharqda vujudga kelishining obyektiv sabablari.
5. “Hammurapi qonunlari”- Bobil mafkurasining manbai.

Tayanch tushunchalar: jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixi o‘quv fanining obyekti va predmeti; “siyosat”, “g‘oya”, “mafura”, “tarix” tushunchalari; qadimgi Sharq – insoniyat sivilizatsiyasining beshigi; dastlabki davlatlar, siyosiy-huquqiy qarashlar va ilk mafkuralarning Sharqda vujudga kelishining obyektiv sabablari; diniy –mifologik dunyoqarash asosida siyosiy mafkuralar shakllanishi; Shumer va Akkadda siyosiy fikr; hukmron mafura xususiyatlari; “Hammurapi qonunlari” - Bobil mafkurasining huquqiy manbai; qadimgi Misr davlatchiligining g‘oyaviy asoslari va mafkuraviy negizlari; rasmiy mafura xususiyatlari.

Siyosiy mafkuraviy ta'limotlar tarixi deganda – turli xalqlarning jamiyat, siyosat, davlat to‘g‘risidagi siyosiy qarashlari, siyosatni tushunishi, unga bo‘lgan munosabati bilan bog‘lik asosiy g‘oyalari, nazariyalarning turli xil ko‘rinishlari va rivojlanish bosqichlari to‘g‘risidagi g‘oyalar majmuidir.

Ta'limot – voqelikning muayyan sohasi haqidagi nazariy qoidalar, qarashlar majmui, biror olim yoki mutafakkirning qarashlari.

Ta'limotlar deganda turli shakllardagi nazariy qarashlarning mohiyati, tegishli bilimlarning tarixan maydonga kelishi va rivojlanishi, siyosiy-huquqiy nazariy konsepsiyalar, g‘oyalar va qoidalar nazarda tutiladi.

Siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixining shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari

Siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar dastlab mifologik qarashlar ko'rinishida shakllangan. Animizm, totemizm, fetishizm kabi ibtidoiy diniy-mifologik tasavvurlar ko'rinishida paydo bo'lgan.

Animizm (lot. anima — jon, ruh) — jon va ruhlar borligiga ishonish. Ibtidoiy davrda paydo bo'lgan. Ibtidoiy odamlar tabiat kuchlariga qarshi kurashda ojizlik qilgan, o'z hayoti va tanasidagi turli hodisalar (tush ko'rish, gallyutsinatsiya, o'lim va h. k.)ni tushunmagan. Ular jon tana bilan bog'langan va u tanadan chiqib keta oladi, deb hisoblaganlar. Insonda asta-sekin abstrakt tafakkur rivojlanishi bilan moddiy narsalarga bog'liq ruh to'g'risidagi tasavvurlar paydo bo'lgan.

Totemizm (Shimoliy Amerika hindularining o'jibve qabilasi tilidagi “ototem” — “uning urug'i” so'zidan) — ibtidoiy diniy e'tiqodlarning ilk shakllaridan biri. U kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari (ba'zan tabiat hodisalari, jonsiz narsalar) o'rtasida g'ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor degan etiqodga asoslanadi. Hayvonlar, o'simliklar, jonsiz predmetlar totem hisoblangan. Totemlar (ko'pincha hayvonlar) ov qilinmagan, o'ldirilmagan, go'shti eyilmagan, ular go'yo kishilarning kudratli ximoyachisi hisoblangan.

Fetishizm (portugalcha feitico, frans. fetiche — sehrli narsa, tumor) — g'ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar — fetishlarga sig'inish. Sig'inish ob'ektlari, ya'ni fetishlar — tosh, tayoq, ko'zmunchoq, tumor va har qanday buyum bo'lishi mumkin. Fetishizm dinning kad. unsurlaridan biri. Barcha ibtidoiy xalqlarda bo'lgan.

Siyosiy-mafkuraviy ta'limotlarning keyingi ko'rinishi diniy-falsafiy qarashlar bilan bog'liq. Idealizm, materializm, dualizm kabi ta'limotlar bilan bog'liq bo'lib, ular o'rtasida doyim kurash borgan. Bunday siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar shu davrda ustuvor bo'lgan diniy qadriyatlar, aqidalar bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy qatlamalarning manfaatlariga xizmat qilgan va rivojlanib borgan.

Jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixi fanining tadqiqot obyekтини – insoniyat tarixida mavjud bo'lgan siyosiy-mafkuraviy tasavvurlar, fikrlar, qarashlar, g'oyalar, konsepsiyalar, nazariyalar, ta'limotlar, ularning ko'rinishlari tashkil etadi.

Jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixi fanining tadqiqot predmetini – siyosiy-mafkuraviy tasavvurlar, fikrlar, qarashlar, g'oyalar, konsepsiyalar, nazariyalar, ta'limotlarning shakllanishi rivojlanishi hamda o'zgarishi qonuniyatlarini o'rganish tashkil etadi.

Jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixi fani bitta yoki alohida olingan mafkuralar jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omil bo'ladi, degan qoidaga asoslanmaydi. Mafkuralar xilma-xilligiga asoslanadi.

“Siyosat” (arabcha-boshqarish, rahbarlik qilish) tushunchasiga turli davrlarda siyosatshunos olimlar tomonidan berilgan ta'riflar shakli jihatidan har xil bo'lsa-da, biroq mohiyati va mazmuni jihatidan umumiylikka egadir.

Ularning hammasida ham siyosat - davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar va harakatlarning mamlakat ichida va xalqaro maydonda ko'rsatadigan faoliyati, jamiyat ijtimoiy hayotining, hamma sohalarga ta'sir etib turuvchi vosita sifatida asoslab beradi. Demak, siyosat - bu jamiyat hayotining xilma-xil sohalarida ro'y beradigan oddiy va murakkab vazifalarni hal qilishga, aniq maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat yoki vositadir. Siyosat tushunchasi – davlatni boshqarish san'ati, ijtimoiy ish degan ma'nolarni anglatadi.

“G'oya” - keng ma'noda oldin mavjud bo'lmagan, o'zida yangilikni tashuvchi fikr. Bu hal qilinishi zarur bulgan masalani echishga intilish natijasida paydo bulgan yaxlit xulosa, ijtimoiylashgan fikrdir.

“Mafkura” (arabcha-fikrlar majmui) tushunchasining ta'rifiga kelsak, ko'pgina ta'riflar orasida uni muayyan bir davrda muayyan bir xalqni, millatni, ijtimoiy guruhning manfaatlaridan kelib chiqadigan maqsadlar sari etaklovchi estetik, axloqiy, huquqiy diniy, falsafiy, siyosiy g'oyalar tizimi, deb berilgan.

Tarix — 1) tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Shu ma'noda olamning yaratilish tarixi, Yer tarixi, barcha fanlar tarixi va boshqalar tushuniladi;

2) insoniyat va uning mahsuli bo'lgan tamaddunlar rivoji, jamiyat va davlatlar o'tmishi taraqqiyoti jarayonini o'rganuvchi fan.

Tarix fani — insoniyatning butun o'tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o'rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san'atshunoslik va b.) tizimining tarkibiy qismi.

Jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlari muayyan siyosiy guruhlar qatlamlar va tashkilotlarning manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan va rivojlangan.

Dunyo xalqlari hayotida sodir bo'lgan, jahonning buyuk allomalari tamonidan yaratilgan siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar mazmun-mohiyati va tarixini o'rganish yoshlar ongi va qalbini turli buzg'unchi g'oya hamda mafkuralar ta'siridan saqlab qolishga xizmat qiladi.

Mavzuga doir dastlabki tushunchalar, fanning mustaqil predmet sifatidagi metodologik sifatlariga va maqsad, vazifasiga etibor berildi, shuningdek, fanning ijtimoiy – gumanitar fanlar rivojidagi o'rnini ko'rsatishga harakat qilindi.

Jahon siyosiy – mafkuraviy ta'limotlar tarixini yoritishda insoniyatning turli ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy taraqqiyoti bosqichlaridan kelib chiqqan holda qadimgi dunyo, o'rta asrlar, yangi va eng yangi davrlarga bo'lib o'rganish asos qilib olindi.

Insoniyatning ilk sivilizatsiya o'choqlari Qadimgi Sharq mamlakatlarida vudujga kelgan siyosiy-mafkuraviy qarashlar, Qadimgi Yunoniston va Rim ta'limotlari, ellinizm mafkurasi o'rta asrlar tarixi bilan bog'liq G'arb va Sharq siyosiy-mafkuraviy qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Dunyo ilmi insoniyat madaniy taraqqiyoti sarchashmalari dastlab Qadimgi Sharq mamlakatlari - Misr, Xitoy, Hindiston hamda Old Osiyo va O'rta Osiyo hududida, keyinchalik Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lganligini aniqlagan.

Dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi ham aynan shu mamlakatlar va hududlarda yuz berdi. Shu bois insoniyat taraqqiyotining beshigi Sharq deb atalishi bejiz emas. Insoniyat tarixida o'z davrining katta-katta yutuqlari ham Sharqda kashf etildi va insoniyatning keyingi taraqqiyotiga xizmat qildi.



1-rasm

Xammurapi qonunlari

Xammurapi qonunlari balandligi odam bo'yidan katta bazalt tosh ustunga, qadimgi mixxat yozuvida o'yib yozilgan (1-rasm). 1901-yilda fransuz arxeologlari tomonidan topilgan. Hozir Parijdagi Luvr muzeyida saqlanadi. Qonunlar to'plami 282 moddadan iborat bo'lib, 3 qismdan: kirish, qonunlar bayoni va xulosani o'z ichiga oladi. Tuplamning bizgacha 247 ta moddasi saqlanib kolgan, 50 ga yaqin moddasi esa o'chib ketgan.

Kirish qismida kodeksni chiqarishdan maqsad mamlakatda haqqoniyat o'rnatishdir, deb ko'rsatilgan.

“Men, Xammurapi, xudolar tomonidan qo'yilgan rahbarman. Frot bo'yidagi qishloqlarni itoat ettirgan podsholarning eng birinchisiman, men mamlakatimda haqiqat va adolat o'rnatdim” deb boshlanadi qonunlar to'plami Xammurapi tilidan. Xammurapi qonunlari ko'proq sud qarorlari to'plamiga o'xshab ketadi.¹

Qonun normalarini mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Odil sudlovni amalga oshirish (§§ 1-5).
2. Podsho, ibodatxona, jamoa a'zolari va podsho odamlarining mulkini himoya qilish (§§ 6-25)
3. Xizmat uchun podshodan olingan mulkni himoya qilish (§§ 26-41).
4. Ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar va ko'chmas mulk bilan bog'liq huquqbuzarliklar (§§ 42-87).
5. Savdo va boshqa tijorat operatsiyalari, shu jumladan ushbu sohadagi huquqbuzarliklar (§§ 88-126).
6. Oila va meros huquqi (§§ 127-194).
7. Shaxsga qarshi jinoyatlar (§§ 195-214).
8. Mulk bilan operatsiyalar, shu jumladan mulkni ijaraga berish va ushbu sohadagi huquqbuzarliklar (§§ 215-282).

¹ Законы вавилонского царя Хаммурапи. URL: <https://www.hist.msu.ru/ER/Etext/hammurap.htm> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

Talion (lot. *tālīo*, talis bir xil) huquq va axloqning kategoriyasi bo‘lib, teng (simmetrik) qasos deb ham ataladi.

Jinoyat uchun jinoiy jazo tayinlash prinsipi, unga ko‘ra jazo chorasi tom ma’noda jinoyat natijasida etkazilgan zararga to‘liq mos kelishi kerak («qonga-qon, joga-jon»).

An’anaga ko‘ra, o‘g‘ri uchun jazo, shubhasiz, o‘lim jazosi edi va faqat ba’zi hollarda - o‘g‘irlangan narsaning qiymatini bir necha barobarga qoplash jazosi qo‘llanilgan.

Qadimgi Misr quldorlik siyosiy mafkurasida ijtimoiy-siyosiy tengsizlik zarurligi, “yuqori” tabaqaning “pastki”dan ustunligi, qullarning asosiy manbai bo‘lgan chet elliklarning “qo‘polligi” haqidagi qarashlar ustunlik qilgan. Tabaqaviy bo‘ysunmaslikning har qanday ko‘rinishlari koinotning dastlabki qonunlariga tajovuz sifatida qoralangan. Davlatning ilohiy kelib chiqishi haqidagi nazariya fir’avnga sig‘inishda ifodalangan. Mifologiyada fir’avn quyosh xudosi va ayolning birlashuvidan tug‘ilgan yerdagi xudo sifatida tasvirlangan. Qadimgi Misr hujjatida Xudo qirol Ramzes II ga shunday deydi: “Men sening otangman. . . Senga hukmronlik qilishing uchun ilohiy topshiriq berdim. . .”. Fir’avnni kuch va buyukligiga ommani qo‘rqov va hayrat g‘oyasi bilan ilhomlantirgan va qurilishi yuz minglab odamlarning hayotiga zomin bo‘lgan ulkan piramida maqbaralari uning qudrati dalili bo‘lib xizmat qilishi kerak edi (2-rasm). ²



2-rasm

Misr piramidalari

Quldorlarning qullarga va vayron bo‘lgan jamoa a’zolariga qarshi tabaqaviy kurashini aks ettiruvchi quldorlik mafkurasi turli manbalarda, jumladan adabiy va siyosiy risolalarda o‘z ifodasini topgan ta’limotga aylandi.

“Gerakleopol shohining o‘g‘liga nasihatlari” (taxminan miloddan avvalgi

² Липунова Л.В. Миф и политико-правовая идеология древнего Египта. *Экономика и социум. 3* (22), 2016. URL: <https://readera.org/140118833> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

2100-yillar)da ichki qarama-qarshiliklarning kuchayishi, mazlum xalqlarning quldorlarga qarshi qo'zg'olonlariga to'qnashgan tabaqaviy kurashning kuchayishi aks ettirilgan. Quldorlarning alohida guruhlar o'rtasidagi kurash ham kuchaydi. Risolada hokimiyatni ushbu qiyin davrda qanday boshqarish kerakligi haqida maslahatlar mavjud. Podshoh zodagonlarni yuksaltirishni taklif qiladi, ularda mamlakatning tayanchini ko'radi va nafaqat zodagonlarni yaqinlashtirishni maslahat beradi; balki kamtar boylarni ham ekspluatatorlarning barcha kuchlarini qullarga va ozod kambag'allarga qarshi birlashtirishni nazarda tutadi.³

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixi, shaklanishi va evolyutsiyasi
2. Jahon siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar tarixi fanining predmeti va obyekti, uning o'ziga xos xususiyatlari.
3. "Siyosat", "g'oya", "mafкура" tushunchalarining mazmun-mohiyati va o'zaro aloqadorligi.
4. Siyosiy-mafkuraviy ta'limotlarning muayyan ijtimoiy guruh, qatlam va toifalarning manfaatlarini anglashi hamda farqlashi bilan aloqadorligi.
5. Qadimgi Sharq dastlabki davlatlarda ilk siyosiy mafkuralarning vujudga kelishi.
6. Qadimgi Bobilda "Hammurapi qonunlari"- mafкура manbai.
7. Qadimgi Misrda quldorlik mafkurasi.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Animizm so'zining ma'nosi.
 - a) jon va ruhlar borligiga ishonish.
 - b) g'ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar
 - c) kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari (ba'zan tabiat hodisalari, jonsiz narsalar) o'rtasida g'ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor degan etiqod
 - d) to'g'ri javob yo'q.
2. Totemizm so'zining ma'nosi.
 - a) jon va ruhlar borligiga ishonish.

³ Поучение гераклеопольского царя своему сыну Мерикара. Хрестоматия по истории политических и правовых учений. URL: <http://grachcv62.narod.ru/hrcst/chapt01.htm>. (murojaat sanasi: 10.12.2022)

- b) g'ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar
- c) kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari (ba'zan tabiat hodisalari, jonsiz narsalar) o'rtasida g'ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor degan etiqod
- d) to'g'ri javob yo'q.

3. Fetishizm so'zining ma'nosi.

- a) jon va ruhlar borligiga ishonish.
- b) g'ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar
- c) kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari (ba'zan tabiat hodisalari, jonsiz narsalar) o'rtasida g'ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor degan etiqod
- d) to'g'ri javob yo'q.

4. Siyosat so'zining ma'nosi.

- a) arabcha-boshqarish, rahbarlik qilish
- b) forscha-boshqarish, rahbarlik qilish
- c) arabcha-hukuman, hukmdorlik qilish
- d) arabcha-jamoa ustidan hukm surish

5. Ma'fura so'zining ma'nosi.

- a) arabcha-fikrlar majmui
- b) arabcha-ta'lim tarbiya
- c) forscha-g'oya
- d) arabcha-madaniyat

6. Qadimgi Misr hujjatida Xudo qirol ga shunday deydi: "Men sening otangman. . . Senga hukmronlik qilishing uchun ilohiy topshiriq berdim.

- a) Ramzes II
- b) Ramzes I
- c) Tutanxamon
- d) Xamurappi

7. "Men, Xammurapi, xudolar tomonidan qo'yilgan rahbarman. Frot bo'yidagi qishloqlarni itoat ettirgan podsholarning eng birinchisiman, men mamlakatimda haqiqat va adolat o'rnatdim" degan fikrlar qayerda bitilgan?

- a) Qonunlar to'plamida
- b) Shahar devorlarida
- c) Shahar darvozasida
- d) To'g'ri javob yo'q

2-MAVZU: QADIMGI HINDISTON VA QADIMGI XITOIDA SIYOSIY MAFKURALAR

Reja:

1. Hindistondagi ilk davlatlar va ularning mafkuraviy asoslari.
2. Braxmanizm va Buddaviylik o'rtasidagi munosabatlar.
3. Qadimgi Xitoydagi g'oyaviy-siyosiy qarashlar.
4. Konfutsiylikning davlat mafkurasi darajasida chiqishi.

Tayanch tushunchalar: Xindistonda ilk davlatlar; oriylar istilosi, uning hind jamiyati, siyosiy fikr va rasmiy mafkuralar mazmunini belgilashdagi ahamiyati; Brahmanizm mohiyati; Upanishadalarda brahmanizm mafkurasi rivojlantirilishi; Buddaviylikning braxmanizmga munosabati; Qadimgi Xitoyda g'oyaviy-siyosiy qarashlar, davlat mafkurasining xususiyatlari; Konfutsizmning paternalistik характери; Daosizmning ijtimoiy-siyosiy mohiyati; Mo-szi sotsial ideali.

Miloddan avvalgi 2-ming-yillikning o'rtalarida bu yerda shimoliy-g'arbdan oriy ("ariy") qabilalari bostirib kelganlar. Ular Pomir va Hinduqush tog'laridan oshib o'tib, Panjob va Ganga daryosining yuqori havzasidagi unumdor tekisliklarga o'rnamshib olganlar. Ular bilan birga otlar ham kirib kelganlar. Oriylar o'zoq vaqt ko'chmanchi chorvadorlik bilan shug'ullanishgan.

Oriylarning Hindistonga bostirib kirishi hindlarning eng qadimiy kitoblari bo'lmish Veda degan diniy kitoblarida ham o'z aksini topgan. Hindistonda ham boshqa xalqlardagi kabi dastlabki dunyoqarash-diniy mifologik dunyoqarashdan iborat bo'lib, tabiat sirlari va hodisalar, odamlarni itoat ettirishning mafkuraviy jarayonlari ko'zga ko'rinmas ilohlarga bog'langan.

Vedalar (sanskritcha veda — bilim) — Hindiston yozma adabiyotining qad. yodgorligi. Mil. av. 2-ming-yillikning oxiri — 1-ming-yillikning boshida yaratilib, Vedalar to'plamlari deb nomlanadi.

Bu madaniy yodgorlikdan bizgacha 4 ta qism (samhita): "Rigveda" (qasida, madhiya, duolar to'plami), "Samaveda" (qo'shiqlar to'plami), "Ayurveda" yoki

“Yajurveda” (qurbonlik qilish yo‘llari), “Atharvaveda” (sehrli duolar to‘plami) etib kelgan.

Veda adabiyoti bir necha ming-yillar davomida shakllanib, qadimgi hindlar tarixidagi turli jamiyatlarning diniy-falsafiy, estetik taraqqiyot darajalarini ifodalaydi. Vedalar ichida eng qad. si “Rigveda” hisoblanadi. U 10 kitob (mandala) dan iborat. Bunda tabiatdagi narsa va hodisalar (osmon o‘zgarishi, quyosh, yulduzlar, momaqaldiroq, shamol, yomg‘ir, tog‘lar, daryolar) ilohiy kuchlar sifatida gavdalanirilib, ular sharafiga qo‘shiqlar, madhiyalar to‘qilgan, ularga qurbonliklar keltirilgan.⁴

Insoniyat hayoti, uning baxt-saodati ana shu kuchlarga bog‘liq holda tasavvur qilingan, “Rigveda”ga ko‘ra, Indra — momaqaldiroq ilohi, Mitra — Quyosh tangrisi, Varuna — Osmon ma‘budi, Agni — Olov ma‘budi, Yama — ajal, o‘lim keltiruvchi, Sama — Oy ma‘budasi, Rita — Koinot tartibini anglatadi. “Rigveda” qo‘shiqlarini to‘plovchilar rishi (ilohiy qo‘shiqlarni to‘quvchi donishmand)lar deb atalgan.

Beruniy “Hindiston” asarida yozishicha, inson bo‘la turib, ilmlari sababli farishtalardan afzal va ortiq bo‘lgan hikmatshunoslar rishilar, deb atalganlar.⁵ Shuning uchun farishtalar rishilardan foydalandilar, chunki rishilar bilim egasidirlar. Rishilardan yuksakda faqat Barohim turadi. “Rigveda” kitobida qadimgi dunyo falsafiy tafakkurining o‘ziga xos badiiy ifodasi ko‘rinadi. Unda qadimgi hindlar olam sirlari haqida fikr yuritadi. Masalan, hech narsaga tayanmagan va yopishtirilmagan Quyosh nega qulab tushmaydi? Kechasi Quyosh qayoqqa ketadi, u qayerda? Shamol qayerda tug‘ilib, qaerga boradi? Olamning asosini nima (yoki nimalar) tashkil etadi? bu va boshqa ko‘plab bunday muammolar ko‘tarilgan.

Sharq faylasuflari to‘rt unsur — suv, olov, havo, tuproqni barcha mavjudotlarning asosi deb bilganlar. Bu jihatdan Veda falsafasi Arastu zamonidagi, keyinroq Forobiy zamonidagi falsafiy tafakkurga ta’sir etgan. Vedalar adabiyoti

⁴ The Rig Veda. Translated by Ralph T.H. Griffith, 1889. URL: <http://www.intratext.com/ixt/ENG0039/> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

⁵ Albiruni’s India. URL: <https://selfstudyhistory.com/2015/09/30/al-birunis-india/> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

Vedalardan tashqari brahmanlar, aranyakalar va upanishadlardan iborat. Qadimgi Hindistonda varna (kasta)chilik jamiyati vujudga kelganida brahmanlar adabiyoti rivojlangan. Brahmanlarda samhitalardagi kohinlarning diniy marosimlari sharhlab beriladi.

“Aranyakalar” (aynan “O‘rmon kitobi”) jamiyatdagi jabr-zulmdan, g‘arazli, tuban, mol-dunyoga o‘ch odamlardan o‘rmonlarga qochib, yolg‘izlikda yashaganlarga bag‘ishlangan.

“Upanishad” (maxfiy ta’limot)lar asosan falsafiy-diniy risolalardir. Upanishadlarda falsafiy masalalar ancha keng yoritilgan bo‘lib, hindlar tangrisi Brahma (Beruniyda — Barohim) borliqning ibtidosi va intihosi, barcha mavjudotlarning asosi, deb ulug‘lanadi. Upanishadlarga ko‘ra, moddiy olam, shu jumladan, inson ham Atma-Brahmadan paydo bo‘lgan va o‘shanga qaytadi.⁶

Upanishadlarda aytilishicha, inson bunga erishish uchun muayyan axloqiy mezonlarga, karma va dxarma ta’limotiga rioya qilishi kerak. Upanishadlarga ko‘ra, har bir inson o‘zidagi ilohiy dxarmalarga muvofiq yashaydi. Agar inson bu dunyodagi hayotida pokiza, ezgu niyatlar bilan yashasa, qaytadan dunyoga kelishda yana inson bo‘lib keladi. Aksincha bo‘lsa, odam tuban, hayvoniy ishlar qilsa, keyingi kelishida joni hayvonga ko‘chadi. Beruniy “Hindiston” asarida yozishicha: shu tabaqalar (brahmanlar, kshatriy-harbiylar, vayshya — dehqonlar, chorvadorlar, shudra — quyi tabaqa vakillari)dan kimning xalos bo‘lishga tayyor va loyiq ekani haqida hindlarning fikri turlichadir. Ba’zi vedashunoslar brahmanlar va kshatriydan boshqalar qutulish (najot)ga qobil emas, chunki Vedalarni o‘rganishga faqat ular haqli xolos, deydilar.

Brahmanizm aqidalari buyicha Hindiston ahli “varna”larga, ya’ni tabaqalarga bo‘lingan.

1. Eng oliy tabaqa-braxmanlar, ya’ni kohinlar hisoblanganlar.
2. Kshatriylar – suvoriylar, ya’ni jangchilar ham yuqori tabaqalar tarkibiga kiritilgan.

⁶ Упанишады. Духовные и священные писания Востока. URL: <https://scriptures.ru/upanishads/> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

3. Vayshiylar va Shudralarga bo'lingan.

Brahmanizm ta'limotining markazida tabiatning jonlanishi va barcha tirik mavjudotlarning reinkarnatsiyasi haqidagi g'oyalar yotadi.

1) Dunyo va insonning o'xshashligi g'oyasi.

Vedalar nafas olish hayotning o'zi ekanligiga ishonishgan.

2) Qayta tug'ilish g'oyalari.

Reinkarnatsiya oldingi hayotning fazilati yoki gunohkorligi uchun jazo (karma) sifatida sodir bo'ladi.

Ijobiy karma yangi hayotda yuqori ijtimoiy maqomda yoki hatto samoviy hayotda tug'ilish imkoniyatini beradi.

Salbiy karma pastroq ijtimoiy mavqega yoki hatto hayvon yoki o'simlikda tug'ilishga olib keladi.

Inson xulq-atvorining karmik mezoni dharmaning bajarilishi yoki bajarilmasligi - Brahma tomonidan har bir varna uchun o'rnatilgan hayot tarzi bilan bog'liq burchdir.

3) Brahmanizm falsafasi samsara va karma, moksha tushunchalariga asoslanadi.

Samsara (qayta tug'ilish halqasi) - o'limdan keyin ruh boshqasiga o'tadi.

Karma - bu har qanday harakat, ya'ni niyat va maqsad mavjud bo'lgan hodisa. Karma tushunchasi, shuningdek, karma qonunini ko'rsatish uchun ishlatiladi, unga ko'ra har bir kishi o'zining yaxshi va yomon harakatlari va harakatlariga muvofiq mukofot yoki jazo oladi.

Moksha - tug'ilish va o'lim siklidan (samsara) va barcha azob-uqubatlardan va moddiy mavjudotning cheklovlaridan xalos bo'lish (yer yuzidagi hayotdan ozod qilish).

Buddizm diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, Hindiston (miloddan avvalgi 5 asrdan keyin), Xitoy, Janubi-Sharqiy Osiyo (milodiy 3 asrdan keyin), shuningdek, boshqa hududlarda tarqalgan.

Bu ta'limotning asoschisi Shimoliy Hindistonda aslzoda oilasida tug'ilgan Gautama Budda (Sidhardha Shakyamuni) (miloddan avvalgi 563 - 483-yillar)

hisoblanadi. Budda qiyin hayot yo‘lini bosib o‘tdi (taxt vorisi, zohid, donishmand), shundan so‘ng u “nurni ko‘rdi” (miloddan avvalgi 527-yil) va o‘zining ruhiy yutuqlarini odamlarga etkazdi.

Buddizmning asosiy g‘oyasi hayotning ikki chegarasi orasidagi “o‘rta yo‘l” dir: “zavq yo‘li” (o‘yin-kulgi, bekorchilik, dangasalik, jismoniy va axloqiy tanazzul) va “asketizm yo‘li” (tananing o‘limi, mahrumlik, azob-uqubatlar, jismoniy va ma’naviy charchash).

“O‘rta yo‘l” - bilim, donolik, oqilona cheklash, tafakkur, ma’rifat, o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘li, uning yakuniy maqsadi Nirvana - eng oliy inoyatdir.

Budda to‘rtta olijanob haqiqatni aniqladi:

- yerdagi hayot azob-uqubatlarga to‘la;
- iztirobning o‘ziga xos sabablari bor - foyda, shon-shuhrat, zavq, hayot va boshqalarga tashnalik;
- azob-uqubatlarni bartaraf etish mumkin;
- azob-uqubatlardan xalos bo‘ladigan yo‘l bor - yerdagi istaklarni rad etish, ma’rifat, Nirvana.

Buddist falsafasi har bir insonga shaxsiy o‘zini-o‘zi takomillashtirish rejasini taklif qiladi, uning maqsadi Nirvana - Buyuk Ozodlikdir.

Ushbu reja – “Sakkizlik yo‘l” deb nomlangan - quyidagi tamoyillarga rioya qilishni nazarda tutadi:

- to‘g‘ri ko‘rish - buddizm asoslarini va hayotdagi yo‘lingizni tushunish;
- to‘g‘ri fikr - insonning hayoti uning fikrlariga bog‘liq, fikrlar o‘zgarganda (noto‘g‘ridan to‘g‘riga, olijanob) hayot o‘zgaradi;
- to‘g‘ri nutq – odamning so‘zi, nutqi uning ruhiga, xarakteriga ta’sir qiladi;
- to‘g‘ri harakat – o‘zi va boshqa odamlar bilan hamjihatlikda yashash, boshqalarga zarar etkazmaslik;
- to‘g‘ri turmush tarzi - har bir harakatda buddizm ahkomlariga rioya qilish;
- to‘g‘ri malaka – mehnatsevarlik va mehnatsevarlik;
- to‘g‘ri e’tibor - fikrlarni nazorat qilish, chunki fikrlar keyingi hayotni keltirib chiqaradi;

- to'g'ri konsentratsiya - kosmos bilan aloqa o'rnatadigan muntazam meditatsiyalar.

Buddizmning beshta qoidasi quyidagilardan iborat:

- o'ldirmaslik;
- o'g'irlash yo'q;
- pok bo'lish;
- yolg'on gapirmaslik;
- mast qiluvchi moddalarni iste'mol qilmaslik.

Xitoyda miloddan avvalgi 2-minginchi-yillikning boshlarida Siya xonadoni hukmdorligi o'rnatilgan. Miloddan avvalgi 18 asrda Chintan degan kishi Siya xonadoni hukmronligini ag'darib tashlab o'rniga Shan davlatini tashkil qildi. Bu davlat tarixda Shan In davlati deb ataladi. Miloddan avvalgi 1027-yilda Chjouning g'arbdan kelgan qo'shinlari Shan In podsholigini tugatdi.

Umuman olib qaraganda Xitoy tarixida uzoq-yillar davom etgan urushlar davrini ko'rish mumkin. Buyuk Xitoy devorining qurilishi shimoldan kelayotgan ko'chmanchi qabilalarning oldini olish mamlakatda muayyan ma'noda tinchlik o'rnatishdan iboratdir. O'z o'rnida Xitoy ham boshqa mamlakatlarga harbiy yurishlar qilgan. Xitoy tarixida davlatni boshqarish turli ta'limotlarni vujudga kelishi katta ahamiyatga ega va bo'lar o'z davrida davlatni siyosiy boshqarilishiga u yoki bu tarzda ta'sir etgan.



3-rasm

Konfutsiy

Konfutsiylik axloqiy qoidalar, ijtimoiy me'yorlar va idoraviy boshqaruvlarni o'zida aks ettirgan ta'limotdan iborat.

Konfutsiy ta'limoti Xitoy siyosiy - huquqiy va falsafiy ta'limotlarining poydevori xisoblanadi, uning ta'limoti shogirdlari tomonidan yozib qoldirilgan "Lun Yuy" (Suhbatlar va mulohazalar) nomli asarda aks etgan.⁷

⁷ Конфуций - Лунь юй. URL: https://modernlib.net/books/konfuciy/lun_yuy/read/ (murojaat sanasi: 10.12.2022)

Konfutsiy ta'limotining markazida "jen" ("insonni sevish"), g'oyalar tizimi "chjun" ("podshoga sadoqat"), "i" ("burchga sodiqlik"), "syao" ("farzandlik hurmati") va boshqalar turadi.

Konfutsiy Xitoyning sharqidagi Lu knyazligida miloddan avvalgi 551-yilda tug'ilib 479-yilgacha yashagan (3-rasm). Uning asl ismi Kun Syu bo'lib muxlislari Kun Fu-tszi, deb atashgan bu ism bora bora Kun Fu-tszi, degan faxrli laqabga aylangan. Bu ism "hurmatli ustoz Kun" degan ma'noni anglatadi. U aslzodalar xonadoniga mansub bo'lib, otasi Shu Lyan Xe Lu knyazligida Chjou muzofotini boshqargan. Konfutsiy tug'ilganda otasi 70 yoshga to'lgan edi. Uch yoshga to'lganida otasidan, 17 yoshida onasidan ayrildi. Oilada Konfutsiydan tashqari 9 qiz va bir nogiron o'g'il bo'lgan. 19 yoshida uylanadi. Birinchi marta u omborchi vazifasiga ishga tayinlanadi. U aslzoda, lekin kambag'al urug' vakili edi. Konfutsiy faqat 15 yoshidan o'qishni boshlagan va 50 yoshida o'zining maktabini tashkil etgan. U bir necha-yillar davomida turli podshoxlar qo'l ostida ishlagandan keyin yoshlarga ta'lim berishga kirishadi.

Daosizm. Daosizm falsafiy ta'limot sifatida Xitoyda mil. av. birinchi ming-yillikning o'rtalarida konfutsiylik bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ldi. Bu ta'limot,

dastavval birmuncha mavxum harakterga ega bo'lib, din bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan.



4-rasm

Lao Szi

Xitoylik faylasuf Lao Szi Chu podshohligining fuqarosi bo'lib, asl ismi Li Er edi (4-rasm). Lao Szi "Ustoz Lao" degan ma'noni anglatadi. "Lao" esa laqab bo'lib, "qariya" deganidir.

Lao Szi daosizm ta'limotining asoschisi bo'lib, uning asl ta'limoti "Dao De Tszin" nomli kitobida bayon etilgan.⁸ U ikki jihatni nazarda tutgan: falsafiy va siyosiy. Siyosiy jihatda hukumat jamiyat va har bir shaxs hayotiga qanchalik kam aralashsa, shuncha yaxshi degan fikr ustunlik

⁸ Лао Цзы. Дао Де Дзин. Перевод Александра Кувшинова. URL: <http://www.lib.ru/POECHIN/lao3.txt> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

qildi. Ammo Lao Szi falsafasining asosiy jihat falsafiy jihat bo'lib, u quyidagi g'oyalarni qamrab olgan:

Inson hayoti falsafasi yan, in va dao g'oyalaridan iborat. Dao - bu tushunarsiz, hamma narsani qamrab oluvchi va engilmas kuch, uning tufayli bu dunyoda hamma narsa harakat qiladi va mavjud. In va Yan inson hayotining tabiiy tamoyillari bo'lib, ular yordamida u o'z hayotini boshqaradi.

Inson muammolarining sababi Uvey - faol bo'lmagan hayot yoki harakatsizlik. Asosiy fazilat - bu mo'tadillik.

Davlat hokimiyati mustabid usullarni qo'llashi, odamlarni o'z irodasiga zid harakatlarga majburlashi tufayli qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Hayotda muvaffaqiyatga faqat Dao bilan uyg'unlikda erishish mumkin. Shunda hatto zaharli va yirtqich hayvonlar ham odamga hech qanday zarar etkazmaydi.

O'g'irlikdan qochish uchun har qanday qimmatbaho mulkni yo'q qilish kerak.

Nikoh qonunlarining yo'qligi odamni zinodan qutqaradi, uni kamtar, fidoyi va odobli qiladi.

Insonning asosiy xususiyatlari samimiylik, kamtarlik va mehribonlikdir.

Lao Szining g'oyalar tizimida inson mujassam bo'lgan, unda Yaratuvchi Xudoga o'rin yo'q. Unga ibodat qilish va undan javob kutish yo'q. Faqat inson o'zini qutqarishi va muammolarini hal qilishi mumkin.

O'lim tug'ilish kabi tabiiydir. Faqat o'limdan keyin inson boshqa shaklda yashaydi.

Agressiya va yon berishdan voz kechish kerak.



5-rasm

Mo-szi

Moizm. Qadimiy Xitoy faylasufi Mo-szi (Mil. av. 479 – 400) mayda mulkdor oilasida tug'ildi. U g'ildiraklar va qurollar uchun so'loq yasovchi moxir usta bo'lgan. Konfutsiy ta'limotini chuqur o'rgangan. U Xitoy falsafasiga birinchi bo'lib GU (sabab) va LEY (tur) darajalari tushunchasini olib kirdi hamda asoslab berdi.

Mo –szining zamondoshlariga ta'siri shunchalar kuchli bo'lganki, u xuddi Konfutsiy kabi shuxrat qozongan.

Mo-szi va uning shogirdlarining qarashlari miloddan avvalgi 200-yilda tugallangan “Mo-tszi” kitobida jamlangan.⁹

Mo-szi ta’limotining asosiy g’oyasi odamlar o’rtasidagi “umumiy mehr-muhabbat va o’zaro manfaatdorlik” tamoyillari bo’yicha munosabatlardir.

Mo-szi “iqtidorlarni hurmat qilish” tamoyilini ilgari surdi - odamlarni kelib chiqishidan qat’iy nazar yuqori lavozimlarga chiqishi kerak.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Vedalar - Hindistondagi ilk davlatlar mafkurasining manbalari.
2. Qadimgi Hindiston qulchdorlik mafkurasini va Braxmanizm dini g’oyalari.
3. Buddaviylik Brahmanizm o’rtasidagi g’oyaviy xilma-xillik.
3. Konfutsiy ta’limotining asosiy g’oyalari.
4. Lao Szi ta’limotining asosiy g’oyalari.
5. Mo-szi ta’limotining asosiy g’oyalari.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Qadimgi Hindiston madaniyatida qadisa, madhiya, duolar to‘plami qanday monlanadi?
 - a) Rigveda
 - b) Samaveda
 - c) Ayurveda
 - d) Atharvaveda
2. Qadimgi Hindiston madaniyatida qo‘shiqlar to‘plami to‘plami qanday monlanadi?
 - a) Rigveda
 - b) Samaveda
 - c) Ayurveda
 - d) Atharvaveda
3. Qadimgi Hindiston madaniyatida qurbonlik qilish yo‘llari to‘plami qanday monlanadi?

⁹ Мо-цзы. Средневековые исторические источники Востока и Запада. URL: https://www.vostlit.info/texts/dokumenty/china/i/drvnkit_fil/rametext3.htm (murojaat sanasi: 10.12.2022)

- a) Rigveda
- b) Samaveda
- c) Ayurveda
- d) Atharvaveda

4. Qadimgi Hindiston madaniyatida sehrli duolar to'plami qanday monlanadi?

- a) Rigveda
- b) Samaveda
- c) Ayurveda
- d) Atharvaveda

5. Qadimgi Hindiston adabiyotida vedalar ichida eng qadimiysi qanday nomlanadi?

- a) Rigveda
- b) Samaveda
- c) Ayurveda
- d) Atharvaveda

6. Qadimgi Hindiston madaniyatida Rigvedaga ko'ra momaqalldiroq ilohi qanday nomlangan?

- a) Indra
- b) Mitra
- c) Varuna
- d) Yama

7. Qadimgi Hindiston madaniyatida Rigvedaga ko'ra Quyosh tangrisi qanday nomlangan?

- a) Indra
- b) Mitra
- c) Varuna
- d) Yama

8. Qadimgi Hindiston madaniyatida Rigvedaga ko'ra Osmon ma'budi qanday nomlangan?

- a) Indra
- b) Mitra
- c) Varuna
- d) Yama

9. Qadimgi Hindiston madaniyatida Rigvedaga ko‘ra ajal, o‘lim keltiruvchi qanday nomlangan?

- a) Indra
- b) Mitra
- c) Varuna
- d) Yama

10. Qadimgi Hindiston ahli orasida eng oliy kasta qanday nomlangan?

- a) Brahman
- b) Kshatriy
- c) Vayshiy
- d) Shudra

3-MAVZU: QADIMGI GRETSIYADA SIYOSIY MAFKURALAR. ELLINIZM DAVRI MAFKURASI

Reja:

1. Ilk yunon davlatlari, polis-davlatchilik sistemasi mafkuralari.
2. Quldorlik demokratiyasi mafkurasini.
3. Yunonistonda siyosiy mafkuralar rivojida ta’limotlar.

Tayanch tushinchalar: Ilk yunon davlatlari va antik davr siyosiy mafkuralari tarixidagi davriylik; polis-davlatchilik tizimining g‘oyaviy asoslari, quldorlik demokratiyasi mafkurasini; Gomer va Geosiod asarlarida siyosiy masalalar; quldorlik demokratiyasi rivojlangan va inqirozga uchragan davr mafkurasini; Demokritning siyosiy qarashlari; Sofistlar ta’limoti; Siyosiy mafkuralar rivojida Platon va Aristotel ta’limotining ahamiyati.

Gretsiya davlati Bolqon yarim orolining janubiy qismida joylashgan. Qadimgi Gretsiya tarixini besh davrga bo‘lib o‘rganilgan. Bular:

1. Egay yoki krit-miken davri. (mil. av. 3-2 ming-yilliklar) Bu davr urug‘chilik davrining tugashi, ayrim joylarda quldorlik davlatlarining paydo bo‘lishi, doriylarning ko‘chib kelishi bilan tugaydi.

Dorianlar yoki doriylar (qadimgi yunoncha Dēriēs, Dēriess) - axeylar, ioniyaliklar va eoliklar bilan bir qatorda qadimgi yunon qabilalarining asosiylaridan biri boʻlgan. Ular qadimgi yunon tilining Dori lahjasida gaplashishgan, uning yagona zamonaviy avlodi sakon tilidir.

2. Doriylarning bostirib kirishi, ibtidoiy jamoa davrining vaqtinchalik qaytadan boshlanishi. Antik mulkchilik formasi asosida sinfiy munosabatlarni rivojlanish davri (mil. av. 11-9 asr).

3. Arxaik davr (mil. av. 8-6 asrlar). Antik quldorlik jamiyatining barqaror boʻlishi.

4. Klassik davr. (mil. av. 5 – 4 asr) – antik polislarda quldorlik munosabatlarining eng yuqori darajada rivojlanishi.

5. Ellinizm davri (mil. av. 4 asr ikkinchi yarmi – 1 asr oʻrtalari). Eron davlatining greklar tomonidan bosib olinishi. Bu davr ellinizm dunyosining gʻarb tomonidan Rim, sharqdan (Frotga – qadar) Parfiya davlatining bosib olinishi bilan tugallanadi.

Ellinizm davri. Umuman olganda Qadimgi Gretsiya mafkuraviy hayotida bir-biriga oʻrin boʻshatib bergan, doimiy oʻsish va harakatda boʻlgan quyidagi davrlarni koʻrish mumkin.

Jumladan, Qadimgi grek mifologik dunyoqarashi (Gomer, Gesiod) davri,

- asta – sekinlik bilan shakllanayotgan falsafiy yondashuv (Pifagor, Geraklit, Demokrit)lar,
- ratsionalistik sharhlar (sofistlar),
- mantiqiy tushunchalar tahlili (Suqrot, Aflotun),
- ilmiy – empirik va tarixiy – siyosiy fikrlarning bir-biriga oʻrin boʻshatib beradi.

Gomer (“Illiada”, “Odisseya”) va Gesiod (“Teogoniya” va “Mehnat va kunlar”)larning asarlarida mifologik qarashlar asta – sekinlik bilan oʻzining diniy karakterini yoʻqotib, siyosiy – huquqiy va etikaviy sharhlar berish boshlanadi. Xudolar oʻrtasida dunyo uchun boʻlgan kurash ular oʻrtasidagi munosabatlarning

o'zini ifodalab qolmay, odamlar o'rtasidagi munosabatlarda, shuningdek ularni boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Gomer (miloddan avvalgi 8 asr) — qadimgi yunon shoiri-hikoyachisi, ‘Iliada’ (Evropa adabiyotining eng qadimgi yodgorligi) va “Odisseya” dostonlarining afsonaviy ijodkori (6-rasm). Dostonlarda troya urushlari davriga oid voqealar badiiy tasvirlanadi. Uni asosan ko‘zi ojiz rapsodist (klassik Gretsiyada epik she‘rlarning professional ijrochisi) sifatida tasvirlashadi.¹⁰

Topilgan qadimgi yunon adabiy papiruslarining qariyb yarmi Gomer asarlaridan parchalardir.

Troya urushining sanasi munozarali, lekin manbalarda 13-12 asrlar bilan belgilanadi. Miloddan avvalgi miloddan avvalgi 264-yilda tuzilgan Parian marmaridagi xronologik jadvalga ko‘ra, miloddan avvalgi 1218/1217-yillarda boshlangan va shunga mos ravishda miloddan avvalgi 1209/1208-yillarda tugadi.

“Iliada” dostonining qisqacha mazmuni axeylar tomonidan Troyani qamal qilish haqida hikoya qiladi.¹¹

Qahramonlari Agamemnon - Miken shohi, Axilles - yarim xudo, Odissey - Taki podshosi va boshqalar.

“Odisseya” dostonida troyalik Paris Axillesni o‘ldirgach, (uning tovonidan o‘q bilan o‘ldiradi) Axilles Tovoni degan so‘z shundan qolgan. Odissey boshliq greklar bir xiyla ishlatadi. Greklar go‘yoki chekingan kabi orqaga ketib, u yerda ot



qoldiradilar. Troyaliklar greklar engildilar, deb yog‘och otni g‘alaba yodgorligi sifatida saroyga olib keladilar. Agar Illiadada Troya urushi tasvirlansa, “Odisseya”da grek qahramonlarning o‘z vatanlariga qaytishlari va dengiz sarguzashtlari va shu bilan birga oila dramasi ko‘rsatiladi.¹² Odissey 10-yillik Troya

6-rasm

am Ibragimov. Taqdir oldidagi ojizlik. URL: <https://kh-hon/homer-iliada-rustam-ibragimov-taqdir-oldidagi-ojizlik.html> (murojaat sanasi:

Gomer

¹⁰ Гомер. ИЛИАДА. URL: <http://ancientrome.ru/antlitr/t.htm?a=1344000001> (murojaat sanasi: 10.12.2022)


¹² Гомер. Одиссея. URL: <http://www.lib.ru/POEEAST/GOMER/gomer02.txt> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

urushida bo'lgan davrda uning saroyini "Oshiqlar" egallaydi va uning xotini Penelopani, sen endi erga chiq deb, qistay boshlaydilar.

Grek tarixida mil. av. 7-6 asrlar davrini arxaik ya'ni dastlabki davr deb ataydilar. Bu davrda yangidan shakllanayotgan yangi sinfiy jamiyat – quldorlik jamiyatini antiq quldorlik davri deb atashadi.

Endi Gretsiya tarixida polislar, ya'ni shahar davlatlar paydo bo'ldi. Polislarda – boy zodagonlar, dehqonlar bilan shahar atrofida mavjud bo'lgan yer, unummanfaat uchun xizmat qilishgan, qullarni o'z nazorati ostida ushlagan.

Afina Gretsiya tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgandavlat bo'lib qoldi. Afina boshqaruvida qadimdan baseylelar asosiy o'rin egallab kelgan. So'ngra aslzoda



7-rasm

Demokrit

zodagonlar –evpatridlar hukmronligi zadagonlar kengashi tomnidan o'rnatilgan. U baseylelarni asta-sekin hokimiyat boshqaruvidan siqib chiqargan.

Demokrit (taxminan mil. av. 460 — Abderi (Frakiya) — 370] — yunon faylasufi (7-rasm). Atomistik nazariya asoschilaridan biri. Falsafa, mantiq, fizika, matematika, texnika, axloq, musiqa kabi sohalarda asarlar yaratgan.

Bizgacha bularning ayrim parchalari etib kelgan. Uning ta'limotiga ko'ra, tabiat obyektiv ravishda mavjud. Tabiatdagi barcha narsa va hodisalar bo'linmas zarralar — atomlardan tashkil topgan.

Demokrit borliqdagi hamma narsa, jumladan, davlat va huquq ham birinchi tamoyil sifatida atomlardan iborat deb hisoblagan. Atomlarning bo'shliqdagi (yo'qligi) birikmasidan turli hodisalar, narsalar, jumladan, shaxs, jamiyat, davlat paydo bo'ladi. Barcha hodisalarning paydo bo'lishi zarurat bilan sababiy jihatdan belgilanadi. Insonni boshqa odamlar bilan ehtiyoj birlashtiradi.

Demokrit insonni "tabiatan ta'lim olishga qodir, qo'llari, aqli va aqliy moslashuvchanligi bo'lgan mavjudot" deb ta'riflagan.

Jamiyat ham davlat kabi, tabiiy holat ("sof materiyadan") va tabiiy evolyutsiya natijasidir. Demokrit odamlarning hayvoniy holatdan sivilizatsiyalashgan davlatga mustaqil tarixiy taraqqiyoti haqidagi ta'limotni yaratdi. Odamlar hamma narsaga o'z



8-rasm

Suqrot

aqli bilan, ehtiyoj va tabiatga taqlid qilish bilan erishgan. Ehtiyoj odamlarni yig'ilishga, bir-birlariga yordam berishga va o'zaro do'stona yashashga majbur qildi. Bu davlatning paydo bo'lishiga olib keldi.

Davlat, Demokritning fikricha, hammaning baxtli bo'lishi uchun yaratilgan. Baxt boylikda emas, poda va oltinda emas, qullarda va pulda emas. Baxt – insonning ruhiyatida. Bu insonning mohiyati bilan bog'liq: agar hayvon o'zining tana tabiatida asosiy narsaga ega bo'lsa, demak, odamning ruhiy olami bor. Davlatning asosini do'stlik asosida vujudga keladigan odamlar muloqoti tashkil etadi.

Suqrot (mil. av. 469-399 yy.) yunonlar tarixidagina emas, balki insoniyat tarixida o'zining fikrlari bilan alohida o'rin tutadi(8-rasm). U sofistlarni ilk bor keskin tanqid qildi. U sofistlar singari polislar hayotida tabiiy huquq va polis qonunlarini bir-biridan farqlagan. Davlat boshqaruvida qonun asosiy rol' o'ynaydi degan g'oya tarafdori bo'lgan. U o'z davrida Afina davlat tuzumini qat'iy tanqid qilib, hokimiyatni bilimdonlar boshqarishi lozim degan fikrni ilgari surgan. U kim bo'lishi va qanday ishni bajarishidan qat'iy-nazar o'z kasbi bilimdoni bo'lishi kerak, degan fikrda bo'lgan.



9-rasm

Aflotun

“Shohlar va hukmdorlar, deb ta'kidlaydi u, tayoq ko'targanlar emas, zodagonlar tomonidan tanlanganlar emas, qur'a yoki zo'ravonlik, yolg'on bilan hokimiyatga ega bo'lganlar emas, balki boshqarishni biladiganlardir”.¹³ “Bilimlilar boshqarishi kerak” bu talab Suqrotning davlat va huquqning oqilona hamda adolatli tamoyillari haqidagi falsafiy g'oyalarini umumlashtiradi, ularni siyosiy tashkil etishning barcha shakllariga tanqidiy munosabatda bo'ladi.

Aflotun Suqrotning shogirdi. U Platon Akademiyasini tashkil etgan. Bu akademiya mil. av. 387-yildan milodning 529-yiligacha faoliyat

¹³ Plato. Last Days of Socrates. URL: <https://readli.net/last-days-of-socrates/> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

ko'rsatdi.

Aflotun tomonidan yozilgan qator asarlarda uning falsafiy-siyosiy qarashlari, shuningdek jamiyat va davlat boshqaruvidagi fikrlari, qarashlari aks etgan. Aflotunning davlat boshqaruvi haqidagi g'oyasi – yaxshilarning adolatli boshqaruvidir. U aristokratik davlat tuzimini yoqlaydi. Agar davlatni bir kishi boshqarsa, u – podshohlik boshqaruvi, aslzoda bilimdonlar boshqarsa, bu - aristokratlar boshqaruvidir, deydi.¹⁴

Aflotun jamiyatda boshqaruvning turli shakllari bor, deb hisoblagan. U ularni to'g'ri va noto'g'riga ajratdi.

Hukumatning noto'g'ri shakllari:

timokratiya - shuhratparast odamlarning, harbiy rahbarlarning adolatsiz kuchi

(boylikka emas, shon-sharafga intilgan)

oligarxiya - bir necha boylarning adolatsiz boshqaruvi

demokratiya - kambag'al xalqning hukmronligi
(tartibsizlik, tartibsizliklarga olib keladi)

tiraniya - jamiyatda bir kishining adolatsiz hokimiyati

To'g'ri boshqaruv shakli aristokratiya -
donishmandlarning, faylasuflarning adolatli hokimiyatidir.



10-rasm

Arastu

Qadimiy yunon faylasufi Arastu Frakiyaning Stagira shahrida tug'ilgan. Shu tufayli ba'zan Arastuni Stagirit deb ham atashadi(10-rasm).

Arastuning otasi Nikomax Makedoniya hukmdori Amint II ning shaxsiy tabibi bo'lgan. Arastu Makedoniyaning bo'lg'usi hukmdori Filipp bilan bolaligidanoq birga o'ynab katta bo'lgan. U 17 yoshidan 37 yoshigacha (367-347-yillar) faylasuf Aflotunning Akademiyasida tahsil olgan.

Miloddan avvalgi 343-yildan boshlab Arastu Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy)ga murabbiylik qila boshlaydi. Iskandar Maqduniy hukmdorlik taxtiga o'tirgach, o'z ustozini va do'stiga atab haykal barpo etadi. Bu haykalning poyida shunday yozuvlar bor edi: "Iskandar ushbu yodgorlikni Nikomaxning o'g'li,

¹⁴ Plato. The Republic. URL: <https://genius.com/Plato-the-republic-book-8-annotated> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

buyuk donishmand va avliyo Arastu xotirasiga o‘rnatdi”. Arastu (Miloddan avvalgi 384-322-yillar)ning fikricha davlat – tabiiy rivojlanish mahsuli. U siyosatga alohida bir fan sifatida qaraydi. Ilmiy izlanishlar olib boradi. Arastu siyosatni ilmiy ikki tomondan: estetik va axloqiy bilimlar nuqtai - nazaridan qarash lozim deb bilar edi.

Arastu adolatni ikki ko‘rinishda bo‘ladi, deb tushungan va uni quyidagi shaklda izohlashga harakat qilgan. Adolat: tenglashtiruvchi va taqsimlovchi ko‘rinishlarda bo‘ladi. Uning nazarida tenglashtiruvchi adolat matematik adolat bo‘lib, unda hamma kishilar siyosiy huquqiy jihatdan tengdirlar, deyiladi. Unda jazolash va yo‘qotishlarni qoplash tamoyillari amal qiladi.¹⁵

Arastu Aflotunning siyosiy g‘oyalarini rivojlantirishda davom etdi. Arastu fikricha, davlat tabiiy jarayonlar, odamlarning muloqotga tabiiy moyilligi natijasida shakllanadi. Arastu barcha boshqaruv shakllarini ikki guruhga ajratdi:

1. Hokimiyatdagilar tomonidan ko‘zlangan maqsadga ko‘ra: to‘g‘ri (monarxiya, aristokratiya, politiya); noto‘g‘ri (tiraniya, oligarxiya, demokratiya) - hukmdorlar shaxsiy manfaatlarni ko‘zlaydilar.

2. Hokimiyatdagilar soni bo‘yicha: bitta (monarxiya, tiraniya), ozchilik (aristokratiya, oligarxiya) yoki ko‘pchilik (politiya, demokratiya) hukmronligi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ilk yunon davlatlari, polis-davlatchilik tizimi va mafkuralari.
2. Quldorlik demokratiyasi mafkurasi.
3. Gomer asarlarida ilgari surilgan siyosiy mafkuraviy qarashlar.
4. Yunonistonda siyosiy mafkuralar rivojidagi ta’limotlar.
5. Suqrot qarashlarida mafkura masalalari.
6. Aflotunning jamiya va davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi qarashlar.
7. Arastu siyosiy qarashlarida siyosat va axloq.

¹⁵ Aristotle. Politics. URL:

<http://www.perseus.tufts.edu/hopper/text?doc=Perseus:abo:tlg,0086,035:1:1253a> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Gretsiya davlati tarixi nechta davrga bo'lib o'rganiladi?
 - a) 5 davr
 - b) 3 davr
 - c) 2 davr
 - d) 4 davr

2. Gretsiya davlati tarixida Egey yoki krit-miken davri nechanchi asrlarni o'z ichiga oladi?
 - a) mil. av. 3-2 ming-yilliklar
 - b) mil. av. 2-1 ming-yilliklar
 - c) mil. av. 9-5 asrlar
 - d) mil. av. 5-2 asrlar

3. Gretsiya davlati tarixida Ellinizm davri nechanchi asrlarni o'z ichiga oladi?
 - a) mil. av. 8-7 asrlar
 - b) mil. av. 7-5 asrlar
 - c) mil. av. 5-4 asrlar
 - d) mil. av. 4-1 asrlar

4. «Illada» dostonida nima haqida so'z yuritiladi?
 - a) Axeylar tomonidan Troyani qamal qilinishi haqida
 - b) Greklarning turmush tarzi va madaniyati haqida
 - c) Hudolar haqida
 - d) To'g'ri javob yo'q

5. "Odissey" dostonida mina haqida so'z yuritiladi?
 - a) Axeylar tomonidan Troyani qamal qilinishi haqida
 - b) Greklarning turmush tarzi va madaniyati haqida
 - c) Hudolar haqida
 - d) Grek qaxramonlarning o'z vatanlariga qaytishlari va dengiz sarguzashtlari va shu bilan birga oila dramasi ko'rsatiladi

6. Grek tarixida mil. av. 7-6 asrlar davrini deb ataydilar?
 - a) arxaik ya'ni dastlabki davr
 - b) Elliniz
 - c) Egey yoki krit-miken
 - d) Antik davr

7. Gretsiya tarixida qachon polislar, ya'ni shahar davlatlar paydo bo'lgan?

a) mil. av. 7-6 asr

b) mil. av. 9-7 asr

c) mil. av. 7-3 asr

d) mil. av. 2 ming yillikda

8. insonni “tabiatan ta’lim olishga qodir, qo’llari, aqli va aqliy moslashuvchanligi bo’lgan mavjudot” deb ta’riflagan.

a) Demokrit

b) Arastu

c) Suqrot

d) Poperon

9. adolatni ikki ko‘rinishda; tenglashtiruvchi va taqsimlovchi ko‘rinishlarda bo‘ladi deb izohlashga harakat qilgan.

a) Demokrit

b) Arastu

c) Suqrot

d) Poperon

10. Demokratiya so‘zining ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) Xalq hokimiyati

b) Senat boshqaruvi

c) Yakka hokimiyat

d) Umumiy ish.

4-MAVZU: QADIMGI RIM MAFKURASI

Reja:

1. Rim mafkurasi va uning huquqiy manbai.
2. Sitseronning davlat, siyosat va qonunlar to‘g‘risidagi g‘oyalarlari.
3. Rim stoiklarning siyosiy g‘oyalarlari.
4. Rim huquqshunosligining rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: lotin sivilizatsiyasining g'oyaviy-ma'naviy asoslari, uning taraqqiyotida mafkuraviy faktorning roli; Rim huquqi-Qadimgi Rim mafkurasining huquqiy manbai; Patriitsiyalar va pleybeylar, qullar va quldorlar, optimatlar va populyalar, boylar va kambag'allar manfaatlarining mafkuralarda ifodalanishi; aka-uka Graxlar siyosiy g'oyalari; Lukretsiy Kar - quldorlik demokratiyasi ideologi; Sitseronning tsezarizmga munosabati; Rim stoiklari va yuristlarining siyosiy g'oyalari; qadimgi Rim mafkularining insoniyat tarixida to'tgan o'rni va roli.

S. P. Q. R. lotincha "Senatus Populusque Romanus" ("Senat va Rim xalqi") iborasining qisqartmasi bo'lib, u Rim legionlari me'yorlarida tasvirlangan va respublika va imperatorlik davrida ham qo'llanilgan.

Qadimgi Rim tarixini uch davrga bo'lib ko'rib chiqish taomilga aylangan: podshohlik davri (miloddan avvalgi 754-510-yillar), respublika davri (miloddan avvalgi 509-28-yillar), imperatorlik davri (miloddan avvalgi 27-yildan milodning 476-yilgacha). 395-yilga kelib yagona Rim imperiyasi ikkiga bo'lindi: ya'ni poytaxti Rim bo'lgan G'arbiy va poytaxti Konstantinopol bo'lgan Sharqiy Rim imperiyalariga ajralib ketdi. Sharqiy Rim imperiyasi to 1453-yilgacha saqlanib qoldi.

Qadimgi Rim tarixida plebeylarning asl "Rim xalqi" deb hisoblanuvchi, barcha siyosiy va fuqarolik huquqlarini o'z qo'llariga olgan patritseylar bilan teng mavqega erishish uchun olib borgan kurash muhim iz qoldirdi. Bu kurash Rimning oltinchi podshohi Serviy Tulliy islohotlari boshlanishiga olib keldi. Ushbu islohotlar natijasida plebeylar mulkiy (ijtimoiy) ahvoliga qarab besh toifaga bo'linuvchi "Rim xalqi" tarkibiga kiritildi. Islohotlar davlat boshqaruvida boylar ustunligini ta'minladi. Plebeylar xalq yig'inida qatnashish, jamoat mulki va yerdan o'z ulushiga ega bo'lish huquqini oldidar. Lekin plebeylar patritsiylar bilan teng huquqa ega bo'la olmadilar, natijada ular patritsiylarning imtiyozlariga qarshi yana ko'p vaqt kurashishlariga to'g'ri keldi.

Plebeylar yoki plebslar (lotincha plebs, plebejus – “oddiy odamlar”) - Qadimgi Rim aholisi, dastlab patritsiylardan farqli ravishda siyosiy huquqlarga ega bo‘lmagan.

Rim qo‘shni qabilalar va shaharlarni bosib olish natijasida odamlar bilan to‘lib bordi. Dastlab begona aholi turli Rim qabilalariga tegishli edi. Ular qabilaviy asosda tashkil etilgan va uchta etnik komponent: lotinlar, sabinlar va etrusklar birlashishini aks ettirgan. Rim jamoasining to‘laqonli a‘zolari asta-sekin jamiyatning imtiyozli qismiga aylandi. Ular patritsiylar deb atalgan va dastlab faqat ular “Rim xalqi” ni tashkil qilgan.

Patritsiy (lot. patritsius, pater — “ota” so‘zidan) qadimgi Rimda — hukmron tabaqani tashkil etuvchi asl rim oilalariga mansub va o‘z qo‘lida jamoat yerlarini ushlab turgan shaxs; ularning to‘liq qarama-qarshisi plebeylar (lotincha pleblardan – “olomon, oddiy odamlar”).

Patritsiylar dastlab Rim xalqini (lat. Populus Romanus Quiritium) tashkil etgan va plebeylarga qarshi bo‘lgan qabila jamoasi tarkibiga kirgan butun tub mahalliy aholini o‘z ichiga olgan; klandan zodagon patriarxal oilalar ajralgandan keyin faqat bir paytlar ajdodlari qirol senatini tashkil etgan qabila zamindor aristokratiyasi patritsiylarga tegishli bo‘la boshlagan. Qabila aristokratiyasiga mansublik tug‘ma huquq bilan ham, asrab olish yoki mukofotlash orqali ham olinishi mumkin edi. Bu huquq o‘lim yoki huquqlarning cheklanishi tufayli yo‘qolgan.

Plebeylarning ko‘zga ko‘ringan mafkurachilari va g‘oyaviy rahnomalari, aka-uka Tiberiy (miloddan avvalgi 133-yil) va Gay Grakx (miloddan avvalgi 122-yil)lar bo‘lib, ular xalq tribunlari bo‘lib saylangan davrlarda (mil. av. 123-yillarda) ortiqcha yerlarni tortib olish va ularni yersizlarga tarqatish, yo‘llar qurish va oziq-ovqat narxini pasaytirish g‘oyalari bilan chiqishadi. Bu choralarni amalga oshirish borasidagi ularning o‘rinishlari yuqori tabaqalarning qattiq qarshiligiga uchraydi va oqibatda qurolli to‘qnashuvga aylanib ketadi, bu kurashda aka-uka Grakxlar ham halok bo‘lishdi.

Aka-uka Grakxlar ikki mashhur qadimgi Rim islohotchilari(11-rasm):

Tiberius Sempronius Grakx (lat. Tiberius Sempronius Gracchus, (taxminan miloddan avvalgi 163-yil – 133-yil yozi) - qadimgi Rim siyosatchisi, Gay Grakxning katta akasi, xalq tribuni (miloddan avvalgi 134-yil 10-dekabrda vafotigacha lavozimda).



11-rasm

Aka-uka Grakxlar

Gay Sempronius Grakx (lot. Gaius Sempronius Gracchus, miloddan avvalgi 153-121) — qadimgi Rim siyosatchisi, xalq minbari, Tiberiy Grakxning ukasi.

Miloddan avvalgi 123-yilda, Tiberiy Grakx vafotidan 9-yil o'tgach, Gay Grakx tribun etib saylandi. Gay Grakxning eng muhim qonunlari aholining barcha boshqa sinflarini aristokratiyaga qarshi birlashtirishga olib keldi:

Rimda yashovchi kambag'al fuqarolarga nonni arzon sotish to'g'risidagi non qonuni (lex frumentaria);

Tiberiy Grakxning agrar qonuni tufayli paydo bo'lgan kichik yer egalarining munosabatlarini engillashtirish uchun Italiyada yangi yo'llar qurish to'g'risidagi yo'l qonuni (lex viaria);

sud qonuni (lex judiciaria), unga ko'ra, ilgari faqat senatorlar kiritilgan sudyalarning ro'yxatiga senatorlar bilan teng miqdorda otliqlar ham kiritilgan. Bu qonun bilan bog'liq holda Grakxning tribunatdagi do'sti (lex repetundarium) Aksiliy Glabrio qonuni bo'lib, unga ko'ra, viloyat hukmdorlarini suiiste'mol qilish va tovlamachilik ishlarida senatorlar emas, faqat otliqlar sudya bo'lishi mumkin edi;

harbiy qonun (lex militaris) kambag'allar uchun harbiy xizmatdagi qiyinchiliklarni yengillashtirdi: harbiy kiyim-kechak narxi askarning maoshidan ushlab qolinmadi;

Italiyaning janubida yangi qishloq xo'jaligi koloniyalarini (lex de coloniis deducendis) barpo etish taklif qilindi.


Mark Tulliy Sitseron (miloddan avvalgi 106-43-yillar) - mashhur rimlik notiq, huquqshunos, davlat arbobi va mutafakkir bo'lgan(12-rasm). Uning ijodida davlat va huquq muammolariga keng o'rin berilgan. Bu masalalar uning "Davlat

to'g'risida" va "Qonunlar to'g'risida" asarlarida yoritilgan.¹⁶ Bir qator siyosiy-huquqiy masalalar Sitseronning boshqa asarlarida ham (masalan, «Majburiyatlar haqida» asarida) siyosatga va sudga oid nutqlarida ko'rib chiqilgan.

Sitseron: "O'z marhamati bilan podshohlik, — donishmandligi bilan optimatlar, erkinligi bilan xalq bizni o'ziga tortadi",-deb yozadi. TSitseronning fikricha, sanab o'tilgan boshqaruv shakllarining ijobiy jixatlari davlat boshqaruvining aralash (va shu sababli ham eng yaxshi bo'lgan) shaklida jamlanmog'i darkor. "Davlatda,-deya ta'kidlaydi Sitseron,- shohona ig'orlik bo'lishi kerak, bir qismi hokimiyat boshchilik




12-rasm
Mark Tulliy Sitseron



qiluvchi ilgor kishilarga, bir qismi xalq hukmiga topshirilmogi lozim". U yoki bu tomonga og'ishlar ruy bermasligi uchun "magsitratlarda hokimiyat, boshchilik qiluvchilarda ta'sir, xalqda erk etarli bo'lishi uchun majburiyatlar va vakolatlarni teng taqsimlash" zarurligini o'qtiradi Sitseron.

Asosan "Davlat to'g'risida" va "Qonunlar to'g'risida"gi dialoglarda keltirilgan o'zining ideal davlat tuzilmasi konsepsiyasi tezislarni shakllantirib, T.Sitseron masalaning huquqiy tomoniga, ya'ni qonunlarga alohida e'tibor beradi. Dastlab "Qonunlar to'g'risida"gi dialog uning "Davlat to'g'risida" essesiga o'xshash oltita kitobdan iborat edi. Birinchi uchta kitob bizgacha etib keldi, ularda ham ko'plab kamchiliklar mavjud. **Birinchi kitobda** tabiiy huquq, ikkinchisida ilohiy qonun, uchinchi kitobda esa magistratura to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Sitseron qonun va qonunlarni hukumatning eng muhim jihati deb hisoblagan. Antik mutafakkir "qonun" tushunchasiga ta'rif berib, uning ilohiy kelib chiqishini isbotlaydi, dinga oid qonunlarning amal qilishini va bunday qonunlarning Rim xalqi uchun ahamiyatini tushuntiradi, tsenzura, tribuna, tribuna instituti bilan bog'liq huquqiy mexanizmlarni taklif qiladi.

¹⁶ Марк Туллий Цицерон. Диалоги. М., Научно-издательский центр «Ладомир» — «Наука», 1994. Перевод с латинского и комментарии В. О. Горенштейна. URL: <http://ancientrome.ru/antlittr/t.htm?a=1414870001> (murojaat sanasi: 10.12.2022)



13-rasm
Lutsiy Anney Seneka

Ushbu asarlarning mazmuni yunon falsafasining Rim amaliyoti bilan uyg'unligida aks etadi va bu Sitseronning yangicha yondashuvi edi.

“Qonunlar to‘g‘risida” asarining birinchi kitobida Sitseron qonun haqida tabiatga xos bo‘lgan, qilish kerak bo‘lgan narsani qilishga imkon beruvchi va aksini taqiqlovchi oliy aql sifatida yozadi. Muallif qonunning yunon va rim talqinlari o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. Yunonlar qonunga adolat tushunchasini, rimliklar esa adolat bilan birga tanlov tushunchasini kiritadilar. Yunoncha “nomos” nomi “nemo”, ya’ni “bermoq” fe’lidan kelib chiqqan, chunki qonun har kimga o‘ziga tegishli bo‘lgan narsani “beradi”. Lotincha lex nomi legere fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, uning ma’nolaridan biri “tanlash” va Sitseron adolatli va to‘g‘ri boshlanishni tanlashni anglatadi. Yunon nazariyasini o‘z qarashlari bilan “kelishtirib” u bir vaqtning o‘zida ikkalasi ham qonunga, ya’ni adolatga ham, tanlash huquqiga ham xos ekanligini qayd etadi. O‘zidan oldingilarning qonun adolati haqidagi fikrlarini tasdiqlash uchun Sitseron Rim qonunlari bilan bog‘liq holda adolat tushunchasini qayta-qayta eslatib o‘tadi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, Aflotun davlatidagi Trasimaxdan farqli o‘laroq, Sitseron adolatning hukmdor uchun foydaliligi nuqtai nazaridan emas, balki barcha Rim fuqarolari uchun adolatning foydaliligi nuqtai nazaridan yondashadi.

Rim stoiklarining asosiy vakillari Lutsiy Anney Seneka milodiy (3-65 yy.), Epiktet (50-138 yy.) va Mark Avreliy Antonin (121-180 yy.) larning umumnazariy tasavvurlari Qadimgi Yunon stoiklari (Zenon, Xrisipp, Panetiy, Posidoniy va boshq.)ning falsafiy, axloqiy va siyosiy-huquqiy konsepsiyalari ta’sirida bo‘lganlar. Rim stoiklari qarashlari mavjud polis ideologiyalari tanazzulining kuchayib borayotgan va sezarizm rejimining mustahkamlanayotgan sharoitlarda rivojlangan edi.

Seneka barcha kishilarning kelib chiqishidan qat’iy nazar, ma’naviy erkinliklarini yoqlab chiqdi(13-rasm). Uning fikricha, insonning qulligi tanasi va hissiyotida,

aksincha ruhiyati va aqlida emas degan g'oyalarni ilgari suradi, qulning tanasini sotish va sotib olish mumkin, lekin uning erkin ruhini emas.

Seneka ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, barcha odamlarning ma'naviy erkinligi g'oyasini himoya qildi. Qullik obyekti (va sohasi), uning g'oyalariga ko'ra, faqat jismoniy va hissiy bo'lishi mumkin, lekin insonning ma'naviy va aqliy qismi emas.

“Kimki qullik butun shaxsga taalluqlidir, deb o'ylagan kishi, - deb yozgan edi u, - xato qiladi: uning eng yaxshi tomoni qullikdan ozoddir. Faqat tana xo'jayinga tegishli va unga bo'ysunadi, ruhiga esa o'zi xo'jayindir. ”

Kosmopolitizm g'oyalarni rivojlantirar ekan, Seneka olam o'zining tabiiy qonuniga ega bo'lgan tabiiy davlat ekanligini ta'kidladi, uni tan olish zaruriyat va oqillikdir.¹⁷ Tabiat qonuniga ko'ra, hamma odamlar buni tan oladimi yoki yo'qmi, bu koinot davlatning (kosmopolis) a'zolari (fuqarolari)dir. Alohida davlat tuzilmalariga kelsak, ular tasodifiy va butun insoniyat uchun emas, balki faqat cheklangan miqdordagi odamlar uchun ahamiyatlidir. “Biz, - deb yozgan Seneka, - tasavvurimizda ikkita holatni tasavvur qilishimiz kerak: biri - xudolar va odamlarni o'z ichiga oladi; unda bizning nigohimiz yerning u yoki bu burchagi bilan chegaralanmaydi, biz davlatimiz chegaralarini quyosh harakati bilan o'lchaymiz; ikkinchisi esa bizni tasodif bergan narsadir. Bu ikkinchisi Afina yoki Karfagen bo'lishi mumkin yoki boshqa shahar bilan bog'liq bo'lishi mumkin; bu hamma odamlarga taalluqli emas, balki ularning faqat bitta guruhiga tegishli. Bir vaqtning o'zida katta davlatga ham, kichik davlatga ham xizmat qiladigan odamlar bor, faqat katta davlatga xizmat qiladiganlar va faqat kichik davlatga xizmat qiladiganlar bor. ”

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Rim mafkurasining xususiyatlari va uning huquqiy manbai.
2. Sitseronning davlat, siyosat va qonunlar to'g'risidagi g'oyalarlari.
3. Rim stoiklarning qarashlarida kosmopolitizm.
4. Rimda respublika davridagi siyosiy mafkuraviy qarashlar.

¹⁷ Луций Анней Сенека. ДИАЛОГИ. URL: <http://ancientrome.ru/antlit/seneca/index.htm> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Demokratiya soʻzining maʼnosi qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?
 - e) Xalq hokimiyati
 - f) Senat boshqaruvi
 - g) Yakka hokimiyat
 - h) Umumiy ish.
2. Qadimgi Rim tarixida podshohlik davri qaysi davrlarni oʻz ichiga oladi?
 - a) miloddan avvalgi 754-510-yillar
 - b) miloddan avvalgi 509-28-yillar
 - c) miloddan avvalgi 27-yildan milodning 476-yiligacha
 - d) miloddan avvalgi 1 ming-yillik
3. Qadimgi Rim tarixida respublika davri qaysi davrlarni oʻz ichiga oladi?
 - a) miloddan avvalgi 754-510-yillar
 - b) miloddan avvalgi 509-28-yillar
 - c) miloddan avvalgi 27-yildan milodning 476-yiligacha
 - d) miloddan avvalgi 1 ming-yillik
4. Qadimgi Rim tarixida imperatorlik davri qaysi davrlarni oʻz ichiga oladi?
 - a) miloddan avvalgi 754-510-yillar
 - b) miloddan avvalgi 509-28-yillar
 - c) miloddan avvalgi 27-yildan milodning 476-yiligacha
 - d) miloddan avvalgi 1 ming-yillik
5. Patritsiy soʻzining maʼnosi nima?
 - a) hukmron tabaqani tashkil etuvchi asl rim oilalariga mansub va oʻz qoʻlida jamoat yerlarini ushlab turgan shaxs
 - b) Rim qoʻshni qabilalar va davlatlarni bosib olishi natijasida ringa qaram boʻlgan zodagon shaxslar.
 - c) Qullar
 - d) Tinch aholi

6. Rimda yashovchi kambag'al fuqarolarga nonni arzon sotish to'g'risidagi non qonuni qanday nomlangan?
- a) lex viaria
 - b) lex frumentaria
 - c) lex militaris
 - d) lex repetundarium
7. "Davlat to'g'risida" va "qonunlar to'g'risida" asarlarining muallifi kim?
- a) Mark Tullis Sitseron
 - b) Aka-uka Grakxlar
 - c) Lutsiy Anney Seneka
 - d) Aristotel
8. "Davlatda, ig'orlik bo'lishi kerak, bir qismi hokimiyat boshchilik qiluvchi ilgor kishilarga, bir qismi xalq hukmiga topshirilmogi lozim". Yuqorida keltirilgan fikr kimning qalamiga mansub?
- a) Mark Tullis Sitseron
 - b) Aka-uka Grakxlar
 - c) Lutsiy Anney Seneka
 - d) Aristotel
9. barcha kishilarning kelib chiqishidan qat'iy nazar, ma'naviy erkinliklarini yoqlab chiqdi. Uning fikricha, insonning qulligi tanasi va hissiyotida, aksincha ruhiyati va aqlida emas degan g'oyalarni ilgari suradi, qulning tanasini sotish va sotib olish mumkin, lekin uning erkin ruhini emas.
- a) Mark Tullis Sitseron
 - b) Aka-uka Grakxlar
 - c) Lutsiy Anney Seneka
 - d) Aristotel
10. Aka-uka Grakxlar tomonidan ta'sis etilgan harbiy qonun qanday nomlangan?
- a) lex viaria
 - b) lex frumentaria
 - c) lex militaris

d) lex repetundarium

5-MAVZU: XRISTIAN MAFKURASINING VUJUDGA KELISHI

Reja:

1. Xristian ta'limotining paydo bo'lishi asosiy aqidalari va mafkuraviy funksiyalari. Cherkov institutining qaror topishi.
2. Avreliy Avgustinning teokratik ta'limoti va xristian davlati.
3. Xristian dinining yo'nalish va zamonaviy oqimlari.

Tayanch tushunchalar: Xristianchilik genezisi; ilk xristian jamoalari mafkurasi, uning asosiy tamoyili; apostollar faoliyati va cherkov institutining shakllanishi; II asrda xristian mafkurasidagi o'zgarishlar; yeretiklar mafkurasi; Tertullian va Avgustin ta'limotining xristian mafkurasi shakllanishidagi roli; Avgustin teokratiyasi.

Xristianlik (yunoncha "Xristos", - xudo yorlaqagan vakil, haloskor), milodning I asr boshida Falastinda paydo bo'lgan.

Paydo bo'lishi Falastindagi kichkinagina yahudiy qishlog'ida (Vifleem deb ataladi bu qishloq) yashovchi duradgor Iosif va uning xotini Maryamdan dunyoga kelgan Iso nomi bilan bog'liqdir.

Xristianlik ham boshqa dinlar singari kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bosqichida, ijtimoiy hayot sohasida ro'y bergan o'zgarishlarning diniy qarashlar sohasida ifodalanishi sifatida paydo bo'lgan.

Tarixiy dalillar shuni isbotlaydiki, Rim quldorlik imperiyasi emirila boshlagan, feodal munosabatlar endigina shakllanayotgan bir vaqtda xristianlikning dastlabki kurtaklari paydo bo'lgan.

Xristianlik ta'limoti mafkurasi uning muqaddas kitobi "Bibliya"da o'z ifodasini topgan. "Bibliya"-grekcha - kitob demakdir. Uning asosini iudaizm ta'limoti tashkil etadi. Xristianlik paydo bo'lmasdan oldin yaratilgan "Eski Ahd" (Tavrot) va xristianlik bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi qismi "Yangi Ahd" (Injil) Bibliyaning yaratilishiga asos qilib olingan.

Xristian ta'limotining asosiy mafkurasini insonlarni zulmdan ozod qilish haqidagi "haloskorlik" g'oyalari tashkil etadi. Umidsizlik kayfiyatidagi, tushkunlik xolatidagi millionlab qullar xristian dinining haloskorlik g'oyalariga maxliyo bo'ldilar.

Shu ma'noda xristian dini (haloskorlik dini) dastaval qullarning dini sifatida paydo bo'lganligini ta'kidlamoq kerak.

Fransuz tarixchisi Sharl Enshel bunday degan edi: "Spartak mag'lubiyatga uchraganligi tufayli Iso g'alaba qildi".

Iso haqida rivoyatlarning Rim imperiyasidagi tushkunlikka uchragan qullar orasida keng tараqaganligining ayrim sabablari ana shular edi.

Nasroniylar (Xristianlar)ning bunday nomlanishi haqida juda ko'p tortishuvlar fikrlar mavjud bo'lib jumladan Abu Rayhon Beruniy nasroniy nomining kelib chiqishi haqidagi "Iso payg'ambar, Tangri uchun kim menga yordamchi bo'ladi, deganida xavoriylar, biz Tangri uchun yordamchi bo'lamiz, deganlar. Shunga ko'ra, nasroniy so'zi arabcha bo'lib, yordam, ko'mak so'zidan olingan" degan fikrni rad etib, bu so'z Nosiraga, ya'ni, Iso payg'ambar tug'ilgan qishloqqa nisbatdir, deydi.

Lekin manbalarda Iso payg'ambar tug'ilgan qishloqni Nosira emas balki Nazaret deb atalgan. Qolaversa, Qur'onda "Iso payg'ambar, Tangri uchun kim menga yordamchi bo'ladi, deganida xavoriylar, biz Tangri uchun yordamchi bo'lamiz, deganlar" deyiladi.

O'sha davrda jamiyatda yuzaga kelgan hukmron doiralar bilan mazlum xalqlar o'rtasidagi ziddiyatni yumshatishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan xristianlikdagi diniy g'oyalarni xisobga olgan imperator Konstantin 324-yili bu dinni davlat dini deb e'lon qilgan. 325-yilda uning ko'rsatmasi bilan Nikey saborida xristianlarning 1-yig'ini bo'lib o'tgan. Unda episkoplar va ilohiyotchilar xristianlikning asosiy aqidalarini tasdiqlab, cherkov tashkilotini takomillashgan holga keltirganlar.

Xristianlikning muqaddas diniy kitobi – Bibliyaning ikkinchi qismi – "Yangi ahd" bo'lib, u milodning I-II asrlarida yunon tilida yaratilgan.

Bibliyaning xristianlik paydo bo'lmasdan birmuncha oldin yaratilgan 1-qismi "Qadimiy ahd" deb atalib, u yahudiylikning muqaddas kitobi hisoblanadi.

Bibliyaning ikkinchi qismi – “Yangi ahd” deb atalib, u xristianlikning muqaddas kitobi deb hisoblanadi.

“Yangi ahdnoma” 27 kitob (bob)dan tashkil topgan. Uning tarkibiga 4ta “Injil” (Evangilie, ya’ni Xushxabar), havoriylarning (Iso shogirdlari, xristianlikning dastlabki tartibotlari) amallari, 21 risola va Ioanning “Vaqiynomasi” kiritilgan.¹⁸

Ruscha Injil kitobining muqaddimasida quyidagilarni yozadi.

“Injil so‘zi yunon tilidagi ikki so‘zdan tashkil topgan: 1. Yeyu – yaxshi, 2. Angilon – xabarlar ikkala so‘zning tarkibidan Yevangilion – yaxshi xabarlar, xushxabarlar ma’nosi kelib chiqadi. Injil kitobi aslida ibroniy tilda tushirilgan bo‘lsada, mazkur tildagi asosiy nusxasi yo‘q qilingan bo‘lib, hozirda mavjud bo‘lganlari yunon tilidadir. Yunoncha Yevangelie – Xushxabar”, deganidir.

Xristianlik boshqa jahon dinlari kabi mutlaq, abadiy, o‘zgarmas karomatni, bilimni, benixoya qudratning egasi bo‘lgan yakka xudo haqidagi g‘oyani asoslaydi. U uch ko‘rinishdagi yakka xudoni o‘zida mujassamlashtirganlik aqidasi yaratgan. Uch ko‘rinishdagi xudo haqidagi ta’limotga binoan, xudoning ichki hayoti sababi o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lgan uchlikdagi asos yoki «muqaddas uchlik» bo‘lgan – ota-xudo, o‘g‘il-xudo va muqaddas ruhning o‘zaro munosabatidir. O‘g‘il Iso bayon qilingan tarjimai holiga ko‘ra ota-xudodan, muqaddas ruh ham ota-xudodan yaratilgan (provaslav yo‘nalishi ta’limoti), (katolitsizmda esa ota-xudo va o‘g‘il-xudo ham xudodan tug‘ilgan).

Xristianlikda iymon kalimasi “yagona, muqaddas sobor va apostol cherkovi”ga ishonishni, cho‘qintirish zarurligini tan olishni, qiyomatda o‘liklarning tirilishiga, shundan so‘ng savob egalariga mangu rohat-farog‘at ko‘rish, gunohkorlarga doimiy azob-uqubat tortish davri kelishiga ishonishni buyuradi.

Diniy g‘oyalar tarkib topishi bilan bir qatorda xristian ibodat marosimlari ham shakllanib borgan. Xristian marosimchiligining eng muhim elementlari sirli ibodat (tainstvolar) deb yuritiladi. Bular qatoriga cho‘qintirish (suvga sho‘ng‘itib olish), miropomazanie (cho‘qintirilgan kimsaga xushbo‘y katron-miropa surtilgach,

¹⁸ Муқаддас Китоб (Библия на узбекском языке) URL:

https://pravbiblioteka.ru/reader/?bid=523772#TOC_idm139761402137232 (murojaat sanasi: 10.12.2022)

“muqaddas ruh”ning huzur-halovati unga o‘tishi); yevxaristiya yoki prichishenie (non va vinoni Isoning tanasi va qoni deb tasavvur etgan holda iste’mol qilish), tavba qilish (dindorning ruhoniy vositasida xudodan kechirim so‘rashi va o‘z gunohlarini unga aytib berishi), nikoh, ruhoniylikka fотиha berish, soborlashtirish, ya’ni bemorni muqaddaslashtirilgan zaytun moyi – elega bo‘yash kabilar kiradi.

Xristianlikning bosh ibodati liturgiya (obedniya, messa) bo‘lib, u har xil afsungarliklar, muzika chalish, ashula aytish, «muqaddas» yozuvlarni o‘qish, qad bukib ta’zim qilish, sham va chiroqlarni yondirish, xushbo‘y narsalarni chekish bilan qo‘shib olib boriladigan diniy amallardan iborat.

“Muqaddas uchlik”ning har birini, Bibi Maryamni ulug‘lash “xudoga xush kelgan avliyolarga”, xudo yarlaqaganlarga ham sig‘inishni keltirib chiqargan. Xristianlikda butga cho‘qinish ham muhim o‘rinni egallaydi. Unda pasxa (Isoning tirilishi), tariqa (yoki pyatidesyatnitsa), rojdestvo (Isoning tug‘ilishi) va boshqa bayramlarga katta o‘rin berilgan.

Eng birinchi ajralish xristianlikda IV-V asrlarda ro‘y bergan, ya’ni Iso Masihni talqin qilishda farqlanadigan ikkita diniy-aqidaviy yo‘nalishlar – monofizitlar (Isoning ilohiy mohiyatini tan olish) va nestorianlar (diofizit) yuzaga kelgan.

Hozirgi kunda monofizitlikka Yaqin sharqdagi Yakobitchilar, Janubiy Hindiston va Efiopiya xristian aholisining 96 foizi amal qiladi.

Nestorianlar, eng avval, Ossuriylar orasida tarqalgan. Bularning diniy jamoalari hozirda ham Suriyada, Iroqda, Eronda, Hindistonda bor.

1054-yilga kelib xristianlikning pravoslav va katolik cherkoviga bo‘linishi rasman tan olingan. Pravoslav va katolik yerlarida umumiylik ham, bir-biridan farqlanadigan jihatlari ham bor. Katolikdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakatlari vujudga kelgan. Buning doirasida lyuteranlik, anabaptizm, anglikanlik va kalninizm cherkovlari shakllangan.

Har bir cherkovning asosiy marosimlari jihatidan o‘zlariga xos bo‘lgan tomonlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, bular ham o‘z navbatida bir necha yo‘nalishlar, mazhablar va oqimlarga bo‘lindi.

Hozirgi zamon xristianligida turli yoʻnalish va oqimlar orasidagi kelishmovchiliklarning kamaytirilishi bugungi kun uchun xosdir. Bunga 1948-yilda tashkil topgan Jahon cherkovlari kengashining faoliyatlari va ekumenik xristianlar koʻmaklashmoqda.

Katolik – bu xristianlikda eng koʻp tarqalgan yoʻnalishdir. U Yevropa, Osiyo, Afrika Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan boʻlib, tarafdorlari taxminan 800 million kishini tashkil qiladi.

Katolik taʼlimotida jannat va doʻzaxlar oraligʻidagi dunyo, gunohkorlarning ruhi, joni haqidagi, Iso Masihni benihoya hurmatlash, uning tanasi va jonini koʻklarga koʻtarish sohalaridagi diniy aqidalar mavjud.

Katolikda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi; chunki ular uylanmaslik haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va sahnalashtirilgap koʻrinishga ega; diniy oʻqish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslavdagi kabi katolikda ham farishta, ilohiy kuch, chirimaydigam marhum jasadlariga sigʻinish odatlari saqlanib qolgan.

Katolik boshqa yoʻnalishlardan farqli oʻlaroq markazlashgan tizimga ega. Vatikan ana shunday markaz sifatida (maydoni 44 gektar) 1924-yildan boshlab Papa Piy XI ning Mussolini hukumati bilan tuzgan bitimiga muvofiq mustaqil teokratik davlat hisoblanadi.

Xristianlikning Sharqiy tarmogʻi boʻlmish pravoslaviening rivojlanishi jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkovlari: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Bolgar, Kipr, Ellada, Albaniya, Polsha, Chexoslovakiya, Amerika cherkovlari shakllangan.

Pravoslavning Markaziy Osiyo aholisi orasiga kirib kelishi XVI-XIX asrlarga toʻgʻri keladi. Avval savdo-sotiq, keyin bu mintaqaga xalqlarini mustamlakaga aylantirishdan iborat boʻlgan harbiy harakatlar jarayonida u kirib kelgan. 1870-yili Pokrovsk monastiri qoshida missionerlik jamiyati tashkil qilingan. Jamiyat aʼzolari mahalliy millatlarga mansub aholi orasida, garchi jiddiy natijalarga ega boʻlmagan boʻlsa ham, xristianlik bilan bogʻliq katta targʻibot ishlarini olib borganlar. Shu maksadda 1844-yili “Karomat koʻrsatuvchi Nikolayning hayot yoʻli” nomli risolani

qirg'iz tiliga tarjima qildilar va chop etdilar, maxsus diniy maktablar ochildi. 1872-yili Rus pravoslav cherkoviga qarashli Turkiston (keyinchalik Toshkent, O'rta Osiyo) eparxial boshqarmalari ochildi.

Protestantlik – bu ham xristianlikdagi yana bir yo'nalish bo'lib, katolik va pravoslavdan farqli o'laroq, diniy qarashlar jihatidan ham, cherkovlar orasidagi munosabatlar jihatidan ham bir xil bo'lmagan yo'nalishlarni faqatgina kelib chiqishi jihatidan bir-birlari bilan, XVI asrdagi yangilanish harakati bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina diniy jamoalar, cherkovlar, mazhablarni yuzaga keltirilgan.

Protestantlik umumxristianlik asoslari va qarashlarini e'tirof etish bilan bir qatorda, u gunohdan xalos bo'lishning yangi usullarini ilgari surdi. Iso Masihning kishilar gunohini yuvishga qaratilgan o'zini-o'zi qurbon qilishiga ishonch, dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoniylar bo'lishi mumkinligiga ishonch, Bibliyaning oliy nufuziga ishonch orqali xalos bo'lish ana shular jumlasiga kiradi. Shunday qilib protestantlik xudojo'ylikning asosiy talabini dinda odamning tashqi ko'rinishidan ichki hayotiga olib o'tdi va uni ixtiyoriy diniy ishonch bilan bog'ladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qilgan faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho'kintirishlar saqlanib qolgan. O'lganlarga bag'ishlab duo o'qish, aziz-avliyolarga sig'inish, ular sharafiga turli-tuman bayramlar o'tkazish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinishlar bekor qilingan. Ibodat uylari ortiqcha bezaklardan, mehrob, sanam, haykallardan xoli qilingan; monastrlar va monaxlikdan ham voz kechilgan, ruhoniylarning uylanmaslik sharti bekor qilingan. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharxlash har bir xudojo'yning eng muhim burchi bo'lib qoldi.

Lyuteranlik, anabaptizm, anglikanlik, kalvinizm, tsvingchilik protestantlikning ilk shakllari bo'lgan. Keyinchalik «so'ngi protestantlik» umumiy nomi bilan ma'lum bo'lgan bir qancha diniy oqimlar, tashkilotlar paydo bo'lgan.

Markaziy Osiyoda ham protestantlik tarafdorlari uchraydi. Lyuteran jamoalari a'zolari Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikistonning Janubiy tomonlarida, Turkmanistonda, O'zbekistonda, chunonchi Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida yashaydilar. Bular asosan nemis millatiga mansub bo'lgan dindorlardir.

Toshkentdagi lyuteranlarga, diniy toat-ibodatlarini bajarishlari uchun, umumiy diniy ehtiyojlarini qondirish uchun ular ixtiyoriga 30-yillarda qurilgan Kirxa berilgan. Dushanbeda ana shunday diniy maqsad uchun dindorlarning mablag‘lari xisobiga va keng jamoatchilikning, jumladan xorijiy mamlakatdagilarning ishtirokida yangi Kirxa qurilgan. Bu jamoada diniy hayot bilan bog‘liq cho‘qintirish, marhumga janoza o‘qish, balog‘at yoshiga etganlarni dindorlar safiga ko‘shish va nikoh o‘qitish marosimlari o‘tkaziladi. Diniy bayramlar muntazam nishonlanadi, diniy targ‘ibotlar, va’zlar o‘qiladi, diniy muloqotlar tashkil qilinadi.

Markaziy Osiyoda boshqa protestant yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib, ular baptistlar, adventistlar, iegovistlar, pyatidesyatniklar, menonitlar deb ataladi. Bu sektalar hozirgi sharoitdagi tarixan o‘zgarishlar ta’sirini o‘zida muayyan tarzda ifoda etgan diniy jamoalar va guruxlardan iborat. Ular kelib chiqishiga ko‘ra quyidagi vaziyatlarga, eski rus sektantchilik shakllariga, protestantlik harakatiga, pravoslavdagi eskicha marosimchilik va boshqa yo‘nalishlarga, ya’ni 1917-yildan oldingi cherkovlar orasida ziddiyatlar kuchaygan sharoitlarga borib taqaladi.

O‘zbekistonda baptizm XIX asrning oxirlaridan beri mavjud bo‘lib, uning Toshkentdagi jamoalari, shu jumladan, “Yettinchi kun” adventistlari Islohchi-adventist, pyatidesyatniklar, menonchilik, injilchi-xristian baptistlar kengashi, iegova shohidlari kabi protestant jamoalari xam mavjud.

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida nasroniylarni bir necha guruhlariga bo‘linishini yozib, ularni quyidagicha tartiblaydi.¹⁹

1. Malikoiya, ya’ni rumliklardir. Ularning bu nom bilan atalishlarining sababi, Rim podshohi shular mazhabida bo‘lgan va Rimda bulardan boshqa nasroniy guruhi bo‘lmagan.

2. Nasturiya guruhi. Bular Iskandar erasining yetti yuz yigirma nechanchi (Beruniy sanani kitobda shunday mavhum keltirgan)-yilida o‘z e’tiqodini yuzaga chiqargan Nasturisga mansubdirlar.

¹⁹ Абу Рейхан Бируни. Памятники минувших поколений. URL: https://www.vostlit.info/Texts/rus17/Biruni_2/frame-text3.htm (murojaat sanasi: 10.12.2022)

3. Yoqubiya guruhi. Bu uchala guruh nasroniy jamoalarining eng mashhur guruhlaridandir.

Bu guruhlar orasida din asosi – lohutiyat (ilohiylik), nasutiyat (insongarchilik) va ittihoda (shu ikkisining Iso payg‘ambarda mujassamlashishi) masalalarida ixtiloflar bor. Shu ixtiloflar sababli ular bir-biridan ajraladilar.

Bulardan tashqari nasroniylarning arivisiya guruhi ham mavjud bo‘lib, bularning Iso payg‘ambar haqidagi fikrlari musulmonlarnikiga juda yaqindir.

XI asrning oxirida xristianlikniig Sharqqa tomon harakati va tarqalishi ommaviy tus oldi. Bu dinni mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Sharqning ayrim viloyatlariga ilgariroq kirib borganlar. 280-yildayoq Talos (Merke)da xristian cherkovlari qurilgan bo‘lib, Samarqandda (301-yildan), Marvda (334-yildan), Hirotda (430-yildan), Xorazmda, Marida va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida episkoplik, kafedra, missiyalar, keyinchalik Samarqandda, Marvda (430-yillar), Hirotda (558-yillar) 6-12 episkopliqdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo‘lgan. Xurosonliklar va sug‘diyonaliklar buddistlar, zardushtiylar, moniylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo‘lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qaram yerlarda ta’qib qilinganlar.

X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgoxlari bo‘lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1050) Marvda pravoslav mitropoliyasi bo‘lgan.

Ana shu davrlarda xristianlik Kavkazda ham tarqala boshlagan; Armaniston (301-yil) va Gruziyada (318-yili) davlat diniga aylangan. Kavkaz Albaniyasi hududida esa (hozirgi Ozarbayjon va Janubiy Dog‘iston hududi) IV-VIII asrlarda hukmron din hisoblangan.

O‘sha davrdagi ko‘pdan-ko‘p va bir-biriga qarshi kurashayotgan dinlar orasidagi Sharqning hukmronlari tomonidan eng ko‘p homiylik ko‘rsatilgan din xristianlikning sharqiy yo‘nalishi bo‘lmish nestorianlik bo‘lgan. Nestorianlar xristianlikni Turkistonda, amurgacha bo‘lgan Shimoliy va g‘arbiy Xitoyda targ‘ib qilganlar.

Nasroniylik Falastin va O'rta Yer dengizi yahudiylari dinlari ichida vujudga keldi, o'nlab-yillardan keyin esa, boshqa, asosan geografik jihatdan qaralganda Rim imperiyasi bilan bog'liq yoki uning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan xalqlar orasida tarqaldi. Yangi va eng yangi davrlarda u mustamlakachilik siyosati missionerlik natijasida Yevropadan tashqarida ham tarqaldi.

Bir so'z bilan aytganda, islom aqidasi bo'yicha, Iso payg'ambar osmonga ko'tarilganidan so'ng uning sof ilohiy da'vati keng tarqalmasdan qolib ketdi. Chunki, oz sonli iymon keltirganlar ustida uzoq vaqt tazyiqlar bo'ldi. Ularning ko'pi o'ldirib yuborildi. Buning sababi, o'sha davrda hukmron bo'lib turgan podshohlar buddizm e'tiqodida bo'lib, bunga zid bo'lgan dinlarni yo'qotish payida bo'lganlar. Nasroniylar keyinchalik. E'tiqod jihatidan turli guruhlariga bo'linib, ba'zilar "Iso – Xudodir" desa, yana ba'zilar "Iso – Xudoning o'g'lidir", deb e'lon qila boshladilar.

Butparast podshohlar nasroniylarning hammasini birdek, og'ir qiynoqlarga duchor qildilar. Nasroniylikning dastlabki davri bu din vakillari uchun juda qiyn kechdi. Ular o'n marta qatliomga uchradilar.

1. Nero ismli podshoh davrida 64-yilda boshlandi. Xavoriy Pyotr va uning xotini shu davrda o'ldirildi.

2. Domishyan podshohligi davrida bo'lib, bunda xavoriy Yuxanno badarg'a qilindi va Fluis Klimans ismli nasroniy olimi o'ldirildi.

3. Podshoh Tarjon davrida 101-yili boshlanib, 18-yil davom etdi. Bunda Kyurintiya episkopi Sham'un o'ldirildi.

4. Podshoh Markos davrida 161-yili boshlanib, o'n-yil davom etdi va nasroniylarni o'ldirish mashriq va mag'ribda keng tus oldi.

5. Podshoh Svisis davrida 202-yilda boshlandi va Misr, Fransiya, Kartej diyorlarida minglab nasroniy dindorlarini qoni to'kildi.

6. Podshoh Maksim tomonidan 237-yili "agar ilm ahllari yo'q bo'lsa, avom xalqni boshqarish oson bo'ladi", deb minglab ilmli nasroniylarni yo'q qildi. Ular orasida papa Pantonus va papa Ateruslar ham bor edi.

7. Podshoh Detsios 253-yili o'zining barcha hokimlariga nasroniylarni azoblashga buyurdi. Uning zulmi Misr, Afrika, Italiyaning Sharqiy hududlarigacha etib bordi.

8. Valerian podshohligi davrida 257-yilda boshlandi. Buning davrida faqat nasroniy erkaklarga emas, ayollarning ham obro'si toptalib, mol-dunyosi tortib olinib, o'zi esa vatanlaridan xaydab chiqarildi.

9. Podshoh Arelin davrida 274-yilda bo'ldi. Lekin, Arelin ko'p nasroniylarni o'ldirishga imkon topmadi. Chunki, barchasini Valerian qirib bo'lgan edi.

10. Deokletian podshohlikka o'tirgach 302-yili boshlandi. Bu imperator muqaddas kitoblarni yo'q qilishga qattiq harakat qildi. 303-yilda cherkovlarni buzish, kitoblarni yoqish va nasroniylarni ibodat uchun to'planishlariga qarshilik qilishga farmon chiqardi.

Shunday qilib, nasroniylar juda ko'p tazyiqlarga uchradilar. Bu tazyiqlar imperator Konstantin podshoh bo'lib, 325-yilda nasroniy dinini qabul qilgandan keyingina to'xtadi. Imperator Konstantinning nasroniy dinini qabul qilishi, ularning jonlariga tinchlik hadya qilgan bo'lsada, lekin, dinlariga qattiq putur etkazgan edi. Chunki, podshoh nasroniylikni qabul qilish bahonasida, nasroniylarga butparastlikni qabul qildirdi. O'sha davrda nasroniy olimlari tomonidan yozilgan turli e'tiqoddagi yuzdan ortiq injillar yo'q qilinib, Iso payg'ambarni Xudo deb yozilgan to'rtta injilgina saqlanib qoldi

Iso payg'ambar hayotiga doir bir necha kitoblar yozildi va bu kitoblar Injil deyildi. Bulardagi ma'lumotlar esa, bir-biriga mos kelmas edi. Keyinchalik esa, kitoblar ichidan mazmunan biri-biriga ancha yaqin bo'lgan to'rttasi tanlab olindi. Bu to'rt Injil Iso payg'ambar diniga oid Muqaddas din kitobi bo'lishidan ham ko'ra, ko'proq cherkov tarixiga oid edi. Bu Injillar havoriylardan Matto, Yuhanno va ularning talabalari Luka va Markoslar tomonidan yozilgan. Iso payg'ambardan keyin nasroniy dini ham o'zgardi. Unga qadimgi Yunon va Rimliklarning butparastlik g'oyalari qo'shilib ketdi. Hind va qadimgi Misrning "Taslis – uch Tangri" e'tiqodi ham kiritildi.

Injil yahudiylarni Qadimgi ahd kitobidan farq qilishi uchun Yangi ahd deb nomlangan. U ikki qismga bo'linadi.

1. Qonunlashtirilgan (cherkov tomonidan yangi ahd tarkibiga kiritilgan).
2. Qonunlashtirilmagan (ibodat chog'ida qo'llanilmaydigan).

Hozirda mavjud bo'lgan Injil kitoblarida Iso payg'ambar siymosida insonlar uzoq vaqt kutgan va ularga najot yo'lini ko'rsatib bergan messiyaning dunyoga kelishi, o'z diniy qarashlarini targ'ib qilishi, ko'rsatgan mo'jizalari, odam zotining gunohlarini yuvish uchun chekkan uqubatlari, xiyonat tufayli ayblanib, xochga mixlanishi va so'ngra qayta tirilishi haqidagi rivoyatlar keltirilgan.

Shunday rivoyatlarning ayrimlarida Iso payg'ambar inson va masih sifatida talqin qilinsa, boshqalarida inson qiyofasidagi Xudo, tirilgandan so'ng esa, Ota-Xudo xuzuriga qaytib borgan O'g'il-Xudo deb ta'kidlanadi.

Injilda Iso payg'ambarning tarjimai holiga oid voqealar bilan yonma-yon hikmatli so'zlari, masallar bayon etiladi.

Shuningdek, ikki ulug' apostl – Pyotr va Pavelning yahudiylar va majusiylar orasida dinni yoyish maqsadida amalga oshirgan ishlari, ko'rgan mashaqqatlari to'g'risidagi hikoyalar, qadimgi Rimdagi ayrim yirik shaharlarning fuqarolariga



14-rasm
Avreliy Avgustin

diniy jamoalarning peshvolariga yo'llangan maktublari va boshqalar o'rin olgan. Falastin va Ellinlar diyorida Injilning tarqalishi, Rim imperatori Neron zamonida nasroniylarni quvg'inga uchrashi kabi tarixiy voqealar ham o'z aksini topgan.

Avreliy Avgustin milodning 354-yili Tagasta shahri (hozirgi Jazoir davlatidagi Sux-Aras) da tug'ilgan(14-rasm). Avgustin Karfagendagi notqlik maktabida uch-yil tahsil oladi. 375-yildan bu yerda notqlik san'atidan talabalarga dars bera boshlaydi.

384-yilda Italiyaga keladi va Milan shahridagi notqlik maktabida dars beradi. U bu yerda xristianlik ta'limoti bilan tanishadi va bu ta'limotni din sifatida qabul qiladi. 388-yilda Afrikaga qaytadi va ko'p o'tmay Gippone shaxrining episkopi



15-rasm
Foma Akvinskiy

Valeriy homiyligida ruhoniylilikni qabul qiladi. 395-yilda Valeriy vafotidan sung Gippondagi Episkoplik kafedrasida qolib, umrining oxiri - 430-yilgacha shu yerda yashab qoldi.

Avgustinning ijtimoiy – siyosiy qarashlari uning “Iloh shahri haqida” (“O grade Bojyem”)²⁰ va “Erkin iroda” (“O svobodnoy vole”) asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Avgustin “Iloh shahri haqida” asarida jamiyatda odamlar ikki toifa - ikki shahar ahliga bo‘linadi. Biri bu yerda shu Dunyo tashvishlari bilan band odamlar jamoasi, ya’ni shu shaharning asl voqeligining timsoli. Ikkinchisi esa shu voqelik vositasida ko‘kdagi shahar (xudo) irodasiga xizmat qiladi. Ular yerdagi birinchi jamoa vakillari kabi gunohga botgan emas. Uning fikricha, gunohkor shaharda inson insonning ustidan hukmron, ammo bu hukmronlik vaqtincha - Isoning yerga qayta kelishi - qiyomatgacha davom etadi.

“Yaxshi odam qul bo‘lsa ham ozoddir;

Zolim kishi shoh bo‘lsa ham quldir. ” - Avreliy Avgustin

“Adolat yo‘q bo‘lgan joyda, davlat kichik qaroqchilar to‘dasidan boshqa narsa emas. ”

“Adolatsiz davlat nima? Qaroqchilar to‘dasidan boshqa narsa emas. ”

“Har qanday azob <...> yo gunohkorlar uchun jazo yoki solihlar uchun sinovdir”.

Foma Akvinskiy 1225-yillar atrofida tug‘ilgan, Rokkazekka qal’asi, Akino yaqinida — 1274-yil 9 martda vafot etgan, Rim yaqinidagi Fossanuova monastiri, italyan. faylasuf va ilohiyotchi, katolik cherkovi avliyosi, sxolastikani tizimlashtiruvchi, cherkov o‘qituvchisi, doktor Anjeliqus, doktor Universalis, “faylasuflar shahzodasi”, tomizm asoschisi(15-rasm). 1879-yildan boshlab u xristian ta’limotini (xususan, A. Avgustin g‘oyalarini) Arastu falsafasi bilan bog‘lagan eng nufuzli katolik diniy faylasufi sifatida tan olingan.

Xudo borligiga beshta dalil keltirdi.

²⁰ Аврелий Августин. О граде Божьем. URL: https://azbyka.ru/otechnik/Avrelij_Avgustin/o-grade-bozhem/ (murojaat sanasi: 10.12.2022)

Tabiiy borliq va inson aqlining nisbiy mustaqilligini e'tirof etib, tabiat inoyat, aql - e'tiqod, falsafiy bilim va borliq analogiyasiga asoslangan tabiiy ilohiyot - g'ayritabiiy vahiy bilan tugaydi, deb ta'kidladi.

Aristotel donishmandlikning to'rtta ketma-ket bosqichini ajratib ko'rsatdi: tajriba (empeiria), san'at (techne), bilim (episteme) va donolik (sophia).

Foma Akvinskiyda donolik boshqa darajalardan mustaqil bo'lib, Xudo haqidagi eng oliy bilimga aylanadi.²¹ U ilohiy vahiylarga asoslanadi.

Akvinskiy donolikning uchta ierarxik bo'ysunuvchi turini aniqladi, ularning har biri o'ziga xos "haqiqat nuri" bilan ta'minlangan:

inoyatning donoligi;

teologik donishmandlik - imon hikmati, aqldan foydalanish;

metafizik donishmandlik - aqlning hikmati, borliqning mohiyatini anglash.

"Yeretik" grekcha so'z bo'lib, ma'nosi "dindan qaytgan", "shakkok" demakdir). Yeretiklar katolik cherkovi feodal tuzumni mustahkamlashdan mafaatdor cherkov sifatida odamlarni uch toifaga, ya'ni ruhoniylar, feodallar va dehqon, xunarmandlar toifasiga bo'lish g'oyasiga qarshi, o'zlarining ijtimoiy tenglik g'oyasini ilgari surdilar. Yeretiklar katolik cherkovi feodal tuzumni mustahkamlashdan manfaatdor ekanligini anglab etdilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xristian dini ta'limotining paydo bo'lishi
2. Xristian dini asosiy aqidalari va mafkuraviy funksiyalari.
3. Cherkov institutining qaror topishi.
4. Avreliy Avgustinning teokratik ta'limoti va xristian davlati.
5. Xristian dinining yo'nalish va zamonaviy oqimlari.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Xristianlik so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
a) yunoncha "Xristos", - xudo yorlaqagan vakil, haloskor

²¹ Фома Аквинский. Сумма теологии. URL: <https://azbyka.ru/otechnik/konfessii/summa-teologii-tom-1/> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

- b) lotincha “Xristos”, - xudo yorlaqagan vakil, haloskor
 - c) yunoncha “Xristos”, xudolar kalomi
 - d) yunoncha “Xristos”, - poklik, yaxshilik qoidalari
2. Xristianlik qachon paydo bo‘lgan?
- a) Miloddan avvalgi I asrda
 - b) Miloddan avvalgi II asrda
 - c) Milodiy I asrda
 - d) Milodiy II asrda
3. Bibliya so‘zining ma’nosi nima?
- a) Grekcha-kitob
 - b) Grekcha – qonun, qoidalar
 - c) Lotincha – muqaddsan bitiklar
 - d) To‘g‘ri javob keltirilmagan
4. Xristian ta’limotining asosiy mafkurasi qanday?
- a) Ezgu ishlarni jamiyat ichida ommalashtirish
 - b) Insonlarni zulmdan ozod qilish haqidagi “haloskorlik” g‘oyalari tashkil etish.
 - c) Qullikni qoralash
 - d) Odil hukumatni shakllantirish
5. Xristianlikning muqaddas diniy kitobi – Bibliyaning ikkinchi qismi qanday nomlangan?
- a) Yangi ahd
 - b) Qadimiy ahd
 - c) Yangi ahdnoma
 - d) Injil
6. Bibliyaning xristianlik paydo bo‘lmasdan birmuncha oldin yaratilgan 1-qismi qanday nomlangan?
- a) Yangi ahd
 - b) Qadimiy ahd
 - c) Yangi ahdnoma
 - d) Injil

7. Xristianlikning bosh ibodati bo'lib, u har xil afsungarliklar, muzika chalish, ashula aytish, «muqaddas» yozuvlarni o'qish, qad bukib ta'zim qilish, sham va chiroqlarni yondirish, xushbo'y narsalarni chekish bilan qo'shib olib boriladigan diniy amallardan iborat.

a) Liturgiya

b) Diofizit

c) Pasxa

d) Tariqa

8. Xristianlik dinida ilk bo'linish qachon sodir bo'lgan?

a) Milodiy IV-V asr

b) Milodiy I-II asr

c) Milodiy III-IV asr

d) Milodiy V-X asr

9. Xristianlik dini qachon katolik va pravoslav cherkovlariga bo'lingan?

a) 1054 -yilda

b) 1057-yilda

c) 1034-yilda

d) 1111-yilda

10. Xristianlik dinining eng ko'p tarqalgan yo'nalishi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) Katolik

b) Pravoslav

c) Protestant

d) Monofizit

6-MAVZU: YAQIN VA O'RTA SHARQ MAMLAKATLARIDA SIYOSIY MAFKURALAR

Reja:

1. Yaqin Sharqda yahudiylik dini va feodalizm mafkurasining shakllanishi.
2. Zardushtiylik dini va ta'limotining mafkuraviy jihatlar.
3. Moniylik ta'limoti. Mazdakiylar mafkurasi.

Tayanch tushunchalar: Eronda zardushtiylikning hukmron mafkuraga aylanishi; moniy ta'limotining ijtimoiy mohiyati; mazdakiylar mafkurasi; Vizantiyada xristian dinining hukmron mafkuraga aylanishi; imperiya doktrinas, vizantizm xususiyatlari; feodalizm mafkuralari; yeretiklar mafkurasi.

Yaqin Sharq mamlakatlariinng dastlabki mafkuralarini diniy – mifologik qarashlar tashkil etgan. Diniy – mifologik qarashlar mohiyatini olam va borlikni ko'p xudolar boshqarishiga asoslangan g'oyalar tashkil etgan.

Yahudiylik – Yahudiylik dini yahudiylar o'rtasida tarqalgan eng qadimiy dinlardan biridir. Miloddan avvalgi birinchi ming-yillik boshlarida Quddus (Falastin)da Muso payg'ambar faoliyati bilan vujudga kelgan. Arabiston yarim orolining shimolida ko'chib yurgan yahudiy qabilalari miloddan avvalgi XIII asrda Falastini bosib oldilar va miloddan avvalgi X asrda Isroil-Yahudiya davlatini tuzdilar. Yahudiylik dini ana shu qabilalarning diniy urf-odatlar va Falastin xalqining ayrim e'tiqodlarini o'zida mujassamlashtirgan.

Fanda yahudiylik taraqqiyotining to'rt bosqichi aniqlangan.

1. Eng qadimiy yahudiylik (Bibliya davri);
2. Klassik yahudiylik (miloddan avvalgi 536, milodiy 70-yillar);
3. Ravvinlar davri;
4. Yangi davr yahudiyligi (Modernistik yahudiylik).

Yahudiylik ta'limotining shakllanish jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- mil. av. 621-yilda Yahudiy podshosi Iosiy o'tkazgan diniy islohot.

- mil. av. 558-yilda Bobil podsholigining Ierusalimni bosib olishi va Ierusalim ibodatxonasini vayron qilinishi hamda yahudiylarni Bobilga asir qilib olib ketilishi.

- mil. av. 538-yilda Bobildagi asirlarning Eron tamonidan ozod etilishi va o'z vatanlariga qaytarilishi.

Fanda yahudiylikning to'rt bosqichi aniqlangan.

1. Eng qadimiy yahudiylik (Bibliya davri);
2. Klassik yahudiylik (miloddan avvalgi 536, milodiy 70-yillar);
3. Ravvinlar davri;
4. Yangi davr yahudiyliigi (Modernistik yahudiylik).

Dovudning olti qirrali yulduzi - yulduzga o'xshash qadimgi belgi. Ikki to'g'ri burchakli uchburchaklar bir rining ustida turganday ko'rinishga ega. Bu belgi juda ko'p nomlarga ega. Turli manbalarda u Magendovid, Sulaymon yulduzi va Sulaymon muhri deb ataladi. Bundan tashqari, u Dovudning qalqoni va hatto Yaratganning yulduzi deb atalgan. Bundan tashqari, belgi «geksagramma» umumiy nomi ostida ma'lum.

Eng qadimiy yahudiylik dastlab Falastindagi ikki davlat – Isroil va Yahudiya davlatlari (miloddan avvalgi XI-X asrlar)ning keyinroq ular birlashgach, yagona Yahudiy davlatining dini bo'lgan. Bu davr Tavrot (Tora)da aks etgan.

Bundan keyin yahudiylikning klassik davri boshlandi. Miloddan avvalgi 586-yili yangi bobil podshosi Navuxodonasor II Yahudiya davlatini yakson qildi. Salkam 30 ming yahudiyni asir oldi. 50 yil davom etgan “Bobil asirligi” va undan keyingi davrlarda minglab yahudiylar Falastinni tark etdilar. “Qadimgi ahd” matnlarining asosiy qismi ana shu davrda yozilgan.

Milodiy 70-yili Quddus ibodatxonasining qulashi va Talmudning yozilishi orasidagi vaqt ravvinlar davridir. Yahudiy ruxoniylari Tavrotni talqin va tavsif qilish jarayonida vujudga kelgan. Talmudning oxirgi tahriri ikki variantda Quddus talmudi IV asrda va Bobil Talmudi V asrda e'lon qilingan.

VII-XVII asrlarda yahudiy ruxoniylari (ravvinlar) diniy yozuvlar – Tavrot va Talmudni targ'ib qilishni davom ettirdilar. Bu davrni aks ettirgan juda ko'plab ravvin adabiyotlari vujudga kelgan.

XVIII asrdan keyin esa, diniy talablarni davrga moslashtirish, soddalashtirish va engillashtirish harakatlari avj oldi. Hozirda, yahudiylikka e'tiqod qiluvchilar soni 18 millionga yaqin. Ularning uchdan bir qismi AQShda joylashgan

Hozirgi Falastin hududida qadimgi zamonlarda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan ko'chmanchi yahudiy qabilalari yashagan. Bu qabilalarda din sifatida animizm, magiya, fetishizm, sehrgarlik va turli o'simlik hamda hayvonlarga sig'inish hukmronlik qilgan. Yahudiy qabilalari o'zlarini muayyan hayvonlarning nomlari bilan ataganlar. yahudiylikning «muqaddas» kitoblar to'plamida hayvonlarni va o'simliklarni, tabiatdagi dahshatli, stixiyali kuchlarni, arvoxlarni va boshqalarni e'zozlash izlari bor.

Ruhoniylar yahudiylikning obro'sini ko'tarish maqsadida yahudiylar "mumtoz xalq", unga dinni xudoning o'zi ato etgan, degan fikrni ilgari surardilar; hozir ham qisman shunday. Buning isboti sifatida ular asrlar davomida jamiyatda sodir bo'lgan ulkan ijtimoiy o'zgarishlar yahudiylik ta'limotiga hech qanday ta'sir ko'rsatmadi, u yagona milliy dinligacha qoldi, shuning uchun uning ijtimoiy va gnoseologik ildizlari ham yo'q, deb jar solmoqdalar. Aslida esa yahudiy xalqining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga muvofiq yahudiylik, boshqa dinlar kabi, shakl va mazmunini bir necha bor o'zgartirgan.

Yahudiylik politeizmdan monoteizmga o'tguncha bir qancha tarixiy jarayonni boshdan kechirgan. Bu jarayon ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik jamiyatiga o'tguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mana shu tarixiy davrda yahudiy qabilalari ko'p xudolarga e'tiqod qilganlar. Har bir qabilaning, har bir urug', hatto shaharning o'z xudosi bo'lgan; moddiy olam hodisalarining har bir guruhi alohida xudoning nomi bilan bog'langan. "Sening shaharlaring qancha bo'lsa, xudolarning shahri ham shunchadir", deyiladi Tavrot yozuvlarida. yahudiylikda mahalliy avliyolar xisoblanmish Iso (Iisus), Navin, Ibrohim (Avraam), Ishoq (Isaak) Yoqub (Iakov), Yusuf (Iosif) va boshqalar. Bular islom dinida ham payg'ambar deb tan olingan.

Miloddan avvalgi X asrda yahudiylar yahudiy qabilalari o'rtasida sinfiy tabaqlanish ro'y berishi va quldorlik munosabatlarining vujudga kelishi jarayonida mavjud qabilaviy dinlar asosida shakllangan.

Ammo tarixiy fenomen sifatida yahudiylarning rivojlanishi qabilalar o'rtasidagi munosabatlar taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq edi. Chunki qabilaviy xudolar evolyutsiyasi natijasida yagona xudo yuzaga kela boshlagan edi.

Menora ibroniy tilidan bu so'z "chiroq" deb tarjima qilingan va qadim zamonlarda zaytun moyi idishlarga quyilgan va keyinroq shamlar qo'yilgan. Menora shamdonining asosiy xususiyati 7 ta shoxdir. Tavrotga (Injil) ko'ra, menora g'oyasi yahudiylarning yo'l boshchisi Musoga Sinay tog'iga yurish paytida Qodir Tangrining o'zi tomonidan taklif qilingan.

Hanukiya boshqacha turdagi chiroq bo'lib, Hanukka bayramining muhim atributidir. Hanukka balog'atga etmaganga juda o'xshaydi, lekin 7 o'rniga 9 shoxga ega. Agar menora faqat kundalik aksessuar sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lsa va har kuni yoqilsa, Xanukka bayramona yahudiy chirog'idir. Menoradan farqli o'laroq, Xanukka yahudiylarning Xanukka bayramida - yunonlarga qarshi qo'zg'olon paytida mo'jizaviy g'alabasining sakkiz kunlik bayramida qat'iy ravishda yoqiladi.

Quldorlik davlatining barpo etilishi va rivojlanishi yahudiy qabilalarini yaqinlashish va birlashishga olib kelgan. Yahudiy davlati vujudga kelishi bilan yahudiy qabilalari o'zlarini yerda hukmdor deyish bilan cheklanmasdan, yagona xudoni ham osmon hukmdori sifatida ham tasvirlay boshlaganlar.

Shu tariqa Yaxvedan boshqa xudolarga e'tiqod qilishga barham berilgan. Ilgarigi qabila xudolaridan biri bo'lgan Yaxve yakka deb e'tirof etilgan.

Quddus (Ierusalim) shahrida markaziy ibodatxona qurilgan va yahudiy milliy-davlat dini vujudga kelgan. Yahudiylar monoteizm sinfiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq ravishda yuzaga kelganligi uchun jamiyat hayotidagi tengsizlikni oqlagan.

Bu din ta'limotiga ko'ra, Yaxve olamlarni yaratishni yakshanbadan boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni

buyurdi. Shuning uchun yahudiylilik diniga ko‘ra, shanba kuni ulug‘ kun hisoblanib, xech qanday mehnatga qo‘l urilmaydi.

Bu din asoschisi Muso payg‘ambar Tur tog‘ida Yaxve bilan gaplashganda unga lavhani tushirdi. Ularda ushbu din asosini tashkil qilgan 10 ta nasihat bor edi. Ular quyidagilardir:

- Yaxvedan boshqani iloh deb bilmaslik.
- But, sanam va rasmlarga sig‘inmaslik.
- Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik.
- Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag‘ishlash
- Ota-onani hurmat qilish.
- Odam o‘ldirmaslik.
- Zino qilmaslik.
- O‘g‘irlik qilmaslik.
- Yolg‘on guvohlik bermaslik.
- Yaqinlarini narsalariga ko‘z olaytirmaslik.

Shunday qilib, yahudiylilikning rivojlanishi va bu din ta’limotining vujudga kelishi uzoq davrlarni o‘z ichiga olgan. Shulardan dastlabkisi Bibliya davri, deyiladi. Bibliya matnlari bir necha yuz-yillar davomida yuzaga kelgan. U ikki qismdan – Qadimiy ahdnoma (Vetxiy zavet) va Yangi ahdnoma (Noviy zavet)dan iborat. Yahudiylilik ruhoniylari Yangi ahdnoma tannax deb ataydilar. Yahudiylilik tarafdorlarining fikricha, tannaxni xudo – Yaxve “muqaddas yozuvlar” sifatida yahudiylarga yuborgan. Aslida esa Yangi ahdning mualliflari uni yozishda qadimgi Sharq xalqlarining turli diniy e’tiqod va tasavvurlari, tarixiy hikoyalar va afsonalar, mif va diniy-falsafiy qarashlar, muhabbat qissalari va boshqa shunga o‘xshash manbalardan foydalanganlar.

Yahudiy diniy yozuvlari asosan ikki qismdan: Tavrot va Talmuddan iborat. Yahudiy dinida muqaddas hisoblangan Tavrot miloddan ilgarigi ming-yillik ichida shakllangan beshta kitobdan iborat. Tavrotni sharhlash natijasida avvalo Mishna, so‘ng Gemara paydo bo‘lgan. Ularni qo‘shishdan vujudga kelgan risolalar to‘plami

Talmud deb atalgan. U yahudiy jamoalarida diniy urf-odat, marosim me'yorlari, ijozatlar, ta'qiqlar, fuqarolik munosabatlari, oilaviy hayot va boshqalarga oid ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan.

Yahudiy dinidagi asosiy aqida yakka xudo – Yaxvega e'tiqod qilishdir. Diniy akidalardan birida zamona oxir bo'lgach, Yaxve o'z elchisi oxir zamon payg'ambari (Messiya)ni yuborib, "mumtoz xalq"ni dunyoga hukmron qiladi. yahudiylikda oxir zamon payg'ambari g'oyalariga keng o'rin berilgan. Muso xudoning amrini yerga etkazib turuvchi payg'ambar tariqasidagina emas, balki insonlarni yovuzlikdan, gunohdan saqlash maqsadida xudo yerga yuborgan vakil sifatida ham tasvirlangan.

Yahudiylar tarixi davomida uning bir qancha mazhab va yo'naliishlari paydo bo'lgan. yahudiylarlikda XX asrda vujudga kelib, faoliyatini hozirgacha davom ettirayotgan islohotchilar dinni zamonaviylashtirishga intilishlar sodir bo'lmoqda. Turli tangliklar yahudiylarlikni o'z sistemasiga ba'zi tuzatishlar kiritishga majbur etmoqda.

Yahudiylarlikning asosiy aqidalari orasidagi eng muhimlari – monoteizm – yagona xudo bo'lmish Yaxvega e'tiqod; xaloskorlik – xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor oxir zamon payg'ambariga ishonch; bu xaloskor dunyoni qayta qurar va butun yahudiylarni falastindan Sinion (Quddus yaqinidagi tepalik) atrofiga to'plashi va ularning dushmanlarini jazolashi, narigi dunyoga ishonch, oxiratda har kimning o'z qilmishiga yarasha ajrini topishi, jannat va do'zaxlarning mavjudligiga, dunyoning oxiri borligiga, muqaddas kitoblarning benuqsonligi kabilarga ishonishdir.

Ilohiyotchilar fikriga binoan, Bibliyaning birinchi besh kitobi bo'lmish Tavrot²² (aynan tarjimasi qonun, Musoning besh kitobi) yahudiylarga etkazish uchun Muso payg'ambarga xudo Yaxvening shaxsan o'zi Sion tepaligida bergan. Bibliyaning boshqa qismlari esa (Qadimgi ahdga taalluqlisi) xudoning bevosita pand-nasihatlar ta'siri natijasida yahudiylarning boshqa turli payg'ambarlariga

²² Тора на русском. URL: <https://nev-tanah.info/tora/> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

yuborilgan deb tushuniladi. Shunday qilib Bibliyani shakllanishi uzoq davrni o'z ichiga oladi.

Odatda yahudiylilik shartli ravishda ikki davrga bo'linadi. Birinchisi, qadimiy (quldorlik davri bo'lib, u milodning II asrigacha bo'lgan bu davrda Bibliyaning qadimiy ahd qismi yuzaga kelgan. Ikkinchisi, XIX asrgacha davom etgan O'rta asr feodal, ravvin, talmud, an'anaviy davrlarga bo'linadi. Shu davrlarda diasporalarda (yunoncha tarqok, falastindan tashqaridagi yahudiy maskanlarining nomi) Tavrotni talqin etish natijasida yahudiylilikning yangi bir muqaddas kitobi Talmud (qadimgi yahudiy tilida o'rganish) shakllangan. Unda yahudiylilikning aqida va marosimlari batafsil yoritilgan.

Hozirgi zamon yahudiyligida isloh qilingan yahudiylilik bilan bir qatorda ortodoksal (sof) fundamental yahudiylilik ham mavjuddir. Ortodoksal yahudiylilik Isroilda alohida mavqe'ga ega bo'lib, rasmiy davlat dini hisoblanadi. Bunga XX asrda vujudga kelgan muxofazakor yo'nalishdagi yahudiylilik, uning mafkurachilari yahudiylilik va sionizm ittifoqining tarafdorlaridir.

O'tgan asrning 20-30-yillarida g'arbda rekonstruktsionizm deb nom olgan, go'yoki shaxsiy milliy mansubligini belgilaydigan yahudiylilik "yahudiylar revolyutsiyasidir" deb e'lon qilgan yangi yo'nalishlar ham kiradi.

Markaziy Osiyoda yashayotgan yahudiy dindorlari orasida asosan ortodoksal shakldagi yahudiylilik mavjud va ular shartli ravishda etnik ko'rinishlar tartibiga muvofiq to'rt xil; evropalik, buxoro, gruzin, tog'li yoki tat yahudiylariga bo'linadi.

Yahudiylilik oqimlari haqida gapirganda ularni keng tarqalgan oqimlariga Sadduqiylar, Farziylar, Esseylar, Massonizm va Sionizmlar kiradi.

Sadduqiy nomi podshoh Dovud payg'ambar davrida yashagan ruhoniyy Sadduq nomi bilan bog'liq. Ko'plab mansabdor ruhoniylar sadduqiy bo'lganlar. Ular diniy ishlarda faqat Muso payg'ambarning besh kitobini tan olganlar. Qonunda ruhoniylar, qurbonliklar, ibodatlar haqida so'z boradi. Lekin, oxirat va qiyomat haqida hech narsa deyilmagan. Shuning uchun sadduqiylar qiyomatda o'lganlarni qayta tirilishiga ishonmaganlar.

Farziy nomi qadimiy yahudiy tilidagi “tushuntirish”, “ajratib ko‘rsatish” so‘zidan olingan bo‘lib, ular Muso payg‘ambarning qonunini sharhlaganlar va oddiy odamlarga o‘rgatganlar. Farziylar Musoning zamonidan beri og‘zaki an‘ana davom etib kelyapti deb hisoblaydilar. Ular har bir avlod o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun qonunni sharhlay oladi deb bilganlar.

Esseylar. Quddusdagi ko‘pgina ruhoniylar Xudo ulardan talab qilganidek yashamas edilar. Undan tashqari rimliklar ba‘zi diniy mansablarga Muso payg‘ambarning qonuniga muvofiq munosib bo‘lmagan shaxslarni tayinlagan edilar. Buni ko‘rgan bir guruh ruhoniylar Quddusda ibodat qilish va qurbonlik qilish qonunga to‘g‘ri kelmay qoldi, deb hisobladilar. Ular Quddusni tashlab, yahudiy sahrolariga chiqib ketdilar va o‘sha yerda o‘z jamoalarini tashkil qildilar. Ularni esseylar deb atashdi. Esseylar Xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor – Messiya – oxir zamon payg‘ambari kelishi va Quddusni tozalashini kutib, ibodat qilib yashar edilar.

Massonizmning ma‘nosi “ozod qiluvchilar” bo‘lib, yahudiylikdagi yashirin tashkilotdir. U milodiy 44-yili Rim imperatorlaridan Irod Akriba tomonidan o‘zining ikki yahudiy maslahatchisi rais o‘rinbosari Abyud va birinchi sekretar Muob Lomiy yordamida tashkil etilgan. Bu oqimning maqsadi – dunyoda yahudiylar hukmronligini o‘rnatishga erishish. U tashkil topgan davrda “maxfiy qudrat” deb atalar edi. Keyinchalik massonizm deb ataldi.

Sionizm oqimi. Sionizm nomi Quddusdagi Sion tog‘i bilan bog‘liq. Bu oqim avstraliyalik yahudiy jurnalist T. Gerltsning “Yahudiylar davlati” risolasi asosida tuzilgan. Bu oqimning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi – yahudiylar o‘zlari yashab turgan turli o‘lkalardan chiqib, Falastinda “milliy birlashish”ga erishish. Sionizm “Jahon yahudiy millati”, “oliy millat” kabi g‘oyalarni ilgari suradi. O‘z g‘oyasiga ko‘ra, sionizm siyosiy oqim bo‘lib, maqsadiga erishish yo‘lida yahudiy dinidan foydalanadi.

Yahudiylar o‘zlarini Yaxvega nisbatan sodiq ekanliklarini isbotlash uchun bir necha rasm-rusumlarni ijro etadilar. Ular-yillik va kunlik ibodatlardan, bayramlardan iborat. Ibodatlar uyda ham, sinagogada ham birday olib boriladi.

Yahudiylar sinagogasining sharqiy tomonida Tavrotning nusxalari saqlanadigan sandiq va Ravvin uchun minbar qo'yilgan. Ayollar erkaklardan alohida holda ibodat qilishadi. Sinagoga ibodat xor shaklida olib boriladi.

Yangi tug'ilgan o'g'il bolalar sakkizinchi kuni xatna qilinadi. Yahudiylarda bir necha tur oziq-ovqatlar, asosan cho'chqa, quyon, qo'shoyoq, tuya, yaxlit tuyoqlilar, o'laksaxo'r qushlar kabi ba'zi xayvon go'shtlarini eyish ta'qiqlanadi.

Ma'lumki, yahudiylar Markaziy Osiyoga qadim zamonlardan ko'chib kela boshlaganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli rivoyatlar ham mavjud. Ularning ichida umume'tirof etilganlaridan biri shuki, yahudiylar bu mintaqaga Eron orqali kirib kelganlar. Bu millatning Markaziy Osiyo mamlakatlari hududiga ko'chib kelishi ko'p asrlar mobaynida davom etgan. Tahminlarga ko'ra, ular Assuriya quvg'inlari paytida – miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Xatto miloddan avvalgi VIII asrlarda ba'zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o'lkalarda boshpana topganliklari haqida ham ma'lumotlar bor. Fors davlati ma'lum muddat Markaziy Osiyoni o'z hukmlari ostida tutib turganlar va xuddi shu davrda yahudiylarning ko'chib kelishi amalga oshgan. Bu fikrni mahalliy yahudiylarning fors lahjalaridan birida gaplashishlari ham quvvatlaydi. Ularning hayot tarzlari, urf-odatlar qadimiy yahudiy, fors va mahalliy – Markaziy Osiyo madaniyatlarining qorishmasidan iborat.

Tarixning turli jarayonlarida bu uch madaniyatdan ba'zilarining ta'siri kuchayishi yoki aksincha susayishi kuzatilgan. XVIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketishiga olib keldi. Yahudiylar millat dini bo'lganligi uchun yahudiylar qayerda bo'lmasin, biri ikkinchisidan qancha uzoq bo'lmasin, o'qiydigan kitobi Tavrot e'tiqod qiladigan dini yagona bo'lib qolaverdi.

Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko'rganlar. Garchi Markaziy Osiyolik yahudiylarni Buxoro yahudiylari deyilsa ham, ular ko'proq Samarqandda yashaganlar. XVIII asrning o'rtalarida Nodirshoh Samarqandni bosib olganida uning lashkarlari orasida turklar, lazginlar, afg'onlar, eroniylar, shuningdek, yahudiylar bo'lgan. Ular Samarqandning Shoh Kash, Chor

Raga, Novadon, Qo'shhovuz kabi guzarlarda yashab qolganlar. Buxoro hukumati Nodirshoh davrida yahudiylarga nisbatan yumshoq muomalada bo'lgan.

Son jihatdan ko'paygan yahudiylar barchalari bir mavzega jam bo'lib yashashni hoxlashardi. Biroq, Buxoroda ham, uning Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana kabi viloyatlarida ham yahudiylarni musulmonlardan ajralgan holda alohida yashashga majbur edilar. 1843-yilning bahorida mahalliy yahudiylarga Samarqandning sharqiy qismidan 2. 5 gektar joyni 10 000 kumush tangaga sotish haqidagi shartnoma tuzildi. Bu shartnomani yahudiylardan 32 kishi imzoladi, davlat uni haqiqiyligini to'rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib yahudiylar O'zbekistonda birinchi mahallalariga ega bo'ldilar.

Mil. av. 8 – 7 asrlarda Katta Xorazmda shakllangan Zardushtiylik ta'limoti Eronda takomillashgan. Bu yerda turli xudolarga e'tikod qiluvchi qabilalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni yo'qotib, Ashokiylar davrida mamlakatning davlat mafkurasiga aylangan. Ta'limotning asosiy mazmun-mohiyatini garchi dunyo, borliq haqidagi falsafiy g'oyalar tashkil etsa-da, jamiyat taraqqiyoti, odamlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy g'oyalar ham mujassam.

Aslida "Zardusht" so'zi (zoroastr) zaratxustraning nisbatan yunoncha ko'rinishi. Zaratushtra, "chiroyli tuyalarga ega", degan ma'noni anglatadi. Bu so'z xalq tilida "Boqiy yulduzlar" deb ham atalgan. Faravahar (fors.) zardushtiylikning asosiy ramzi bo'lib qanotli diskning bir turi, Fravashini - qo'riqchi farishtadani tasvirlaydi. Dastlab, bu "qanotli quyosh" (kuch va ilohiy kelib chiqish ramzi), keyinchalik unga inson qiyofasi qo'shilgan.

Zamonaviy zardushtiylikda faravahar inson qalbining Ahura Mazda bilan birlashish yo'li sifatida talqin qilinadi.

Ma'lumki, zardushtiylik dini O'rta Osiyoda, so'ngra Eronda miloddan avvalgi VII-VI asrlarda paydo bo'lgan. Bu din aqidasi ko'ra, dunyodagi hamma voqealar yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik (Axuramazda va Axriman) o'rtasidagi kurash bilan bog'liq. Hozirga kunda majusiylikka e'tiqod qiluvchilar soni keskin kamayib ketgan. Ular Hindistonning Bombay, Gujarot shtatlarida

(11500 ga yaqin) va Eronning ba'zi chekka viloyatlarida saqlanib qolgan. Bombayda ularning madaniy markazi Kama nomidagi institut faoliyat olib boradi.

Zardusht tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joy xususida ikki xil qarash bor:

1. G'arb nazariyasi bo'lib, unga ko'ra, Midiya (hozirgi Eron hududi) Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdorlarining dalili shuki, birinchidan zardushtiylikning qadimgi Eron hududlarida keng tarqalgani bo'lsa, ikkinchidan zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoga keyin yozilgan sharhlarning qadimiy eron-paxlaviy tilida yozilganidir.

2. Sharq nazariyasi bo'lib, unga ko'ra, Zardusht vatani va zardushtiylik ilk tarqalgan joy Xorazm hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar ikkinchi fikr tarafdoridirlar. Xorazm zardushtiylikning muqaddas olovi Ozarxurra birinchi bor yoqilgan va eng buyuk Xudo – Axuramazda Zardusht bilan aloqa bog'lagan joyi hisoblanadi.

Zardushtiylikda iymon uchta narsaga asoslanadi:

1. Fikrlar sofligi;
2. So'zning sobitligi;
3. Amallarning insoniyligi.

Zardusht quyosh, olov, yulduzlar, tog'lar va shunga o'xshash ko'pgina Xudolarni haqiqiy emas, balki barchasi haqiqiy Yaratguvchining maxluqlari, deya bayon qilgan.

Zardusht ta'limotlari Eron qabilalari orasida keng tarqalar ekan, bir tomondan ularni o'ziga jalb qilganidek, ta'limotning o'zi ham bir tomondan ta'sirlana boshlagan. Bugungi kunda qadim Eron diniy odatlarining qaysi biri aslida Zardusht ta'limotlariga tegishli bo'lgani yoki keyinchalik unga kirib kelgani borasida juda katta muhamlik mavjud. Shu bilan bir qatorda bu ta'limot Zardushtdan keyin Eronda muhim bir din holiga kelgan va Islom manbalarida mazkur mintaqa ishonchlarini ifodalash uchun qo'llanilgan. Otashparastlik dini, Zardushtdan oldin ham o'ziga yarasha muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu an'ana qadim oriylarga borib taqaladi.

Zardushtiylik g'arbga tomon yoyilar ekan, Ragha (Tehron yaqinidagi shahar) bu din markaziga aylangan. Lekin asta-sekinlik bilan Zardusht keltirgan ta'limotlardan ham uzoqlashilayotgan edi. Bu borada Zardushtning ikkinchi bora qayta dunyoga kelishi haqidagi fikr o'ylab topildi. U bilan bog'liq turli afsonalar to'qildi. O'sha vaqtda Zardushtiylik Raghada bir "mad" rohib toifasi tomonidan boshqarilgan va ularga "majusiy" (majilar) deyilgan.

Sosoniylar davrida majusiy rohiblar sinfi ustunlik qozonishgan va Ardashir hokimligi davrida bu din rasmiy davlat diniga aylangan. Eron musulmonlar tasarrufiga o'tganidan keyin ham eski ishonch va odatlaridan ba'zilar o'z ta'sirchanliklarini davom ettirgan. Bu mintaqalarda vujudga kelgan islom mazhablarida ham bu eski ishonch va odatlardan ba'zilariga duch kelish mumkin.

Majusiylikning e'tiqod asoslari bu dinning muqaddas kitobi Avestoda bayon etilgan.

Avesto – Apastak, Ovisto, Ovusto, Abisto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatiladi. ²³ Avesto – Markaziy Osiyo, Eron Ozarbayjon xalqlarining qadim davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatları, ma'naviy madaniyatlari, forsiy va turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar yozuvlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Avestoning dastlabki yozma nusxasi 12 ming mol terisiga bitilgan deb rivoyat qilinadi. Sosoniylar hukmdori Husrav I (531-579) davrida yaxlit kitob shakliga keltirilgan.

Avestoning axloqiy-falsafiy mohiyati "ezgu fikr", "ezgu so'z" va "ezgu amal" kabi muqaddas uchlikda (axloqiy uchlik) o'z ifodasini topadi. Zardushtiylarning ibodati oldidan aytiladigan niyati, so'zlari shu uch ibora bilan boshlanadi.

Avestoda yozilishicha, inson ustida uchta majburiyat mavjud: dushmanni do'stga, iflos narsalarni pok narsalarga aylantirish va johillarni olim qilish.

²³ Авеста. URL: <https://library.rosvuz.ru/files/library/book/dd3406851b0cbefe479bb0f691336e6b.pdf> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

Barcha tadqiqotchilar zardushtiylik dinini Zardusht shaxsi bilan bog'laydilar. Lekin Abu Rayhon Beruniy qadimiy majusiylar Zardusht yuzaga chiqishidan oldin ham mavjud bo'lganini qayd etadi.

Zardushtiylikning yuzaga kelishi haqida yana shunday rivoyat ham keltiriladi.

“Odam Atoning o'g'li Qobil ukasi Hobilni o'ldirganidan so'ng, otasi Odam Atodan qochib, Yamanga bordi. U yerda Qobilga Shayton yo'liqib, sening qurbonliging o'rniga Xobilni qurbonligini qabul qilgan olovdir. Chunki u olovga sig'inar edi. Shuning uchun sen ham olovga sig'insang, kelajakda sening va avlodlaring ishlari yaxshi bo'ladi, deb vasvasa qildi. Shunda Qobil olovga sig'iniladigan birinchi ibodatxona qurdi va birinchi olovga sig'inuvchi otashparast bo'ldi”.



16-rasm
Zardushtiylik ramzi

Demak, bundan ko'rinadiki, haqiqatdan ham Beruniy bergan ma'lumot – ya'ni, zardushtiylik dini Zardushtdan ilgari ham bo'lgan bo'lishi mumkin.

Bu fikrlarni Fozila Sulaymonovaning “Sharq va G'arb” kitobidagi quyidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

“Chelyabinsk universiteti va Rossiya Fanlar Akademiyasi O'rol bo'limining tarix va arxeologiya instituti olimlari janubiy O'rol dashtligida Arkaim shahar vayronalarini topdilar. Ularning fikricha, shahar 37 asrlik tarixga ega. Shahar doira shaklida qurilgan bo'lib, 2-3 ming aholi yashagan bo'lsa kerak. Ular olovga sig'inganlar.

Shuningdek, akademik A. Asqarov bergan ma'lumotga ko'ra, Jarqo'tonda miloddan avvalgi ikki ming-yillikka taalluqli o'tparastlar olovdoni, Eronda esa, faqat eradan avvalgi VI asrga aloqador o'chmas olov joyi topilgan”.

Demak, bir so'z bilan aytganda, majusiylar dini qadim-qadimdan dunyoning juda ko'p mamlakatlarida, jumladan, Eron, Rossiya, Ozarbayjon, Hindiston va O'zbekiston hududlarida keng tarqalgan bo'lib, uning tarixi to'rt ming-yildan oshiq davrni o'z ichiga oladi. Xususan, qadimgi hind podshohlari olovga sig'inib, olovni dunyodagi barcha mavjudotlardan ustun qo'yganlar.

Zardushtiylik dini ta'limotini quyidagi uch tarixiy qismga bo'lish mumkin;

1. Eng qadimiy qismi miloddan avvalgi 3-ming-yillikda vujudga kelgan Yashtlardir; ularda urug‘chilik tuzumidagi e’tiqodlar, ko‘p xudolik tasavvurlari tasvirlangan;

2. Gotlar deb atalgan qismidir. Bunda Axuramazda nomli xudo haqida fikrlar yozilgan;

3. Qadimiy ko‘p xudolik va keyingi yakka xudolik g‘oyalari orasidagi kurash sharoitlarida miloddan avvalgi V asrda har ikkisini kelishtirgan mazdakiylik dini shakllangan. “Avesto” bu dinning oxirgi va asosiy qismini bayon etgan.

“Avesto” Yasna, Yasht, Visparad, Kichik Avesto qismlaridan iboratdir. Uning birinchi kitobi “Videvdot”, ya’ni devlarga qarshi qonun, deb atalgan. “Yosin” va “Visparad”ni qo‘shgan holda “Videvdot-Sade” nomi bilan yuritilgan. “Videvdot”ni poklanish qonun-qoidolari majmuasi deyish ham mumkin. “Avesto”ning ikkinchi “Yosin” kitobi bo‘lib, Zardusht Xat (noma)lari uning asosiy mazmunini tashkil etgan. U 72 “ha”- bashoratdan iborat bo‘lib, birinchi bashoratda tabiat va halolliklar hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir Axuramazdaning vahiy-lari haqligiga iymon keltirishga doir duolar bor. 19-bashoratda olam yuzaga kelmasdan ilgari mavjud bo‘lgan xudolar sha’niga shukronalar bayon etilgan. Iymon kalimasi, poklanish (yuvinish gigienasi), yovuzlikni la’natlayotgan paytda tanani qanday maromda tutishlik, dev, iblis-larni haydashga qaratilgan harakatlar, gunohdan forig‘ bo‘lish, kechirim so‘rashga doir duolar mavjud.

Gotlar va yosinlar uch qatlamdan iborat: Birinchisi xalq dostonlarining Zardushtgacha bo‘lgan qo‘shiqlari (she’rlari); ikkinchisi Zardusht Xat (noma)lari va uchin-chisi Zardusht halok bo‘lgandan keyin kitob holiga keltirilgan va Kichik Avesto nomi bilan yuritiladigan qismidir.

Demak, “Avesto”ning ilk va kichik (keyingi) qismlaridan uning asosiy qismi Zardusht nomalarini farqlash lozim. Bu Nomalar ko‘p xudolikni, o‘tga va tabiatning stixiyali kuchlariga sig‘inishni qoralab, yakka xudolikka e’tiqod qilishni talab etgan. Hozirgacha bo‘lgan ilmiy adabiyotlardagi farqlar ko‘proq “Kichik Avesto”ga asoslanib bildirilgan. Bunda yakka xudolik g‘oyalari ko‘p xudolilik e’tiqodlari bilan qorishib ketgani uchun tadqiqotchilar zardushtiylik ko‘p xudolik yoki ikki xudo dini

sifatida talqin etadilar. Bunday qarashlar zardushtiylikning uchinchi yo‘nalishi – ko‘p xudolilik bilan yakka xudolilik qorishmasidan iborat mazdaizm bilan aralashtirish natijasidir.

“Avesto”ning muqaddas kitoblarida qadimgi dunyo falsafasining to‘rt asoslari (substansiyasi) – tuproq, suv, havo, olov muqaddaslashtirilgan. Tuproq, suv, havoni bulg‘ash, ifloslantirish eng og‘ir gunohlar qatoriga qo‘shilgan. Hatto marhumlarning murdalari yerni, suvni, havoni zaharlab qo‘ymasliklari uchun ularning jasadlarini maxsus sopol idishlarda ko‘mish rasm bo‘lgan. Axuramazda “yerga yaxshi, mustahkam urug‘lar sepishdan ortiq savob ish yo‘q”, degan. Xudoning bu aytganiga amal qilish, 10 ming marta ibodat etish yoki yuzlab jonivorni qurbonlikka so‘yishdan afzal hisoblangan.

Ekin ekish yerdagi yovuzlikka barham berish, hisoblangan. “Odam go‘zalligi dehqondan, dehqonchilikdan, – deyilgan bashoratlarda, – kimki yerga urug‘ qadabdi, u odamiylikka iymon keltiradi, shu yulgina yagona haqiqat bo‘lib, qolgani sarobdir”. Zardushtiylikning vazmin, musiqa bilan uyg‘unlashib ketgan dono o‘g‘itlari ona zaminga, dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilikka va Vatanga, xalqqa ulug‘ muhabbat ruhi bilan uyg‘unlashib ketgan. Bu hol unda diniy mazmunga qaraganda dunyoviy elementlar ko‘p bo‘lganidan dalolat beradi.

Zardushtiylikning asosiy g‘oyalari olamdagi barcha tartiblar, ezgulik (yaxshilik) va yomonlikdagi, ziyo va zulmat, hayot va o‘lim o‘rtasidagi kurashga bog‘liq; dunyodagi barcha ezguliklarni Ahuramazda, yomonliklarni Axriman ifodalaydi; bu kurashda odam asosiy kuch va rolni o‘ynaydi, u tanlash erkinligiga ega, u o‘z g‘ayrati bilan bu dunyoda adolat topishiga ta’sir eta oladigan kishidir.

Zardushtiylikning barcha marosimlari, jumladan, Navro‘z, Mehrjon bayramlari tantanalarida bu ruh ayniqsa ulkan qudrat bilan namoyon bo‘lgan. Boychechakning chiqishi, lolaqizg‘aldoqning ochilishi, bodomning gullashi, umuman bahor bilan birga tabiatning go‘zallashib borishi ezgulik ruhining tantanasi bo‘lib, ularning har biri katta shodiyonalikka sabab bo‘lgan. Odamlar tabiatning bu go‘zalliklarini muqaddas bilib, ularni xalq bayramlari va sayillariga aylantirib yuborganlar.

Ilk oʻrta asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlarining mafkuraviy hayotida moniylik dini ham ancha chuqur ildiz otgan edi. Moniy dini taʼlimoti boʻyicha olamning ibtidosi ikki qarama-qarshi yaratuvchi – yorugʻlik va ezgulik hamda zulmat va yovuzlikdan iboratdir.

Moniylik. Bu taʼlimotning asoschisi Moniy ibn Fatax (216 – 277 y.). U naqqosh va rassom boʻlgan. Markaziy Osiyo, Eron va Hindiston boʻylab sayoxat qilib, zardushtiylik, buddizm va braxmanizm taʼlimotlari bilan tanishadi. 240-yildan u oʻz taʼlimotini Eronda targʻib etishni boshlaydi. Eron koxinlari unga qarshi chiqadi va u Markaziy Osiyoga qaytib oʻz faoliyatini davom ettiradi. 273-yilda Eronga qaytadi. Shoh Bahrom tomonidan xibsga olinib, 277-yilda qatl etiladi.

Moniylik - forscha maniy yoki manesning diniy taʼlimoti (216-yil 14-aprelda tugʻilgan, Bobil — 6-mart 273-yilda vafot etgan). 276, Gundishapur, Bobil: qamoqxonada, u yerda kech antik davr Shoh Bahrom 1 buyrugʻi bilan qamoqqa olingan. Zardushtiylik va mitraizm bilan bir qatorda moniylik Eronning eng nufuzli dinlaridan biri edi.

Moniylik taʼlimoti yorugʻlik va zulmat, ezgulik va yomonlik oʻrtasidagi kurash haqidagi dualistik taʼlimotdir. Gnostitsizm bilan bogʻliq holda, u maʼlum bir izdoshlar doirasidan, ayniqsa ovqatlanish, jinsiy hayot va jismoniy mehnatga nisbatan qatʼiy tiyilishni talab qildi. Har doim dindorlarning koʻpchiligini tashkil etuvchi moniylik qoxinlari zaruriy qoidalarining faqat bir qismiga rioya qilganlar, bu esa ularning najot topish imkoniyatini inkor etmagan.

Oʻzini Yorugʻlik Xudosi havoriylarining (Zaratushtra, Iso, Budda undan oldin havoriylar boʻlgan) oxirgisi va asosiysi deb bilgan Moniy bu aqidalarni birlashtirishga intilganligi sababli ularning barchasi, xususan, zardushtiy ruhoniylari tomonidan taʼqibga uchradi. Shunga qaramay, moniylik sosoniylar, keyinroq esa abbosiylar davlatidan tashqarida sezilarli taʼsirga ega boʻldi: sharqda — Janubiy Xitoy va Sibirgacha, gʻarbda — Ispaniya va Afrikaga; Keyinchalik pravoslav nasroniylarni qabul qilgan va episkop boʻlgan Avgustin etti-yil davomida manixeylik qildi.

Mazdakiylik. Ta'limot asoschisi Mazdak (470-529-yillar). U ko'zg'alonchi sifatida koxinlar va zodogonlarga Qarshi kurash olib borgan. U Kubod I davrida koxin, keyinchalik butun Eron buyicha bosh koxin sifatida faoliyat yuritgan.

Mazdak o'z ta'limotida ijtimoiy-siyosiy g'oyalari bilan jamiyat hayotida faol qatnashgan insondir. Ezgulik va johillik o'rtasidagi kurash, yaxshilikning g'alaba qozonishi, odamlar o'rtasida har tomonlama tenglik, ozodlik, erkinlik va hurlik, boylikka hirs qo'ymaslik, kambag'alikni qoralaydi va jamiyatda o'rta hol qatlamni ko'paytirish g'oyalarini ilgari suradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Yaqin Sharqda yahudiylik dini va Isroil davlati mafkurasi.
2. Yaqin Sharqda feodalizm mafkurasining shakllanishi.
3. Zardushtiylik dini va ta'limotining mafkuraviy jihatlari.
4. Moniylik ta'limoti.
5. Mazdakiylar mafkurasi.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Qachom yahudiy podshosi Iosiy diniy islohot o'tkazgan?
 - a) mil. av. 621-yilda
 - b) mil. av. 558-yilda
 - c) mil. Av. 555-yilda
 - d) mil. av. 538-yilda
2.Bobil podsholigining Ierusalimni bosib olishi va Ierusalim ibodatxonasini vayron qilinishi hamda yahudiylarni Bobilga asir qilib olib ketilgan.
 - a) mil. av. 621-yilda
 - b) mil. av. 558-yilda
 - c) mil. Av. 555-yilda
 - d) mil. av. 538-yilda
3. Fanda yahudiylikning nechta bosqichi aniqlangan?
 - a) 4
 - b) 3

- c) 5
- d) 2
- 4. Eng qadimgi yahudiylar davlati qaysi davlatlarning o‘zaro birlashishidan vujudgan kelgan?
 - a) Isroil va Yahudiya
 - b) Isroil va Falastin
 - c) Rim va Yahudiya
 - d) To‘g‘ri javob yo‘q
- 5. 586-yilda Yahudiya davlatini yakson qilgan podshoh qaysi qatorda ko‘rsatilgan?
 - a) Navuxodonosor I
 - b) Navuxodonosor II
 - c) Navuxodonosor III
 - d) Xamurappi
- 6. Muso payg‘ambar tur tog‘ida kim bilan gaplashadi?
 - a) Yaxve
 - b) Tur
 - c) But
 - d) Hech kim bilan
- 7. Yahudiy ruhoniylari yangi ahdnomani qanday nomlaganlar?
 - a) Tavrot
 - b) Bibliya
 - c) Tannax
 - d) Vetxiy zavet
- 8. Yahudiy diniy yozuvlari asosan nechta qismdan iborat?
 - a) 1 qism
 - b) 2 qism
 - c) 3 qism
 - d) 4 qism

9. Yahudiy dinida muqaddas hisoblangan Tavrot miloddan ilgari ming-yillik ichida shakllangan kitobdan iborat.

- a) 5 ta kitob
- b) 3 ta kitob
- c) 2 ta kitob
- d) 4 ta kitob

7-MAVZU: ISLOM MAFKURASI VA ARAB-MUSULMON SIYOSIY FIKRI

Reja:

1. Islom mafkurasi. Islomdagi oqimlar va mazhablar.
2. Xorijiyalar, karmatlar, va ismoiliylar mafkurasi.
3. Nizom ul - mulkning “Siyosatnoma” asarida davlat boshqaruvi masalasi.
4. Arab – musulmon mutafakkirlarining jahon siyosiy tafakkuri tarixida tutgan o‘rni.

Tayanch tushunchalar: Islom mafkurasi va uning g‘oyalari; Arab halifaligi ekspansiyasi, islom mafkurasining mustahkamlanishi; Islomda insonparvarlik g‘oyalari, gumanistik qadriyatlar va demokratik unsurlar; Qur’oni Karim va Hadislarda hokimiyat masalalari; rasmiy islom va halifalik hokimiyati; Sunniylik va shialik, xorijiyalar, islomiyalar, qarmatlar mafkurasi; Tasavvufning mafkuraviy funksiyasi; Nizom ul-mulkning “Siyosatnoma” asarining g‘oyaviy-siyosiy mazmuni; Ibn Rushd qarashlari; Ibn Haldun gumanizmi.

VII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan Islom diniy ta’limoti odamlarni yagona Allohga itoat etish g‘oyasini ilgari surar ekan, ayni paytda, arab qabilalarini birlashtirish siyosatini amalga oshirishga kirishdi. 630-yilda Arablar yagona davlatga (halifalik) birlashtirilgach, islom ta’limoti davlatning yagona mafkurasiga aylandi.

Islom tarixida shakllangan barcha oqim va mazhablarning diniy falsafiy qarashlari muayyan mafkuraga asoslangan. Bu mafkura islom mafkurasidir.

Islom mafkurasi odamlarni ezgu g'oyalar, maqsadlar sari etaklar ekan, ularni bu dunyo tashvishlarini hotirjam hal etishga, Allohga bo'ysunish orqali itoatda bo'lishga hamda tabiatning ojiz mavjudoti ekanligini tan olishga chaqiradi. Bu mafkura barcha insonlarni tengligi haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. Ta'limotda hech bir tabaqalanish, ijtimoiy tengsizlik g'oyalari uchramaydi.

11-hijriy yil 12 rabi' ul-avval, 632 milodiy yil 8-iyun kuni Payg'ambar vafot etdi. Bu bilan islom tarixida ilk davr – Qur'oniy davr yoki teokratiya davri tugadi. Bundan buyon musulmon-arab davlati tarixida podshohlar – xalifalar, islom dini normalarini shakllantirish va rivojlantirishda diniy ilmlar bilimdonlari – ulamolarning roli tobora oshib boraverdi.

Muhammad payg'ambar vafoti haqidagi xabar Madina ahli orasida yoyilgach, anzorlar Umma boshchisi – xalifalikka nomzod masalasini hal qilish maqsadida Banu Sa'ida qabilasining Saqifa nomli guzariga oshiqdilar. Bir qancha muhojirlar va anzorlar o'rtasida bo'lib o'tgan qizg'in bahs va tortishuvlardan so'ng xalifalikka Abu Bakr as-Siddiqni (632-634) saylab, barcha unga bay'at qildilar. Abu Bakr diniy va dunyoviy hokimiyatni o'z shaxsida birlashtirdi. Lekin uning hokimiyatini teokratik deb atab bo'lmaydi. Chunki u Alloh bilan muloqotda emas edi, unga xalifalik ham Payg'ambar tarafidan vasiyat etilmagan edi.

Umar ibn Xattob al-Foruq (taxminan 585-644) - dastlabki to'rt xalifadan ikkinchisi, buyuk davlat arbobi. Islomni taxminan 616-yilda qabul qilgan. Muhammad payg'ambarning (s. a. v.) yaqin safdoshlaridan biri va qaynotalari (Hafsaning otasi). Payg'ambar (s. a. v.) olib borgan barcha janglarda qatnashgan. Abu Bakrning xalifa bo'lib saylanishi (632-yilda) tashabbuskori, uning yaqin maslahatgo'yi bo'lgan. 644-yil 7-noyabrda Basra voliyasi Mug'iyra ibn Shu'baning quli nasroniy Abu Lu'lua Umarga xanjar sanchib yaralagan va shu kuni kechqurun Umar 63 yoshda vafot etgan. Vasiyatiga ko'ra, Oyshaning hujrasiga, Muhammad payg'ambar (s. a. v.) va Abu Bakr Siddiq yonlariga dafn etilgan.

Usmon ibn Affon (taxminan 575-656) – dastlabki to‘rt xalifadan uchinchisi, Umaviylar qabilasiga mansub. Muhammad payg‘ambarning (s. a. v.) eng dastlabki izdoshlaridan biri. Payg‘ambar (s. a. v.)ning kuyovlari.

Umarning o‘lim oldidagi vasiyatiga ko‘ra, Usmon yangi xalifani saylashi lozim bo‘lgan kengash – sho‘ro tarkibiga kirgan va ular tomonidan xalifa qilib saylangan.

Usmonning xalifalik davrida Sosoniylar davlatini fath etish tugallandi.

Usmon ibn Affondan so‘ng xalifalikni Ali ibn Abu Tolib boshqardi. Xalifalik Ali ibn Abu Tolibga etib kelgach esa, uning tarafdorlari Alini “Imom” deb atay boshladilar. Shunday qilib yuqoridagi to‘rt xalifa islom tarixida “Xulofai roshidiyn”, ya’ni to‘g‘ri yo‘ldagi xalifalar nomi bilan islom tarixida qolishdi.

Islom ta’limotining yoyilish jarayoni, halifalik davlati davrida vujudga kelgan ijtimoiy ziddiyatlar va hokimiyat uchun kurashlar davomida turli yo‘nalish va oqimlar shakllandi.

Yo‘nalishlar:

- xorijiylik
- shialik
- sunnniylik

Islomning ushbu yo‘nalishlari garchi yagona Allohga itoat etish g‘oyasini ilgari sursa-da, har biri o‘ziga xos qarashlar va aqidalarga asoslanadi.

Sunniylik – bu islomda izchil, sobitqadam yo‘nalish hisoblanadi. Musulmonlarning juda ko‘pchilik qismi – 92,5 foizi sunniylikka e’tiqod qiladi. Qolgan 7,5 foizini shialar, ibodiylar va xorijiyilar tashkil qiladilar. Sunna arabcha odat, an’ana, xatti-harakat tarzi degan ma’nolarni bildiradi. Sunniylik degan so‘z arabcha “Sunna”, “muqaddas rivoyat”, ya’ni Muhammad payg‘ambar to‘g‘risidagi rivoyatlar va uning hadislar to‘plami degan tushunchadan olingan.

Sunniylar ummaviylar sulolasidan bo‘lgan xalifalarning oliy hokimiyatga bo‘lgan huquqini tan olganlar. Sunniylikda Sunna Qur’ondan keyingi asosiy muqaddas manba, hadislar to‘plami deb qaraladi. U VII asr o‘rtalarida shakllana boshlagan. Unda xalifalikdagi sinfiy munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, islom

mafkurasi atrofidagi kurash o'z ifodasini topgan. Uni to'plash, sharhlash va nashr qilishda vatandoshlarimiz Ismoil Buxoriy, Imom at-Termiziy asosiy rol o'ynaganlar.

Sunniylik qisman Eron, Janubiy Iroq, Yaman, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Volga bo'yi, Sibir, O'rol, Kichik Osiyo, Misr va Shimoliy Afrika, Indoneziya, Malayziyada keng tarqalgan. Uning muqaddas shaharlari Makka va Madinadir. Unda to'rtta mazhabi – hanafiy, molikiy, shofi'iy, hanbaliy mazhablari bor.

Hanafiya (Imomi A'zam) mazhabi. Bunga Abu Hanifa taxallusi Imomi A'zam – buyuk imom (699-767) asos solgan. U eng yirik huquqshunoslardan biri bo'lib, shariat huquqini tartibga solgan, qiyosni tadbqiq etgan, istihson tartib usulini (manbalar asosida chiqarish mumkin bo'lgan xulosa yoki hukmlardan musulmonlar jamoasi uchun maqbulrog'ini qabul qilib) ishlab chiqqan, mahalliy xalq huquq-qoidalarini – odatni shariat bilan keltirib qo'llanishni joriy etgan huquqshunoslikdan oqilona foydalanish unsurlarini kiritgan.

Hanafiylar mahalliy zodagon va hukmdorlar qabul qilgan nizom va qonunlar, mahalliy urf-odatlariga tayangan odatiy an'analar hamda mahalliy elatlarning urf-odati asosida kelib chiqqan odat maqomiga keng tayanishlari islomning ko'chmanchilari orasida ham tez tarqalishga olib kelgan. Chunki bular o'zlarining ibtidoiy urf-odatlarini hisobga olgan islomni, xususan hanafiya mazhabini o'zlariga ma'qul topganlar.

Hanafiya mazhabi qonunlari Abu Yusuf Yoqub (vafoti 795-yil), ash-Shayboniy (vafoti 804-yil), Qodiriy (vafoti 1036-yil) asarlarida ham ishlab chiqilgan. Hamyurtimiz Marg'inoniy ar-Rishtoniy (vafoti 1157-yil)ning fiqhga oid asarlaridan eng mashhuri "Hidoya fi-l-furur-Shariat sohalari bo'yicha qo'llanma" hanafiya mazhablari tomonidan qonunlar majmuasi (kodeks) sifatida foydalanilgan. Marg'inoniyning "Hidoya"si fors, ingliz va rus tillariga tarjima qilingan bo'lib, hozir ham Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Turkiya va boshqa) hanafiya mazhabi shariat sohasidagi asosiy qo'llanma hisoblanadi.²⁴

²⁴ Хидоя: комментарии мусульманского права. –Т.: Узбекистан. 1994. URL: <https://e-library.namdu.uz/67%20%D0%A5%D1%83%D0%BA%D1%83%D0%BA%D1%88%D1%83%D0%BD%D0%BE%D1%81%D0%BB%D0%B8%D0%BA%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/67.%20%D0%A5%D0%B8%D0%B4%D0%BE%D1%8F%20%D0%9A%D0%BE%D0%BC>

Hanafiya mazhabi sunniylik yo‘nalishiga mansub bo‘lgan musulmonlarning 47 foizini o‘z ichiga oladi. Hozir ham respublika tuprog‘idagi sunniylarning oila, nikoh, taloq va boshqa masalalarida shu mazhabga tayanadilar.

Shofi‘iy mazhabi. Uning asoschisi imom ash-Shofi‘iy (767-820) kuchli ilohiyotchi faqihlardan biri bo‘lgan; Makkada yashagan, Yamanda qozilik qilgan. 810-yildan Bog‘dodda o‘z ta‘limotini targ‘ib qilgan. Uning “Kitob al-umma” to‘plami islom huquqini an‘anaviy tartib-qoidalar bilan bog‘lashga qaratilgan, fiqh asoslariga to‘la tavsif berib, ijmo‘dan foydalanishga alohida e‘tibor qilingan.

Shofi‘iy mazhabining usuli hanafiya va molikiya usullarining o‘zaro murosasiga tarafdorlik qilishga uringan bo‘lsa hamki, asosan molikiyaga moyil edi. Ular qiyosining qo‘llanishida muayyan chegaraga yo‘l qo‘yardilar.

Suriya va Misrda shakllangan bu mazhab hozirgi vaqtda Indoneziya, Sharqiy Afrikaning ba‘zi mamlakatlarida, janubiy arab sultonliklari musulmonlari orasida tarqalgan bo‘lib, sunniylikdagi musulmonlarning 27 foizini tashkil etadi.

Molikiy mazhabi. Asoschisi Molik ibn Anas (713-795) “Ashob al-Hadis” (Hadis tarafdorlari) oqimining yirik namoyandasi bo‘lib, Muhammad payg‘ambar davridagi diniy huquq tartibini yoqlab chiqqan. O‘zining “Al-Muvatto’” (Ommaviy, Barchaga tushunarli) asarida Qur‘on va Sunnani aqlga asoslangan holda talqin qilishga qarshi chiqqan. U muhofazakor ilohiyotchi faqihlardan biri edi. Bu mazhab tarafdorlari o‘zlarining nomo‘‘tadilligi bilan ajralib turardi. Ular hanafiylarga nisbatan qiyosni qo‘llashda ancha chek qo‘yishardi. Hozirgi davrda Molikiya mazhabi Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan bo‘lib, sunniylikdagi musulmonlarning 17 foizini tashkil etadi.

Hanbaliya mazhabi asoschisi imom Ahmad ibn Hanbal ibn Xilol ibn Asad az-Zuxayliy ash-Shayboniy 780-yili Bog‘dodda tug‘ilib, shu yerda 855-yil vafot etgan. Hadis to‘plash niyatida Suriya, Hijoz Yaman, Kufa va Basraga ko‘p sayohat qilgan va 40 mingdan ortiq hadisni ja‘m etgan olti jildlik «Musnad al-Imom Ahmad»

(Imom Ahmadni tayanchi) asarini yaratgan. Uning huquq tartiboti o'ta torligi, diniy masalalarda Qur'on va Sunnaga qattiq rioya qilishligi, erkin fikr yuritish va talqin etishga, har qanday yangilikka qarshiligi, shariat tartib-qoidalariga rioya etishda qat'iy mutaassibliги bilan ajralib turardi.

Hanbaliya mazhabi tarafdorlari avvallari faqatgina Qur'on va Sunnagagina tayanib, shar'iy hukmlar chiqarsalar, keyinroq qiyos va ijmo'ni qo'llashda ham ular tanho Muhammad payg'ambarning safdoshlari bo'lmish sahobalarning hamjihatligidan kelib chiqqan hukmlarnigina inobatga olar edilar. Bunda ular tobe'inlarning ham, ulardan keyingi e'tiborli diniy arboblarning ham fikrlarini tan olmas edilar. Qur'on va hadislardan esa hech qanday dalil topolmagan taqdirda noiloj qiyosga murojaat etardilar.

Guruh, partiya, tarafdorlari degan ma'nolarni beradigan arabcha «shia» so'zidan kelib chiqqan. Shialik o'z ahamiyati va tarafdorlari soniga ko'ra islomdagi ikkinchi yo'nalishdir. U VII asrning ikkinchi yarmida musulmonlarning maxsus va siyosiy guruhi sifatida yuzaga kelgan. U choryorlarning to'rtinchisi Ali tarafdorlarini birlashtirgan. U juda ko'p sektalarga bo'linib ketgan. Bular orasida ismoiliylar hozir 35 millionga yaqin tarafdorga ega bo'lib, otahonlar boshchiligida hozir ham islom doirasida katta rol o'ynamoqda.

Shialar Arabistonda paydo bo'lgan teokratik davlat-xalifalikdagi oliy hokimiyat uchun olib borilgan keskin kurash jarayonida kelib chiqqan. Xalifalikning barcha bosh lavozimlari 644-yildan boshlab quraysh qabilasiga mansub bo'lgan xalifa Usmon boshliq makkalik oqsuyaklar-muhojirlar qo'liga o'tgan.

Shialar Alidan boshqa barcha sunniy xalifalarning uzurpatorlar, ya'ni siyosiy hokimiyatni zo'ravonlik bilan qo'lgan olgan kishilar deb hisoblaydilar. Bular Alining avlodi bo'lgan 12 imomdan iborat o'z sulolalarini ularga qarshi qo'yganlar. Ular Alini, uning o'g'illari – Hasan va Husaynni hamda ularning avlodlarini shahid, deb hisoblashgan.

Islom tarqalgan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar natijasida turli davrlarda musulmonlarning har xil guruhlari, ayniqsa ko'proq sektalar paydo bo'la boshlagan. Bular sunniy va shia yo'nalishlaridan ajralib chiqqan bo'lib,

musulmon sektalari deyiladi. Bularning islomdagi hanafiy, hanbaliy, shofi'iy, molikiy kabi mazhablar bilan aralashtirmaslik kerak.

Islom sektalari musulmonlarning diniy uyushmalari bo'lib, ularning soni juda ko'p, islom mamlakatlarining deyarli hammasida mavjud. Chunonchi, ahmadiy, alaviy, ibodiy, idrisiy, qodiriy, muridiy, rashidiy, tijoniy, hamoliy, shodiliy va boshqalar sunniylar yo'nalishidan ajralib chiqqan sektalardir. Xorijiy, ismoiliy, zaydiy, nizoriy, isna'ashariy, druz, bahoiiy va boshqa mazhablar esa shialar oqimidan ajralib chiqqan. Ularning ko'plari tarqab ketgan.

Ismoiliylar. Bu mazhab tarafdorlari shialar orasida eng ko'pchilikni tashkil etgan. Ismoiliy mazhabi VIII asrning 2-yarmida Bog'dod xalifaligida paydo bo'lgan va imom Ja'far Sodiqning katta o'g'li Ismoil nomi bilan atalgan. Ismoiliylar diniy ta'limotida butun olamni yaratgan "dunyoviy aql" va "dunyoviy ruh"ga e'tiqod etish asosiy o'rinni egallagan. Ularning ta'limotida neoplatonchilar falsafasi va buddaviylikning katta ta'siri seziladi. Ismoiliylar turli davrlarda xalqlarga turli payg'ambarlarning yuborilishi – "dunyoviy aql"ning yerda namoyon bo'lishidir deb hisoblashadi. Ular ettita payg'ambarni – Odam Ato, Nux, Ibrohim, Ismoil, Muso, Iso va Muhammad (s. a. v.)ni tan olishadi. Ularning fikricha, imomlar payg'ambarlarning vorislari hisoblanadi. XI asrdan boshlab ismoiliylar sinfiy ziddiyatlarning kuchayishi natijasida turli qismlarga bo'linib ketgan. Hozirgi paytda ismoiliylar O'rta Sharq mamlakatlarida, Hindiston, Uganda, Keniya, Tanzaniya, Tojikistonning Tog'li Badaxshon viloyatida mavjud.

Islom dinidagi uchinchi yo'nalish Xorijiyilar (arab. – ajralib chiqqan, isyonchi) – islomdagi ilk oqim tarafdorlari. Xalifa Ali bilan umaviylar o'rtasidagi kurash davomida VII asrning ikkinchi yarmi boshlarida vujudga kelgan. Adabiyotlarda xorijiyilar sho'rot, marikuna, mahakkima nomlari bilan ham tilga olinadi.

Manbalarda turli davrlarda va xalifalikning turli o'lkalarida harakat qilgan xorijiyilarning 20 dan ortiq jamoasi qayd etilgan. Xorijiyilar ta'limotiga ko'ra, xalifa diniy jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo'ysunadi; har qanday taqvodor musulmon (hatto qul yoki qora tanli bo'lsa ham) xalifa etib saylanishi mumkin; agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo'shatiladi va hatto qatl

etiladi. Xorijiyalar fikricha, e'tiqod amaliy faoliyat bilan mustahkamlanishi lozim. Hozirgi davrda xorijiyalarning ibodiyalar firqasi Shimoliy Afrikaning ayrim mamlakatlarida (Jazoir, Tunis va boshqa joylarda), Ummon, Tanzaniyada uchraydi xolos. Lekin ayrim mutaxassislarning fikriga ko'ra, hozirda bu yo'nalish qolmagan. Keyinchalik Saudiyada bu yo'nalish ta'sirida vahhobiylik oqimi shakllandi.

Karmatiylarning kelib chiqishi. Ular shia mazhabining mujohidlik yo'nalishini targ'ib qilishardi, biroq yuz-yil mobaynida asosiy mazhabdan chiqib, shu darajada tez-tez turlanib turdilar, hatto ularni musulmon sanash ham mushkul bo'lib qoldi. Bularning barchasi shialar o'rtasida ularning oltinchi imomi vorisiga nisbatan keskin qarama-qarshi fikrlar kelib chiqishidan boshlangan edi. Shuni hisobga olish lozimki, haqiqiy shialar butun musulmon dunyosining qolgan qismi singari sunniylarning xalifalarini Islom rahnamolari sifatida e'tirof etmas edilar. Shialar hazrat Ali avlodlari, jumladan, Imom Husayn butun fikru-xayollari, amaliy ishlari va yurish-turishlari bilan o'zlarini Islomga baxshida etgan haqiqiy musulmon yo'lbo'shchilari bo'lganliklariga qat'iy ishonardilar. Bunday avlodlarni imomlar, deb atashardi. Oltinchi imom Ja'far as-Sodiq Karbaloda azoblar ichida halok bo'lgan Imom Husaynning buyuk nevaralari edi; Ja'far as-Sodiqning Ismoil va Muso ismli ikkita o'g'li bor edi. Ularning kattasi otasi hayotligidayoq vafot etgani boisdan xalq Musoni ettinchi imom deb tan oldi.

Keyinchalik u Muso Al-Kozim nomi bilan mashhur bo'ldi. Lekin shia mazhabidagi kishilarning ko'plari yosh jihatidan katta Ismoil ettinchi imom, uning o'g'li Muhammad esa sakkizinchi imom bo'lishi lozim, degan fikrni yoydilar. Shu talab shialikni hozirgacha davom etayotgan bir-biriga raqib bo'lgan shoxobchalarga parchalab yubordi. Ismoil davomchilari ismoiliylar sifatida nom chiqarib, o'zlarini adolat yuzasidan haq deb bilganlari holda maxfiy faoliyat olib bordilar. Ularning ketma-ket almashib turgan boshchilari butun dunyoda katta shov-shuv ko'tardilar. Bu rahnamolarning birinchisi – Karmat, ikkinchisi – Kayravonda o'zini Mahdiy deb tanitgan va fotimiylar davlatini barpo etgan Ubaydulloh, uchinchisi – yollanma qotillar tashkilotchisi Hasan ibn Saboh esa xalq orasida Shayx ul-Jabal (Keksa tog'lik) nomi bilan ma'lum.

894-yili ismoiliylarning oliy qo'mondonligi Abu Said ibn Bahrom at-Tanobiyni Bahraynga – Arabistonning sharqiy sohiliga yaqin orolga yubordi. O'sha yerda u bir qancha qabilalarni o'ziga bo'ysundirib, muayyan imtiyozlarga ega bo'lgan shayxlarni ularga boshchi qilib qo'ydi va ko'p o'tmay, yangi davlat tuzdi. Mumaniyani (Sadoqatlilar shahri) o'ziga poytaxt qilib oldi. U va safdoshlari ismoiliylarning "yashirin imom"iga nisbatan xayrixoh edilar, ammo bu yerda, Arabistonning shimoliy sohilida Abu Said o'zini mustaqil his qilardi. Uning vafotidan keyin avlodlari ham o'z davlati kuchiga kuch qo'sha boshladilar. Shu orada ular mutaassiblarcha sadoqatli muridlardan tashkil topgan qo'shinga ham ega bo'lib oldilar. G'arbda Najdga, shimolda Iroqqa va hatto uzoq g'arbdagi Hijozga yurishlar uyushtira boshladilar. 913-943-yillarda ularning qudrati cho'qqisiga chiqdi. Ana shu o'ttiz-yil mobaynida ular istagan tomonlariga hujum uyushtiraverdilar. 930-yilda Makkaga bostirib borib, uni egalladilar. Ka'badagi Qoratoshni o'z poytaxtlariga olib ketishdi. Shu paytning o'zida Shomning quyi qismiga hujum qildilar; Markaziy Arabistonga yuz-yildan ko'proq egalik qilib turishdi.

Nizom ul-mulk saljuqiylar podshosi Alp Arslon (1063-1072 y.) va Malikshoh (1072-1092 y.) saroyida vazirlik lavozimida xizmat qilgan. Nizom ul-mulk uning laqabi bo'lib, asli ismi Abu Ali Xasan ibn Ali Tusiylar. U Alp Arslon o'ldirilgandan so'ng uning o'g'li Malikshohga sidqidildan xizmat etar ekan, Malikshoh uni o'z xomiysi – otabek sifatida ko'rgan.

Nizom ul-mulk vazir sifatida saljuqiylar davlatiga katta xizmatlar ko'rsatgan shaxsdir. U adolatli, odil siyosat yuritib, xalq hurmatiga sazovor bo'lgan. Uning davrida ilm – fanga katta e'tibor qaratiladi, ko'plab olimu fuzololarga moddiy va ma'naviy xomiylik ko'rsatiladi.

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiylar Nizomulmulk (1018-1092) Sharq tarixi va madaniyatida o'zining 1091-yili yozilgan "Siyosatnoma" (yoki "Siyar ul-muluk") asari bilan o'chmas iz qoldirgan.²⁵ Abu Ali Hasanning bobosi Bayhaq qishlog'ining

²⁵ Низомулмулк. Сиёсатнома (сияр ул-мулк). URL: <https://ziyouz.uz/kutubxona/yangi-kitoblar/nizomulmulk-siyosatnoma-siyar-ul-muluk/> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

eng nufuzli dehqonlaridan bo'lib, to'rt nafar o'g'ilning otasi edi. Uning katta o'g'li Abulhasan Ali otasi vafotidan keyin Xuroson voliyasi Abulfazl saroyiga borib, uning xizmatiga kiradi. 1018-yilda uning oilasida (Tusning Rodkon viloyatidagi Navg'on qishlog'ida) Abu Ali Hasan olamga keladi. U boshlang'ich tahsilni shu yerda oladi, keyin Nishopur va Marvda o'qib, voyaga etgach, Balxga borib, Ali ibn Shodon xizmatiga kiradi. Keyinchalik u Dovud ibn Mikoilga dabir bo'ladi. Dabirlik mansabidan saljuqiylar (1037-1194) shohi Alparslon (1063-1072-yillar) saroyida vazirlik mansabigacha ko'tariladi va "Nizomulmulk", ya'ni mulkning nizomi, tartibi ma'nosini anglatuvchi nomi bilan shuhrat qozonadi. Vazirlik davrida u qariyb davlatning butun ishlarini o'zi olib boradi. Nizomulmulk saroy va davlatdagi shunchalik katta obro' e'tiboriga qaramasdan hasadgo'y, g'arazgo'y kishilar va mansabdorlarning ig'volaridan xavfsirab yashardi. Hatto Alparslonning o'zi ham vazirini rofiziylilikda ayblab, uning shofeiylar mazhabida emasligidan afsuslanardi. Shohning shunday munosabatini Nizomulmulk o'z asarida taassuf bilan eslaydi.

"Siyosatnoma" yoki "Siyar ul-muluk" asarini olimlar saljuqiylarning siyosiy dasturi sifatida baholaganlar. Asarning asosiy g'oyalari ham shundan iboratki, vazir Nizomulmulk shoh va hokimlarni adlu insofqa, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va imonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat etadi. Nizomulmulk fikricha, adolat va saxovat xayr-sadaqadan, nochor, noiloj kishilarga madad berishdan, beva-bechoralar, mayib va nogironlarga xazinadan nafaqa ajratishdan va insonlarning huquqlariga rioya qilishdan iboratdir. Amaldorlarni to'g'ri tanlab, ularga qo'llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirish, bir kishiga bir amal berib, undan itoat va ijro fazilatini kutish davlat boshqaruvining asosiy talablaridandir. Har bir ishda amaldorlarning maslahat bilan ish ko'rishlari ko'zda tutiladi. Nizomulmulkning shoh hayot tajribasiga ega bo'lgan, jahon kezzan oqsoqollar, olimu mo'tabar kishilar bilan maslahatlashib ish tutishi tarafdoridir.

Nizomulmulkning yana bir fikri e'tiborga sazovordir. Bu g'oya shundan iboratki, davlatda markaziy hukumat (ya'ni shoh hokimiyati) juda ham kuchli

bo‘lishi lozim. Shundagina davlatda tinchlik va adolat barqaror bo‘ladi, raiyat o‘z maqsadiga eta . oladi, jamiyat sulh va adolatda, muruvvatda yashaydi XI asr vaziri Nizomulmulkning fikricha, raiyat ahli, zulmu sitam ko‘rgan har bir kishi, umuman, norozi bo‘lganlar amaldor va hokimdan tortib to vazir va shohning o‘zigacha qabullariga borib, shikoyati yoki maslahatini bayon qilishlari zarur. U yozadi: “Podshoh haftada ikki kun zulm ko‘rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiyat so‘zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Agarda xudovand podshoh doxohlarini oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so‘zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi, degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda sitam qiluvchilar oqibatini o‘ylab qo‘rqib bedodlik qilmaydilar”.

Abu Homid Muhammad Al G‘azzoliy (1058-1111) Tus shahrida tug‘ilib o‘sdi. Juda yoshlik chog‘idanoq olimlik pog‘onasiga ko‘tarildi. 1091-yildan boshlab u Bag‘doddagi mashhur Nizomiy madrasasida talabalarga falsafa va ilohiyot ilmidan saboq berdi. U 34 yoshida kuchli ruhiy inqirozni boshidan kechirdi. Shundan so‘ng haqiqatni faylasuflar belgilagan yo‘ldan topa olmasligini tushunib, mudarrislikni tashladi va mustaqil ravishda tasavvuf ilmini o‘rganishga kirishdi. Oradan 11-yil o‘tgach, imom G‘azzoliy yana madrasaga qaytib, talabalarga tahsil bera boshlaydi. U butun umrini haqiqatni odamlarga tushuntirish va adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga qaytarishga bag‘ishladi.

G‘azzoliyning falsafa, tasavvuf ilmiga oid asarlari juda yorqin, ravon va tushunarli uslubda bitilgan. Quyida uning ana shunday asarlaridan ba’zilarini sanab o‘tamiz: “Faylasuflarning maqsadlari”, “Faylasuflarning raddiyasi”, “Din haqidagi fanning tug‘ilishi”, “Olam javoni” va h. k. ²⁶

Imom G‘azzoliy juda ko‘pni ko‘rgan, o‘qigan va bilgan zot bo‘lishiga qaramay, uni faqat arab shoiri Labidning mana bu misrasi zavqlantirgan: “Ollohdan o‘zga hammasi yolg‘on emasmi?”

Aqoid ilmining bilimdonlaridan biri Suyutiy Imom al G‘azzoliy haqida shunday yozgandi: “Agar Muhammad alayhissalomdan keyin yana bir payg‘ambar

²⁶ Имом Фаззолий китоблари. URL: <https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/islomiyl/> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

dunyoga kelishi mumkin bo'lganda, bunday saodat shubhasiz al G'azzoliyga nasib etardi".

"Ollohni anglashdan avval o'zni anglamoq joiz", — deydi G'azzoliy.

Ko'rgan narsangnigina qabul et, eshitganlaringni unut: Quyosh bosh ko'targach, Zuhalni tomosha qilishdan bizni mahrum qiladi.

Shubha haqiqatga olib boruvchi yo'ldir. Kim shubhalanmas ekan, hech narsani ko'ra olmaydi. Ko'rishdan mahrum odam esa tushunolmaydi. Tushunishdan mahrum kimsa misoli so'qir kabi yo'ldan adashadi.

Ibn Rushd – andaluslik faylasuf, hakim, faqih va matematik. Arastuchilik (peripateizm) maktabining muhim vakili. 1126-yilda ilm-fan va madaniyat markazlaridan biri bo'lmish Qordovada dunyoga keldi. Ibn Rushd avvalo molikiylik fiqhi bo'yicha, shu bilan birga adabiyot, tibbiyot, riyoziyot va falsafa bo'yicha ham saboq oldi.

1169-yilda Ishbiliya (Sevilya) qozisi, 1171-yilda Qordova bosh qozisi etib tayinlandi, shu tariqa bobosi va otasining yo'lini davom ettirdi. 1182-yilda saroy tabibi sifatida Marokashga bordi va 1198-yilda shu yerda vafot etdi.

Ibn Rushd nafaqat islom dunyosida, balki G'arbda ham muhim iz qoldirgan alloma hisoblanadi. Bu holat modern davrda Ibn Rushdni oldingi planga chiqargan fikriy bahslarning ko'payishi bilan ham bog'liq. Boshqa tomondan, uning fiqhdan psixologiyagacha, falsafadan astronomiya va sotsiologiyachaga bo'lgan qator sohalarni qamrab olgan izlanishlarining mahsuli bo'lgan ko'plab asarlari ibroniy va lotin tillariga tarjima qilingan. Asarlarini uchga – falsafa, tibbiyot va din tasniflariga ajratish mumkin.

Ibn Rushdga ko'ra aqllarning tasnifi "Averroes tomonidan qilingan eng o'ziga xos sa'y-harakatlardan biri bu falsafa va din o'rtasidagi aniq munosabatni aniqlashga urinishdir. U ko'p sonli falsafiy va teologik oqimlar mavjudligini ta'kidladi, ular biri-biri bilan doimiy kurashda bo'lib, o'z mavjudligi bilan ham falsafaga, ham dinga tahdid soladi.

Darhaqiqat, falsafiy erkinlikni saqlab qolish muhim; Biroq, boshqa tomondan, Qur'on matnlari bo'yicha ixtiloflar jamiyatning barcha qatlamlarida qanday

tarqalayotganini ko‘rib, hatto ilohiyot olimlarida ham xavotirga sabab bo‘lganiga qo‘shilmasa bo‘lmaydi. Averroes barcha yovuzlikni falsafaga uni tushunishga qodir bo‘lmagan onglarga kirishga ruxsat berilganligi bilan izohladi.

Darhaqiqat, Qur‘onning o‘zi haqiqatdir, chunki u Allohning mo‘‘jizasidan kelib chiqqan va u butun insoniyat uchun mo‘ljallangan bo‘lgani uchun u barcha aqlni qoniqtiradigan va ishontiradigan bFarcha narsalarni o‘z ichiga olishi kerak.

Aqlarning uch toifasi va shunga mos ravishda uch xil kishilar mavjud:

- ko‘rgazmaga qo‘yilgan, qat’iy isbot talab qiluvchi va ilmni idrok etmoqchi bo‘lgan, zarurdan zaruriyga o‘tuvchi kishilar;
- ehtimollik dalillari bilan qanoatlanadigan dialektik odamlar;
- etarlicha notiqlik dalillariga ega, tasavvur va ehtirolari yuqori darajada rivojlangan chaqiruv bilan inonuvchi insonlar.

Ibn Haldun Shimoliy afrikalik, yashagan-yillari 1332 – 1406-yillardir. U arab entsiklopedisti, davlat va jamoat arbobi. O‘z faoliyati davomida madaniyat tarixi, ijtimoiy falsafa, tarix falsafasi bilan shug‘ullangan. U o‘zining tarix falsafasiga oid g‘oyalarini “Butun dunyo tarixi”, “Tarix falsafasiga kirish”, “Muqaddima”²⁷ kabi tarixiy, falsafiy asarlarida bayon etadi. Uning fikricha , jamiyat taraqqiyotidagi o‘zgarishlar - inqiroz va yuksalish davrlari avlodlarning almashinuviga bog‘liq. Jamiyatning taraqqiyot darajasi, madaniyati va boshqarish usullari ijtimoiy mehnat taqsimoti, kishilarning iqtisodiy faoliyati va aholi bilan hukmdorlar orasidagi o‘zaro aloqadorlikka bog‘liq. Jamiyat hayoti ma’lum qonunlar asosida kechadi.

Ibn Xaldunning mashhur voqealar sirasiga uning buyuk sarkardamiz Amir Temur bilan Damashqdagi uchrashuvi bo‘ldi. Ibn Xaldun Damashq shahrining Amir Temurga topshirilishi shartlari bo‘yicha muzokara olib borgan delegatsiya tarkibiga kirgan edi. Shu tariqa Ibn Xaldun Amir Temur bilan shaxsan suhbatlashish sharafiga musharraf bo‘lgan. Olimning dalolat berishicha, Amir Temur undan Mag‘rib mamlakatlari, uning manzillari va shaharlarini batafsil bayon qilib berishni so‘ragan. Ibn Xaldun Amir Temur tashqi siyosiy faoliyatiga salbiy nazar bilan qarashidan

²⁷ Ибн Халдун. «Введение (ал-Мукаддима)». URL: <https://moreknig.org/reader/283139/> (дата обращения: 01.04.2022)

qatiy nazar, sohibqiron shaxsiyatiga munosib baho bergan. U Amir Temurning harbiy tarix sohasidagi teran bilimidan hayratga tushgan, uni “munozara –bahslarni yaxshi ko‘radigan o‘tkir zakovatli va teran zehqli inson” deb ta’riflagan. Asosiy asari “Kitob ul –Ibugunbar” (Ibratlar kitobi”, 1370). Asarda Ibn Xaldun jamiyat taraqqiyoti xususida o‘z fikrlarini hamda Sharq musulmon xalqlari, xususan, Mag‘rib tarixini bayon qilgan. Ibn Xaldun kishilar hayotidagi tafovutlarni, asosan jug‘rofiy va boshqa moddiy omillarga bog‘liq deb hisoblaydi. Asarda Ibn Xaldun o‘z tarixiy –ijtimoiy nazariyasini bayon qilib, axloqiy va ijtimoiy muassasalar kishilar turmushi bilan bog‘liqligini hamda mehnat va kishilarning o‘zaro munosabatlari, jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan²⁸.

Davlat siyosati, Ibn Xaldunning fikricha, faqat hukmdorlar bilan chegaralanib qolmay, balki unda barcha tobelarning ishtirokini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun davlatdagi barcha o‘zgarishlar nafaqat davlat rahbarining, balki butun jamiyatning pozitsiyasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Davlatning o‘zi uch avlod yoshi bilan belgilanadigan muayyan vaqt doirasiga ega. Bu davrda u rivojlanishning besh bosqichidan o‘tadi:

- eskisini o‘rniga yangi hokimiyatning qudratga kelishi;
- hukmdorning hokimiyatga kelishiga yordam bergan barcha sheriklari yo‘q qilgandan keyin oliy hokimiyatning bir qo‘lda to‘planishi;
- tartib, xotirjamlik va ishonch hukmron bo‘lgan davlatning gullab-yashnashi;
- muxolifatni bostirish uchun hokimiyatning zo‘ravonlik va despotik usullariga o‘tish;
- davlatning tanazzul va qulashi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Islom mafkurasi.
2. Islomdagi oqimlar va mazhablar.

²⁸ Нурматова, М. М. Ибн Халдуннинг фалсафий ва ахлокий қарашлари / М. М. Нурматова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 48 (286). — С. 506-509. — URL: <https://moluch.ru/archive/286/64405/> (дата обращения: 01.04.2022)

3. Xorijiyalar, karmatlar va ismoiliylar mafkurası.
4. Nizom ul - mulkning “Siyosatnoma” asarida davlat boshqaruvi masalasi.
5. Arab – musulmon mutafakkırlarining jahon siyosiy tafakkuri tarixida tutgan o‘rni.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Maqsadi – dunyoda yahudiylar hukmronligini o‘rnatishga erishish, u tashkil topgan davrda “maxfiy qudrat” deb atalgan ta’limot qanday nomlangan?
 - a) Sionizm
 - b) Monizm
 - c) Massonizm
 - d) Messiya
2. Qachon arablar yagona davlatga (halifalik) birlashtirilgach, islom ta’limoti davlatning yagona mafkurasiga aylandi?
 - a) 630-yilda
 - b) 610-yilda
 - c) 590-yilda
 - d) 632-yilda
3. Muhammad payg‘ambar vafotidan so‘ng ansorlar tomonidan Umma boshchisi – xalifalikka nomzod masalasi ko‘rib chiqilgan joyni ko‘rsating.
 - a) Madina shahri
 - b) Banu Sa’ida qabilasining Saqifa nomli guzari
 - c) Makka
 - d) To‘g‘ri javob yo‘q
4. Abu Bakr as-Siddiqning hukmronligi qaysi darvga to‘gri keladi?
 - a) 632-634 yillar
 - b) 585-644 yillar
 - c) 575-656 yillar
 - d) 670-673 yillar

5. Muhammad payg‘ambarning (s. a. v.) yaqin safdoshlaridan biri, buyuk davlat arbobi, Abu Bakrning xalifa bo‘lib saylanishi (632-yilda) tashabbuskori Islomni taxminan 616-yilda qabul qilgan xalif kim bo‘lgan?
- a) Abu Bakr as-Siddiq
 - b) Umar ibn Xattob al-Foruq
 - c) Usmon ibn Affon
 - d) Ali ibn Abu Tolib
6. Islom ta’limotining yoyilish jarayoni, halifalik davlati davrida vujudga kelgan ijtimoiy ziddiyatlar va hokimiyat uchun kurashlar davomida qanday yo‘nalish va oqimlar shakllangan.
- a) Xorijiylik, shialik, sunniylik
 - b) Shialik, sunniylik
 - c) Hanafiylik, shialik, sunniylik
 - d) Hammasi
7. Hozirgi kunda eng keng tarqalgan yo‘nalish qaysi qatorda to‘g‘ri keltirilgan?
- a) Sunniylik
 - b) Shialik
 - c) Xorijiylik
 - d) Hanafiylik
8. Qur’ondan keyingi asosiy muqaddas manba, hadislar to‘plami deb qaraladi.
- a) Sunniylik
 - b) Shialik
 - c) Xorijiylik
 - d) Hanafiylik
9. Hanafiylik mazhabi asoschi kim?
- a) Abu Yusuf Yoqub
 - b) ash-Shayboniy
 - c) Marg‘inoniy ar-Rishtoniy
 - d) Abu Hanifa

10. Shofi'iy mazhabi asischi imom ash-Shofi'iy tug'ilgan va vafot etgan yillarni aniqlang.

- a) 677-731 yillar
- b) 767-820 yillar
- c) 777-843 yillar
- d) 690-750 yillar.

8-MAVZU: O'RTA ASRLARDA JANUBIY VA SHARQIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MAFKURAVIY YO'NALISHLAR VA OQIMLAR

Reja:

1. Xindistonda IV-VI asrlarda feodalizm mafkurasi.
2. Xindistonda kastachilik tartiblari. Shankara ta'limoti.
3. Xitoyda III-IV asrlarda feodalizm mafkurasi. Ko'chmanchilar istilosi.
4. Yaponiyada siyosiy fikr, rasmiy mafkura xususiyatlari.

Tayanch tushunchalar: Hindistonda IV-VI asrlarda feodalizm mafkurasi; kastachilik tartiblari; mafkuraviy sohada braxmanizmning yetakchiligi; induizm mafkurasi; Shankara ta'limoti; boburiylar davrida mafkuraviy hayot; Xitoyda III-IV asrlarda mafkuraviy soha; xan sulolasida konfutsiychilik mafkurasi; Dao sektalari mistikasi, buddaviylik ravnaqi; Neokonfutsizmning hukmron mafkuraga aylanishi; Yaponiyada siyosiy fikr, rasmiy mafkura xususiyatlari; Konfutsiychilik va buddaviylikning hukmron mafkuraga aylanishi.

Hindistonning o'rta asrlarda ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi Yevropa mamlakatlarida bu davrda rivoj topgan feodalizmdan biroz farq qiladi. Hindistonda hukmron sinfnings iyerarxik tizimi unchalik taraqqiy etmagan, ayrim hollarda esa, feodalizm jamiyatining asosiy belgilari, alomatlaridan hisoblangan bu iyerarxik tizim o'zini to'la-to'kis namoyon qilmagan edi. Hind dehqoni o'z xususiy xo'jaligiga ega emasdi. Majburiy mehnat (begar) aksariyat paytlarda istehkom, qal'alarni kurishda,

sugʻorish inshootlarini barpo etishda va bopsha yumushlarda qoʻllanilar edi. Dehqonlar rentani avvaldan belgilangan davlat soligʻi shaklida toʻlashardi.

Hindistonda kastachilik tartiblari. Shankara taʼlimoti. Hind jamiyatidagi ijtimoiy hayot negizini asrlardan buyon saqlanib kelayotgan kasta tashkil qilardi. Kasta – bu hind jamiyatidagi aholining kasb-kori, hunariga qarab tabaqalanishidir. Shuningdek qadimgi davrdayoq bu mamlakatda shakllangan 4 varna (tabaqa, toifa) mavjud edi. Har bir varna oʻz navbatida koʻp xilma-xil kastlarga boʻlingan, ularning soni ayrim vaqtlarda mingdan ham oshib ketgan.

Vedanta falsafiy maktabi va uning mohiyati Vedanta qadimgi hind falsafiy maktablaridan biridir. Vedanta soʻzi vedalar oxiri degan maʼnoni anglatadi. Mazkur taʼlimotning asoschisi oʻzidan soʻng “Vedanta sutra” nomli asar qoldirgan. Bu asar muallifi donishmand Basdarayana hisoblanadi. Maʼlumotlarga qaraganda mil. av. VI asr boshlarida yashab ijod etgan.

“Vedanta sutra” toʻrt qismdan iborat boʻlib, birinchi qismda Brahma nazariyasi, uning tabiati, olamga hamda yakka jonga boʻlgan munosabati bayon qilingan. Ikkinchi qismida esa, vedanta taʼlimotining muholiflari: charvaka-lokayata, buddaviylik va jaynizmning nazariy asoslari tanqid qilinadi. Asarning uchinchi qismida esa, brahmanni bilishga erishishning yoʻllari va usullari haqida fikr yuritiladi, toʻrtinchi qismida esa, Brahman bilishining natijalari haqida fikr yuritiladi.²⁹

Vedanta taʼlimotini tizimlashtirgan faylasuf Gaudapada boʻlib, eramizning III–IV asrlar birinchi yarmida yashab ijod etgan. Gaudapada ham oʻzidan keyin “Mandukxya Karika” nomli asar yozib qoldirgan. Asar ikki qismdan iborat boʻlib, birinchi qismida Mandukxya Upanishadlarning sharhi boʻlib, unda Brahma va Atma aynan bir narsa ekanligi haqida soʻz boradi. Gaudapada oʻzining mazkur asarida voqelikning tartibotlari, yaʼni Atma (ruhning) toʻrt holati haqida fikr yuritadi:

1. Atma uygʻoqlik holatdagi olamning ongi sifatida;
2. Atma uyqu va tush koʻrish holatdagi ong sifatida;

²⁹ Веданта-сутры. “Афоризмы о Веданте (венце Вед)”. Духовные и священные писания Востока. URL: <https://scriptures.ru/sutras/brahmasutras.htm> (дата обращения: 01.12.2022)

3. Atma chuqur uyqudagi ong sifatida;

4. Atma har qanday his etish, munosabat, tafakkur, aniqlash va bayon etish holatlardan tashqarida.

Shankara ta'limoti Eramizning VIII–IX asrlarida “Vedanta sutra” asariga sharhlar yozgan faylasuf Shankara “Advayta Vedanta” (monistik vedanta)ning asoschisi hisoblanadi. Tabiat va jamiyat hodisalarining asosi qilib, “mutlaq haqiqat”ni, ya'ni Brahmaning Atmani oladi.

Brahma abadiy cheksiz, amorf. U zamon va makon kategoriyalaridan tashqarida. Sabab va oqibat, harakat va turg'unlik miqdor va sifat kategoriyalari, hissiy dunyoga, tabiatga materiya (prakriti)ga taalluqlidir. Shankara ta'limotiga ko'ra, faqat Brahman real mavjud bo'lib, tabiat esa, Brahma xudosining soyasi, illyuziyasidir. Shankara ta'limoticha, Brahma o'zligicha qoluvchi, o'zgarmas, boshqa biron bir narsaga aylanmaydigan, shu jumladan, biz yashab turgan dunyoning narsa va hodisalariga aylanmaydi. Bordi-yu u (Brahma) moddiy dunyodagi narsa va hodisalarga aylana olganda edi, unda biz moddiy dunyodagi narsa va hodisalarni bilish orqali Brahma xudosini bilgan bo'lar edik. Bu esa, Brahmaning mohiyatiga qarama-qarshi bo'lgan bo'lar edi.

Xitoyda feodal munosabatlar Xan quldorlik imperiyasi va shimoldagi qabilalar ibtidoiy jamoa tuzumi zaiflashuvi asosida tarkib topa boshladi. (Xitoy tarixchilari - Eramizdan avval XI asrgacha davrdan).

Xan davlati buyuk Xitoy devoridan Janubiy Xitoy dengizigacha bo'lgan teritoriyada joylashgan edi. 50 mlndan ortiq aholisi bo'lgan. Qadimiy poytaxtlari Chan'an (Sian - hozirgi nomi), Loyan Xalq nomi Xanlar Ipakchilik sopol buyumlar yasash qurol yasash, qog'oz ishlab chiqarish rivojlangan.

184-yilgi “Sariq peshonabog'lilar” qo'zg'oloni mamlakatni xarob qilgan, zayiflashuv boshlangan. O'zaro urushlar ham davlatni kemirgan. 189-yili poytaxt Loyan qo'ldan ketgan. Ichki urushlar sobiq imperiyani 3 lashkarboshi tomonidan bo'lib olinishini bilan yakunlangan. Uch podsholik davri boshlangan.

III-IV asrlarda Xitoy shimolidan Rimga qadar bo'lgan teritoriyada xalqlarning buyuk ko'chishi jarayoni davom etgan Janubiy Xunlar (nan syunni), syanbilar, di,

syon, sze va boshqa qabilalar Shimoldan O'rta Xitoy tekisligiga ko'chgan - Qadimiy Xanlar etnik beshligi Shimoldagi Xunlar ittifoqi yemirilgach, janubiy guruh Shimoliy Shansi va ichki Mongoliya hududlarida yashab qolgan. Asosiy mashg'uloti chorvachilik. 5 Xun qabilasi vakillari boshliq shanyuy (tangri quli) saylanganlar, u keyinchalik meros bo'lib o'ta boshlagan.

Neokonfutsiychilik, asosan Suy davrida (X—XIII-asrlar) rivojlangan Xitoy falsafasining idealistik maktabidir. Neokonfutsiychilik buddizm va daosizm bilan kurash jarayonida, ayni paytda ularning ta'sirida shakllangan. Neokonfutsiychilikning dastlabki tarafdorlarini VIII—IX-asrlar yozuvchisi va faylasufi Xan Yuy va uning shogirdi Li Ao deb hisoblash mumkin. Ular Xitoyda Daosizm va Buddizm ta'limotlarining ta'sirini bartaraf etish uchun konfutsiylarni yangilash va yanada rivojlantirish vazifasini qo'ygan. Dastlabki konfutsiylardan farqli o'laroq, asosan axloqiy va siyosiy tushunchalari bilan neokonfutsiychilikda ontologiya, naturfalsafa va kosmogoniya masalalari muhim o'rin tutadi. XI-asr mutafakkiri neokonfutsiychilik asoschilaridan biri Chjou Dun-i yoki Chjou-szi dunyoning asosiy prinsipi sifatida “buyuk chegara” (tay chi) tushunchasini ilgari surdi. Bu mutlaq “buyuk chegara” tabiat olamiga va axloqiy munosabatlar olamiga yagona tizim sifatida, bir butunlikning ikki tomoni sifatida bo'ysunadi. Chjou szu ta'limoti Chjan Zay va aka-uka Chen Xao va Chen Yi tomonidan qabul qilingan va ishlab chiqilgan. Chju Si - sharhlovchi, tarixchi, dualist faylasuf, o'zidan oldingilarning asosiy falsafiy g'oyalarini tizimlashtirdi. Chju Si “buyuk chegara” ikkita boshlang'ichni (ideal g'ayrioddiy “li” va moddiy “tsi”) o'z ichiga oladi, deb hisoblardi, ular “li” ni hamma narsadan oldin va hamma narsadan ustun, lekin faqat “tsi” bilan mavjud bo'lishga qodir. Neokonfutsiychilik subyektiv-idealistik maktabining eng ko'zga ko'ringan vakili XV-asr oxiri XVI-asr boshlarida yashagan faylasufi – Vang Ya-min, Konfutsiy va Men-tsining bilimning tug'maligi haqidagi g'oyasini dunyo ongning mahsuli degan ta'kid bilan to'ldirdi.

Neokonfutsiychilik qadimgi konfutsiychilikning mavjud ijtimoiy tuzumlarning daxlsizligi haqidagi reaksiya konsepsiyasini, odamlarning yuqori va quyi, “zodagonlar” va “mayda odamlar”ga bo'linishining tabiiy mohiyatini qo'llab-

quvvatlagan. Neokonfutsiychilar Konfutsiy an'anaviy manbasining asosiy qismi – "Besh kitob" ("U Szin") talqinini qayta ko'rib chiqdilar. Chju Si taklifi bilan "To'rt kitob" ("Si shu") yangi konfutsiychilik manbasi deb e'lon qilindi.

XIII-asr oxiri - XIV-asr boshlarida neokonfutsiychilik rasmiy mafkuraga aylandi. Neokonfutsiychilik Xitoy falsafiy va ijtimoiy-siyosiy tafakkurida XX-asr boshlarigacha o'zining hukmron mavqeini saqlab qoldi. Yaponiya, Koreya va Vetnamdagi falsafiy qarashlarga katta ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi yapon politeistik dini tabiatga sig'inish, ibtidoiy animizm, ajdodlarga sig'inish va sehrga e'tiqodning kombinatsiyasi bo'lgan sintoizm ("shinto" – "xudolar yo'li") edi. Qadim zamonlarda ildiz otgan sintoizm yaponlarning dahshatli tabiat kuchlari oldida o'jizligini aks ettirib, ularni osmonga, quyoshga, shamolga, momaqaldiroqqa, daryolarga va hokazolarga sig'inishga va ularni ilohiylashtirishga majbur qilgan. U xalq e'tiqodlari va xurofotlardan shakllangan va qadimda dehqonchilik bilan chambarchas bog'langan. Dastlab, urug'larning oqsoqollari shinto ruhoniylari bo'lgan, keyinchalik ruhoniylarning funksiyalari meros bo'la boshlagan; ruhoniylarning irsiy korporatsiyasi vujudga keldi. Qabila oqsoqollari vafotidan keyin qarindoshlar ularni "qabila xudolari" ("ujigami"), urug'ning ilohiy homiylariga aylantirdilar. Keyinchalik, urug' oqsoqollarini ilohiylashtirish yanada kengroq xususiyatga ega bo'lib, imperator oliy ruhoniy sifatida quyosh ma'budasi Amaterasu avlodi deb e'lon qilindi. Sintoizm din sifatida o'zining asosiy muqaddas kitobi bo'lgan "Kodziki"³⁰ (Qadimgi ishlar yilnomalari)da va Yaponiya yilnomalarida bayon etilgan afsonalarda to'liq aks etgan. Bu miqlarning noxolis tanlanishi reaksiya yapon tarixchilari va siyosatchilari tomonidan imperator sulolasining "ilohiyligi" va "abadiyligi"ni isbotlash, Yaponiyaning "o'ziga xosligi" isbotlash uchun foydalanilgan.

VI asr o'rtalarida Yaponiyaga Buddizm kirib keldi. 552-yilda Koreyaning Pekche davlatidan Kimmey qabila ittifoqi boshlig'iga Budda ta'limotini yoyishni tavsiya qilgan maktub bilan elchi keldi. Tez orada Budda ibodatxonalari va

³⁰ Кодзики - записи о деяниях древности. URL: <https://coollib.com/b/409605/read> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

monastirlari jadal qurila boshlandi. Horyudzi – Yaponiyadagi birinchi budda monastiri (“Qonun g‘alabasi ibodatxonasi”) 608-yilda Nara shahrida Syotoku-tayshi tomonidan tashkil etilgan. 624-yilga kelib, mamlakatda 46 ta ibodatxona va monastir, 1385 ta bonza va rohibalar bo‘lgan, asr oxirida ibodatxonalar va monastirlar soni 545 gacha, ya’ni deyarli 12 marta ko‘paydi. Imperator Syomu 741-yilda feodallardan har bir viloyatda budda ibodatxonalari qurishni talab qiluvchi qonun chiqardi. Ushbu qonunni bajarish uchun mashhur Todaydzi (749-y.) va Enryakudzi (788-y) ibodatxonalariga asos solingan.

Buddizmning Yaponiyaga kirib borishi bilan yaponlarning dastlabki dini - sintoizm u bilan birga yashaydi, ammo buddizm tobora ko‘proq e’tiborga tusha boshladi va tez orada hukmron dinga aylanib, Yaponiyada ilk feodal davlatning shakllanishiga hissa qo‘shdi va Osiyo mamlakatlari qadimgi sivilizatsiyasiga asos bo‘ldi.

Buddist ta’limotlari Yaponiyada Mahayana yo‘nalishi (“Mahayana” – so‘zma-so‘z “buyuk arava” yoki “keng najot yo‘li”) shaklida tarqalib, mavjud dunyo go‘yo haqiqiy emasligini targ‘ib qilgan. Haqiqatga passiv munosabatda bo‘lish va “nirvanaga erishish yo‘li” haqidagi ta’limotlari bilan buddaviy odamlarni qurolsizlantirishdi, ularni “hayoliy haqiqat”ni faol o‘zgartirish vositalaridan chalg‘itishdi.

Keyinchalik, VII-asrning 1-choragidan XII-asrgacha Yaponiyada buddizm borliqning metafizik muammosini hal qilish yo‘llari haqidagi turli g‘oyalari bilangina farq qiluvchi bir qancha sektalarga bo‘lingan.

XII-asr boshlarida sintoizm va mahayanistik buddizmning asosiy dogmalarini, shu bilan birga, buddizmning barcha muhim belgilarining ustunligi bilan eklektik tarzda birlashtirgan ikki qismli “shinto-buddizm” (“rebushinto”) haqidagi dualistik sinkretik ta’limot shakllana boshladi. Uning yaratuvchisi har ikki dinni yarashtirishga harakat qilgan ruhoniylar Kobo-Daishidir. Sintoizm va buddist ruhoniylari o‘rtasidagi uzoq davom etgan raqobat natijasida sintoizm xudolari buddistlar panteoniga kiritildi.

Buddizmning Yaponiyaga kirib kelishining eng muhim oqibatlaridan biri buddist ruhoniylarining mamlakat siyosiy hayotida muhim rol o'ynashi, ayniqsa VII asrdan boshlab eng yuqori davlat lavozimlarini egallashga intilishidir. Ruhoniylarning bu taraqqiyoti katta qurolli kuchga va feodallarga qaram dehqonlar bo'lgan katta yer maydonlariga ega bo'lgan cherkov va monastirlarning jadal qurilishi bilan bog'liq edi. Budda cherkovi feodal tuzumning asosiy tayanchiga aylandi.

XI asr oxirida "monastir boshqaruvi" tizimi vujudga keladi: voyaga etgan imperatorlar majburan tonzil qilingan rohiblar va balog'atga yetmagan imperatorlar taxtga o'tiradilar, ular budda cherkovi ruhoniylarining quroli bo'lib chiqadi, ular haqiqatda ular nomidan mamlakatni boshqargan. Bularning barchasi feodal ichki nizolarni qo'zg'atdi.

Buddizm bilan deyarli bir vaqtda Konfutsiy mafkurasi Yaponiyaga Xitoydan kirib keldi. Uning tarqalishiga Konfutsiy adabiyotini yaxshi o'rgangan odamlarning kelishi, shuningdek, yaponiyaliklarning Koreya va Xitoyga u bilan tanishish maqsadidagi safarlari yordam berdi. Shoto-kutaishining "17 modda qonuni"ga katta ta'sir ko'rsatgan konfutsiylik axloqiy va siyosiy ta'limoti VIII-XI asrlarda, feodal aristokratiyasi orasida tarqaldi. XII asrda, neokonfutsiylarning yozuvlari, ayniqsa Chju Si ta'limoti Yaponiyaga kirib bordi. Ikkala ta'limotni birlashtirishga urinishlar qilindi, ammo buddizm konfutsiylikni chetga surib qo'ydi va ikkinchisining tiklanishi faqat XVII-asrning boshlariga to'g'ri keladi.

Davlat sintoizmi (kāngāngīngī kokka shinto:) – XIX asrning oxirgi choragida Yaponiyada paydo bo'lgan va Ikkinchi jahon urushi oxirigacha davom etgan diniy-siyosiy tizim. Kokka Shinto sintoizm tamoyillari va an'alarini davlat darajasiga ko'tarishni o'z zimmasiga oldi. Bunday vaziyatda sintoizm qonuniy ravishda din hisoblanmadi, u amaldagi davlat mafkurasi edi. Davlat sintoizmi siyosatining asosiy sababi imperatorning siyosiy obro'sini zudlik bilan ko'tarish zarurati bo'lib, u Tokugava syogunlarining uzoq hukmronligi davrida yo'qotilgan. Sintoizmning o'zi ham shunday tizim mavjud bo'lgan davrda taikyo (yap. chāngi, "buyuk ta'lim") nomiga ega edi. Davlat sintoizmining dogmatikasi va marosimlari ko'pincha

qadimgi yaponiyaliklar ta'limoti sifatida taqdim etilgan, ammo aslida Kokka Shinto mafkurachilari chet el ta'limotlaridan ko'plab elementlarni va yapon antik davrlari Kodziki va Nihon syoku adabiy yodgorliklarini juda erkin talqin qilishgan. Oddiy sintoizmning o'zida rivojlangan dogma yo'qligi sababli, davlat mafkurasi doktrinasini hukumatga zarur deb hisoblagan narsalar bilan to'ldirilgan edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xindistonda IV-VI asrlarda feodalizm mafkurasi.
2. Xindistonda kastachilik tartiblari. Shankara ta'limoti.
3. Xitoyda III-IV asrlarda feodalizm mafkurasi.
4. Neokonfutsiychilik mafkurasi.
5. Yaponiyada siyosiy fikr, sintoizm va rasmiy mafkura xususiyatlari.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Vendanta so'zining ma'nosi nima?
 - a) Vedalar oxiri
 - b) Vedalar boshi
 - c) Ta'limot
 - d) Ilohiy marosim
2. "Vendanta sutra" asarining muallifi kim?
 - a) Basdarayana
 - b) Brahma
 - c) Gaudapada
 - d) Gautama
3. "Mandukxya Karika" asari muallifi kim?
 - a) Basdarayana
 - b) Brahma
 - c) Gaudapada
 - d) Gautama

4. “Sariq peshonabog‘lilar” qo‘zg‘oloni Xan davlatini xarob qilgan yilni ko‘rsating.
- a) 167-yil
 - b) 184-yil
 - c) 200-yil
 - d) 175-yil
5. VIII—IX-asrlarda o‘z oldiga Daosizm va Buddizm ta’limotlarining ta’sirini bartaraf etish uchun konfutsiylikni yangilash va yanada rivojlantirish vazifasini qo‘ygan mutafakkirlar nomini aniqlang.
- a) Xan Yuy, Li Ao
 - b) Shin Szin
 - c) Li dao, Xuanszi
 - d) Hammasi
6. VI asr o‘rtalarida Yaponiyaga qaysi diniy ta’limot kirib keldi?
- a) Daosizm
 - b) Buddizm
 - c) Konfutsiylik
 - d) Zardushtiylik
7. 552-yilda Koreyaning Pekche davlatidan Kimmey qabila ittifoqi boshlig‘iga kelgan maktub nima haqida edi?
- a) Budda ta’limotini yoyishni tavsiya qilgan
 - b) Budda ta’limotini yoyishni oldini olish
 - c) Daosizm ta’limotini yoyishni tavsiya qilgan
 - d) Doisizm ta’limotini yoyilishini oldid olish
8. Horyudzi –
- a) Yaponiyadagi birinchi budda monastiri
 - b) Budda ta’limotini yoyishni maqsad qilganlar
 - c) Shahar nomi
 - d) To‘g‘ri javob yo‘q

9. yaponlarning dastlabki dini - ...

- a) Daosizm
- b) Buddizm
- c) Konfutsiylik
- a) Sintoizm

9-MAVZU: O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADA MAFKURAVIY JARAYONLAR

Reja:

1. O‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropada feodalizm mafkurasi va markazlashgan cherkov hokimiyati.
2. U. Okkamning siyosiy qarashlari, uning papachilikka munosabati.
3. Marsiliy Paduanskiyning siyosiy-huquqiy ta’limoti.

Tayanch tushunchalar: Feodal tarqoqlik, feodalizm mafkurasi va markazlashgan cherkov hokimiyati; O‘rta asrlarda g‘oyaviy qarama-qarshilik, mafkuraviy kurashlar xususiyatlari; Papa hokimiyati va sxolastika hukmronligi; “Erkinlikning buyuk Xartiyasi”, uning ta’limotining katolik cherkovi uchun mafkuraviy ahamiyati; U.Okam siyosiy qarashlari, uning papachilikka munosabati; Pyer Abelyarning cherkov mafkurasi, ortodoksal sxolastika munosabati; Yeretiklar mafkurasi.

G‘arbiy Yevropada feodal tuzum ming yildan ko‘proq, (V-XVI asrlar) katta davrni o‘z ichiga olgan bo‘lib, iqtisodiy tuzum, sinflarning o‘zaro munosabatlari, davlat tartiblari va feodal jamiyatning huquqiy institutlari G‘arbiy Yevropa o‘rta asr siyosiy-huquqiy g‘oyalarlarining ijtimoiy yo‘nalishiga o‘zining hal qiluvchi ta’sirini ko‘rsatgan edi. Bu g‘oyalarlarda feodal tuzumning antogonistik ziddiyatga ega bo‘lgan feodallar va mazlum ommaning hamda hukmron sinfga mansub turli guruhlar o‘rtasidagi kurashlar o‘z aksini topgan edi.

1667-yilda nemis tarixchisi Gorn tomonidan madaniy-tarixiy jarayonni davriylashtirishning klassik (xristianlik) sxemasiga kiritilgan “Oʻrta asrlar” atamasi antik davr va hozirgi davr oʻrtasidagi davrni bildiradi. Odatda madaniyat tarixchilari oʻrta asrlarni ellinistik mumtoz, antik madaniyatning yoʻq boʻlib ketishidan to uning qayta tiklanishigacha boʻlgan davr deb hisoblashadi. Oʻz navbatida, bu davr 1000-yilni qamrab olgan turli davrlarga ega. Shu sababli, ushbu madaniyatning oʻziga xos xususiyatlarini tushunish uchun uning xarakterli, sifat xususiyatlarini hisobga olish tavsifiya etiladi.

Oʻrta asrlar madaniyati uchun asosiy rolni Gʻarbiy Rim imperiyasining anʼanalari oʻynaydi, bu “roman ibtido” deb ataladi. Rimning asosiy madaniy merosi huquq, yuksak huquqiy madaniyat; fan, sanʼat, falsafa; shuningdek, Rimning tanazzulga uchrashida imperiyaning davlat diniga aylangan nasroniylik. Ushbu anʼanalar rimliklar bilan kurash paytida “varvarlar” tomonidan oʻzlashtirilgan va franklar, gallar, sakslar, yutlar, gotlar va Gʻarbiy Yevropadagi boshqa qabilalarining, butparast qabila hayotining oʻz madaniyatiga faol taʼsir koʻrsatgan.

Ushbu tamoyillarning oʻzaro taʼsiri natijasida “madaniyatlar muloqoti” ning keskinligi yuzaga keldi, bu Gʻarbiy Yevropa oʻrta asr madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga kuchli turtki berdi.

Uning moddiy asosi feodal munosabatlari boʻlib, ularning asosiy xususiyati;

- yerga egalik qilishning shartliligi feodal janjalni “ushlab turdi” — dehqonlar bilan yer yuqori feodaldan (senyordan) olingan mulk huquqi asosida, u ham oʻz navbatida, bir hududni egallagan feodalning vassali edi. Ijtimoiy-siyosiy ierarxiyaning yuqori darajasi;

- dehqonlarning yer “egallari”ga shaxsiy va iqtisodiy boʻysunishi. Tobelikning asosiy shakllari homiylik va krepostnoylik;

- lord va vassalning oʻzaro majburiyatlari, huquq va majburiyatlarning qatʼiy birligi.

Oʻrta asrlar madaniyati qishloq mulkining yopiq dunyosining tabiiy xoʻjaligi hukmronligi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanmaganligi ostida shakllangan.

Kelajakda shahar muhiti, burgerlar, hunarmandchilik gildiyasi ishlab chiqarish, savdo va pul muomalasi tobora madaniyatning ijtimoiy asosiga aylandi.

Cherkov va uning mafkurachilari hokimiyatga bo'lgan o'z iddaolarini asoslashga urinar ekan, jumladan, "hukmdorning qudrati cherkovdan, cherkov esa bevosita Masih orqali o'z nufuziga ega bo'lgandir. Xristian hukmdorlarining so'zsiz burchi — xristian cherkovining boshlig'iga bo'ysunishidir" degan g'oyalarni ilgari suradilar. Ilohiyotshunoslarning ta'kidlashlaricha, "har qanday hukmdor cherkov xizmatchisidir".

O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada bir necha davlatlar vujudga keldi. O'sha davrda yashagan odamlar albatta aholining muayyan tabaqasiga mansub bo'lgan. Katolik cherkovi Parvardigor oldida barcha nasroniylar tengdirlar, chunki ularning bari cho'qintirilgan va insoniyatni xalos qilishda ishtirok etib kelmoqdalar, deya ta'lim berardi. Ammo ruhoniylarning fikricha, barcha nasroniylarning bu yo'lda qo'shayotgan hissalarini turlicha. Bu hissaning eng kattasi nasroniylar uchun ibodat qilayotganlarga, ya'ni ruhoniylarning o'zlariga tegishli. Undan kamrog'i Iso Masih dini yo'lida jang qilayotganlarga, ya'ni ritsarlarga (suvoriy jangchilar) tegishli. Hissaning eng kichigi ruhoniylar va ritsarlarni moddiy jihatdan ta'minlab, boqib turgan nasroniylarga tegishli, chunki ular nafaqat ruh haqida, balki jism haqida ham g'amxo'rlik qilmoqdalar. Cherkov uzoq vaqt mobaynida shahar ahli faoliyatini mutlaqo Haq yo'lidagi harakat emas, deya baholab keldi.

Rim hokimiyati atrofida birlashgan cherkovning umumiy nomiga aylangan "katolik" so'zi yunon tilidan – "universal", "hammasi" yoki "umumiy". Katolik cherkovining katexizmi talqiniga ko'ra, bu atama "keng qamrovli", "universal" ma'nosida tushuniladi.

Cherkovga nisbatan birinchi marta bu atama taxminan 110-yillarda San-Ignatiyning Smirna aholisiga yo'llagan maktubida ishlatilgan. 1054-yilda cherkov bo'linib ketganidan so'ng u G'arbda markazi Rimda bo'lgan katolik cherkoviga va markazi Konstantinopolda bo'lgan Sharqda pravoslav cherkoviga bo'lingan.

"Erkinlikning buyuk xartiyasi" (lot. Magna Karta, shuningdek, Magna Karta Libertatum) — 1215-yil iyunda ingliz zodagonlarining qirol Ioann-Yersizga

qo‘ygan talablari asosida tuzilgan va o‘rta asr Angliya erkin aholisining bir qator qonuniy huquq va imtiyozlarni himoya qiluvchi siyosiy-huquqiy hujjat. U soliqlar, yig‘imlar va feodal yig‘imlari, sud va sud ishlarini yuritish, ingliz cherkovi,



17-rasm

Uilyam Okkam

shaharlari va savdogarlarining huquqlari, meros huquqi va vasiylik masalalarini tartibga soluvchi 63 moddadan iborat.

Uilyam Okkam (taxminan 1285, 1347) — ingliz faylasufi, fransiskalik rohib(17-rasm). U nominalizm tarafdori bo‘lib, u faqat individ mavjud, universallar esa inson ongida mavhum tafakkur tufayligina mavjud bo‘ladi va bundan tashqari ular hech qanday

metafizik mohiyatga ega emas deb hisoblardi. U zamonaviy epistemologiya va umuman zamonaviy falsafaning otalaridan biri, shuningdek, barcha davrlarning eng buyuk mantiqchilaridan biri hisoblanadi.


U. Okkam faqat yolg‘iz shaxslar bilim subyektini bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Intuitiv bilish ularning real mavjudligini aks ettiradi, mavhum bilish esa obyektlar haqidagi tushunchalar vazifasini bajaradigan atamalar o‘rtasidagi munosabatni aniqlaydi.

O‘rta asrlar falsafasida realizm universallar haqidagi bahsni hal etish, umumiy tushunchalarning ontologik holatini, ya’ni ularning real (obyektiv) mavjudligi masalasini oydinlashtirishning nominalizm va konseptualizm bilan bir qatorda turadi. Faqatgina bitta narsa real, universal esa umumiy nom bo‘lgan deb hisoblaydigan nominalizmdan, universallik obyektlarning real o‘xshashligiga asoslangan tushunchadagi umumlashtirish bo‘lgan konseptualizmdan farqli o‘laroq, haqiqatda universallar mavjud va ongdan mustaqil deb hisoblaydi.

Yevropaning o‘zida esa nasroniy axloqi har kimning hayotda “o‘z o‘rnini bilishi” lozimligini talab qilgan. G‘arbiy Yevropada O‘rta asr cherkovi qanchalik qudratli bo‘lmasin, baribir shahar va qishloq aholisi o‘rtasida cherkov ta’limotiga qarshi chiquvchilar soni tobora ortib borgan. Ruhoniylar bunday kishilarni “yeretiklar” (“yeretik” yunonchada — dindan qaytgan, degan ma’noni anglatadi) deb atagan.

Yeretiklarning uqtirishicha, cherkov “aynigan”, papa esa Parvardigorning emas, balki iblisning noibidir. Cherkov yeretiklarni ta’qib qilgan. Cherkovdan chetlashtirish dahshatli jazo hisoblangan. Bunday (cherkovdan chetlashtirilgan) insonni istagan paytda o’ldirish mumkin edi, buning uchun hech kim jazolanmas, chunki u qonundan tashqaridagi odam hisoblanar edi.

Nominalizm oqimining XIV asr XV asr boshlaridagi vakili Uilyam Okkam o’rta asr sxolastikasining oxirgi vakili hisoblanadi. U 1290-yilda London yaqinida tug’ilgan. U Oksford universitetini tamomlab va u yerda keyinchalik talabalarga saboq bergan, o’z tengdoshlari orasida asosli bahs-munozaralar sohibi bo’lgan bois



18-rasm
Padualik Marsiliy

“yengilmas doktor” tahallusiga ega bo’lgan. U 1324-yilda ayblanib, qamoqqa olingach, to’rt-yil o’tgach, qamoqdan qochishga muvaffaq bo’ladi va nemis qiroli Lyudovik Bavarskiy xizmatiga kiradi. U. Okkam papaga qarshi chiqib, qiroлга shunday degan edi: “Sen meni qilich bilan himoya et, men esa seni qalam bilan himoya etaman”.

Padualik Marsiliy (1275/1280-1343) Aristotel pozitsiyalarida turuvchi, papaga qarshi bo’lib, uning g’oyalari Reformatsiya va protestantizm g’oyalarlariga ohangdosh edi(18-rasm). Uning g’oyalarlari “Tinchlik himoyachisi” (1324) asarida batafsil yoritilgan.



19-rasm
Pyer Abelyar

Foma Akvinskiy singari Marsiliy fikricha, jamiyat o’ziga yetarlicha mukammaldir, shu ma’nodaki, uni ilohiy yoki metafizik asoslashsiz ham boshqarish mumkin. Agar Foma uchun e’tiqod va aql, diniy va dunyoviylikning uyg’unligi mavjud bo’lib, o’ziga to’q jamiyat ilohiy kelib chiqishga ega bo’lsa, Marsiliy jamiyat cherkovga bog’liq emasligini Parijlik Ioanndan ham ishonchliroq, isbotlashga urinadi.

Britaniyada tug’ilgan Pyer Abelyar (1079-1142) juda yoshligidanoq o’z bilimi bilan mashhur edi(19-rasm). Abelyar — mo’tadil realistdir. Uning ta’kidlashicha, reallik yoki universal y dastlab Xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning

o‘zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir. Abelyar “Men e’tiqod qilish uchun bilaman”, degan g‘oyani ilgari surgan. Ya’ni, bilmaydigan, bilimsiz kishidan ko‘ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o‘rgangan kishi afzal. Bunday kishi aqidaparast emas, balki o‘zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Markazlashgan cherkov hokimiyati.
2. Katolik cherkovi mafkurasi
3. U. Okkamning siyosiy qarashlari, uning papachilikka munosabati.
4. Marsiliy Paduanskiyning siyosiy-huquqiy ta’limoti.
5. Pyer Abelyarning “Men e’tiqod qilish uchun bilaman” g‘oyasi mazmuni.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Yeretik bu-....
 - a) yunonchada — dindan qaytgan, degan ma’noni anglatadi deb atagan.
 - b) lotincha – katta yer egasi.
 - c) yunoncha – dindor inson
 - d) harbiylar
2. Nominalizm oqimining XIV asr XV asr boshlaridagi vakili, o‘rta asr sxolastikasining oxirgi vakili kim?
 - a) Uilyam Okkam
 - b) Lyudovik Bavarskiy
 - c) Konand Grex
 - d) Oksfors
3. Erkinlikning buyuk xartiyasi deb nomlangan qonunlar to‘plami qachon tuzilgan?
 - a) 1215 – yilda
 - b) 1210 – yilda
 - c) 1234- yilda

- d) 1300 – yilda
4. Erkinlikning buyuk xartiyasi qonunlari to‘plami nechta moddadan tashkil topgan?
- a) 56 ta modda
 - b) 60 ta modda
 - c) 66 ta modda
 - d) 63 ta modda
5.papaga qarshi chiqib, qirol Lyudovik Bavarskiyga shunday degan edi: “Sen meni qilich bilan himoya et, men esa seni qalam bilan himoya etaman”.
- a) Uilyam Okkam
 - b) Padualik Marsiliy
 - c) Foma Akvinskiy
 - d) Pyer Abelyar
6. “Reallik yoki universalliy dastlab Xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o‘zida mavjuddir va nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir” yuqorida keltirilgan fikr kimning qalamiga mansub.
- a) Uilyam Okkam
 - b) Padualik Marsiliy
 - c) Foma Akvinskiy
 - d) Pyer Abelyar
7. Rennesans so‘zining ma’nosi nima?
- a) fransuzcha so‘z bo‘lib, “Uygonish” demakdir
 - b) lotin tilida “qurulish” demakdir
 - c) yunon tilida “Uyg‘onish” demakdir
 - d) to‘g‘ri javob yo‘q
8. Katolik so‘zining kug‘aviy ma’nosi nima?
- a) Yunon tilidan-e’tiqod, ishonish
 - b) Lotin tilidan-qaram
 - c) Yunon tilidan-hammasi, umumiy
 - d) To‘g‘ri javob yo‘q

10-MAVZU: G‘ARBIY YEVROPADA UYG‘ONISH DAVRI MAFKURASI

Reja:

1. Renessans mafkurasining mazmun mohiyati.
2. G‘arbiy Yevropada ma’naviy - madaniy o‘zgarishlar va renessans markazlari.
3. Italiyada gumanizm mafkurasini. D. Aligyeri gumanistik qarashlari.
4. F. Petrarkaning Rim respublikasiga munosabati. P. D. Mirondola gumanizmi.

Tayanch tushunchalar: Renessans mafkurasining mazmun-mohiyati; G‘arbiy Yevropada ma’naviy-madaniy o‘zgarishlar va Renessans markazlari; Italyan gumanizmi ideologlari; D. Aligyeri gumanistik dunyoqarashi; F. Petrarkaning Rim respublikasiga munosabati; Piko Della Mirandola gumanizmi; Byurgerlar mafkurasini, uning asosiy xususiyatlari; Paduyalik Marsiliy siyosiy qarashlari.

Renessans fransuzcha so‘z bo‘lib, “Uygonish” demakdir. Renessans davri Yevropaning turli mamlakatlarida ularning ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda turlicha kechgan. Ammo ularning aksariyatida Renessans jarayoni XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrning boshlarigacha davom etgan. Renessans davrini o‘rganib chiqqan tarixchilar va boshqa mutaxassislar fikriga ko‘ra, bu davrni uch davrga bo‘lish mumkin:

1. Ilk Renessans davri (XIV asr);
2. Renessansning Etuklik davri (XV asr);
3. So‘nggi Renessans davri (XVI asr);

Italiya XIV - XV asrlarda eng taraqqiy etgan mamlakat edi. Boshqa mamlakatlarga qaraganda Italiyada avvalroq savdo – sotiq va xunarmandchilik tez rivojlandi. Bu esa Italiyada shahar va shaharsozlikning taraqqiy etishiga olib kelgan. Shaharlar hayotiga XIV asrdayoq dastlabki manufakturalar kirib borgan. Savdo-

sotiq, xunarmandchilikning rivojlanishi Italiyada Yangi mulkdorlar tabaqasi – bank, sanoat egalari va yirik savdogarlar qatlamini shakllanishiga olib keldi. Renessans Italiyada dunyoga keldi va butun Yevropa bo‘ylab tarqaldi. Uning amal qilishi har bir mamlakat tarixiy, iqtisodiy - ijtimoiy sharoitidan kelib chiqib, turlicha kechdi.

Renessans davriga xos mafkuraviy jarayonni shunday izohlash mumkin:

- dunyoni materialistik anglashga intilish;
- tabiat hodisalarini nazariy – ilmiy tarzda tahlil etish, amalda sinab ko‘rish;
- cherkov faoliyatiga nisbatan tanqidiy ko‘z bilan qarash, dastlabki reformistik qarashlarning paydo bo‘lishi;
- gumanizm mafkurasining shakllanishi va uning katolik cherkov g‘oyalariga qarshi faoliyatining kuchayishida namoyon bo‘ladi.

Gumanizmning Renessans bilan bog‘liq o‘ziga xos taraqqiyot bosqichi bo‘lib, bir necha davrlarga bo‘linadi:

- ilk gumanizm XIV asrning 30 – 90-yillari.
- gumanizmning yuksalgan davri XV asr birinchi yarmi.
- gumanizm talqinida neoplotinizmning tarkib topishi XV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshigacha.
- gumanistik g‘oyalardan chekinish va gumanistik harakatlarning so‘nishi XVI asrning ikkinchi yarmi bilan bog‘liq.

Uyg‘onish davri madaniyat yutuqlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni yangi madaniyatga organik ravishda qo‘shish va o‘tmishni qayta ko‘rib chiqish asosida yangisini shakllantirishga asoslangan “amaliy maqsadlarga erishish”dir. Uyg‘onish davri mafkurasi Xudoga e’tibor berishdan insonning yerdagi muammolariga o‘tishga qaratilgan. Aql kuchiga e’tiqod diniy dunyoqarashga qarama-qarshi qo‘yildi, inson mustaqil ijodkor shaxs, olam markazi sifatida idrok etila boshlandi.

Dante Aligeri (ital. Dante Alighieri;-may 1265, Florensiya — 13/14 sentabr 1321, Ravenna) — italyan shoiri(20-rasm). Dante, Fridrix Engels ta’rifiga ko‘ra: “... o‘rta asrlarning so‘nggi shoiri va ayni paytda yangi davrning birinchi shoiri” edi.

Kech o‘rta asrlar madaniyatining sintezi berilgan “Ilohiy komediya”asari muallifi. Dastlabki “Yangi hayot” (1292) asari sevgilisi Beatrichega bag‘ishlangan



20-rasm
Dante Aligeri

sonetlardan va nasriy lavhalardan iborat. 1290-yillar oxirida hukmron gveflar partiyasi “oqlar” va “qoralar”ga ajralib chiqqach, Florensiyada hokimiyat “qoralar” qo‘liga o‘tadi. O‘sha paytda Rimda bo‘lgan “oqlar” vakili Dantening mol-mulki musodara etilib, o‘zi o‘limga hukm etiladi. Shundan keyin Dante Florensiyadan chiqib ketadi (1302) va umrining oxirigacha darbadarlikda yashaydi, siyosat bilan shug‘ullanmaydi. Dante falsafiy ruhdagi “Bazm” (1308), “Monarxiya haqida” (1313), “Yer va suv haqida” (1320) risolalarida gumanistik qarashlarni ilgari suradi, davrning muhim ijtimoiy-axloqiy muammolariga javob izlaydi. Jumladan, “Monarxiya haqida” asarida Dante butun jahon monarxiyasini yer yuzidagi odamlarning farovonligini ta’minlaydigan adolatli davlat shakli sifatida himoya qiladi.³¹ 1313-yil e’lon qilingan “Monarxiya haqida” risolasi Italiyada yagona tuzum va qonunga asoslangan qirollik davlati tuzish rejasini ishlab chiqadi. Uning maqsadi Rim papasi izmidan xoli bo‘lgan qudratli imperiya o‘rnatish edi.³²

“Komediya”³³ Dante ijodining cho‘qqisidir (1307—1321). Keyinchalik Bokachio unga “Ilohiy” epitetini bergan. Dante vafotidan so‘ng qo‘shilgan «ilohiy» so‘zi shoir ijodi muxlislari tomonidan asarning badiiy jihatdan yuksakligini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Doston 3 qism (“Do‘zax”, “A’rof”, “Jannat”) dan iborat. Har bir qismda 33 ta qo‘shiq bor. Doston Dantening shoir Vergiliy yetakchiligida u dunyoga sayohati tarzida yozilgan. Bu shakl Sharq obidasi “Me’rojnoma” syujetini eslatadi. “Komediya” an’anaviy diniy syujet asosida bo‘lsada, undagi gumanizm mag‘zini real dunyodagi insonlar hayoti tashkil etadi. Dante asarda insoniyat tarixining turli davrlarida yashagan kishilarning murakkab

³¹ Рустам ИБРАГИМОВ “ИЛОХИЙ КОМЕДИЯ”ДА ТИМСОЛЛАР ТАЛҚИНИ («ДЎЗАХ» ҚИСМИ МИСОЛИДА). URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/rustam-ibragimbekov-dantening-ilohiy-komediya-sida-timsollar-talqini.html> (murojaat sanasi: 10.01.2023)

³² Мухаммаджон Холбеков. Данте Алигьери ва унинг “Илоҳий комедия”си. URL: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/dante-aligeri-va-uning-ilohiy-komediya-si/> (murojaat sanasi: 10.01.2023)

³³ Данте Алигьери. Илоҳий комедия. ДЎЗАХ. URL: <http://library.navoiy-uni.uz/files/abdulla%20oripov%20-%20tanlangan%20asarlar.%203-jild.%20tarjimalar.pdf> (murojaat sanasi: 10.01.2023)

falsafiy qarashlariga munosabatini bildiradi. “Komediya”ning “Do‘zax” qismidagi 4 qo‘shiqda jahonning buyuk donishmandlari Demokrit, Fales, Geraklit, Evklid, Ptolemey, Gippokratlar qatorida Sharqning ulug‘ mutafakkirlari Ibn Sino va Ibn Rushdlar tilga olinagan. Qo‘shiqda qadimiy Turon podshosining qizi, afsonaviy baliq tanli sarkarda ayol Semiramida, Misr malikasi Kleopatra faoliyatiga munosabat bildiriladi. “A’rof”da massagetlar malikasi To‘maris qahramonligi tasvirlangan. “Ilohiy komediya” badiiy yuksak bo‘lishi bilan birga, kishilik jamiyati taraqqiyotida yig‘ilgan bilimlarning boy xazinasidir. Dante Sharq va G‘arb tafakkuri mevalarini omuxta etgan. Muallif Sharq donishmandlari Ibn Sino, Al-Farg‘oniy, Muhammad al-Xorazmiy va boshqalarning asarlaridan foydalangan.

Marsiliy Padualik (Marsilius Patavensis) (1280-1343) – o‘rta asr siyosiy faylasufi, dunyoviy davlat nazariyotchisi. Padua, Orlean va Parij universitetlarida tahsil olgan. 1312–13-yillarda Parij universiteti rektori. Papa Ioann XXII ning Bavariya imperatori Lyudvig bilan kurashida u ikkinchi tarafni oldi. Muallif (ehtimol, uning do‘sti Averroist J.Janden bilan hammualiflikda) 1327-yilda (1378-yilda takroran) cherkov tomonidan qoralangan “Defensor Pacis” (Tinchlik himoyachisi, 1324)³⁴ papaga qarshi asarini yozgan. Germaniyadagi imperatorning saroyiga qochib o‘tadi, u bid’atchi deb e’lon qilindi, quvg‘in qilindi va sirtidan olovda yoqib yuborishga hukm qilingan.

“Defensor Pacis” asarida va uning muhtasar shakli – “Defensor minor”da u cherkovning dunyoviylikka da’volariga qarshi chiqdi. U cherkovni davlatning normal ishlashini ta’minlaydigan “tinchlik” ni buzishda aybladi. Davlatning cherkovdan mustaqilligini oqlashda Paduaskiy Marsiliy “ikki haqiqat” tushunchasidan bu dunyo va boshqa dunyoni, yerdagi baxt va abadiy najotni ikkita avtonom hudud sifatida chegaralagan. Ruhoniyatni siyosiylashtirmaslik, papalarning mutlaq hukmronlik da’volarini rad etib, u bir vaqtning o‘zida Aristotelning davlat haqidagi tushunchasiga tayangan holda dunyoviy hokimiyatni

³⁴ Марсильи Падуанский. Защитник мира. Defensor pacis/Пер. с франц. Б. У. Есенова. Издательство: М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К». 2014. –С.656 URL: https://platona.net/load/knigi_po_filosofii/istorija_srednekovaja/marsilij-paduanskij-zashchitnik-mira-defensor-pacis-2014 (murojaat sanasi: 10.01.2023)



21-rasm
Franchesko
Petrarka

dindan holi qilishni ilgari surdi: dunyoviy hokimiyatning manbai Xudo emas, balki xalqdir va uning maqsadi najot emas, balki yer yuzidagi “yaxshi hayot”dir. Reformatsiya g‘oyalarini oldindan ko‘ra bilgan Marsiliy cherkovining “dunyoviylashuviga” qarshi chiqadi, undan to‘plangan boylikdan voz kechishni talab qiladi.

Renessans davrining yirik vakillaridan yana biri Franchesko Petrarka (20-iyul 1304-yil - 19-iyul 1374-yil) - italyan shoiri, italyan adabiy tilining asoschilaridan biri, faylasuf(21-rasm).

Monpele (1316), Bolonya (1320) universitetlarida huquqshunoslikdan ta’lim olgan. 1326-yil Avinonga ko‘chib borib, diniy rutbani qabul qilgan va oliy martabali ruhoniylar bilan yaqinlashgan. Uning asarlari asosan falsafaga bag‘ishlangan. Shuningdek, ba’zi asarlarida uning ijtimoiy – siyosiy qarashlari o‘z ifodasini topgan. “Olamdan hazar qilish haqida”, “Avlodlarga maktub”³⁵, “Afrika”, “Mening Italiyam”, “Yolg‘izlikdagi hayot haqida”, “Respublika haqida”, “Filologiya”, “Kanson’era”, “Mashhur kishilar haqida”, “She’riy nomalar” kabi asarlari shular jumlasidandir.

Gumanist faylasuf sifatida Petrarka o‘z asarlarida insonni o‘limidan so‘ng emas, tirik paytida qadriga yetish, uning narigi dunyo emas, bu dunyoda baxtli hayot kechirishi haqida o‘ylash kerak, degan g‘oyani ilgari suradi. Inson uchun berilgan erkinlik jamiyat taraqqiyotini yuzaga keltiradi, agar u qancha erkin bo‘lsa, u shuncha o‘z iste’dodini namoyon etadi.

Inson insondek rohat – farog‘atda yashashga, huzur - halovat olishga urinadi, - degan fikrlar Petrarkaga xos. “Maqsadim – qashshoqlikka yuz tutmay, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymay, o‘zgalarga buyruq bermay, birovlariga tobe bo‘lmay yashash”.

³⁵ Franchesko Petrarka. Avlodlarga maktub. URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/franchesko-petrarka-1304-1374-italiya/franchesko-petrarka-avlodlarga-maktub> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

Nikollo Makiavelli (3-may 1469-yil - 22-iyun 1527-yil) mafkurani idrok etishning yangi davrini boshlab berdi – diniy tafakkurga siyosiy e'tiqodlarga qarshi chiqdi(22-rasm).


Italiyalik faylasuf Makiavelli Florensiyadagi aslzoda, ammo uncha boy bo'lmagan oilada o'sdi. Uning tarjimai holida ko'pgina noaniqliklar mavjud.

Makiavelli 1498-yildan davlat xizmatchisi bo'lib ishlay boshladi. Makiavelli garchi yuqori mansablarda ishlamas-da, katta siyosatning sir-asrorlarini yaxshi bilardi. 1512-yil hukumat tepasiga Medichi kelishi bilan Makiavelli Floreniyadan quvib chiqarildi. U keyinchalik hibsga olinib, qiynoqqa solingani haqida ham ma'lumotlar bor.

Makiavelli ham barcha kashfiyotchi ijodkorlar kabi ta'qib va tazyiqlarga duchor bo'lgan. Jan Boden va Tommazo Kampanella birinchi bo'lib Makiavelli qarashlarini qoralashgan.

Makiavelli an'anaviy ravishda siyosat olamining faylasufi hisoblanib kelgan. Uning quyidagi asarlari ma'lum: "Hukmdor"³⁶ (1513), "Tit Liviyning birinchi 10 ta kitobiga doir mulohazalar" (1516-1517), "Mandragora" (1518), "Harbiy san'at to'g'risida"³⁷ (1519-1520), "Andriya" (1519), "Katruchcho Kastrakani hayoti" (1520), "Florentsiya tarixi"³⁸, "Til haqida so'zlashuv".

Bularning orasida eng mashhuri "Hukmdor" asaridir. 1559-yilda Makiavellining hamma asarlari Katolik Cherkovi tomonidan ilk "Taqiqlangan



22-rasm
Nikollo Makiavelli

kitoblar ro'yxati"ga kiritilgan.

Makiavelli insoniyat yo'lini insonning yaratilishidan dahshatli hukm sari harakat sifatida qabul qilib bo'lmaydi, deb hisoblagan, u inson ham tarix kabi o'zgaruvchan, davrlar, davlat va odamlarning urf-odatlarini o'zgarib turadi, dunyo esa o'zgarishsiz qoladi, deb hisoblardi. Ideal yoki "ezgu maqsad"

³⁶ Никколо Макиавелли. Хукмдор. URL: <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/nikkolo-makiavelli/nikkolo-makiavelli-hukmdor/> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

³⁷ Макиавелли Н. Военное искусство. — М.: Воениздат, 1939. URL: <http://militera.lib.ru/science/macciaveli/index.html> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

³⁸ Никколо Макиавелли. История Флоренции. URL: <https://knizhnik.org/nikkolo-makiavelli/istoriya-florenzii/1> (murojaat sanasi: 10.12.2022)

ga erishish uchun Makiavelli faol ratsional harakatlar zarur, idealga erishish qiyin vazifadir, unga faqat chinakam taniqli odamlar erisha oladi, deb hisoblaydi.

Shu yerda savol tug'iladi: "G'oyani shaxsga, unga mo'ljall olish uchun ideal model sifatida bog'lash mumkinmi?" Makiavelli fikriga ko'ra "ezgu maqsad"ga erishish ko'p jihatdan - dono, ayyor, dushmanlarni yengishga qodir hukmdorga bog'liq. Uning nazdidagi hukmdor, huddi shu nomdagi asarida, nostandart qaror qabul qilishga qodir, "zamon bilan hamqadam bo'lishni biladigan", vaziyatga moslasha oladigan va xalq farovonligini ta'minlash yo'lida "oldingi harakat yo'nalishini" o'zgartira oladigan shaxsdir. Dono hukmdorning vazifasi xalqning barkamol yashashini, davlat ravnaqini, yaxlitligini saqlashni ta'minlashdan iborat. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Makiavelli gumanizmining kuchli g'oyalari, uning insonni hamma narsadan ustun qo'yishga intilishi, shaxsga ideal sifatida e'tibor qaratishi har doim ham o'zini oqlamasligini istisno etmaydi, chunki shaxs nomukammaldir, agar biz shaxsiy manfaatlar umumiylaridan ustun bo'lishi mumkinligidan voz kechsak ham, hammani birdek baxtli qilishning iloji yo'qligini anglab etadi.

Piko della Mirandola - yirik gumanist faylasuf(23-rasm). U 1463 – 1495-yillarda yashab ijod etgan. Faylasuf sifatida Mirandola g'arb, yaqin va o'rta sharq



23-rasm

Piko della

Mirandola

falsafiy qarashlarni chuqur o'rgandi, uning o'ziga xos falsafiy qarashlarini yaratdi. P. D. Mirandola falsafiy qarashlarida inson va jamiyat hayoti bilan bog'liq ma'rifat, fidoyilik, gumanistik g'oyalar asosiy o'rinni egallaydi. U "Gentapl", "Mavjudlik va birlik", "Asrologiyaga qarshi fikr va mulohazalar" nomli asarlar muallifi.

1486-yilda Rimda falsafiy va ilohiyot masalalari bo'yicha ommaviy munozara uyushtirishga harakat qilib, buning uchun "900 ta tezis"³⁹ ("Conclusiones nongentae in omni genere scientiarum", (s. 1.),

³⁹ Пико делла Мирандола. Девятьсот тезисов. Пер. с лат. Н. Н. Соколовой и Н. В. Миронова. Под ред. Д. С. Курдыбайло СПб.: Изд-во Русской христианской гуманитарной академии, 2010. — 259 с. URL:

1532) yozdi. Rim papasi Innokent VIII Piko della Mirandola bid'atchilikda ayblab, bahs-munozarani taqiqladi. 1488-yildan Piko della Mirandola Florensiyada L.Medichi homiyligidan bahramand bo'lib yashadi. U Alotun akademiyasining yetakchi faylasuflaridan biri edi. U inson tabiatining takrorlanmasligi va insonning yuksak maqsadi g'oyasini ilgari surdi, dunyoni tushunishda aqlning keng imkoniyatlarini takidladi.

Bahsni Piko della Mirandola tomonidan tayyorlangan "Inson qadr-qimmati haqida nutq" risolasi ochishi kerak edi. Asarda muallifning o'sha davr uchun sehr, qullik, iroda erkinligi va boshqa shubhali mavzular haqidagi fikrlari ifodalangan. Uning munosabatidan keyin Rim papasi maxsus komissiya tayinladi. U Piko della Mirandola tomonidan taqdim etilgan "Tezislar" ni tekshirishi kerak edi. Komissiya mutafakkir ilgari surgan bir qator qoidalarni qoraladi.

Gumanistik antropotsentrizm italiyalik mashhur faylasuf alloma Piko Della Mirandola asarlarida o'zining eng baland cho'qqisiga ko'tarildi. "Yangi falsafiy din" deb nomlanuvchi umumiy din yaratish g'oyasini olg'a suradi.⁴⁰ Ana shu g'oyani isbotlash uchun butun Yevropa faylasuflarining 1486-yil Rimda bo'ladigan yig'ilishiga 900 ta tezis taqdim etadi. Ushbu tezislar yeretik (bid'at) xarakterga ega deb baholanadi va qamoqqa olinadi. 1495-yilda vafot etadi.

Byurger (nemischa Burger - shaharlik) – o'rta asrlar shaharlari jamoasining a'zosi, shahar imtiyozlaridan to'liq foydalanadi - yashash huquqi, biznesda jamiyatga homiylik qilish, shaharni boshqarishda ishtirok etish va h.k.; tor ma'noda - asosan hunarmandlar, o'rta va mayda savdogarlardan tashkil topgan shahar aholisining o'rta toifai vakili.

https://platona.net/load/knigi_po_filosofii/istoriya_vozrozhdenie/piko_della_mirandola_dzhovanni_devjat_sot_tezisov_tezisy_1_400/9-1-0-2853 (murojaat sanasi: 10.01.2023)

⁴⁰ Choriyev A. Inson falsafasi: Inson to'g'risidagi falsafaiy fikrlar taraqqiyoti. (Mas'ul muharrir Q. Nazarov); O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati, O'z FA I.M.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq in-ti. —T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. 80-bet. URL:

https://library.samdu.uz/files/802e77b1c0653a3da6662fdf0656c9ec_%D0%98%D0%B6%D1%82%D0%B8%D0%BC%D0%BE%D0%B8%D0%B9%20%D0%BF%D1%81%D0%B8%D1%85%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F.pdf

Byurgerlar keng ma'noda — shahar qonunchiligiga bo'ysunuvchi G'arbiy Yevropa o'rta asr shaharlarining aholisi, ya'ni shahar jamiyatining barcha a'zolari; tor ma'noda - asosan mustaqil hunarmandlar - ustalar (odatda ustaxonalarda birlashgan) hamda o'rta va kichik tadbirkorlardan iborat bo'lgan shahar aholisining o'rta toifai. Ular feodallarga qarshi shahar yerlarini egallash va feodal ekspluatatsiyasidan ozod bo'lish uchun kurash olib borish (XI—XIII-asrlar) jarayonida vujudga kelgan. Burgerlar, asosan, feodallardan qochgan yoki shaharga ko'chib kelgan qaram dehqonlar va qishloq hunarmandlaridan kelib chiqqan. Shahar rivojlanishining dastlabki bosqichida shahar jamoasi odatda ularni o'z tarkibiga (ya'ni burgerlar orasida) erkin qabul qilib, feodal qaram dehqonlarga shaxsiy erkinlikka ega bo'lishga yordam bergan. Shaxsiy erkinlik va undan kelib chiqadigan shahar sudining mutlaq yurisdiksiyasi, o'z mulkini tasarruf etish huquqi va boshqa imtiyozlar burgerlikning ajralmas xususiyatlari edi.

Iqtisodiy jihatdan mamlakatni markazlashtirishdan manfaatdor bo'lgan byurgerlar ko'p hollarda yirik feodallarga qarshi qirol hokimiyatini qo'llab-quvvatlagan. Tabaqaviy monarxiyaning paydo bo'lishi bilan iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan toifa mulkiy vakillik institutlarida ishtirok etish huquqini oldi va nihoyat feodal jamiyatida tabaqa sifatida shakllandi. Tabaqaviy muassasalarda, odatda, faqat boy burger elitasi vakili bo'lgan va u patritsiat ustidan g'alaba qozonishi holatlarida shaharda hokimiyatni qo'lga kiritgan. Feodallarga qarshi qo'zg'olonlarda, ayni paytda feodallar bilan kelishishga moyilligini ko'rsatgan. Mayda burjuaziya ko'pincha plebeylar va dehqonlar bilan birgalikda harakat qilgan.

Feodal jamiyatning rivojlanishida juda katta rol o'ynagan. U tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga hissa qo'shgan, antifeodal mafkura kurtaklarini rivojlantirgan va Uyg'onish davrining gumanistik harakatini tayyorlagan o'ziga xos shahar madaniyatini yaratdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Renessans mafkurasining mazmun mohiyati.
2. G'arbiy Yevropada ma'naviy - madaniy o'zgarishlar va renessans markazlari.

3. Italiyada gumanizm mafkurasi. D. Aligyeri gumanistik qarashlari.
4. F. Petrarkaning Rim respublikasiga munosabati.
5. P. D. Mirondola gumanizmi.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Rennesans soʻzining maʼnosi nima?
 - e) fransuzcha soʻz boʻlib, “Uygonish” demakdir
 - f) lotin tilida “qurulish” demakdir
 - g) yunon tilida “Uygʻonish” demakdir
 - h) toʻgʻri javob yoʻq
2. tarixchilar tomonidan Yevropadagi rennesans davri nechta davrlarga boʻlingan?
 - a) 2 davga
 - b) 3 davga
 - c) 4 davga
 - d) Davga boʻlinmaydi
3. Rennesans davri boshqa davrlardan qay jihatlari bilan ajralib turadi?
 - a) Ilm-fan, madaniyat rivojlanishi
 - b) Davlat tuzimidagi oʻzgarishlari bilan
 - c) Aholi soni ortib borishi bilan
 - d) Aholi turmush tarzi yaxshilanishi bilan
4. Fridrix Engels taʼrifiga koʻra: “... oʻrta asrlarning soʻnggi shoiri kim edi?
 - a) Dante Aligeri
 - b) Beatriche
 - c) L. Davinchi
 - d) ptolemey
5. Dante qaysi asarida Italiyada yagona tuzum va qonunga asoslangan qirollik davlati tuzish rejasini ishlab chiqadi?
 - a) Monarxiya haqida
 - b) Buyuk davlat
 - c) Hukumat

- d) Aholi farovonligi
6. Dante asarlarida buyuk faylasuf olimlar Demokrit, Fales, Geraklit, Evklid, Ptolemey, Gippokratlar qatorida Sharqning qaysi ulug' mutafakkiri tilga olingan?
- a) Abu Ali Ibn Sino
- b) Al Xorazmiy
- c) Maqshbandiy
- d) Al Buxoriy
7. Dantening qaysi asarida massagetlar malikasi To'maris qahramonligi tasvirlangan?
- a) Monarxiya haqida
- b) A'rof
- c) Semiramida
- d) Afsona
8. Inson insondek rohat – farog'atda yashashga, huzur - halovat olishga urinadi, maqsadim – qashshoqlikka yuz tutmay, isrofgarchilikka yo'l qo'ymay, o'zgalarga buyruq bermay, birovlariga tobe bo'lmay yashash degan fikrlar kimga tegishli?
- a) Dante Aligeri
- b) Fridrix Engels
- c) Franchesko Petrarka
- d) Monpele
9. "Olamdan hazar qilish haqida", "Avlodlarga maktub", "Afrika", "Mening Italiyam", "Yolg'izlikdagi hayot haqida", "Respublika haqida", "Filologiya", "Kanson'era", "Mashhur kishilar haqida", "She'riy nomalar" kimning qalamiga mansub?
- a) Dante Aligeri
- b) Fridrix Engels
- c) Franchesko Petrarka
- d) Monpele

10. Nikollo Makiavelli qachon tavallud topgan?

- a) 3-may 1469-yil
- b) 8-may 1479-yil
- c) 3-may 1477-yil
- d) 1-avgust 1470-yil

11. Nikollo Makiavelli qachon vafot etgan?

- a) 22-iyul 1521-yil
- b) 28-avgust 1534-yil
- c) 22-dekabr 1499-yil
- d) 22-iyun 1527-yil

12. “Hukmdor” asari muallifi kim?

- a) Dante Aligeri
- b) Fridrix Engels
- c) Nikollo Makiavelli
- d) Jan Boden

13. “Ilohiy komediya” asari muallifi kim?

- a) Dante Aligeri
- b) Fridrix Engels
- c) Nikollo Makiavelli
- d) Jan Boden

14. “Andriya” (1519), “Katruchcho Kastrakani hayoti” (1520), muallifi kim?

- a) Dante Aligeri
- b) Fridrix Engels
- c) Nikollo Makiavelli
- d) Jan Boden

15. “Florentsiya tarixi” muallifi kim?

- a) Dante Aligeri
- b) Fridrix Engels
- c) Nikollo Makiavelli
- d) Jan Boden

11-MAVZU: REFORMATSIYA MAFKURASI, UNDAGI YO‘NALISHLAR VA OQIMLAR

Reja:

1. Reformatsiyaning vujudga kelishi va diniy islohotlar .
3. Reformatsiyaning asosiy maqsadi va uning asoschilari Martin Lyuter, Jan Kalvin, Tomas Myunserlarning ilgari so‘rgan g‘oyalari.
4. Reformatsiya Rim katolik cherkoviga qarshi va dinda Protestantlik oqimining vujudga kelishi.
5. Reformatsiyaning butun Yevropaga tarqalishi va dehqonlar urushining boshlanishi.

Tayanch tushunchalar: “Reformatsiya davri”; Reformatsiya markazlari; Rim katolik cherkovi mafkurasining inqirozi; Reformatsiya harakatining ijtimoiy tarkibi, harakatlantiruvchi kuchlari, nazariyotchilari; Reformatsiyadagi mafkuraviy oqimlar; Protestantizm mafkurasini; M.Lyuter diniy islohatchiligi; T.Myuntser g‘oyalari; Calvinizm da diniy va dunyoviy hokimiyat, vijdon, e’tiqod erkinligi masalasi; Lyuteranchilik va kalvinizmning kapitalizm mafkurasida tutgan o‘rni; Markazlashgan davlatchilik mafkurasini, uning nazariyotchilari; J.Boden davlat va suverenitet haqida.

Reformatsiya (lot. reformatio o‘zgartirish, isloh qilish) — XVI asrda G‘arbiy va Markaziy Yevropada tarqalgan ijtimoiy harakat. Asosan, zamindorlarga qarshi xarakterda bo‘lib, katolik cherkovi (zamindorlarning asosiy g‘oyaviy tayanchi)ga qarshi kurash tusini oldi. Reformatsiya mafkurachilari katolik cherkovi, uning iyerarxiyasi va umuman ruhoniylarning zarurligi amalda inkor qilingan g‘oyalarni ilgari surdilar; katoliklarning Muqaddas rivoyati rad qilindi, cherkovning yer boyliklari va boshqalarga bo‘lgan huquqlari inkor etildi.

Reformatsiyaning asosiy oqimlari: byurger oqimi (Lyuter, J. Kalvin, U. Svingli); katolik cherkovini yo‘qotish talabini tenglik urnatish uchun kurash bilan bog‘lagan xalq oqimi (T. Myunser, anabaptistlar); o‘z hokimiyatini mustahkamlash

va cherkovga tegishli yerlarni tortib olishga intilgan, dunyoviy hokimiyat manfaatlarini ifodalovchi qirol hokimiyati oqimi. Reformatsiyaning g'oyaviy bayrog'i ostida 1524—26-yillarda Germaniyada Dehqonlar urushi, Niderlandiya va Angliya inqiloblari bo'lib o'tdi. Reformatsiya protestantizmga asos soldi (tor ma'noda — protestantizm ruhida diniy islohotlar o'tkazish).

Reformatsiya (lot. tuzatish isloh etish) qatnashchilarining maqsadlari nima edi? Shaharlik boylarga (byurgerlar, burjuaziya) katolik cherkovi va uning dab-dabali ibodatlari va tez-tez o'tkaziladigan diniy bayramlari haddan tashqari serchiqim bo'lib ko'rindi. Shahar boylari cherkov xodimlarni va boshqa ruhoniylarni ta'minlash uchun oladigan soliq va yig'implarni kamaytirishni, monastirlarni tugatishni cherkov boyliklari hisobiga aysh-ishratida yashashni istar edilar.

Badavlat shaharliklar "kamchiqim cherkov" bo'lishni talab qilar edilar. Cherkovni reforma (isloh) qilishni ko'p feodallar ham uni yoqlab chiqdi. Dehqonlar va shahar kambag'allari katolik cherkoviga qarshi keskin kurash olib bordilar. Bu esa feodal tuzum asoslariga qarshi qaratilgan xalq reformatsiyasi edi.

Reformatsiyaning barcha tarafdorlari protestantlar deb, Yangi cherkov esa Protenstant cherkovi deb atala boshladi.

Reformatsiya (lot. "tuzatish; o'zgartirish, reformatsiya") — XVI asr boshlari va XVII asrda G'arbiy, Markaziy Yevropada katolik cherkovini isloh qilishga qaratilgan keng tarqalgan diniy va ijtimoiy-siyosiy harakat.

Yevropa mamlakatlari Angliya, Daniya va Shvetsiyada reformatsiyani dvoryanlarning qo'llab quvvatlashi bilan qirollar amalga oshirdilar. Shvetsariya va Niderlandiyada reformatsiyaning ta'siri kuchli bo'ldi. Protestant hukmdorlarning Papaga qarshi qaratilgan ittifoqi tuzilgan edi.

Reformatsiyani asoschisi M. Lyuterning isyoni ikkita siyosiy qo'zg'olonga sabab bo'ldi.

Myunser katolik ruhoniylarga qarshigina emas balki, dunyoviy feodallarga qarshi hujum qilib chiqdi. Jon Calvin protestant partiyasiga boshchilik qildi. Calvin o'zining Yangi cherkov tashkilotiga katta ahamiyat berdi. Reforma qilingan cherkovlar demokratik tarzda boshqarildi.

Martin Lyuter (nemischa: Martin Lyuter 1483-yil 10-noyabr, Eysleben, Saksoniya - 1546-yil 18-fevral) - nemis nasroniy ilohiyotchi olimi, reformatsiya tashabbuskori, Bibliyani nemis tiliga tarjima qilgan(24-rasm). Protestantizmning asoschisi, uning nomi bilan protestantizmning eng yirik oqimlaridan biri lyuteranlik deb nomlangan. Nemis adabiy tilining asoschilaridan biri.

1517-yil 18-oktyabrda Rim papasi Leo X “Avliyo Petr ibodatxonasi qurilishiga yordam va xristian olami ruhlarining najoti” uchun gunohlardan kechish va indulgensiya haqida hujjat qabul qiladi.

Lyuter 1517-yil 31-oktyabrda indulgensiyalarni sotishga qarshi chiqqan 95 tezisida ruhni qutqarishda cherkovning rolini tanqid qiladi. Tezislar Brandenburg episkopi va Mayns arxiepiskopiga yuborilgan. Avval ham papaga qarshi norozilik namoyishlari bo‘lgan, biroq, ular boshqa tabiatga ega edi. Indulgensiyaqa qarshi gumanistik norozilik namoyishlari muammoni insoniy nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, xristian dogmalarini, ya’ni ta’limotini tanqid qildi.

Martin Lyuterning 95 ta tezisi⁴¹ katoliklikdan chiqmasdan, e’tiqodni buzilishlardan tozalash va Rim papasini soxta ijrochilardan himoya qilishni nazarda tutadi.

1517-yil 31-oktyabrda Lyuterning “Vittenberg” qal’asi cherkovining eshiklariga lotin tilida 95 nafar tezisni osib qo‘ydi.



24-rasm
Martin Lyuter

Birinchi yetti tezisda Lyuter Iso Masihning tavba qilish va kechirimlilik marosimi bilan cheklanmaydi, chunki u masihiyning butun hayotini davom ettiradi va faqat Osmon Shohligiga kirish bilan tugaydi.

Rim papasi faqat o‘z hokimiyati yoki cherkov qonuni bilan odamga qo‘ygan jazolarni kechirishi mumkin. Papa gunohlarni kechirishi mumkin, buni Xudo nomi bilan tasdiqlaydi (6-tezis).

Lyuterning hikmatli iboralaridan parchalar:

Agar inson ishonsa, uni hech narsa to‘xtatib qola olmaydi.

⁴¹Мартин Лютер 95 тезисов. Диспут о прояснении действительности индульгенций. URL: <https://mse.msu.ru/history/22/book/text-22-02.pdf> (murojaat sanasi: 10.01.2023)

Fikrga soliq solinmaydi.

Lyuteranlik xristianlikdagi eng qadimgi protestant oqimlaridan biridir. Protestantizm konsepsiyasining paydo bo'lishi lyuteranlik bilan bog'liq, chunki Shpeyerdagi norozilikdan keyin aynan lyuteranlar protestantlar deb atala boshlaganlar. U XVI asrda Germaniyadagi islohotchilik harakati natijasida, keyin esa Skandinaviya mamlakatlari davlat cherkovlarining shakllanishi davrida vujudga kelgan. Lyuteran cherkovi ta'limotining asosiy tamoyillari Martin Lyuter va uning safdoshlarining bir tomondan Rim katolik cherkovining suiiste'mollariga, ikkinchi tomondan esa ko'proq radikal protestant oqimlariga anabaptizm, kalvinizm, tsvinglianizm) qarshi kurashi davomida shakllantirilgan.

Tomas Myunser (1493-1525) xalq harakatiga boshchilik qildi(25-rasm). U ko'p o'qidi va zamonasining yuksak bilimli kishisi bo'lib etishdi. U rohib edi, bu xol uning xalq oldida ochiq gapirishi uchun imkon berardi. Myunser o'zining qisqa umrini butunicha mehnatkash xalq o'rtasida o'tkazdi, shuning uchun xalqning



25-rasm
Tomas Myunser

qayg'u-alami va orzu istaklarini yaxshi bilardi.

Myunser reformatsiya boshlanganida M. Lyuterni qo'llab-quvvatladi. Ammo ko'p o'tmay Lyuterni avval hammani papaga qarshi qa'tiy kurashga chaqirgan holda keyin xalqning inqilobi kurashidan qo'rqqani uchun qoralay boshladi. Myunser uni "qo'rqqoq yo'lovchi" va "aldamchi" deb atadi. "Modomiki Lyuter tarafdorlari pop va monaxlarga hujum qilishdan nariga o'tishni istamas ekanlar, kurash boshlamasalar bo'lar edi",- derdi Myunser.

Tomas Myunser - taxminan 1490 — 1525-yil 27 may, reformatsiya davridagi nemis voizi bo'lib, gunohkor hayot tarziga qarshi chiqqan. Sinfiy tengsizlik, feodal zulmi va papaga qarshi kurashgan nemis dehqonlarining keng ko'lamli qo'zg'oloni (16 asr Germaniya dehqonlari urushi) Myunser harakati bilan bog'liq edi.

Lyuterning yorliqlarni sotishga qarshi chiqqanligi to'g'risidagi habar "xristian dinidagi hamma mamlakat va o'lkalarga to'rt xaftadayoq borib etdi", - degan edi zamondoshlaridan biri.

Reformatsiya Germaniyadan keyin Yevropaning boshqa mamlakatlarida ham boshlandi. Katolik cherkovi o'zining avvalgi ta'sirini yo'qotdi. Hamma joyda katolik cherkovining xodimlari mashara qilinar, papa va boshqa katolik ruhoniylar haqida karikaturalar tarqatilar edi.

M. Lyuterning amalga oshirgan reformatsiyasi shaharlik boylar uchun ham foydali edi. Cherkov "kam chiqimroq" bo'lib qoldi: dabdabali marosimlar, ikonalariga sig'inish, juda ko'p diniy bayramlar bekor qilindi. Poplar dindorlarga: knyazning amir farmonini so'zsiz bajaringiz, deb uqtirdilar.

Iezuitlar ordeni. Reformatsiyaga qarshi kurashish uchun 1540-yilda papa "Iso jamiyati" ni, ya'ni iezuitlar ordenini jooriy qildi. Ordenni papa va katolik cherkovining sodiq muxlisi dvoryan Ignatiy Loyola tashkil qilgandi. Papa iezuitlarning maqsadi – "yo'ldan ozgan ommani dinga qaytarishdir", deb elon qildi.

Iezuitlar ordeni harbiycha tashkil etilgan bo'lib, undan qattiq intizom o'rnatilgan edi. Orden tepasida faqat papaga bo'ysunuvchi general turardi. Orden a'zolari o'z boshliqlarining buyruqlariga itoat qilardilar. Ordening qoidalarida; Agar cherkov bizga oq bo'lib ko'ringan narsani qora desa, biz ham o'shani darrov qora deb hisoblashimiz kerak» deb aytilgan edi. Iezuitlar Rim papasining josuslari va uning buyruqlarini churq etmay bajaruvchilar edi. Ular dinga ishonuvchilar gaplarini diqqat bilan eshitib olib, o'zlariga muhim tuyilgan hamma ma'lumotlarni Rimga habar qilib turar edi.

Jan Kalvin (fransuz Jan Kalvin 1509-yil 10-iyul - 1564-yil 27-may, Jeneva) — protestant islohoti davridagi fransuz dinshunosi, pastori(26-rasm), "Xristian e'tiqodiga yo'riqnoma"⁴², "Xristiancha hayoti" va boshqa asarlarida o'z ta'limotini bayon etgan. Calvinizmning asoschilaridan biri hisoblangan, bu nasroniy ilohiyotining tizimi bo'lib, u taqdir ta'limotlarini va inson ruhini o'limdan va abadiy la'natdan qutqarishda Xudoning mutlaqligini o'z ichiga oladi, unda Kalvin Avgustin va boshqa xristian ilohiyotchilarining ta'limotlarini rivojlantirdi.

⁴² Жан Кальвин. Наставления в христианской вере. В 3-х томах. CRC PUBLICATIONS/WORLD LITERATURE MINISTRIES. 1997-1999. –С. 582. URL: https://platona.net/load/knigi_po_filosofii/istorija_vozrozhdenie/kalvin_zhan_nastavlenija_v_khristianskoj_vere/9-1-0-140 (murojaat sanasi: 10.01.2023)



26-rasm
Jan Calvin

Kalvinizm - fransuz dinshunosi va voizi Jon Calvin tomonidan yaratilgan va ishlab chiqilgan protestantizmning bir tarmogʻi. Zamonaviy kalvinizm uch shaklda mavjud: presviterianizm, reformatorlik va kongregationalizm. Shu bilan birga, kalvinistik qarashlar boshqa protestant konfessiyalarida, jumladan, baptistlar, puritanlar, ellikchilar(pyatidesyatniklar), metodistlar, evangelist xristianlar, shuningdek, mormonlar kabi para-xristian taʼlimotlari vakillarida ham keng tarqalgan. Agar Martin Lyuter XVI asrda cherkovning protestantcha islohotini “Cherkovdan Injilga aniq zid boʻlgan hamma narsani olib tashlash” tamoyili asosida boshlagan boʻlsa, fransuz huquqshunosi Jon Calvin undan ilgarilab bordi - u cherkovdan Bibliyada talab qilinmaydigan hamma narsani olib tashladi. Shu sababli, Kalvinga koʻra cherkovning protestant islohoti - kalvinistik ilohiyot - ratsionalizmga moyillik va koʻpincha mistikaga ishonchsizlik bilan ajralib turadi.

Jan Boden (1530-1596) - fransuz mutafakkiri, siyosatchi, tarixchi(27-rasm). Maʼlumoti boʻyicha advokat, u Tuluza universiteti professori, Parijda advokat, keyin esa Lionda qirollik prokurori, General Shtatlarda uchinchi toifadan deputat boʻlgan. “Siyosatchilar” partiyasi tarafdori boʻlgan Boden monarxning kuchli, ammo qonunlar bilan cheklangan hokimiyatiga asoslangan barqarorlik, tartib va suverenitet tarafdori hamda davlatda hokimiyatni nomarkazsizlashtirishga qarshi chiqdi.



27-rasm
Jan Boden

U diniy bagʻrikenglikning tarafdorlaridan biri va vijdon erkinligi himoyachisi sifatida koʻrsatdi. Fransiyadagi fuqarolar urushi paytida katoliklar va gugenotlarning diniy bayroqlari ostida u ular oʻrtasida murosa pozitsiyasini egalladi. Shu bilan birga, Boden siyosiy ekstremizm va diniy fanatizmga qarshi edi.

Agar N.Makiavellida kuch huquqning asosi boʻlsa, J.Bodin huquq davlat hokimiyati kuchining asosi boʻlgan. Fransiyaning murakkab va ziddiyatli voqeliklarida, eng ogʻir kurash, diniy siyosiy adovat va ikkiyuzlamachilik sharoitida Boden axloqiy, vatanparvarlik tamoyillarida ijtimoiy hayotni rivojlantirishda ijobiy asoslar topadi. U oʻzining siyosiy tamoyillarini

mavhum emas, balki milliy manfaatlar, real manfaatlar nuqtai nazaridan shakllantirdi.

Boden o'zining "Davlat haqida olti kitob"⁴³ nomli mashhur risolasida suverenitetning tabiati haqidagi o'z nuqtai nazarini bayon qilgan. U birinchi marta fuqarolar va tobelar ustidan Xudo va tabiatning adolatli qonunlaridan tashqari hech qanday qonunlar bilan bog'lanmagan, "suvereniteti" tushunchasini shakllantirdi va keng asoslab berdi. Unga ko'ra, birinchidan, oliy hokimiyat, garchi ma'lum bir muddatga berilgan bo'lsa-da doimiy bo'lishi kerak. Ikkinchidan, u mutlaq va cheksiz bo'lishi, o'zini bog'laydigan har qanday shartlardan xoli bo'lishi, o'z xohishiga ko'ra har qanday qonunlarni chiqarishi va bekor qilishi, ularni ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda o'zgartirishi mumkin. Uchinchidan, oliy hokimiyat yagona va bo'linmas bo'lishi kerak, u o'zining tepasida va yonida turgan biron bir organga bo'ysinmaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Reformatsiyaning vujudga kelishi va diniy islohotlar .
3. Reformatsiyaning asosiy maqsadi va g'oyalari.
4. Reformatsiya Rim katolik cherkoviga qarshi va dinda Protestantlik oqimining vujudga kelishi.
5. Reformatsiyaning butun Yevropaga tarqalishi va dehqonlar urushining boshlanishi.
6. Martin Lyuter, Jan Kalvin, Tomas Myunserlarning ilgari so'rgan g'oyalari.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. "Florentsiya tarixi" muallifi kim?
 - e) Dante Aligeri
 - f) Fridrix Engels
 - g) Nikollo Makiavelli
 - h) Jan Boden
2. Reformatsiya so'zining ma'nosi qaysi qatorfa to'g'ri ko'rsatilgan?

⁴³ БОДЕН Ж. Шесть книг о государстве. Антология мировой философии: В 4т .М., 1970. Т. 2. URL: <http://read.virmk.ru/b/Boden.htm> (murojaat sanasi: 10.01.2023)

- a) o'zgartirish, isloh qilish
 - b) Yangilanish
 - c) Erkinlikni ta'minlash
 - d) To'g'ri javob keltirilmagan
3. Byurger so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
- a) nemischa – shaharlik
 - b) inglizcha – ozuqa
 - c) nemischa – siyosatchi
 - d) forsha – jangchi
4. “Xristian monarxiyasi haqida”, “Cherkov hokimiyati haqida”, “Ispaniya monarxiyasi haqida” kabi asarlar muallifi kim?
- a) Tommazo Kampanella
 - b) Tomas Mor
 - c) Gitlodey Utop
 - d) Frensis Bekon
5. fransuz mutafakkiri, siyosatchi, tarixchisi, ma'lumoti bo'yicha advokat, u Tuluza universiteti professori, Parijda advokat, keyin esa Lionda qirollik prokurori, General Shtatlarda uchinchi toifadan deputat bo'lgan. U diniy bag'rikenglikning tarafdorlaridan biri va vijdon erkinligi himoyachisi sifatida ko'rsatdi. Shu bilan birga, siyosiy ekstremizm va diniy fanatizmga qarshi edi. Yuqorida keltirilgan firklardan gap kim haqida ekanligini aniqlang.
- a) Jan Boden
 - b) N. Makiavelli
 - c) Jan kelvin
 - d) Patritsio
6. fransuz mutafakkiri, siyosatchi, tarixchisi, ma'lumoti bo'yicha advokat, u Tuluza universiteti professori, Parijda advokat, keyin esa Lionda qirollik prokurori, General Shtatlarda uchinchi toifadan deputat bo'lgan. U diniy bag'rikenglikning tarafdorlaridan biri va vijdon erkinligi himoyachisi sifatida

ko‘rsatdi. Shu bilan birga, siyosiy ekstremizm va diniy fanatizmga qarshi edi.

Yuqorida keltirilgan firklardan gap kim haqida ekanligini aniqlang.

e) Jan Boden

f) N. Makiavelli

g) Jan kelvin

h) Patritsio

7. Renessans davrida adolatli insonparvar jamiyat modeli qaysi tushunchasi yordamida ifodalana boshlandi?

a) Rennesans

b) Demokratiya

c) Utopiya

Feodalizm

12-MAVZU: XV–XVI ASRLARDA YEVROPADA ILK UTOPIK SOTSIALIZM MAFKURASI

Reja:

1. Sotsializm genezisida obyektiv va subyektiv omillar.
2. Tomas Morning sotsial utopizmi.
3. Tommazo Kampanellaning ideal davlat to‘g‘risidagi g‘oyalari.

Tayanch tushunchalar: sotsializm genezisining obyektiv va subyektiv omillari; sotsialist-mutafakkirlarning xususiy mulkchilik, feodal tabaqachilikka munosabati; mulk umumiyligi, odamlarning moddiy tengligi va “odil davlat” g‘oyalari; T.Mor sotsial upotizmi; “Utopiya” asarining g‘oyaviy-siyosiy mazmuni; T.Kampanellaning “Quyosh shahri” asarida ideal davlat to‘zulishi; Sotsialist-mutafakkirlar ijodida inson qadr-qimmati, shaxs mustaqilligi g‘oyasiga e’tiborsizlik, nazariy kollektivizm, shaxsning davlat tomonidan mahv etilishi.



28-rasm
Tomas Mor

Utopik sotsializm (yunoncha tom ma'noda mavjud bo'lmagan joy) - ijtimoiy tenglikka asoslangan, ekspluatatsiya bo'lmagan va odamlar har tomonlama rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyat haqidagi g'oyalar. Bunday mafkuraning utopik tabiati shundaki, uni bu shaklda haqiqatga aylantirib bo'lmaydi.

Utopik sotsializmni mafkura sifatida talqin qilish mumkin. Utopik sotsializmning qadriyatlari tenglik g'oyalarini, jamiyat a'zolarining ijtimoiy va siyosiy begonalashuvini bartaraf etish, inson tomonidan inson ekspluatatsiyasini yo'q qilish, har tomonlama rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratish, jinsi, millati va etnik kelib chiqishi va oilaviy holati hamda boshqalardan qat'i nazar, uyg'un ijtimoiylashuvni o'z ichiga oladi.

Bu ideallar tabiatan universaldir, odamlar orzu-umid qiladigan munosabatlar ijtimoiy taraqqiyotni harakatga keltiradi, shuning uchun bu ideallar barcha oddiy odamlar uchun jozibador bo'lib, ertami-kechmi ular haqiqiy hayotda shaklga aylanishi ehtimoli katta. Bunday sotsializm mafkurasida alohida utopiklik yo'q. Shu bilan birga, bunday ideallar nafaqat sotsialistik mafkurada, balki, masalan, xristian xushxabarchiligida va boshqa ko'plab mafkuralarda ham o'z ifodasini topgan.

Renessans davrida fuqarolarning tengligi haqida turli nazariyalarning shakllanishi yangi-yangi geografik kashfiyotlar qilinayotgan bir sharoitda to'g'ri keldi. Shu sababli Renessans davrida ijod etgan faylasuflar ijtimoiy voqeylikni tanqid qilar ekanlar. Yangi kashf etgan orollardan birida ijtimoiy tenglikka asoslangan jamiyat yaratishni orzu qilar edilardilar. Faylasuflar asarlaridagi bosh qahramon ana shunday orolni kashf etgan sayohatchi ekanligi ham bejiz emas.

Tomas Mor nazarida mazkur orol "Utopiya" deb nomlansa, Tommazo Kampanella uni "Quyosh shahri", deb ataydi. Xullas, Renessans davrida adolatli insonparvar jamiyat modeli "utopiya" tushunchasi yordamida ifodalana boshlandi.

Tomas Mor dunyoqarashini shakllanishi va ijodiy faoliyati Angliyada yangi dvoryan tabaqasi – jentrilarning tarix sahnasiga kelishi, davlat absolyutizmning o'rnatilishiga to'g'ri keldi. Ingliz gumanisti, davlat arbobi va yozuvchisi Tomas Mor

1478-yilning 7-fevralida Londonda badavlat qirol huquqshunosi oilasida tavallud topdi(28-rasm). Uning otasi londonlik badavlat bryugarlardan biri bo'lgani tufayli Tomas 1492-1494-yillar davomida Oksford universitetida tahsil olishga muvaffaq bo'ldi. O'qib yurgan kezlari Oksfordda bir qator obro' – etiborli gumanist olimlar ijod qilar edilar. Ushbu omillarning ta'siri o'laroq Tomas jamiyatda adolatni qaror toptirish yo'llari haqida va va Oksforddan so'ng Tomasning dunyoqarashiga Rotterdamlilik Erazm ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Tomas Mor epigrammalar, bayram she'rlari, polemik yozuvlar yozgan, Richard III tarixini ingliz tilida yozgan va uni lotin tiliga o'zi tarjima qilgan.

Ammo uning eng mashhur asari qisman Platonning “Davlat” traktati ta'sirida yozilgan “Eng yaxshi ijtimoiy tuzum va yangi Utopiya orolida”⁴⁴ qissasidir. “Utopiya” so'zi (yunoncha u-toposdan) “hech qayerda uchramaydigan yer”, fantastik mamlakat degan ma'noni anglatadi. Ammo Kolumb va Magellanning sayohatlari va boshqa ajoyib geografik kashfiyotlar davrida ko'pchilik Utopiya yangi kashf etilgan oroldagi haqiqiy hayotning tavsifi deb ishonishgan. Ushbu ideal hayotning tasviri o'sha davrning insonparvarlikka moyil, voqelikning kamchiliklarini biladigan “ma'rifatli” odamlarga juda yoqdi. Tomas Morning “Utopiya” asari 1516-yilda nashr etilgan.

Tomas Morning 1516-yilda yozilgan “Utopiya” asari adabiyotdagi tegishli janrga o'z nomini berdi. Utopiya orol davlatidir. Bu davlatda qirol hukmronlik qiladi, lekin eng yuqori ma'muriy lavozimlar saylanadi. Ammo muammo shundaki, Utopiyaning har bir fuqarosi o'zining kasbiy jamoalari bilan chambarchas bog'langan, ya'ni uning boshqaruvga kirish imkoniyati yo'q.

Hukmdorlar xalqdan juda uzoq bo'lganligi sababli, orolda yagona o'ylangan mafkura mavjud emas: yagona xudoga ishonish tasdiqlangan, ammo har kim o'z xohishiga ko'ra “tafsilotlar” haqida o'ylashda erkindir. Siz nasroniy yoki butparast bo'lishingiz mumkin. Ba'zi xudolar boshqalardan yaxshiroq yoki hech qanday xudo yo'q deb aytish mumkin emas.

⁴⁴ Томас Мор. Утопия. Перевод с латинского А. Малеина и Ф.Петровского. URL: <http://lib.ru/INOOLD/MOR/utopia.txt> (murojaat sanasi: 10.01.2023)

Orolida pul va xususiy mulk yo‘q, taqsimot erkin savdoni butunlay siqib chiqardi va mehnat bozori o‘rniga - universal mehnat xizmati. Utopiklar unchalik qattiq ishlamaydilar, faqat qullar iflos va mashaqqatli ishlarni qilganlari uchun. Orolliklar “o‘z fuqarolarini sharmandali qilmishi uchun qul qilib olishadi yoki chet elliklar orasida u sodir etgan jinoyati uchun qatl etishga mahkum bo‘lganlar qullikka olinadi”.

Bunday sharoitda estetik xilma-xillik mumkin emas: bir oilaning hayoti boshqasining hayotidan farq qilmaydi, til, urf-odatlar, muassasalar, qonunlar, uylar va hatto butun oroldagi shaharlarning tartibi bir xil. Barcha utopiklar bir xil kiyim kiyishadi:

Kiyimga kelsak, uning tashqi ko‘rinishi u yoki bu jinsdagi odamlarda, shuningdek, yolg‘iz va turmush qurgan odamlarda farqlanishidan tashqari, uning kesimi har doim bir xil, o‘zgarmas va doimiy bo‘lib qoladi, ko‘zga juda mos keladi, tana harakatlari uchun qulaydir va sovuq, issiqqa moslashgan . . . Utopiklar ko‘chaga chiqqach, yuqorida aytib o‘tilgan qo‘pol kiyimlarni yopadigan uzun plash kiyishadi. Ushbu plashning rangi butun orolda bir xil va bundan tashqari, u junning tabiiy rangidadir.

“Utopiya” Mor, uning do‘sti Egidiy va sayohatchi Gitlodey o‘rtasidagi suhbat shaklida yozilgan. Gitlodey butun dunyoni ko‘rgan va hayotni diqqat bilan kuzatgan. Amerigo Vespuchchining sayohatida qatnashib, u o‘z iltimosiga binoan bir nechta o‘rtoqlari bilan “so‘nggi safar chegarasida” qoldi. Dengizlar va cho‘llarni kezib o‘tib, Gitlodey Utopiya orolida tugaydi va u yerda bir paytlar dono qonun chiqaruvchi Utop tomonidan o‘rnatilgan adolatli qonunlar asosida yashaydigan davlatni topadi. “Utopiya” zamondoshlarida qoldirgan taassurotni qadrlash uchun shuni yodda tutish kerakki, bularning barchasi buyuk kashfiyotlar davrining boshida, hatto Defo va Svift romanlaridan oldin ham yozilgan.

“Utopiya” ning barcha asosiy g‘oyalari u yoki bu tarzda ikkita mavzuga tegishli: zamonaviy Yevropa jamiyatini tanqid qilish va Utopiya orolidagi ideal davlatning tavsifi. Asar ikki kitobga bo‘lingan.

Birinchi yoʻnalishda Tomas Morning asosiy gʻoyasi shundan iboratki, zamonaviy Yevropa davlatlari boylarning xudbin manfaatlari uchun quroldir:

“Hozirgi gullab-yashnagan barcha davlatlar haqida qayta-qayta va sinchiklab fikr yuritar ekanman, qasamyod qilamanki, ular oʻzlarining shaxsiy manfaatlari uchun davlat nomi va belgisi ostida kurashayotgan boylarning oʻziga xos fitnasidan boshqa narsa emas”.

Bu holatning asl sababi xususiy mulk va puldir.

Utopiyada ijtimoiy tizimning buzilishi bilan bogʻliq boʻlgan jinoyatlar toʻgʻrisida soʻz yuritadi. Oʻgʻrilarni oʻlim bilan jazolagan oʻsha paytdagi qonunni Mor “Utopiyada” nafaqat adolatsiz, balki samarasiz deb ham tan oldi. Buning oʻrniga, Gitlodey Fors togʻlarida yashovchi polileritlar orasida koʻrgan odatlarini taklif qiladi:

“Bu borada men hech bir xalq orasida bundan yaxshiroq tartibni kuzatmaganman . . . “.

Bu odatlar shundan iboratki, Utopiyada qoʻlga tushgan oʻgʻrilar davlat qullariga aylantiriladi. Ularning belgisi sifatida bitta quloq kesiladi.

Utopiya - bu oʻz fuqarolari tomonidan “ota” deb ataladigan saylangan amaldorlar tomonidan boshqariladigan respublika. Tomas Mor tomonidan ixtiro qilingan bu mamlakatdagi barcha hayot davlat tomonidan tartibga solinadi. Xususiy mulk va pul yoʻq. Iqtisodiyotning asosini umumiy mehnat xizmati tashkil etadi va birinchi navbatda, hamma uchun (yoki deyarli hamma uchun) qishloq xoʻjaligida maʼlum bir davrni ishlab chiqish majburiydir.

Xullas, Tomas Mor oʻzi yashab, ijod etgan jamiyatni, undagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tanqid qildi. Birinchilardan boʻlib ishlab chiqarishni umumlashtirish gʻoyasini ilgari surdi.

Angliyada ijtimoiy voqeylikni antik va qadimgi xristian mualliflari bayon etgan fikrlari, Bibliyada uchraydigan gʻoyalar bilan taqqoslar ekan, T. Mor oʻz orzusidagi jamiyatni hayol qiladi. Ushbu orzularning shakllanishga florentsiyalik platoniklar, xristian gumanizmi va Platonning “Davlat” asari beqiyos oʻz taʼsirini koʻrsatgan edi.

“Utopiya” soʻzi T. Mor tomonidan ilk bor qoʻllangan boʻlib, “yoʻq joy”, “hech qayer” degan maʼnolarni anglatadi. Ushbu soʻz yordamida ifodalangan orolda baxt-saodatli kishilar forovon turmush kechiradilar.

Tommazo Kampanella Renessans davri Yevropa tabiat falsafasining yirik namoyondasidir(29-rasm). U 1568-yilning 5-sentyabrida Italiyada tavallud topdi. Yoshligida antik falsafa namoyandalarining, Aristotel falsafasini sinchiklab oʻrgangan. Shuningdek, oʻrta asr teologiyasi xususan Foma Akvinskiy qarashlari va oʻz zamonasining naturfalsafasi bilan yaxshi tanish boʻlgan.

1591-yilda Yevropa falsafiy jamoatchiligi hukmiga oʻzining “Falsafa, hissiyot yordamidagi isbot”, deb nomlangan birinchi asarini havola etdi va bir necha yillardan soʻng “Quyosh shahri”, “Xristian monarxiyasi haqida”, “Cherkov hokimiyati haqida”, “Ispaniya monarxiyasi haqida” kabi asarlarni yozdi va bular ijtimoiy taʼlimot sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Xuddi oʻsha birinchi asaridayoq u inkvizitsiya taʼqibiga giriftor boʻldi. Kampanella cherkov va dunyoviy hokimiyatni birligini taʼminlash tarafdori edi. Reformatsiya protestantsizmining hokimiyat isloh qilishlariga mutlaqo qarshi edi. Lekin Rim papasini butun xristianlar ustidan hukmron boʻlishni istardi.

Kampanella 1629-yilda yozib tugatilgan “Quyosh shahri”⁴⁵ asarining dunyodagi kelishi tasodifiy hol emas, unda muallifning ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy-axloqiy qarashlariga, shaxsiy kechinmalariga toʻla mos tushadi.



29-rasm
Tommazo
Kampanella

“Quyosh shahri”da orzu qilingan davlat tuzumi ideallashtirilgan teokratik tuzum namunasi boʻlib, uning boshida quyosh ramzi boʻlgan ruxoniy, metafizik, koxin turadi. Bir umrga saylab quyiladigan bosh hukmdor jamiyat oldida turgan, echilishi oʻta zarur boʻlgan barcha muammolar echimini topish yoʻllari, uslub va usullari bilish zarur.

⁴⁵ Кампанелла. Город Солнца. URL: <http://lib.ru/INOOLD/KAMPANELLA/suntown.txt> (murojaat sanasi 10.01.2023)

Angliyalik Tomas Morning “Utopiyasi” dan yuz-yil o‘tgach, italiyalik Tommazo Campanella o‘zining “Quyosh shahri” asarini yozdi - bu asarda sotsializm tamoyillari va jamoa nomidan shaxsni zo‘ravonlik bilan bostirish amalga oshiriladi.

Kampanella XVI asr oxiri XVII asr boshlarida yashagan. 34 yoshga to‘lgunga qadar u Dominikanlik rohib bo‘lgan, keyin hibsga olingan va 27-yil qamoqda o‘tirgan. U umrining qolgan qismini Fransiyada o‘tkazdi. Kampanella faylasuf, diniy mutafakkir, shoir edi.

U (Frensis Bekongacha) fanning empirik tabiatini e‘lon qildi, fanning cherkov hokimiyatidan mustaqilligini himoya qildi, Galileyni himoya qildi (inkvizitsiya qamoqxonasida bo‘lgan).

1597-yilda Kampanella Kalabriyada o‘sha paytda mamlakatga egalik qilgan ispanlarga qarshi fitna uyushtirdi. Bu fitna muvaffaqiyatsizlikka uchradi, 1599-yilda Kampanella hibsga olindi, qiynoqqa solingan va 1602-yilda umrbod qamoq jazosiga hukm qilingan. 1602-yilda qamoqxonada u “Quyosh shahri”ni yozgan.

“Quyosh shahri” nomining o‘zi Avgustinning “Iloh shahri” asari - nomini eslatadi. Bu asar ekzotik mamlakatlardagi g‘ayrioddiy sarguzashtlar ko‘rinishida Morning utopiyasiga xos bezaklarsiz uslubda yozilgan.

Kampanellaning “Quyosh shahri” suhbatdoshlar o‘rtasidagi suhbat shaklida yozilgan, ularning ismlari hatto nomlari ham yo‘q - mehmonxona egasi va genuyalik dengizchi.

Muloqot hech qanday izohsiz mehmonxona egasining so‘zlari bilan boshlanadi:

— Iltimos, oxirgi sayohatingizdagi barcha sarguzashtlaringiz haqida gapirib bering. Bunga javoban dengizchi sayohatida Hind okeanidagi orolda Quyosh shahriga etib kelganini va bu shahardagi hayotni tasvirlab beradi.

Quyosh shahrining hukumat tuzilmasi tashqi tomondan teokratiyaga o‘xshaydi: “Ularning oliy hukmdori ruhoni bo‘lib, u ularning tilida Quyosh deb ataladi, biz uni metafizik deb atardik.” Kampanelladagi bu lavozimni shaharning eng bilimdon fuqarosi egallaydi, u “barcha xalqlar tarixi, ularning barcha urf-odatlarini, diniy marosimlari, qonunlari” biladi, barcha kasblar, fizika, matematika va astrologiya

fanlari bilan tanish, lekin ayniqsa metafizika va ilohiyotni o'rgangan. U o'z lavozimini "Toki o'zidan oldingisidan donoroq va uni boshqarishga qodirroq kimsa paydo bo'lmaguncha" egallaydi. Kampanella Quyosh shahridagi Metafizika ostida uchta hukmdor mavjud: Poi, Sin va Mor, ya'ni kuch, donolik va sevgi. Hayotning asosiy tomonlarini boshqarish ular o'rtasida bo'linadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Utopik sotsializm genezisining obyektiv va subyektiv omillari.
2. Tomas Morning sotsial utopizmi.
3. Tommazo Kampanellaning ideal davlat to'g'risidagi g'oyalari.
4. Tomas Mor va Tommazo Kampanella qarashlaridagi umumiylik va o'ziga xosliklar.
5. Sotsialist-mutafakkirlar ijodida inson qadr-qimmati.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Ingliz gumanisti, davlat arbobi va yozuvchisi Tomas Mor qachon tavallud topgan?
 - a) 1501-yilning 12-aprelida
 - b) 1506-yilning 01 fevralida
 - c) 1478-yilning 7-fevralida
 - d) 1402-yilning 5-martida
2. "Utopiya" so'zining ma'nosi nima?
 - a) "hech qayerda uchramaydigan yer"
 - b) Davlat
 - c) Inson qadri
 - d) To'g'ri javob yo'q
3. "Utopiya" asari nechta kitobdan tashkil topgan?
 - a) 3 ta kitob
 - b) 2 ta kitob
 - c) 5 ta kitob

- d) 4 ta kitob
4. Renessans davri Yevropa tabiat falsafasining yirik namoyondasi Tommazo Kampanellaning birinchi asari qanday nomlangan?
- a) Cherkov hokimiyati haqida
- b) Xristian monarxiyasi haqida
- c) Quyosh shahri
- d) Falsafa, hissiyot yordamidagi isbot
5. Renessans davri Yevropa tabiat falsafasining yirik namoyondasi Tommazo Kampanellaning quyosh shahri asarida nima haqida fikr yuritiladi?
- a) Orzu qilingan davlat tuzumi ideallashgan teokratik tuzum namunasi bo'lib, uning boshida quyosh ramzi bo'lgan ruxoniy, metafizik, koxin turadi.
- b) Qudratli ichki va tashqi siyosan olib boradigan, qonun ustivorligini to'liq ta'minlay oladigan davlat.
- c) Uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan davlatning yemirilishi haqida.
- d) To'g'ri javob yo'q
6. Renessans davrida adolatli insonparvar jamiyat modeli qaysi tushunchasi yordamida ifodalana boshlandi?
- d) Rennesans
- e) Demokratiya
- f) Utopiya
- g) Feodalizm

13-MAVZU: NIDERLANDIYADA SIYOSIY MAFKURALAR RIVOJI

Reja:

1. XVII asrda Gollandiyadagi inqilobiy mafkura mazmuni.
2. Gugo Grotsiyning davlat haqidagi ta'limoti va uning siyosiy mafkuralar tarixidagi o'rni.
3. Benedikt Spinozaning tabiiy huquq nazariyasi, uning mafkuraviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: Gollandiyada feodal absolyutizm, katolitsizm inqirozi; Gollandiyada inqilobiy mafkura mazmuni; Burjua-dvoryanlar va “oranjistlar” mafkuras; Siyosiy-falsafiy fikrning teologiya, diniy dogmatizm va katolik cherkovi mafkurasining tazyiqiga qarshi kurashi G.Grotsiyning siyosiy-huquqiy fikr, siyosiy mafkuralar tarixidagi o‘rni; B.Spinoza gabiyy huquq nazariyasi, uning mafkuraviy ahamiyati; Gollandiyada dunyoviy mafkura rivojining progressiv ijtimoiy ahamiyati.

XVII asrda Yevropada muvaffaqiyat qozona boshlagan inqiloblar, ya’ni jamiyat taraqqiyotida va tafakkur rivojida ro‘y bergan tub sifat o‘zgarishlari, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tish jarayoni tabiiyki, siyosiy – huquqiy mafkurada ham o‘z in’ikosini topdi.

XVII asr boshlarida Gollandiyada ro‘y bergan inqilob dastlabki g‘olibona inqilob bo‘ldi. Ushbu inqilob mohiyati, siyosiy vazifa – feodal monarxiyani yo‘qotib, burjua respublikasini o‘rnatishdan iborat edi. Shundan so‘ng Angiliyada (1642 – 1649) inqilob ro‘y berdi. Keyinchalik Yevropaning boshqa mamlakatlarida va Shimoliy Amerikada g‘alaba qozongan inqiloblar ham XVII asrda Gollandiyada boshlangan burjua inqilobning mantiqiy davomi edi.

XVI asrda Niderlandiya 17 provintsiyadan iborat bo‘lib, hozirgi Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg va Fransiyaning bir qismini egallagan.

Niderlandiya Ispaniya qiroli Karl V davrida buyuk Gabsburglar imperiyasi tarkibiga kirdi. Bu viloyat imperiya xazinasiga daromadning deyarli yarmini bergan. Dengiz va daryoga chiqish Gollandiyaga keng savdo qilish imkonini berdi. Chorvachilik, dehqonchilik, baliqchilik, hunarmandchilik faol rivojlandi. Niderlandiyada davlat boshqaruvi tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi.

Viloyatni stadtxolder - qiro l gubernatori boshqarar edi. Uning hokimiyati davlat, moliya va xususiy kengashlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. 1559-yildan boshlab parmalik Margaret Niderlandiyaning shtat egasiga aylandi. Vakillik organi General Estates edi. Magistrlar mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida harakat qildilar. Yirik shahar va viloyatlar ma’lum imtiyozlarga ega bo‘lib,

o'zlarining ichki masalalarini mustaqil hal qila olardilar. Ya'ni, bu yerda markazlashtirilgan hokimiyat mahalliy bilan birlashtirildi⁴⁶.

Oranjistlar - Niderlandiyada XVI asr Gollandiya burjua inqilobi davrida - keng ma'noda - shahzodasi Vilgelm Oranskiy tarafida kurashgan inqilob ishtirokchilari, torroq va aniqroq ma'noda - Vilgelmning siyosiy kursi tarafdorlari, soni jihatidan nisbatan kichik guruh, asosan kalvinist zodagonlar, konservativ byurgerlar, ziyolilardan dan iborat. XVI—XVIII asr oxirlarida Birlashgan viloyatlar Respublikasida - siyosiy Oranskiy uyidan Gollandiya va Zelandiya stadtholderlari (stadtholderlari) tarafdorlari guruhi (oranjistlar partiyasi yoki stadtholder partiyasi).

Qo'zg'olon Gollandiya inqilobining boshlanishi hisoblanadi. Undan oldin bir necha qiyinchilik-yillari o'tdi. Oziq-ovqat narhlari keskin oshdi. Katolik butparastligiga qarshi kurashga chaqirgan protestant ruhoniylarining faoliyati kuchaydi.

1566-yil avgustda G'arbiy Flandriyada ommaviy xalq qo'zg'oloni boshlandi. G'azablangan odamlar katolik cherkovlari va monastirlarini talon-taroj qilishdi. Cherkovdan musodara qilingan barcha javohirlar mahalliy hokimiyatga berildi. Qo'zg'olonning asosini oddiy odamlar - dehqonlar va hunarmandlar tashkil etdi. Hokimiyat xalq qo'zg'oloniga tayyor emas edi. Qo'zg'olon tezda bir shahardan ikkinchi shaharga tarqaldi. Qo'zg'olonchilar kalvinizm diniga erkinlik berishni talab qildilar va magistratlarni ular bilan tegishli bitimlar tuzishga majbur qildilar.

Bu qarama-qarshilik 1618-1648-yillardagi O'ttiz-yillik urush paytida yana davom etdi. Biroq, bu yerda ham Ispaniya Myunster tinchligi ostida shimoliy hududlarning erkinligini yo'qotdi va qayta tan oldi. Sakson-yillik urush tugadi.

Gollandiya inqilobining natijalari:

- Yevropada Birlashgan viloyatlar respublikasi tuzildi;
- unda kalvinizm asosiy din deb e'lon qilindi;

⁴⁶ Нидерландская буржуазная революция. URL: <https://netherlandslife.ru/niderlandskaya-burzhuznaya-revolyuciya/> (murojaat sanasi 10.01.2023)



30-rasm
Gugo Grotsiy

- burjuaziyaning shakllanishi va kapitalistik munosabatlarga o'tish uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi;
- Niderlandiyaning yagona davlat sifatida shakllanishining boshlanishi;
- respublikaning tashkil topishi 17 asrda golland madaniyatining gullashiga olib keldi.

Gugo Grotsiy (1583 – 1645) – mashhur Gollandiyalik mutafakkir va siyosiy arbob. Davlat va huquq to'g'risidagi ilk burjua ta'limotning, tabiiy va xalqaro huquqning nazariy asoslarini yaratganlardan biri(30-rasm).

Grotsiyni shuhrat cho'qqisiga olib chiqqan asari 1625-yilda yozib tugallangan “Urush va tinchlik huquqi to'g'risida”⁴⁷ nomli asari hisoblanadi. Ushbu asar uch kitobdan iborat bo'lib, unda tabiiy huquq, xalqlar huquqi (xalqaro huquq) va ommaviy huquq tamoyillariga tarif beriladi. Shuningdek, Grotsiyning siyosiy – huquqiy qarashlari “O'lja huquqi to'g'risida” (1609), “Gollandiya huquqini o'rganishga kirishish” (1631) kabi asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Grotsiy qarashlarining muhim jihatlaridan biri shundaki, u siyosiy mavzudagi muommolarga yurisprudentsiya nuqtai – nazaridan yondashadi va muammoning huquqiy jihatlariga asosiy e'tiborni qaratadi. Grotsiyning ta'kidlashicha, yurisprudentsiya predmetini huquq va adolat, siyosiy fanlar predmetini esa maqsadga muvofiqlik va foyda tashkil etadi.

Gugo Grotsiy fikriga ko'ra yurisprudentsiyaga “ilmiy tus” berish uchun narsalarning qaysi asosdan kelib chiqqanligini aniqlab olish muhimdir. Ya'ni: u qabul qilish orqali tarkib topganmi yoki tabiatning o'zidan kelib chiqqanmi?

So'nggisigina ilmiy tusga ega bo'lishi mumkin. Chunki u (tabiiy huquq) doimo o'ziga aynan o'xshash bo'ladi.

Mulk umumiy bo'lgan, ya'ni davlat vujudga kelgunga qadar bo'lgan davrni Grotsiy “tabiiy holat” sifatida tavsiflaydi. Uning ta'riflashicha, davlatning kelib chiqishi ilohiy asosga ega emas. Davlat insonlarning achchiq tajribasi mevasidir.

⁴⁷ Гроций Г. О праве войны и мира. URL: https://www.civisbook.ru/files/File/Groziy_Kn1.pdf (murojaat sanasi 10.01.2023)

Alohida turmush tarzini kechirishga o'rgangan oilalar zulm – zo'ravonliklar qurboniga aylangan. Ular o'z kuchlari bilan bu jabr-stamlarga qarshi tura olmaydilar. Natijada ular o'zlari kabi boshqa oilalar bilan birlasha borib, davlatni yaratadilar. Grotsiy shu fikriga tayangan holda, davlatning kelib chiqishi insonlar irodasiga bog'liq, degan xulosaga keladi.

Inson huquqi, tabiiy qonundan farqli o'laroq, o'zgaruvchan; inson huquqi qonunlari va davlatning o'zi kelishuv natijasidir. “Davlat - bu qonunga rioya qilish va umumiy manfaat uchun tuzilgan erkin odamlarning mukammal ittifoqidir”. Shunday qilib, Grotsiyning fikricha, insonning aql-idrok va ijtimoiy mavjudot sifatida to'liq ro'yobga chiqishi faqat fuqarolik tartibi sharoitida mumkin va fuqarolik jamiyatini boshqarish aqlning tana ustidan hukmronligi zarur va tabiiydir. Biroq davlatda oliy hokimiyatning vazifalari kelishuv natijasida vujudga kelgan bo'lsa-da, ular haqiqatda tabiat qonunlari va inson jamoalari qonunlari, ayniqsa, odamlardan adolat me'yorlari asosida yashashni talab qiluvchi qonunlar bilan chegaralangan. Bu normalar shaxsga, davlatga va oliy hokimiyatga nisbatan bir xildir.



31-rasm

Benedikt Spinoza

Grotsiy tomonidan bildirilgan g'oyalar Yevropa mamlakatlari va Shimoliy Amerikada ma'rifatparvarlik liberal-demokratik mafkurasining paydo bo'lishida ulkan rol o'ynadi va zamonaviy xalqaro huquq nazariyasiga asos bo'ldi.

XVII asrga kelib Gollandiyada siyosiy – huquqiy qarashlarni rivojlantirishga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan mutaffakirlardan biri – Benedikt Spinoza (diniy taxallusi – Barux)dir (1632 – 1677). Spinoza o'zining “dahshatli yolg'on ta'limoti” uchun yahudiylar jamoasidan haydalgan olimdir(31-rasm).

U ilmiy bilishda Dekart uslubiga asoslanadi va haqiqatni bilishda matematik usuldan keng foydalanadi. Uning fikricha, faqat matematik (geometrik) usul

orqaligina haqiqatga yetishish mumkin. Uning eng muhim asarlari qatoriga “Etika”, “Siyosiy traktat”⁴⁸, “Dekart falsafasi tamoyillari” va boshqa asarlari kiradi.

Spinozaning fikricha, inson tabiatning bir qismi bo‘lganligi bois tabiat qonunlari unga ham tegishlidir, shu sababli u o‘z faoliyati davomida ushbu qonunlarga so‘zsiz rioya qilishi lozim.

Spinoza davlatni tashkil etish borasidagi qator oqilona qarashlarni, g‘oyalarni inkor etadi hamda mavjud tajriba guvohlik berayotganidek, “barcha turdagi davlatlar” va boshqaruv vositalarining bosh maqsadi – insonlarning muvofiqlashgan turmush tarzini ta‘minlash hamda ularni ma‘lum chegaralarda ushlab turish, deb hisoblaydi.

Insonlar har doim, har yerda o‘zaro muloqotda bo‘ladilar va muayyan fuqarolik holatida yashaydilar. Bundan Spinoza shunday xulosaga keladi: “davlatning kelib chiqish sabablari va tabiiy asoslarini aql (idrok) ko‘rsatmalaridan emas, balki insonning umumiy tabiatidan izlash lozim”.

Inson dunyoning alohida qismidir. Inson tabiiy mavjudot, deydi Spinoza, shuning uchun uni Tabiat nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak. Ba’zida bizni bosib oladigan barcha ehtirosalar oddiy tabiiy hodisalardir. Ular insonning mohiyatidan kelib chiqmaydi, balki inson ongida mos keladigan g‘oyalar tufayli yuzaga keladigan qandaydir noaniq mayldir. Insonning asosiy maqsadi baxtni topishdir va bu ehtirosalardan butunlay xalos bo‘lishni talab qiladi.

“Fikrlaringizni oydinlashtiring – shunda siz ehtirosalar quli bo‘lishdan qutulasiz” – Spinozaning inson o‘z illatlariga qarshi kurashidagi asosiy g‘oyasidir. Faqat intellektual va ma‘naviy taranglikda inson haqiqiy baxtni topadi, chunki u hayotda sodir bo‘layotgan hamma narsaga, “abadiylik nuqtai nazaridan” qarashga odatlanib qoladi, narsa va hodisalarning chuqur o‘zaro bog‘liqligini tushunadi, ularni ilohiy zarurat nuqtai nazaridan idrok etish.

Spinozaning ajoyib xizmati erkinlik va zarurat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishdir. Spinoza tushunchasida zarurat va erkinlik substantsiyada (Xudo)

⁴⁸ Спиноза Б. Политический трактат. URL: https://civisbook.ru/files/File/Spinoza_P_tr.pdf (murojaat sanasi 10.01.2023)

birlashadi. Xudo erkindir, chunki u qiladigan hamma narsa o‘z ehtiyojidan kelib chiqadi. Tabiatda determinizm, ya’ni zarurat hukmronlik qiladi. Inson ikki xususiyatdan iborat moddadir. Insonning erkinligi aql va irodaning birligidan iborat. Demak, haqiqiy erkinlikning o‘lchovlari ratsional bilish bosqichi (aql va bilim) bilan belgilanadi. Erkinlik va zaruriyat bir-biriga qarama-qarshi emas, aksincha, ular bir-birini shart qiladi. Spinoza erkinlikni tan olingan zarurat sifatida tushunadi. Zaruriyatning aksi erkinlik emas, o‘zboshimchalikdir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVII asrda Gollandiyadagi inqilobiy mafkura mazmuni.
2. Gugo Grotsiyning davlat haqidagi ta’limoti va uning siyosiy mafkuralar tarixidagi o‘rni.
3. Benedikt Spinozaning tabiiy huquq nazariyasi, uning mafkuraviy ahamiyati.
4. Burjua-dvoryanlar va “oranjistlar” mafkurasi.

Mavzu yuzasidan testlar:

7. “(1583 – 1645) – mashhur Gollandiyalik mutafakkir va siyosiy arbob. Davlat va huquq to‘g‘risidagi ilk burjua ta’limotning, tabiiy va xalqaro huquqning nazariy asoslarini yaratganlardan biri” gap kim haqida?
 - a) Gugo Grotsiy
 - b) N. Makiavelli
 - c) Jan kelvin
 - d) Patritsio
8. (1632 – 1677) XVII asrga kelib Gollandiyada siyosiy – huquqiy qarashlarni rivojlantirishga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan mutaffakirlardan biri (diniy taxallusi – Barux). Yuqorida keltirilgan firklar kim haqida?
 - a) Gugo Grotsiy
 - b) N. Makiavelli
 - c) Jan kelvin
 - d) Benedikt Spinoza

9. 1566-yil avgustda G'arbiy Flandriyada ommaviy xalq qo'zg'oloni oddiy xalq qaysi dinga erkinlik berishni talab qilgan?
- a) Kalvinizm
 - b) Buddizm
 - c) Xristianlik
 - d) Islom
10. 1566-yil avgustda G'arbiy Flandriyada qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
- a) Ommaviy xalq qo'zg'oloni boshlandi
 - b) Mutloq cherkov hokimiyati o'rnatildi.
 - c) Hokimiyat xalq qoliga o'tdi.
 - d) O'zgarishlar sodir bo'lmagan.
11. Qachon parmalik Margaret Niderlandiyaning shtat egasiga aylandi?
- a) 1559-yildan boshlab
 - b) 1578-yildan boshlab
 - c) 1532-yildan boshlab
 - d) 1544-yildan boshlab
12. XVI asrda Niderlandiya nechta provintsiyadan iborat bo'lgan?
- a) 9 ta provintsiya
 - b) 11 ta provintsiya
 - c) 16 ta provintsiya
 - d) 17 ta provintsiya

14-MAVZU: ANGLIYADA BURJUA INQILOBI DAVRIDAGI SIYOSIY MAFKURALAR

Reja :

1. Ingliz burjua inqilobi mafkurasi.
2. Tomas Gobbsning siyosiy – huquqiy ta'limoti.
3. Jon Lokkning siyosiy – huquqi.
4. Tomas Mor utopik sotsializmi

Tayanch tushunchalar: XVII asr o'rtalarida burjuaziyaning yangi dvoryanlar bilan ittifoqni, monarxiya, feodal va cherkovga qarshi kurash; Inqilobiy mafkuraning diniy xususiyatlari, uning kontseptual asoslari; Feodalizm ideologlari; Independentlar, levellerlar va diggerlar mafkurasi; T.Gobbsning g'oyalari; J.Russo radikalizmi; Utopistik sotsializm ideologlari.

Ingliz burjua inqilobi XVII asrda Yevropa darajasidagi birinchi inqilob bo'lib, feodalizmga qaxshatqich zarba bergan va kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining tezkor o'sishiga keng imkoniyatlar yaratib bergan G'arbiy Yevropa mamlakatlari ichida yetakchilardan biriga aylangan edi. Ushbu inqilob keng aks sadoga ega bo'lib, bir necha o'n-yillar Gollandiyada yuz bergan ilk inqilobdan keskin farq qilar edi.

1640-1660-yillardagi ingliz inqilobi murakkab tarixiy voqea edi. Bir tomondan, bu Styuart sulolasining ag'darilishiga, qirol Karl I ning qatl etilishiga va uning merosxo'rining mamlakatdan chiqib ketishiga olib keldi. Angliyada qisqa vaqt ichida Kromvel protektorati ostida respublika tashkil etildi, ammo uning o'limidan ko'p o'tmay styuartlar monarxiyasi tiklandi.

Inqilobning iqtisodiy sabablari XVII asrda burjua munosabatlarining rivojlanishi bilan bog'liq. Ular uchun qirol hokimiyatining, aristokratiyaning bir qismi va anglikan ruhoniylarining feodal manfaatlari to'siq edi. Qirol hokimiyatining savdo va sanoat ustidan nazorat o'rnatishga urinishlari yosh ingliz burjuaziyasiga yoqmadi.

Inqilobning siyosiy sabablari eski va yangi tipdagi, ya'ni feodal va kapitalistik yer egalari o'rtasidagi qarama-qarshilik tufayli qirol va parlament o'rtasidagi ziddiyat bilan bog'liq.

Ingliz inqilobining diniy sabablari ham bor edi. XVI asrning o'rtalaridan boshlab shtatda o'zining Anglikan cherkovi mavjud edi. Bunga ingliz protestantlari - mo''tadil presviterianlar va ko'proq radikal independentlar qarshi chiqdi. Birinchisi ruhoniylar institutiga qarshi edi, ikkinchisi esa har qanday cherkov ierarxiyasiga qarshi edi.

Puritanlar (inglizcha puritan, lotincha puritas — poklik) — ingliz protestantlari, XVI—XVII asrlarda Angliyada kalvinizm tarafdorlari.


Katolik Meri Styuart hukmronligi davrida (1553-1558) ko‘plab protestantlar Angliyadan kontinental Yevropaga hijrat qilishdi. U yerda ular Kalvin ta’limoti bilan tanishdilar. Yelizaveta I davrida o‘z vatanlariga qaytib, ular islohotni chuqurlashtirishni, anglikanizmni qolgan katolik elementlardan tozalash boshladilar - ular episkopni saylangan oqsoqollar (presviterlar) bilan almashtirishni, ommaviy va’z o‘qishni, marosimlarni soddalashtirishni, ba’zilar hatto yo‘q qiladi, cherkovlarni bezaklardan xoli qilishni talab qilishdi.

Presviteriyanlar (yunoncha. - katta, kekxa) – XVI asrning ikkinchi yarmida Shotlandiya va Angliyada islohot davrida paydo bo‘lgan kalvinistik yo‘nalishdagi protestant cherkovlarining izdoshi. Presviterianlar cherkovni qat’iy markazlashtirish va episkoplikni rad etishdi, Meri Styuart davrida Shotlandiyada davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan katoliklikka qarshi va katoliklik bilan murosaga kelishgaqaratilgan anglikanizmga qarshi kurashdilar. Biroq, ular kongregatsionalist-independent diniy va siyosiy radikalizmga qo‘shilmadilar va puritanizmning mo‘‘tadil qanotini tashkil etdilar.

Independentlar (ingliz tilida mustaqil) - Angliya va bir qator boshqa mamlakatlardagi protestantizm oqimlari tarafdorlari. XVI asr oxirida shakllangan puritanlarning so‘l qanoti. XVII asr Angliya inqilobi davrida burjuaziyaning radikal qanoti va yangi dvoryanlar manfaatlarini ifoda etgan siyosiy partiya. Siyosiy partiya sifatida Styuartlarning absolyutizmga qarshi qo‘zg‘olonga rahbarlik qildi.

Levellerlar (inglizcha levellers - tenglashtiruvchilar) XVII asr burjua inqilobi davrida Angliyadagi radikal-demokratik mayda burjua guruhi; respublikani barpo etishga, umumiy saylov huquqini joriy etishga intildi; Levellerlar Diggerlarga qarshi (ya’ni haqiqiy tekislovchilar deb ataladi) ular xususiy mulkni himoya qilib, eng kambag‘al qatlamlarni o‘zlaridan uzoqlashtirgan, bu esa independentlarning levellerlarni engishini osonlashtirgan.

Diggerlar (inglizcha digger, - qazuvchi) - XVII asr ingliz burjua inqilobidagi inqilobiy demokratiyaning o‘ta chap qanoti vakillari, qishloq va shahar



32-rasm
Tomas Gobbs

kambagʻallarining, ayniqsa yersiz va kichik yerga ega dehqonlarning manfaatlari va mafkurasini ifodalovchilar. Birinchi marta “qazuvchilar” nomi 1607-yilda Markaziy Angliyadagi dehqonlar qoʻzgʻoloni paytida paydo boʻlgan, qamallarga qarshi qaratilgan, ammo mafkuraviy va ijtimoiy-siyosiy tendensiya sifatida diggerlar inqilob davrida - uning burjua-demokratik bosqichida (1647 -1649) shakllangan.

Ingliz burjua inqilobi xronologiyasi:

1640-yil noyabr - Uzoq parlamentni chaqirish;

1642-yil 22-avgust - Qirol Karl I Styuartning parlament bilan toʻqnashuvi, birinchi fuqarolar urushining boshlanishi;

1642–1646-yillar - Fuqarolar urushida qirollik tarafdorlarining magʻlubiyati, parlament armiyasining mavqeini mustahkamlash Oliver Kromvel general boʻldi;

1648 - Ikkinchi fuqarolar urushi, Karl 1 va uning ittifoqchilari - shotlandlarning magʻlubiyati;

1649 - Karl I ning qatl etilishi, Angliya respublikaga aylanadi;

1653 - Oliver Kromvel parlamentni tarqatib yubordi va lord proektor boʻldi;

1658–1659 - Oliver Kromvelning oʻlimi, uning oʻgʻli Richardning hokimiyatdan chetlatilishi;

1660 - Styuart sulolasining tiklanishi, Karl II qirol boʻldi.

Tomas Gobbs (1588 – 1679) – buyuk ingliz mutafakiri, “Fuqaro toʻgʻrisidagi taʼlimotning falsafiy asosi” (1642), “Leviafan yoki materiya, cherkov va fuqaro davlatning shakli va hokimiyati”⁴⁹ (1651) nomli asarlarning muallifi, XVII asr ingliz siyosiy – huquqiy qarashlarning rivojiga oʻzining munosib hissasini qoʻshgan olim(32-rasm).

Gobbsning siyosiy – huquqiy qarashlari zahirida inson tabiati masalasi yotadi. Biroq bu mavzuni u bir qadar oʻzgacha ruhda tahlil qiladi. Uning fikricha, insonlar oʻzlarining aqliy va jismoniy imkoniyatlari boʻyicha tengdirlar. Ammo, ulardagi

⁴⁹ Томас Гоббс. Левиафан, или Материя, форма и власть государства церковного и гражданского. URL: http://lib.ru/FILOSOF/GOBBS/leviafan.txt_with-big-pictures.html (murojaat sanasi 10.01.2023)



33-rasm
Jon Lokk

qator salbiy jixatlar, xususan, shuxratparastlik, ochko'zlik, manmanlik kabilar insonlarning bir – birlari bilan inoq – ittifoqlikda yashashlariga to'sqinlik qiladi. Shu boisdan u “odam odamga bo'ri” mashxur tezisini ilgari suradi va jamyatda barcha barchaga qarshi urush holatda bo'lishini aytadi. Gobbs bu kabi holatni “Insoniyatning tabiiy holati” deya baholaydi.

Gobbs davlatning kelib chiqishi masalasini shartnoma nazaryasiga asoslangan holda yoritadi. Uning fikriga ko'ra, jamiyat a'zolari tinchlikka erishish maqsadida bir – birlari bilan kelishuvga – murosai madoraga erishadilar. Ushbu kelishuv natijasida ular jamiyat boshqaruvini bir kishiga yoki ma'lum bir guruhga topshiradilar. Bu tabiiy holatdan fuqarolik holatiga o'tish hisoblanadi. Oliy hokimiyat sohibi suverendir.

Kuch ishlatish yo'li bilan hokimiyatni qo'lga kiritish davlatning vujudga kelishini ikkinchi shakli sanaladi. Muallif ixtiyoriy kelishuv natijasida vujudga kelgan davlatni ifodalashda “siyosiy davlat” iborasini qo'llaydi.

XVII asr G'arbiy Yevropa uchun katta tarixiy o'zgarishlar davri bo'ldi. Chunonchi, Angliyada burjuaziya va zodagonlar davlat boshqaruvi borasida o'zaro bitimga erishishlari natijasida feodal tuzumdan kapitalizmga qadam qo'yildi. Bu davrdagi muhim o'zgarishlarning mazmun – mohiyati ingliz mutafakkiri Jon Lokk (1632 – 1704) asarlarida o'z ifodasini topdi. Uning siyosiy – huquqiy qarashlari “Davlat boshqaruvi to'g'risida ikki traktat” nomli asarida atroflicha yoritib berilgan.

Jon Lokk o'z qarashlarida tabiiy huquq, ijtimoiy shartnoma nazaryasi, xalq suverentiteti, shaxsning dahlsizligi, hokimiyatning bo'linishi, mustabid tuzumga qarshi qo'zg'olon ko'tarishning qonuniyligi kabi g'oyalarning tarafdori bo'lgan. Lokk o'zining o'tmishdoshlari Nikkolo Makiavelli, Tomas Gobbs singari davlat vujudga kelgunga qadar bo'lgan davrni “tabiiy holat” deb belgilaydi. Biroq u, Gobbs qarashlaridan farqli o'laroq, tabiiy holatda “barchaning barchaga qarshi urush” holatida bo'lishini inkor etadi.

Shartnoma nazariyasi tarafdori sanalgan Lokk jamiyat azolari davlat timsolida siyosiy tashkilotni tuzishlari uchun ular o'zlariga tegishli ma'lum huquqlardan voz kechishlari lozim bo'ladi. Biroq u, Gobbs qarashlaridan farqli o'laroq, shaxsga tegishli barcha tabiiy huquqlardan voz kechish to'g'risida so'z yuritmaydi. Uning fikricha, mulkka egalik, yashash huquqi hech bir holatda boshqa bir shaxsdan olinib, ikkinchi bir shaxsga berilishi mumkin emas.

Davlat jamiyat azolari hayoti, sog'lig'i, erkinliklarini taminlash, ularning manfaatlarini himoya etish uchun zarur bo'lgan vakolatlarnigina olishi mumkin. Eng muhimi – ushbu vakolatlar siyosiy hamjamiyatga erishish uchun etarli bo'lishi lozim. Lokk qarashlarida xususiy mulkning dahlsizligi mavzusi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Utopik sotsializm - bu tarixiy va falsafiy adabiyotlarda jamiyatni sotsialistik tamoyillar asosida o'zgartirish imkoniyati, uning adolatli tuzilishi haqidagi marksizmdan oldingi ta'limot.

Sotsialistik munosabatlarni zo'ravonliksiz, faqat targ'ibot va ibrat kuchi bilan qurish haqidagi g'oyalarni ishlab chiqish va jamiyatda amalga oshirishda asosiy rolni ziyolilar va unga yaqin toifalar o'ynadi.

XVI—XVII asrlarda kapitalning ibtidoiy jamg'arish davri boshlanishi bilan utopik xarakterdagi adabiyot vujudga keldi. Utopik sotsializmning asoschisi ingliz gumanist yozuvchisi Tomas Mordir. Tomas Mor dunyoqarashini shakllanishi va ijodiy faoliyati Angliyada yangi dvoryan tabaqasi – jentrilarning tarix sahnasiga kelishi, davlat absolyutizmning o'rnatilishiga to'g'ri keldi. Tomas Mor tarjimai xoli haqida 12-mavzuda batafsil ma'lumot berilgan. Uning asosiy asari "Utopiya" (1516) da muallif mavjud tuzumning nomukammalligini, dehqonlar boshiga tushgan musibatlarni, uning sababini xususiy mulkda ko'rgan. U jamoat mulki, ijtimoiy ishlab chiqarish va adolatli taqsimot hukmronlik qiladigan ideal Utopiya davlati g'oyasini yaratdi. Utopiyaning barcha aholisi ishlashlari va bo'sh vaqtlarida fan va san'atni o'rganishlari shart. Ishlab chiqarilgan hamma narsa jamoat mulki bo'lib, moddiy ne'matlarning ko'pligi ularni ehtiyojga qarab taqsimlash imkonini beradi. Siyosiy tizim demokratiyaga asoslanadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ingliz burjua inqilobi mafkurasi xususiyatlari.
2. Tomas Gobbsning siyosiy – huquqiy ta’limoti.
3. Jon Lokkning siyosiy – huquqiy qarashlarida liberalizm g‘oyalari.
4. Tomas Mor utopik sotsializmi.
5. Independentlar, levellerlar va diggerlar mafkurasi.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Feodalizmga qaxshatqich zarba bergan Ingliz burjuasining Yevropa darajasidagi birinchi inqilobi qachon sodir bo‘lgan?
 - a) 1600-1650 yillar
 - b) 1640-1660-yillar
 - c) 1660-1680-yillar
 - d) 1670-1690-yillarda
2. Puritan so‘zining ma’nosi nima?
 - a) Forscha puritas-qurollanganlar
 - b) Inglizcha puritan, lotincha puritas — poklik
 - c) Inglizcha puritan, kohinlar, cherkov odamlari
 - d) Lotincha puritas- vakolatli insonlar
3. Leveller so‘zining ma’nosi nima?
 - a) inglizcha levellers – tenglashtiruvchilar
 - b) Inglizcha puritan, lotincha puritas — poklik
 - c) Inglizcha puritan, kohinlar, cherkov odamlari
 - d) Lotincha puritas- vakolatli insonlar
4. Presviteriyanlar so‘zining ma’nosi nima?
 - a) Inglizcha tenglashtiruvchilar
 - b) kohinlar, cherkov odamlari
 - c) katta, keksa
 - d) zodagonlar
5. Independent so‘zining ma’nosi nima?

- a) Mustaqil
 - b) Keksa, katta
 - c) zodagonlar
 - d) kohinlar, cherkov odamlari
6. Digger soʻzining maʼnosi nima?
- a) Keksa, katta
 - b) zodagonlar
 - c) kohinlar, cherkov odamlari
 - d) qazuvchi
7. Qirol Karl I Styuartning parlament bilan toʻqnashuvi, birinchi fuqarolar urushining boshlanishi qachon sodir boʻlgan?
- a) 1622-yil
 - b) 1642-yil
 - c) 1654-yil
 - d) 1677-yil
8. Karl I ning qatl etilishi, Angliya respublikaga aylanishi qachon sodir boʻlgan?
- a) 1654-yil
 - b) 1677-yil
 - a) 1649-yil
 - b) 1689-yil
9. Ikkinchi fuqarolar urushi, Karl 1 va uning ittifoqchilari - shotlandlarning magʻlubiyati qachon sodir boʻlgan?
- c) 1654-yil
 - d) 1677-yil
 - c) 1648-yil
 - d) 1689-yil
10. Styuart sulolasining tiklanishi, Karl II qirol boʻlishi qachon sodir boʻlgan?
- a) 1654-yil
 - b) 1677-yil
 - a) 1645-yil

b) 1660-yil

11. Oliver Kromvelning o'limi, uning o'g'li Richardning hokimiyatdan chetlatilishi qachon sodir bo'lgan?

a) 1654-yil

b) 1677-yil

c) 1645-yil

d) 1658-yil

15-MAVZU: BUYUK FRANSUZ INQILOBI G'OYALARI VA UNDAN KEYINGI DAVRLARDA SIYOSIY MAFKURALAR

Reja:

1. Buyuk Fransuz inqilobi mafkurasi, uning yo'nalishlari va oqimlari.
2. Royalistlar, jirondistlar va yakobinchilar ideologiyasi.

Tayanch tushunchalar: Fransiyadagi feodal-absolyutistik tuzum ag'darilishi; "Erkinlik, tenglik va birodarlik" g'oyalari; Fransuz inqilobining G'arbiy Evropadagi mafkuraviy jarayonlarga ta'siri; Royalistlar, Konstitutsionalistlar, jirondistlar va yakobinchilar mafkurasi; Yakobinchilarning mafkurasining radikal demokratik mazmuni.

Fransuz inqilobi 1789-1794-yillarni qamrab oladi. Uning xronologik chegarasi 1789-yil 14-iyul, Bastiliyaga hujum qilingan kun va yuqori, 1794-yil - Termidoriya to'ntarishi va M. Robespyerning qatl etilishi bilan belgilanadi.

Inqilobning tugash sanasi munozarali. Tarixchilar, inqilobning tugashini 1799-yil (Bonapart hokimiyat tepasiga kelganida), 1804-yil (imperianing tashkil topishi), hatto 1815-yil (monarxiya va burbonlarning taxtga qaytishi) bilan ham belgilashadi.

Bastiliya (fr. la Bastille) - dastlab 1370-1381-yillarda qurilgan qal'a va Parijdagi davlat qarshi jinoyat sodir etganlar uchun qamoqxona.

1789-yil 14-iyulda Fransiya inqilobining boshida qal'a inqilobiy fikrlaydigan aholi tomonidan egallab olingan. 1791-yilda Bastiliya butunlay vayron bo'ldi va uning o'rniga Per-Fransua Palloy "Bu yerda ular raqsga tushishadi va hamma narsa yaxshi bo'ladi" yozuvini o'rnatdi. Ayni paytda buzib tashlangan qal'a o'rnida Bastiliya maydoni joylashgan - Parij metrosining uch qatorli yer osti tugunlari va yangi Parij operasi bilan o'nlab ko'chalar va xiyobonlar kesishgan.

Inqilobning sababi 1780-yillarda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy xarakterga ega bir qator obyektiv va subyektiv omillarda namoyon bo'ldi. XVIII asrda eng boy va dinamik rivojlanayotgan Yevropa davlatlaridan biri Fransiya shu yuz-yillikning 2-yarmida davlat qarzlari tufayli yuzaga kelgan moliyaviy inqirozga duch keldi. Buni soliq, moliyaviy va ma'muriy islohotsiz bartaraf etish mumkin emasligi ma'lum bo'ldi. Islohotlar parlamentlar va imtiyozli guruhlar tomonidan cheklab qo'yildi. Ma'rifatparvarlik mafkurasidan foydalangan holda hokimiyatni tanqid qilish qirol hokimiyatining obro'siga putur etkazdi.

Burbonlar sulolasidan Lyudovik XVI, aslida, yaxshi odam edi, lekin davlat arbobi emas edi. U atrofida gilar ta'siriga osongina berilib ketdi (qirolicha Mariya Antuanetta yoki vazirlar) va hukumat ishidan ko'ra duradgorlik va ovchilikni yaxshi ko'rardi.

1720-1770-yillarda mamlakatda iqtisodiy o'sish, keyin esa demografik o'sish kuzatildi, shuning uchun qirol hokimiyatining bu kamchiliklari ko'zga tashlanmagan. Aristokratiya va saroy uchun juda katta pul sarflanadi: saroylar, o'yin-kulgilar, mantiqsiz urushlar.

Bularning barchasi siyosiy huquqqa ega bo'lmagan burjua, mayda burjua va dehqonlar – "uchinchi qatlam" hisobidan qoplangan. Shubhasiz, bundan ko'proq "uchinchi qatlam" noroziligini bildirdi.

1780-yillarning ikkinchi yarmida Fransiyada iqtisodiy inqiroz boshlandi. Katta tashqi qarz, mahsulotlari import qilinadigan tovarlar bilan raqobatlasha olmaydigan fransuz korxonalarining xonavayronligi, o'sib borayotgan ishsizlik, hosildorlikning pasayishi, non va vino narxlarining ko'tarilishi. Hech qanday tanlov qoldirmadi: Fransiya soliq tizimini qayta ko'rib chiqishi kerak edi. Uchinchi qatlam - aholining

94% - endi soliqlarni to'lay olmadi, xonavayron bo'ldi va qolgan 6% (zodagonlar va ruhoniylar) pullarini qanday isrof qilishlarini xotirjam kuzata olmadi.

Umumiy yer solig'i kerak edi. Uchinchi qatlamning adolatga intilishi ma'rifatchilar tomonidan kuchaytirildi: fransuz ma'rifatparvarlari insonning tabiiy huquqlari va barcha odamlarning tengligi haqidagi g'oyalari zodagonlar va cherkov ham xazinani to'ldirishi kerak, degan ishonchni kuchaytirdi va bundan tashqari, ularning zulmidan xalos bo'lish kerakligini anglatar edi.

Inqiroz "quyi toifalar" ning siyosatga qiziqishini tobora kuchaytirdi, ammo, garchi hatto qirol ham xalq g'alayonlari xavfini allaqachon sezgan bo'lsada aristokratiya va ruhoniylar o'jarlik bilan soliq to'lashdan bosh tortdilar. Bunday sharoitda moliya vaziri Jak Nekerning maslahati bilan Lyudovik XVI 1789-yil yanvarda General shtatlarni (maslahat vakolatiga ega bo'lgan uchta qatlam vakillarining yig'ilishi) chaqirishga rozi bo'ldi.

Fransuz inqilobi-yilnomasi:

1789-yil may - General shtatlarning ishining boshlanishi va uchta qatlamlarning to'qnashuvi;

1789-yil 17-iyun - Uchinchi qatlam deputatlari o'zlarini Milliy Assambleya deb e'lon qilishdi;

1789-yil 14-iyul – Bastiliyaning hujum bilan olinishi;

1789-yil 26-avgust - Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining qabul qilinishi;

1791-yil 3-sentyabr — Milliy Assambleya Konstitutsiyani qabul qildi;

1791-yil oktyabr - Qonunchilik majlisi - parlament uchun saylovlari;

1792-yil-aprel - Avstriya va Prussiya bilan urushning boshlanishi;

1792-yil sentyabr - Milliy qurultoyning chaqirilishi va respublikaning e'lon qilinishi;

1793-yil 21-yanvar - Lyudovik XVI qatl etildi;

1793-yil may - yakobinchilar diktaturasi va terrorining boshlanishi;

1794-yil 27-iyul - Termidorlar to'ntarishi;

1795-yil 22-avgust - Milliy konvensiya yangi respublika konstitutsiyasini qabul qildi;

1799-yil 9-noyabr - Direktoriyaning agʻdarilishi va Napoleon Bonapart harbiy diktaturasining boshlanishi.

“Ozodlik, tenglik, birodarlik” (fransuzcha “Liberté, Égalité, Fraternité”) — XVIII asr oxiridagi fransuz burjua inqilobining shiori. Fransuz maʼrifatparvarlarining “insonning tabiiy huquqlari” gʻoyasiga asoslanadi, “Ozodlik, tenglik, birodarlik” shiorida xalq ommasi va burjuaziya asosiy guruhlarining qirollik absolyutizmi, zodagonlar va ruhoniylarning toifaviy imtiyozlari feodal tuzumga barham berishga intilishi oʻz aksini topgan. Shior 1789-yildagi Inson va fuqaroning huquqlari deklaratsiyasi asosida yaratilgan va inqilobning koʻplab hujjatlarida ifodalangan. Feodalizm va toifaviy tengsizlikka qarshi kurash davrida bu shior katta progressiv ahamiyatga ega edi. Bu feodalizmga qarshi kurashga koʻtarilgan burjuaziya va mehnatkash ommaga katta inqilobiy taʼsir koʻrsatdi. Shior fuqarolik va huquqiy erkinlik hamda tenglikni nazarda tutgan, lekin burjuaziya uchun muqaddas mulk huquqiga, demak, ijtimoiy tengsizlik va ekspluatatsiyaga tegmagan.

Maʼrifatparvarlik nafaqat bilimlarni tarqatish, balki ularni xristianlik eʼtiqodiga qarshi qoʻyadigan va oʻz tarafdorlariga faqat odamlar tomonidan oʻzlashtirilgan bilimlar ularning hayotini va butun jamiyat hayotini yaxshilashini targʻib qiladi. Maʼrifatparvarlar oʻrta asrlarni “qorongʻu” asrlar – yaʼni maʼrifatli emas, deb hisoblaydi.

Monteskye (Montesquieu, 1689 - 1755), Sharl Lui de Sekonda - eng konservativ maʼrifatparvardan biri(34-rasm). “Qonunlar ruhi haqida”⁵⁰ (1748) asarida - turli xalqlar oʻrtasidagi qonunlar va urf-odatlarining xilma-xilligini tushuntirishga urinadi. Monteskye buni iqlim va xalqlar hayotining geografik sharoitlaridagi farq bilan bogʻlagan: “Issiq iqlim sharoitida odatda despotizm hukm suradi”. Vijdon erkinligi himoyachisi, Xudoga ishonish jamoat tartibini saqlash va axloqni saqlashning zaruriy sharti deb hisoblardi.

⁵⁰ Monteskye III. О духе законов. URL:

https://www.civisbook.ru/files/File/Monteskye_O%20dukhe.pdf (murojaat sanasi 10.01.2023)

Monteskye hokimiyat haqida. Har bir zamonaviy davlat uchta hokimiyatga ega bo'lishi kerak: birinchisi - qonun chiqaruvchi hokimiyat; ikkinchisi - ijro etuvchi hokimiyat; uchinchi - sud tizimi. Qirol (Prezident) esa ijro hokimiyatiga boshchilik qilishi kerak.

Monteskye xalqning ruhi haqida. Mutafakkir odamlarni ko'p narsa boshqaradi: iqlim, din, qonunlar, boshqaruv tamoyillari, o'tmish ibratlari, odatlar, urf-odatlar; bularning barchasi oxir oqibatda xalqning umumiy ruhiyatini shakllantiradi, deb hisoblaydi.

Bu sabablardan birining harakati odamlarda qanchalik kuchaysa, boshqalarining harakati shunchalik zaiflashadi. Yovvoyilarda deyarli faqat tabiat va iqlim hukmronlik qiladi, xitoyliklarni urf-odatlar boshqaradi, Yaponiyada zolim hokimiyat qonunlarga tegishli, Lakedemon ustidan qadimda urf-odatlar hukmronlik qilgan, boshqaruv tamoyillari va antik davr odatlari Rimda hukmronlik qilgan.

Qonun chiqaruvchi xalqning ruhiga mos kelishi kerak, chunki bu ruh hukumat tamoyillariga zid emas, chunki biz o'zimiz qilgan ishimizni erkin va tabiiy dahomizga muvofiq qilamiz.



34-rasm
Monteskye

Monteskye falsafasiga ko'ra hokimiyat taqsimotining asosiy maqsadi - hokimiyatni suiiste'mol qilishdan qochish istagi. Monteskye nazariyasiga ko'ra, uning davlat tuzumi bilan munosabatlarida siyosiy mustaqillikni ta'minlashning asosiy sharti hokimiyatning bo'linishi va o'zaro cheklanishi hisoblanadi.

Hukumatning uch turi mavjud: despotik, monarxiya va respublika. Asosiy hokimiyat butun xalq (demokratiya) va yoki uning bir qismi (aristokratiya) qo'lida bo'lgan hukumat respublika boshqaruvi deb ataladi. Agar bir kishi hukmronlik qilsa, lekin zodagonlar bilan birgalikda o'rnatilgan majburiy qonunlar yordamida (bu monarxiyani despotizmga aylantirishga imkon bermaydi), bu monarxiya boshqaruvidir. Agar butun hokimiyat bir kishining qo'lida bo'lsa va na qoidalar va na qonunlarga rioya qilinmasa, bu, shubhasiz, despotik hukumatdir.

Boshqaruvning asoslari:



35-rasm
Volter

- respublikada - ezgulik va qadr-qimmat;
- monarxiya ostida - hurmat va hurmat,
- despotizm bilan - qo'rquv va zulm.

Demokratiyaning asosiy qonuni - bu qonun, unga ko'ra barcha qonun chiqaruvchi hokimiyat xalqqa tegishli. Lekin doimiy qonunlardan tashqari Senat qarorlari ham zarur. Ikkinchisi vaqtinchalik faoliyat normalari bilan bog'liq.

Volter (Volter - taxallus, asl ismi Arue, 1694 - 1778), Fransua Mari – yozuvchi, satirik muallif(35-rasm), jabrlanganlarni hokimiyatning o'zboshimchaliklaridan himoya qilgan. “Ma'rifiy absolyutizm” va diniy bag'rikenglik tarafdori.

Volterning asosiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari yangi shakllanayotgan fransuz burjua demokratiyasi mafkurasini aks ettirdi va eskirgan feodal tuzumni barbod qilar edi. Volter o'zining yangi falsafiy g'oyalarini ilgari surgan faylasuf emas, balki u jamiyatning falsafiy ma'rifati yo'lida katta ishlarni amalga oshirgan ma'rifatparvar edi. Volterning barcha asarlarida asosiy o'rinda antifeodal g'oya bo'lib, uning markazida antiklerikalizm yotadi. U butun umri davomida cherkovga, diniy murosasizlik va fanatizmga qarshi kurashdi. Volterning falsafiy qarashlari “Falsafiy maktublar” (1733), “Metafizika haqidagi risola” (1734), Nyuton falsafasining asoslari (1738), “Kandid” falsafiy hikoyalari (1759), “Falsafiy lug'at” (176) da o'z ifodasini topgan⁵¹. Volterning falsafiy qarashlari uning dinsizlik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq. Uning katolik cherkovi bilan kurashi “Razillarni yo'q qiling!” degan chaqirig'ida juda qisqacha ifodalangan: Volter o'z asarlarida dinning tizim sifatida muvaffaqiyatsizligini ko'rsatdi. Biroq, u bizning dunyomizning Yaratuvchisi sifatida Xudoga bo'lgan ishonchni butunlay inkor etmasdan, deizm pozitsiyalarida qoldi. Uning fikricha, dinning manbai jaholat va makrdir. U din tovlamachi bilan ahmoq uchrashganda paydo bo'ladi, deb ishongan. Shu bilan birga, u dinni zarur deb hisoblagan, chunki diniy e'tiqod odamlarning xatti-harakatlarini

⁵¹ Вольтер. Философские сочинения. М.: Наука. 1988. –С.751. URL: https://platona.net/load/knigi_po_filosofii/istoriya_prosveshhenie/volter_filosofskie_sochineniya/11-1-0-1338 (murojaat sanasi 10.01.2023)

boshqaradigan kuchdir. U “Agar Xudo mavjud bo'lmasa, uni o'ylab topish kerak bo'lar edi” deb hisoblagan.



36-rasm

Didro

Didro (Didro, 1713 - 1784), Denis - faylasuf, hunarmandning o'g'li, bir necha yil Iezuitlar maktabida o'qigan va erkin fikrlovchi, materialist va ateist bo'lib chiqqan, cherkovga qarshi risolalari uchun qamoqqa tushgan. Ozodlikka chiqqach, u Ensiklopediyani⁵² nashr etish tashabbusi bilan chiqdi: zo'r tashkilotchi, o'zi ham ushbu nashr uchun juda ko'p yozgan va senzura bilan bog'liq muammolar bo'lganda, u keyingi jildlarni qo'shni mamlakatlarda nashr ettirgan.

1773-yilda Yekaterina II ning taklifiga binoan u Rossiyaga tashrif buyurdi (Sankt-Peterburgda u yashagan uyda yodgorlik lavhasi bor). Eng yorqin falsafiy asarlar “D’Alamber va Didroning suhbatlari”⁵³ (1769), Ramoning jiyani (1762 - 1779).

Didro deizmga amal qildi (xudoning diniy va falsafiy g'oyasi - narsalarning yaratuvchisi, lekin uning yaratilgan dunyoga aralashuvini inkor etadi). Faylasuf moddiy va ma'naviy dualizmni rad etdi (Didroning fikricha, faqat sezgirlikka ega bo'lgan materiya bor). Siyosiy jabhada ma'rifatparvar absolyutizm tarafdori va “uchinchi toifa” mafkurachisi edi.

Deizm - falsafadagi yo'nalish bo'lib, unda Xudo dunyoning yaratuvchisi sifatida tan olinadi, lekin dunyoni yaratib, unga ma'lum qonunlarni joriy qilgandan so'ng, Xudo endi dunyo ishlariga aralashmaydi: dunyo o'z qonunlari bo'yicha mavjud. Deizm obyektiv idealizmning o'ziga xos turidir, lekin ayni paytda u obyektiv idealizmdan materializmga o'tish yo'lidagi o'tish bosqichidir.

Ma'rifatparvar absolyutizm — XVIII asrning ikkinchi yarmida Yevropaning bir qator monarxiya mamlakatlari tomonidan olib borilgan, mutlaq monarxiya tamoyillarini fransuz ma'rifatparvarligining ayrim g'oyalari bilan uyg'unlashtirib, o'rta asr feodal tuzumi qoldiqlarini yo'q qilishga bozor munosabatlariga qaratilgan g'oya va siyosat.

⁵² Энциклопедия. Д'Аламбера и Дидро. URL: <http://www.hist.msu.ru/ER/Text/Encycl/index.html> (murojaat sanasi 10.01.2023)

⁵³ Разговор Д'Аламбера с Дидро. URL: <https://kph.ffs.npu.edu.ua/!e-book/clasik/data/diderot/dalamber.html> (murojaat sanasi 10.01.2023)

Ma'rifiy absolyutizm konsepsiyasida asosiy g'oya monarxning (qirol, imperator) barcha sub'ektlar uchun, hech qanday mulk va tabaqalarni istisno qilmasdan, o'z javobgarligini tushunishdir. Fuqarolar, o'z navbatida, hukmdorning bu xatti-harakatini qadrlashlari va uning tashabbuslariga har tomonlama hissa qo'shishlari kerak.

XVIII asrning ikkinchi yarmida bir qator Yevropa mutlaq monarxlari tomonidan olib borilgan davlatda "umumiy manfaat"ga erishish siyosati sifatidagi ma'rifiy absolyutizm ma'rifatparvarlik falsafasi g'oyalari bilan chambarchas bog'liq edi.

Russo (1712 - 1778), Jan-Jak - eng radikal ma'rifatparvarlardan biri(37-rasm). Qizig'i shundaki, uning shon-shuhrati "Fan va san'at haqida mulohazalar"⁵⁴ (1750) asaridan boshlangan: u "Fan va san'atning tiklanishi axloqni yaxshilashga hissa qo'shganmi?" degan savoliga salbiy javob berdi. Shunga qaramay, u Ensiklopediyaga hissa qo'shgan. "Odamlar o'rtasidagi tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari haqidagi nutq" (1755) "Ijtimoiy shartnoma to'g'risida"⁵⁵ (1762) risolalari muallifi. Russo har qanday tengsizlikda "ekspluatatsiya" va yovuzlikni ko'rdi va jamiyatni tashkil etishning eng yaxshi shakli aniq totalitar xususiyatlarga ega: barcha fuqarolarni "fazilat" ruhida tarbiyalaydigan va qarshilik ko'rsatganlarni haydab chiqaradigan yoki qatl qiladigan respublika deb hisobladi. U nasroniylikni ham, ateizmni ham rad etdi: u "fuqarolik dini"ni zarur deb hisobladi



Jan Jak Russo ijtimoiy muhitdagi tengsizlikka, qirol hokimiyatining despotizmiga qarshi edi. U xususiy mulkning joriy etilishi natijasida vayron qilingan odamlarning umumiy tengligi va erkinligining odatiy holatini ideallashtirdi. Davlat, Russoning fikricha, faqat teng huquqli va erkin odamlarning kelishuvi natijasida vujudga kelishi mumkin. Russoning g'oyalari:

⁵⁴ Руссо Жан-Жак. Рассуждение о науках и искусствах. URL: https://www.bsuir.by/m/12_100229_1_58957.doc (murojaat sanasi 10.01.2023)

⁵⁵ Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре, или принципы политического права. URL: https://www.civisbook.ru/files/File/Russo_O_dogovore.pdf (murojaat sanasi 10.01.2023)

Mehnat - boylikning asosiy manbai.

Oliy hokimiyat faqat xalqqa tegishli.

Davlat boshqaruvining ideal shakli demokratik respublikadir.

Yakobinchilar — yakobinlar klubi, fransuz inqilobi davridagi fransuz siyosiy klubi a'zolari. 1793-1794-yillardagi inqilobiy hukumatni yaratishga olib kelgan maqsadlarga erishishda radikal egalitarizm, respublikachilik va zo'ravonlikdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan inqilobning mashhur va ta'sirli siyosiy harakati.

1780-yilda tuzilgan va Yakov ordeni nomidan kelib chiqqan, uning nomidagi monastirda yig'ilgan siyosiy klub a'zolari; ularning demokratik zulmdan iborat ta'limoti ularning nomi radikal inqilobchilarning umumiy nomiga aylanishiga sabab bo'ldi. Keskin radikallar va respublikachilar.

Konstitutsionalistlar, hokimiyat butun millatga tegishli deyish bilan bir qatorda millatning ishonchli vakili qirol bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Shulardan kelib chiqib yirik burjuaziya 1791-yilda qabul qilingan konstitutsiyada cheklangan monarxiya vakolatini aks ettirgan edi. Monarxiyachilik kayfiyatidagi yirik burjuaziya ana shu o'zgarishlar natijasida inqilob o'z poyoniga etadi, deb hisoblagan edilar, lekin unday bo'lib chiqmadi, balki aynan shu paytdan e'tiboran haqiqiy inqilob boshlangan edi.

Jirondistlar mafkurachilari: Brisso, Kondorse va boshqalar qirollik hokimiyatiga qarshi borib, respublika tuzumini himoya qilar edilar. Lekin jirondistlar uchun qirolning qatl etilishi inqilob uchun eng so'nggi chegara bo'lib, ular mazkur qatlni to'xtatishga urinib ko'rdilar. Pirovardida jirondistlar va yakobinchilar – radikal kayfiyatda bo'lgan mayda burjuaziya hamda keng xalq ommasi o'rtasida keskin kurash boshlanib ketadi.

Jirondistlar XVIII asr oxiridagi Fransiya inqilobi davridagi mo'tadil respublikachilar guruhidir. Jirondistlar nomi Jirond departamenti nomidan kelib chiqqan bo'lib, u yerdan ko'plab guruh rahbarlari (rahbarlar: J. P. Brissot, P. V. Vergnot, J. A. Kondorset va boshqalar) chiqqanligi bilan bog'liq. Yakobinchilar bilan birgalikda ular fransuz monarxiyasini ag'darib tashladilar, biroq tez orada

radikal yakobinchilarga qarshilik ko'rsatdilar. 1793-94-yillarda. Jirondinlarning aksariyati qatl etilgan.

Royalistlar qirol hokimiyati tarafdorlari, monarxistlardir. "Royalistlar" atamasi birinchi marta XVIII asr oxirida Fransiyada qo'llanila boshlandi. Fransuz inqilobi davrida Burbon monarxiyasi tarafdorlarini, inqilob dushmanlarini belgilash uchun ishlatilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Buyuk Fransuz inqilobi mafkurasi, uning yo'nalishlari.
2. Royalistlar mafkurasi.
3. Jirondistlar mafkurasi.
4. Yakobinchilar mafkurasi.
5. Jan Jak Russoning siyosiy qarashlari.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Fransuz inqilobi - yillarni qamrab oladi.
 - a) 1789-1794 - yillar
 - b) 1768-1800-yillar
 - c) 1734-1821-yillar
 - d) 1755-1767-yillar
2. Fransiyada 1799-yil hokimiyat tepasiga keladi?
 - a) Bonapart
 - b) Robespyer
 - c) Per-Fransua
 - d) Bastiliya
3. Per-Fransua Palloy so'zlari ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
 - a) Bu yerda ular raqsga tushishadi va hamma narsa yaxshi bo'ladi
 - b) Qamoqxona hududi
 - c) Ozodlik uchun tadbir
 - d) Asirlarning ozod bo'lishi

4. Lyudovik XVI 1789-yilda kimning maslahatiga ko'ra General shtatlarni (maslahat vakolatiga ega bo'lgan uchta qatlam vakillarining yig'ilishi) chaqirishga rozi bo'ldi.
- a) Robespyer
 - b) Per-Fransua
 - c) Bastiliya
 - d) Jak Neker
5. General shtatlarning ishining boshlanishi va uchta qatlamlarning to'qnashuvi qachon sodir bo'lgan?
- a) 1789-yil may
 - b) 1789-yil avgust
 - c) 1789-yil iyun
 - d) 1791-yil sentyabr
6. Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining qabul qilinishi qachon sodir bo'lgan?
- a) 1789-yil may
 - b) 1789-yil avgust
 - c) 1789-yil iyun
 - d) 1791-yil sentyabr
7. Uchinchi qatlam deputatlari o'zlarini Milliy Assambleya deb e'lon qilishdi qachon sodir bo'lgan?
- a) 1789-yil may
 - b) 1789-yil avgust
 - c) 1789-yil iyun
 - d) 1791-yil sentyabr
8. Milliy Assambleya Konstitutsiyani qabul qilinishi qachon sodir bo'lgan?
- a) 1789-yil may
 - b) 1789-yil avgust
 - c) 1789-yil iyun
 - d) 1791-yil sentyabr

9. Avstriya va Prussiya bilan urushning boshlanishi yilini aniqlang.

- a) 1789-yil may
- b) 1789-yil avgust
- c) 1792-yil-aprel
- d) 1745-yil dekabr

10. Lyudovik XVI qachon qatl etildi?

- a) 1789-yil may
- b) 1789-yil avgust
- c) 1793-yil yanvar
- d) 1799-yil fevral

16-MAVZU: BUYUK FRANSUZ INQILOBI G‘OYALARI VA UNDAN KEYINGI DAVRLARDA SIYOSIY MAFKURALAR (davomi)

Reja:

1. Maksimilian Robespyer va Jan Pol Maratlarning siyosiy qarashlari.
2. Grakx Babyofning “Tenglar jamiyati” yoxud “Tenglik uchun fitna” nomli siyosiy – huquqiy dasturi.

Tayanch tushunchalar: M.Robespyer, J.P.Marar, J.J.Danton va L.A.Sen-Jyust qarashlari; G.Babyof g‘oyalari; Bonapartizm ideologiyasi; “Grajdan (Napoleon) kodeksi” Restavratsiya davri mafkurasi; Inqilobiy mafkuralarning absolyutizm emirilishidagi roli.

Maksimilian Mariya Isidore de Robespyer (1758-yil 6-may- 1794-yil 28-iyul) - fransuz inqilobchisi, Fransiya inqilobining eng mashhur va nufuzli siyosiy arboblardan biri(38-rasm).

1789-yilda General Shtatlarga uchinchi qatlam deputati etib saylandi, u tez orada qullik, o‘lim jazosini bekor qilish va umumiy saylov huquqi uchun targ‘ibot olib borib, Ta’sis Assambleyasida yetakchi demokratlardan biriga aylandi. Uning

o‘z tamoyillarini qo‘llab-quvvatlashdagi izchilligi tez orada unga “Sotib olinmas” (fr. L’Incorruptible) laqabini berdi. Yakobinlar klubi tashkil topganidan beri a‘zosi bo‘lib, u uning eng mashhur va yetakchi a‘zosi bo‘lgan.



38-rasm
Robespyer

Robespyer o‘zining 1793-yil 25 dekabrda Konventda qilgan “Inqilobiy boshqaruvning prinsiplari”⁵⁶ nomli ma‘ruzasida inqilobning g‘alabasi uchun zarur vositalar ustida to‘xtalib, inqilobning maqsadini belgilab berar ekan, shunga intilgan yakobinchilar diktaturasi haqida jumladan, “erkinlik va tenglikdan xotirjam foydalanmoq, adolatning abadiy hukmronligi uchun” degan edi.

Robespyer va uning guruhi 1793-yil iyun oyida g‘azablangan olomon bilan o‘rab olingan Konvent taslim bo‘ladi va jirondist deputatlarini o‘z safidan chiqarib yuboradi. Hokimiyat o‘ta so‘l - Robespyer va uning tarafdorlari (yakobinlar deb ataladigan) qo‘liga o‘tadi.

Robespyer va uning eng yaqin sheriklari - Sen-Just va Kouton - Jamoat xavfsizligi qo‘mitasi (aslida, inqilobiy Fransiya hukumati) a‘zolaridir. Qo‘mitaning barcha a‘zolari rasman teng bo‘lsa-da, undagi so‘zsiz rahbarlik, shubhasiz, Robespyerga tegishli edi.

Radikal shiorlar ostida hokimiyatga kelgan yakobinchilar (ularni saylovchilarni aldaganlikda hech kim ayblay olmaydi) bu shiorlarni amalda qo‘llay boshladi. Yer masalasi hal qilindi: dehqonlarning barcha feodal majburiyatlari qaytarib olinmasdan bekor qilindi. Dvoryanlarning yerlari tortib olinib, mayda yerlarga bo‘linib, dehqonlarga sotilgan. 1794-yil bahorida yakobinlar bu sohada yanada chuqurlashdilar: ular bu uchastkalarni bepul tarqata boshladilar.

1793-yil sentabrda Konvent non va eng zarur tovarlarga qat‘iy narxlarni (“narxlarning yuqori chegarasini”) o‘rnatdi. Bu inqilobchilar qo‘yishga jur‘at etgan iqtisodiyotdagi eng radikal qadam edi.

⁵⁶ Максимилиан Робеспьер. Революционная законность и правосудие. Статьи и речи. Перевод с франц. Н.С.Лапшиной под редакцией и с предисловием А. Герцензона М.: Государственное издательство юридической литературы. 1959. URL: https://istmat.org/files/uploads/28665/robespierre_paroles.pdf (murojaat sanasi 10.01.2023)

Robespyer ko'p qirrali shaxs bo'lgan: siyosatchi, voiz, huquqshunos, inqilobchi va eng zolim hukmdorlardan biri. U Fransiya bo'lgan "Terror asri" boshida turgan. Fransiya inqilobida oqsuyak, ruhoniy va oldingi hukumat tarafdorlari ommaviy ravishda qatl qilingan. Uning hisobida 40 000 dan oshiq nobud qilingan hayot bor. 1794-yili u mahkamaga tortilib, tartibsiz hukmlari uchun boshidan ayrilgan.

Yakobinchilar dasturidagi demokratizm shundan iboratki, barcha lavozimlar saylab qo'yish orqali egallanishi lozim. Robespyer inqilobiy hukumat nazariyasini ilgari surdi va uning zarurligini mafkuraviy jihatdan asoslashga harakat qildi, chunki bunday boshqaruvda anarxiyaga yo'l qo'yilmaydi, balki tartib va qonuniylikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Danton Jorj Jak (1759 - 1794) - Fransiya inqilobi davri siyosatchisi. Mutaxassisligi huquqshunos, inqilobning dastlabki kunlaridanoq yorqin xalq noibi sifatida maydonga chiqdi. 1790-yilda u Marat, Demulen, Shomet va boshqalar bilan birgalikda "Kordelyerlar" inqilobiy klubini tuzdi. Inqilobiy Parij kommunasi tashkil etilgandan so'ng Danton prokuror yordamchisi etib tayinlandi. 1792-yilda Danton Milliy konventga saylandi va Belgiyaga ushbu mamlakat boshqaruvini tashkil qilish uchun yuborildi. Qirol hokimiyatining qulashiga olib kelgan 1792-yil 10-avgustdagi qo'zg'olondan so'ng qonun chiqaruvchi organ Dantonni adliya vaziri etib tayinlaydi. Dushman qo'shinlarining kelishi haqidagi birinchi xabarda Danton inqilobiy Fransiyaning mudofaasini tashkil etish va boshqarishni o'z zimmasiga oladi. 1793-yilda Danton tashabbusi bilan terror yo'liga o'tgan inqilobiy tribunal tuzildi. 1793-yil dekabrda inqilob yutuqlari yetarli darajada mustahkamlanganiga ishongan Danton terrorni tugatish zarurati haqida gapira boshladi. "Men, - dedi u, - xalqni inqilob chegarasidan tashqariga olib chiqishni xohlaydigan va o'ta inqilobiy choralarni taklif qila boshlaganlarga ishonmaslikni taklif qilaman". O'sha paytdan boshlab Danton terror tarafdorlari, eng demokratik qatlam vakillari Shomet va Geberga ochiq va qat'iy qarshilik ko'rsatdi va Robespyerga ular bilan kurashishda yordam berdi. Ammo uning o'zi Robespyerning shubhalarini uyg'otadi, u dantonistlarni yetarli darajada inqilobiy emas deb hisoblaydi. Robespyerning bosimi

ostida Danton va uning tarafdorlari 1794-yil 31-martda jirondinlar bilan munosabatlarda, davlat pullarini o'g'irlashda va boshqa ayblar bilan hibsga olindi. Sud jarayoni o'lim jazosi bilan yakunlandi, 1794-yil 5-aprelda Danton va uning yaqinlari, sheriklari gilyotinga tortildi.

Fransuz inqilobi davridagi siyosiy klub a'zolari bo'lgan Kordilyerlar rasman Inson va fuqarolar huquqlari jamiyati deb nomlangan. Parijdagi sobiq Fransisk Kordelyer monastiri binosida bo'lib o'tgan uchrashuvlari joyi nomiga ular shunday deb atala boshlandi. Klub 1790-yil iyulda tashkil topgan. Klubda so'l yo'nalishdagi demokratlar ustunlik qilar edi.

Sen-Just Lui Antuan Leon (25.VIII.1767 - 28.VII.1794) - Buyuk Fransiya inqilobining arbobi. U qishloq burjua oilasidan chiqqan. U Reyms universitetida huquq fakultetida tahsil olgan, ammo uni tugatmagan. U feodal-absolyutistik monarxiyaning yemirilishi va demokratik respublika tashkil etilishini qizg'in kutib oldi. 1792-yil sentabrda Konventga saylanib, yakobinchilar safiga qo'shildi. 1792-yil noyabr va dekabr oylarida u qirolning qatl etilishini yoqladi. 1793-yilgi yakobinlar konstitutsiyasi loyihasini ishlab chiqishda faol ishtirok etdi. Jamoat xavfsizligi qo'mitasi a'zosi (1793-yil 30-maydan) Sen-Just (M. Robespier va J. O. Kouton bilan birgalikda) yakobinlar diktaturasi siyosatida yetakchi rol o'ynagan. Uning taklifi bilan 1793-yil 10-oktabrda Konvent "Inqilobiy hukumat"ni tashkil etish to'g'risida dekret qabul qildi. 1793-yil oxirida Sen-Just (F. Leba bilan birga) Reyn armiyasiga, keyin esa Shimoliy armiyaga komissar sifatida yuborildi; yirik burjuaziyaning aksilinqilobiy qatlamlariga qarshi kurashda va inqilobiy armiyani qayta tashkil etishda katta qat'iylik ko'rsatdi, bu frantsuz qo'shinlarining Fleurusdagi g'alabasiga hissa qo'shdi (1794-yil 26-iyun). Sen-Just tashabbusi bilan 1794-yil fevral-mart oylarida Konvent Vantua dekretlari deb ataladigan hujjatlarni qabul qildi. Termidor to'ntarishdan keyin qatl qilindi (Robespyer va yakobinlarning boshqa taniqli arboblari bilan birga). Sen-Just o'zining o'limidan so'ng (1800-yilda) nashr etilgan "Respublika parchalari" ("Fragments sur les Institute républicaines") asarida o'zining inqilobiy demokratik qarashlarini bayon qilgan.

Yakobinchilar mafkurachilaridan yana biri Jan Pol Marat bo'lib, uning asarlari⁵⁷ despotizmga qarshi nafrat va shahar va qishloq kambag'alarining manfaatlarini himoya qiluvchi g'oyalar bilan sug'orilgan.

Davlat va huquq masalalarini tahlil qilar ekan, Marat ijtimoiy shartnoma nazariyasiga suyanan edi. U “davlat kelib chiqishiga ko'ra, zo'ravonlikka majburdir, deya shartnoma nazaryasidan bir oz bo'lsada chekinadi“deb yozadi. Uning fikricha, har qanday qonuniy hokimyatning manbasi – bu xalqdir, ya'ni hokimiyat shaklan Monarxiya yoki Respublika bo'lishdan qat'iy nazar, oliy hokimyat xalqqa tegishlidir, zero xalq o'zining qonuniy faoliyatini bevosita yoki vakillari orqali amalga oshiradi.

Jan-Pol Marat (1743-yil 24-may, Boudri - 1793-yil 13-iyul, Parij) - Buyuk fransuz inqilobi davri siyosatchisi, shifokor, radikal jurnalist, yakobinchilarning yetakchilaridan biri(39-rasm). “Xalqning do'sti” taxallusi bilan tanilgan, u 1789-yil sentyabr oyidan shu nomdagi nashr etilgan gazetadan keyin shunda laqab olgan.



39-rasm
Jan-Pol Marat

Ushbu gazetada Marat Ta'sis majlisi va Parij assambleyasini keskin tanqid qilgan, buning uchun u bir necha bor ta'qib qilingan. Uni bir necha bor sudga berishgan, gazeta yopilgan, chop etilgan bosmaxonalar sindirilgan. Ammo Marat o'jarlik bilan ishini davom ettirdi. Deyarli ikki yil davomida u yashirin hayot tarzini olib bordi, ikki marta vaqtincha Angliyaga hijrat qildi. 10-avgustdagi inqilobdan keyin Marat yakobinlar va jirondinlar o'rtasidagi kurashga rahbarlik qildi va Kommuna (Parij munitsipaliteti) ishlarida katta ta'sirga ega bo'lib, hamma joyda kambag'allarning manfaatlarini himoya qildi. Parij Konventiga deputat etib saylangan. Maratning Kommuna Kuzatuv Kengashi a'zosi, Konventdagi Montagnardlarning rahbari va “Xalqlar do'sti” ning noshiri sifatidagi faoliyati unga mulkdor sinflarning shiddatli hujumlarini olib keldi. 1793-yil 14-aprelda jirondistlarning talabiga binoan u

⁵⁷ Жан Поль Марат. Избранные произведения. Т. 2 / Сост. В.П. Волгин и А.З. Манфред; Пер. С.Б. Кана. — М.: Изд-во АН СССР, 1956. — С. 316. URL: <https://coollib.com/b/258898-zhan-pol-marat-izbrannyie-proizvedeniya-t2/read> (murojaat sanasi 10.01.2023)

Konventni tarqatib yuborishga chaqirgan qo'zg'olon, talonchilik va qotillik uchun sudga tortildi. Parij kambag'allarining bosimi ostida Inqilobiy tribunal 24-aprelda uni oqladi va Marat g'alaba bilan Konventga qaytarildi. Robespyer bilan birgalikda u hokimiyatni jirondistlardan tortib olgan 1793-yil 31-may - 2-iyun qo'zg'oloniga tayyorgarlik ko'rdi. 1793-yil 13-iyulda Sharlotta Kordey tomonidan o'ldirilgan.



40-rasm
Babyof

Termidorchilar (fransuz kalendaridagi termidor oyining 9-kuni hokimiyatga kelganlar shunday ataldi) mulk va erkin tadbirkorlikni himoya qiladigan respublika tarafdori edi. Ular savdodagi cheklashlarni bekor qildi. Savdo erkinligi boshlandi, narxlar bir necha bor ko'tarilib ketdi, pul keskin qadrsizlandi.

Termidorchilar Konventining, keyin esa Direktoriyaning xalqqa qarshi siyosati hamda shahar va qishloq kambag'allarining chidab bo'lmaydigan og'ir ahvoli mehnatkashlar ommasining noroziligini yanada keskinlashtirdi. Ana shunday vaziyatda Fransua-Noel Babyof boshchiligidagi inqilobiy fitna vujudga keldi. Uning rahbarligida 1796-yilda Parijda maxfiy "Tenglar jamiyati" tashkil topdi. Bu jamiyat Direktoriya hukumatini ag'darish va inqilobiy diktatura hukumatini tuzishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Babyof dasturining asosiy qismi tenglik haqidagi, "haqiqiy tenglik" haqidagi ta'limot edi, babyofchilar xususiy mulkchilikni asta-sekin bekor qilish orqali shunday tenglik o'rnatmoqchi edilar. Babyof o'z o'tmishdoshlaridan – "Ijtimoiy to'garak" tarafdorlaridan ancha olg'a ketgan edi. Babyof tuzib chiqqan "iqtisodiy dekret loyihasi"ning birinchi moddasida: "Respublikada katta milliy kommuna ta'sis etiladi" deyilgan edi.

Babyofning siyosiy dasturi boy sinflarga mansub shaxslarni siyosiy hayotda qatnashishdan chetlashtirar, ularni jamiyat majlislariga ishtirok qilish va qurol taqib yurish huquqidan mahrum qilar edi. Babyof amalga oshirmoqchi bo'lgan "tenglar respublikasi" aslida mehnatkashlarga tayanib ish ko'radigan inqilobiy diktatura bo'lishi lozim edi. Biroq bu fitna tez orada fosh qilindi, Babyof qatl etildi.

Grakx Babyof (1760-yil 23-noyabr, Sen-Kventin - 1797-yil 27-may, Vendome)
- fransuz inqilobiy utopik-kommunisti, Direktoriya davomida “tenglik uchun”
harakati rahbari(40-rasm).

Babyofning asosiy g‘oyalari yerga xususiy mulkchilikni va iqtisodiy tengsizlikni yo‘q qilish, siyosiy qo‘lga olish orqali kommunistik tizimni o‘rnatish, hokimiyatni qo‘lga kiritish va xalq kambag‘allari manfaati uchun uyushgan inqilobiy ozchilikning diktaturasini o‘rnatish.

Bonapartizm, avtoritar rejimlar va siyosatga nisbatan qo‘llaniladigan atama. Fransiya’dagi parlament demokratiyasini rad etgan, kuchli ijro etuvchi hokimiyatni ta’kidlagan va (plebitsitlar orqali) ommaga murojaat qilgan oqimlar. Birinchi bonapartistik rejim 1799-yilda Napoleon I Bonapart tomonidan amalga oshirilgan davlat to‘ntarishi natijasida; ikkinchisi Lui Napoleon (Napoleon III) Ikkinchi imperiya (1852—70) yillarida o‘rnatildi. Napoleon III davrida u “tugallangan” shaklga ega bo‘ldi. Bonapartizm mafkurasi o‘zida millatchilik, konservatizm, liberalizm va hatto sotsializm (sen-simonizm) go‘yalarini o‘zida mujassam etgan, eklektik va demagogik xarakterga ega edi. Bonapartist rejimlarning ijtimoiy tayanchi dehqonlarning konservativ massasi edi. Harbiy tizimda armiya va politsiya faol rol o‘ynadi. Bu atama populistik, “partiyaviy bo‘lmagan” pozitsiyalardan harakat qiladigan har qanday harbiy-diktatura va avtoritar rejimlarni tavsiflash uchun (har doim ham asosli ravishda emas) foydalanila boshlandi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Yakobinchilar mafkurasi.
2. Maksimilian Robespyer faoliyati.
3. Jan Pol Maratlarning siyosiy qarashlari.
4. Grakx Babyofning “Tenglar jamiyati” yoxud “Tenglik uchun fitna” nomli siyosiy – huquqiy dasturi.
5. Bonapartizm mafkurasi.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Maksimilian Mariya Isidore de Robespyer tavallud topgan yilni aniqlang.
 - a) 1732-yil

- b) 1758-yil
 - c) 1721-yil
 - d) 1788-yil
2. Maksimilian Mariya Isidore de Robespyer vafoti yilini aniqlang.
- a) 1721-yil
 - b) 1788-yil
 - c) 1794-yil
 - d) 1799-yil
3. Maksimilian Mariya Isidore de Robespyer qachon General Shtatlarga uchinchi qatlam deputati etib saylandi?
- a) 1794-yil
 - b) 1799-yil
 - c) 1789-yil
 - d) 1777-yil
4. Robespyer 1793-yil 25 dekabrda Konventda qilgan ma'ruzasi qanday nomlangan?
- a) Inqilobiy boshqaruvning prinsiplari
 - b) Rivojlanish konsepsiyasi
 - c) Iqtisodiy rivojlanish
 - d) Aholi erkinliklari
5. Robespyer 1794-yili nima sababli mahkamaga tortilib qatl qilingan?
- a) Vatanparvar, aholi turmush tarinin yaxshilash yo'lida
 - b) Cherkov hukumatiga qarshi chiqqanligi uchun
 - c) Zolim hukmdor, tartibsiz hukumati uchun
 - d) Oqilona siyosatparvarligi uchun
6. Yakobinchilar dasturidagi demokratizm mohiyati nima?
- a) Barcha lavozimlar saylab qo'yish orqali egallanishi
 - b) Yangi qonun va qarorlar xalq tomonidan qabul qilinishi kerak
 - c) Cherkovlar hukumatini cheklash
 - d) Xalq iloy islohatchi

7. Fransiya inqilobi davri qaysi siyosatchi 1790-yilda “Kordelyerlar” inqilobiy klubini tuzdi?
- a) Jorj Jak
 - b) Robespyer
 - c) Sen-Just Lui Antuan Leon
 - d) Jan-Pol Marat
8. Fransiya inqilobi davri qaysi siyosatchi yakobinlar diktaturasi siyosatida yetakchi rol o‘ynab, uning taklifi bilan 1793-yil 10-oktabrda Konvent “Inqilobiy hukumat”ni tashkil etish to‘g‘risida dekret qabul qilingan?
- a) Jorj Jak
 - b) Robespyer
 - c) Sen-Just Lui Antuan Leon
 - d) Jan-Pol Marat
9. Fransiya inqilobi davri qaysi siyosatchi “Xalqning do‘sti” taxallusi bilan tanilgan?
- A) Jorj Jak
 - B) Robespyer
 - C) Sen-Just Lui Antuan Leon
 - D) Jan-Pol Marat
10. fransuz inqilobiy utopik-kommunisti, Direktoriya davomida “tenglik uchun” harakati rahbari kim?
- a) Jorj Jak
 - b) Robespyer
 - c) Sen-Just Lui Antuan Leon
 - a) Grakx Babyof

17-MAVZU: AQSHNING MUSTAQILLIK UCHUN KURASHI

DAVRIDA SIYOSIY MAFKURALAR

Reja:

1. 1775-1783-yillar mustaqillik uchun urush.
2. Konservatorlar va radikallar mafkurasi.
3. “Mustaqillik Deklaratsiyasi” g‘oyalari.
4. T. Jefferson, B. Franklin, A. Gamilton, J. Adams, J. Medison g‘oyalari.

Tayanch tushunchalar: 1775-1783-yillar mustaqillik uchun urush; Inqilobiy mafkura, erkinlik, istiqlol g‘oyasining qo‘llab quvvatlanishi; Ommaviy tashkilotlarining mafkuraviy faoliyati; Konservatorlar va radikallar mafkurasi; “Mustaqillik Deklaratsiyasi” g‘oyalari; T.Jefferson, B.Franklin g‘oyalari; A.Gamilton quldor-plantatorlar ideologi sifatida; J.Adams konsepsiyasi; J.Medison g‘oyalari; AQSh taraqqiyotida mafkuraviy omilning roli.

Amerika inqilobiy urushi (Amerikadagi mustaqillik uchun urush deb ham yuritiladi) (1775—1783) — Buyuk Britaniya va amerikalik loyalistlar (Britaniya toji hukumatiga sodiq) hamda Buyuk Britaniyadan mustaqilligini e‘lon qilgan o‘n uchta Britaniya mustamlakasining inqilobchilariga 1776-yilda boshlangan qarshi urushi. 1778-yildan so‘ng Fransiya, Ispaniya va Niderlandiya mustamlakachilar tomonida urushga qo‘shildi.

O‘n uchta Britaniya koloniyalari aholisi orasida 1760-yillardan boshlab AQSh mustaqilligi uchun kurashish kerakligi g‘oyasi urchiy boshladi va dastlabki mustaqillik uchun kurash o‘qlari 1775-yilda inglizlar tomon otildi.

Britaniya Amerika mustamlakalari XVII—XVIII asrlarda qirol farmonlari bilan tashkil topgan bo‘lib, ichki ishlarda Buyuk Britaniya va Karib dengizi koloniyalari bilan, shuningdek, Karib dengizi portlari orqali, Yevropaning boshqa davlatlari bilan savdo qilishda katta avtonomiyaga ega bo‘lgan. Yetti-yillik urush tugaganidan va 1763-yilda fransuzlar Amerikadan quvilganidan so‘ng, Britaniya parlamentining mustamlakalarda o‘z hokimiyatini kengaytirishga urinishi bilan bog‘liq bo‘lgan ona mamlakat va koloniyalar o‘rtasida keskinlik boshlandi.

1765-yilda Britaniya parlamenti butun mustamlakalarda noroziliklarga sabab bo'lgan "Gerb yig'imi to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Parlament gerb yig'imi bojini bekor qildi, lekin boshqa soliqlarni joriy qildi, bu esa 1774-yilda Bostonda noroziliklarga sabab bo'ldi. Parlament Boston va Massachusetts koloniyasiga qarshi chidab bo'lmas qonunlar qabul qildi.

Mazkur qonunga ko'ra, barcha savdo shartnomalaridan va boshqa hujjatlardan muhr solig'i undirish talab qilinardi. Shu bilan birgalikda, Amerika koloniyalari hududida 10 000 ingliz askarini joylashtirish va ularni turar joy, oziq-ovqat bilan ta'minlash koloniyalar aholisi zimmasiga tushadi.

1766-yilda Angliya parlamenti koloniyalar aholisining noroziliklari tufayli gerb yig'imi to'g'risidagi qonunni bekor qildi, ammo 1767-yildan boshlab ular mustamlakalarga olib kiriladigan tovarlarga bojlar joriy qila boshladilar. 1770-yilda ular bekor qilindi, ammo choy uchun boj saqlanib qoldi. Mustamlakalarning o'zida aholi Buyuk Britaniyaning siyosiy modeliga ko'ra ikki guruhga bo'lingan:

- vatanparvarlar yoki vigilar;
- loyalistlar yoki torilar.

Birinchisi mustaqillik g'oyalari tarafdorlari bo'lsa, ikkinchisi asosan metropoliya bilan aloqada bo'lgan. Ikkinchi toifaga amaldorlar, yirik savdogarlar va anglikan ruhoniylari kiradi. Birinchisiga dehqonlar, ko'chmanchilar, mayda savdogarlar va plantatorlar kiradi. Loyalistlar soni 500 ming kishidan oshdi. Urushdan keyin ularning ba'zilar Kanada yoki Floridaga hijrat qilishdi. Ba'zan ular o'zlari bilan negr qullarini olib ketgan.

Amerikaning tub aholisi, hindular ko'p hollarda betaraf qoldi yoki hatto Buyuk Britaniyani qo'llab-quvvatladilar, chunki uning ma'murlari mustamlaka aholisining g'arbga harakatini to'xtatgan.

Bu kurashdagi kuchlar va maqsadlarning uyg'unligi XVII asr o'rtalarida Angliyadagi inqilobga o'xshaydi. Shuning uchun ham bir qator tarixchilar 1775-1783-yillardagi voqealar AQShda inqilob bo'lgan deb hisoblaydilar.

1774-yil 5-sentyabrda Filadelfiyada 12 ta koloniyadan (Jorjiyadan tashqari) 56 delegat kontinental kongress deb nomlangan yig'ilish uchun yig'ildi. Kongresga

barcha mustamlakalarning vakillarini chaqirish g'oyasi nafaqat radikallarga, balki shu yo'l bilan radikallarni zaiflashtirishga umid qilgan konservatorlarga ham ma'qul keldi. Kongress chaqirilishiga faqat eng o'taketgan konservatorlar qarshi chiqdi. Kongress darhol bir nechta fraksiyalarga bo'lindi: boykot tarafdorlari, boykotga qarshilar va metropoliya bilan yarashish tarafdorlari.

1776-yil 4-iyulda AQSh Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilindi. Urushning eng yirik jangi 1776-yil avgustdagi Long-Aylenddagi jang edi. Amerikaliklar Gessendagi ingliz va nemis askarlari tomonidan mag'lubiyatga uchradi. 1776-yil dekabr va 1777-yil yanvar oylarida Jorj Vashington Trenton va Prinstonda inglizlarni mag'lub etishga muvaffaq bo'ldi. 1777-yil oktyabr oyida inglizlar Saratogada amerikalik qo'mondon Goratsio Geyts tomonidan mag'lubiyatga uchradi.

1778-1780-yillarda AQSh Fransiya, Ispaniya va Rossiyadan yordam oldi. 1778-1781-yillarda urushning asosiy janglari:

1781-yil Yorktaun jangi. Britaniya generali Kornuollis Vashington va Lafayette qo'mondonlik qilgan Franko-Amerika armiyasiga taslim bo'ldi;

1782-yilda Antil orollari yaqinidagi jang: inglizlar fransuzlar bilan dengiz jangida g'alaba qozondi;

1783-yilda fransuz floti Bengal ko'rfazidagi Kudalorda inglizlarni mag'lub etdi.

Mustaqillik urushi natijalari:

- Milliy mustaqillikka erishish va hududni kengaytirish.
- Sanoat, savdo va qishloq xo'jaligida kapitalizmning rivojlanishiga to'siqlarni yo'q qilish.

Biroq, janubiy shtatlarda qullik hali ham davom etdi, hindular hali ham o'z yurtlaridan haydab chiqarildi, ko'plab kambag'allarning hayoti og'irligicha qoldi.

AQSh federatsiyaga aylandi (yagona davlatni tashkil etuvchi shtatlar uyushmasi).

AQSh Konstitutsiyasining manbalari quyidagilar edi:

- fransuz ma'rifatparvari g'oyalari

- Britaniya qonun ustuvorligi va shaxsiy erkinlik an'analari,
- yosh Amerika davlatlarining o'z tarixiy tajribasi.

AQSh “Mustaqillik deklaratsiyasi”⁵⁸ matnini yozish bo'yicha ish 1776-yil 7-iyunda Kontinental Kongress yig'ilishida boshlandi, uning davomida Virjiniya delegati Richard Genri Li rezolyutsiyani taqdim etdi, unda “Birlashgan koloniyalar va haqli ravishda, erkin va mustaqil davlatlar bo'lishi kerak; ular Britaniya tojiga sodiqlikdan butunlay ozod qilinganligi; ular bilan Britaniya davlati o'rtasidagi barcha siyosiy aloqalar butunlay uzilishi kerak”, deb ta'kidlangan edi.

1776-yil 11-iyunda bu masala bo'yicha maxsus deklaratsiya tayyorlash uchun Tomas Jefferson, Jon Adams, Benjamin Franklin, Rodjer Sherman, Robert Livingston dan iborat qo'mita saylandi. Deklaratsiya loyihasini ishlab chiqish qo'mita rahbari, Mustaqillik urushining ko'zga ko'ringan arbobi Jefferson zimmasiga yuklangan bo'lib, u 28-iyungacha 17 kun davomida uning matni ustida ishlagan.

1776-yil 4-iyulda muhokama va tuzatishlardan so'ng Ikkinchi Qit'a Kongressi nomzodlari nihoyat Deklaratsiyaning yakuniy variantini qabul qildilar; 1776-yil 6-iyulda hujjat Pennsylvania Evening Post gazetasida e'lon qilindi va 8-iyulda uning birinchi ommaviy o'qishi bo'lib o'tdi.

Deklaratsiyaning mohiyati nimada?

Jeffersonning loyihasi 1776-yil 28-iyunda Kontinental Kongressga taqdim etilgan. Muhokama chog'ida loyihaga o'zgartirishlar kiritildi, xususan, quldorlik va qul savdosini qoralovchi bo'lim olib tashlandi.

Qabul qilingan hujjatning mohiyatini uchta asosiy qismga bo'lish mumkin:

- barcha odamlarning yashash, erkinlik va baxtga teng huquqlari;
- Buyuk Britaniyaning suiiste'mollarini qoralash;
- mustamlakalar va Buyuk Britaniya o'rtasidagi siyosiy aloqalarning uzilishi

va har bir mustamlakaning mustaqil mustaqil davlat sifatida tan olinishi.

⁵⁸ AQSh mustaqillik deklaratsiyasi va madhiyasi. URL: <https://www.amerikaovozi.com/a/1955988.html> (murojaat sanasi 10.01.2023)

Qo'shma Shtatlar Mustaqillik Deklaratsiyasi⁵⁹ tarixda xalq suvereniteti tamoyilini hukumat asosi sifatida e'lon qilgan va o'sha davrda hukmron bo'lgan hokimiyatning ilohiy kelib chiqishi nazariyasini rad etgan birinchi hujjat edi. Hujjatda xalqning isyon ko'tarish va despotik hukumatni ag'darish huquqi ta'kidlangan. Bu koloniyalarni "Amerika Qo'shma Shtatlari" deb atagan birinchi rasmiy hujjat edi.

1776-yilda Mustaqillik Deklaratsiyasi 13 ta hudud - Massachusetts, Konnektikut, Rod-Aylend, Nyu-Xempshir, Nyu-York, Nyu-Jersi, Pensilvaniya, Delaver, Virjiniya, Merilend, Shimoliy Karolina, Janubiy Karolina va Jorjiya tomonidan imzolangan.

Tomas Jefferson – (1743-yil 13-aprel, Virjiniya koloniyasi, - 1826-yil 4-iyul, Virjiniya, AQSh) Qo'shma Shtatlarning uchinchi prezidenti, Amerika millatining asoschisi, Mustaqillik Deklaratsiyasi muallifi.



41-rasm
Tomas Jefferson

Bo'lajak siyosatchi 1743-yil 13-aprelda o'sha paytda mustamlaka hisoblangan Virjiniya shtatining Shaduell shahrida nufuzli plantatorlar oilasida tug'ilgan. Otasi Piter Jeffersonning ajdodlari Angliyaning Uels grafligidan edi. Onasi Jeyn Rendolf Kontinental Kongressning birinchi raisi bilan yaqin qarindosh edi.

Jefferson AQShning birinchi Konstitutsiyasini tanqid qildi, unda mamlakat prezidentligiga bir kishini saylash muddatlari soni cheklamagan edi, bu hukmdorni mohiyatan cheksiz monarxga aylantirardi. Jefferson yirik sanoat ishlab chiqarishining o'sishida xalqning qashshoqlashishi uchun sababdeb bildi. Siyosatchi kuchli iqtisodiyotning asosi erkin xususiy fermer xo'jaliklari jamiyati ekanligiga amin edi.

Inson erkinliklari nafaqat uning hayoti va mulkiga, balki o'z fikrini ochiq aytish huquqiga ham taalluqlidir. Xalqning ma'rifatli bo'lishi erkin fuqarolik jamiyatining asosidir. Shunday ekan, har bir fuqaro bilim olish huquqiga ega. Jefferson davlat va cherkovni ajratish tarafdori edi. Keyinchalik faylasuf "Yangi Ahd" ning o'ziga xos

⁵⁹ Декларация независимости США. URL: <https://www.state.gov/wp-content/uploads/2020/02/Russian-translation-U.S.-Declaration-of-Independence.pdf> (murojaat sanasi 10.01.2023)

talqinini yaratadi va bu kitob⁶⁰ bir asr davomida mamlakat prezidentlariga taqdim etiladi. Siyosatchi 1787-yilgi Konstitutsiya tomonidan e’lon qilingan federal boshqaruv shakliga rozi bo’lmadi. Tomas davlat hokimiyatining markaziy hokimiyatdan ustunligini ilgari surdi.

Taniqli prezidentlar xotirasi AQSh dollari banknotlariga muhrlangan. Bir dollar kupyurasida mamlakatning birinchi prezidenti Jorj Vashingtonning surati bor; ikki dollarlik banknotda Tomas Jeffersonning portreti; besh dollarlik birida Avraam Linkolnning surati; yigirma dollarlik banknot Endryu Jekson portreti bilan, ellik dollarlik banknot esa Uliss Grant tomonidan tasvirlangan.

Jon Adams (1735-yil 30-oktyabr, Breyntri, Massachusetts ko’rfazi, Britaniya imperiyasi — 1826-yil 4-iyul, Kvinsi, Massachusetts, AQSh) — amerikalik davlat va siyosat arbobi, huquqshunos, abolyutsionist, AQSh yetakchilaridan biri (42-rasm). Inqilobiy urush, Qo’shma Shtatlarning asoschilaridan biri, birinchi vitse-prezident (1789-1797) va AQShning ikkinchi prezidenti (1797-1801). Uning rafiqasi Abigayl Adams bilan birgalikda butun siyosatchilar sulolasining asoschisi bo’ldi. Uning o’g’li Jon Kvinsi Adams 1825-yilda Qo’shma Shtatlarning oltinchi prezidenti bo’ldi.



42-rasm
Jon Adams


Siyosiy qarashlari nuqtai nazaridan ko’pchilik boshqaruvining muxolifi va zamonaviy konservatizmning mafkuraviy peshqadamlaridan biri bo’lgan Jon Adams (1735–1826) o’z faoliyatida federalistik guruhga qo’shiladi. Adams Jeffersonni mustamlakalarning qonunchilik va ma’muriy mustaqilligini oqlashda, yangi tarixiy va huquqiy dalillar yordamida uch ming mil uzoqlikdagi parlamentga bo’ysunishning bema’niligi va adolatsizligini isbotlashni qo’llab-quvvatladi.

J.Adams birinchilardan bo’lib davlat tuzumi masalasini nihoyatda muhim va dolzarb deb belgiladi. “Amerika Qo’shma Shtatlarida davlat hokimiyati

⁶⁰ The Jefferson Bible. URL: https://uuhouston.org/files/The_Jefferson_Bible.pdf (murojaat sanasi 10.01.2023)

konstitutsiyalarining himoyasi uchun”⁶¹ (London, 1787-1788) deb nomlangan o‘zining uch jildli monografiyasida u hokimiyatning uchta tarmog‘ini (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud), shu bilan birga, kuchli ijro etuvchi hokimiyat va hokimiyatni ushlab turish va o‘zaro muvozanatlash tizimi deb ataladigan tizim tartibini ilgari surdi. T.Peyndan farqli o‘laroq, u bir muhim shartda - agar zodagonlar qirolni, vazirlar - zodagonlarni nazorat qila olsa (cheklay olsa) monarxiya boshqaruv shaklining maqsadga muvofiqligini tan oldi.

Jeyms Medison (ingliz. Jeyms Madison Jr. ; 1751-yil 5-mart (16), Port-Konvey, Virjiniya koloniyasi — 1836-yil 28-iyun, Montpelier Manor, Virjiniya) — amerikalik davlat arbobi, AQShning to‘rtinchi prezidenti, asosiy mualliflardan biri.



43-rasm
Jeyms Medison


AQSh Konstitutsiyasi va Huquqlar Bill.

Virjiniya plantatorlari oilasida tug‘ilgan Medison Amerika inqilobi davrida Virjiniya Delegatlar Palatasining delegati, keyin esa Kontinental Kongress a‘zosi bo‘ldi. Konfederatsiya yillarida Amerika hukumatining zaifligidan norozi bo‘lib, u yangi konstitutsiya loyihasini ishlab chiqqan Filadelfiya konvensiyasini tashkil etishga yordam berdi. Yangi konstitutsiyaning asosi Medisonning “Virjiniya rejasi” deb nomlanuvchi loyihasi edi va Medisonning o‘zi konvensiyadagi eng nufuzli siyosatchi edi. U shuningdek, Konstitutsiyani ratifikatsiya qilish harakatining yetakchilaridan biriga aylandi va Gamilton va Jon Jey bilan birgalikda Konstitutsiyani qo‘llab-quvvatlovchi maqolalar turkumi Federalist hujjatlarni nashr etdi.

Aleksandr Gamilton (1755/1757-yil 11-yanvarda tug‘ilgan – 1804-yil 12-iyul) - amerikalik davlat va siyosat arbobi, huquqshunos, iqtisodchi, bankir va harbiy xizmatchi, Amerika Qo‘shma Shtatlari asoschilaridan biri. Gamilton Amerika inqilobiy urushi davrida Amerika armiyasida ofitser bo‘lgan, keyinchalik AQShning birinchi davlat g‘aznachisi bo‘lgan va shu lavozimda Amerika moliya tizimini

⁶¹ The works of JOHN ADAMS, SECOND PRESIDENT OF THE UNITED STATES: URL: <https://books.google.co.nz/books?printsec=frontcover&dq=The+Works+of+John+Adams,+Second+President+of+the+United+States:+With+...,+1&ei=S2yMUJbM-n-4QSAhIDAAw&id=K5s8AAAAIAAJ&hl=ru&output=text> (murojaat sanasi 10.01.2023)

yaratgan, Federalistlar partiyasiga asos solgan va Jorj Vashingtonning iqtisodiy siyosatini yaratuvchilardan biri bo'lgan. U davlat qarzi muammosini hal qildi, AQSHning birinchi ikkita markaziy banki va bojxona to'lovlari tizimini yaratdi, Buyuk Britaniya bilan savdo aloqalarini o'rnatdi. Gamilton keng ijro etuvchi vakolatlarga ega kuchli federal hukumat tarafdori, rivojlangan iqtisodiyot, davlat banklari, ishlab chiqarish va kuchli armiya tarafdori edi.



44-rasm

Benjamin Franklin

Benjamin Franklin (1706-1790; AQSh) - dunyoga mashhur faylasuf olim, siyosatchi, diplomat va ixtirochi(44-rasm). U Jozef Franklin oilasidagi 17 farzandning sakkizinchisi edi. Uning otasi hunarmand bo'lib, sovun va sham ishlab chiqarish bilan shug'ullangan. Yosh Benjamin o'zi mustaqil tahsil olgan. U birinchi bo'lib tebranma o'rindiqni ixtiro qilgan.

1776-yilda u Fransiya elchi sifatida jo'natiladi.

Benjamin Franklin Amerika Konstitutsiyasining mualliflaridan biri hamdir.

Shuni aytish joizki, insoniyat tarixidagi eng ajoyib va buyuk ixtirolardan biri hisoblanmish yashin qaytargichni ham Benjamin Franklin o'ylab topgan. U elektr sohasidagi kashfiyotlari va boshqa ko'plab amaliy yangiliklari bilan jahonga dong taratdi. Faylasuf sifatida esa insoniy munosabatlar muammosini tadqiq etib, ko'plab foydali amaliy tavsiyanomalar yozib qoldirdi. “Vaqt — pul”, degan mashhur hikmatning muallifi ham Benjamin Franklindir (“Yosh savdogar uchun maslahatlar” asarida). Uning eng mashhur asarlari quyidagilar: “Ozodlik va zaruriyat, huzur-halovat va iztirobga doir mulohazalar” (1725), “Boy bo'lishni istovchilar uchun muhim maslahatlar”, “Mo'l-ko'pchilikka yo'l” (1758).

Benjamin Franklin haqli ravishda Amerika koloniyalarining Angliya kuchiga qarshi urushining mafkurachisi hisoblanadi.

Franklinning asosiy fikri inson huquqlarining maqomidir. Franklin quyidagi asosiy huquqlarni ajratib ko'rsatdi: hayot, mulk va erkinlik.

Franklinning Angliyaning mustamlakalarga nisbatan hokimiyati haqidagi qarashlari 3 marta o'zgargan. Dastlab u Amerika koloniyalarini Angliyaning

ajralmas qismi sifatida ko‘rdi. Keyin: koloniyalar federal tuzilishga ega bo‘lishi kerak, koloniyalar va metropoliya teng bo‘lishi kerak. Va nihoyat, Franklin Amerika koloniyalari Angliya imperiyasidan butunlay mustaqil bo‘lishi kerakligiga amin bo‘ldi.

XVIII asr Amerikasi Benjamin Franklin kabi har tomonlama qobiliyatli va sermahsul odamni ko‘rmagan. Yozuvchi va noshir, olim va jamoat arbobi, diplomat va faylasuf Benjamin Franklinga vatandoshlari “Eng ilg‘or amerikaliklar orasidagi birinchi shaxs” deb baho berganlar. Uning surati 100 AQSh dollarida muhrlangan. U 84 yoshida vafot etdi va butun Amerika xalqi 30 kun motam tutadi. Uning nomi insoniyat ko‘rki, ilm, ozodlik va Vatan uchun beqiyos xizmat ko‘rsatgan dahosifatida “Insoniyatning eng buyuk namoyandalari” ro‘yxatiga kiritilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. 1775-1783-yillarda AQShda mustaqillik uchun urush.
2. Konservatorlar va radikallar mafkurasi.
3. “Mustaqillik Deklaratsiyasi” g‘oyalari.
4. AQSh konstitutsiyasida ilgari surilgan demokratik g‘oyalar.
5. T. Jefferson, B. Franklin, A. Gamilton, J. Adams, J. Medison g‘oyalari.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Qaysi yili Britaniya parlamenti butun mustamlakalarda noroziliklarga sabab bo‘lgan “Gerb yig‘imi to‘g‘risida”gi qonunni qabul qildi?
 - a) 1765-yili
 - b) 1764-yili
 - c) 1734-yili
 - d) 1790-yili
2. Gerb yig‘imi to‘g‘risida”gi qonuniga asosan Amerika koloniyalari hududida 10 000 ingliz askarini joylashtirish va ularni turar joy, oziq-ovqat bilan ta’minlash kintlarning zimmasiga yuklatilga?
 - a) Koloniya zodogonlari zimmasiga
 - b) Koloniyalar aholisi zimmasiga

- c) Yer egalari zimmasiga
 - d) Inqilob ishtirokchilari zimmasiga
3. “Gerb yig‘imi to‘g‘risida”gi qonun qachon bekor qilingan?
- a) 1766-yilda
 - b) 1777-yilda
 - c) 1762-yilda
 - d) 1799-yilda
4. Qachon Filadelfiyada 12 ta koloniyadan (Jorjiyadan tashqari) 56 delegat kontinental kongress deb nomlangan yig'ilish bo‘lib o‘tgan?
- a) 1766-yil 3-avgus
 - b) 1774-yil 5-sentyabrda
 - c) 1723-yil 12-mart
 - d) 1788-yil 15-may
5. AQSH Mustaqillik Deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?
- a) 1766-yil 3-avgus
 - b) 1776-yil 4-iyul
 - c) 1723-yil 12-mart
 - d) 1788-yil 15-may
6. 1777-yilda inglizlarni Saratogada mag‘lubiyatga uchratgan qo‘mondon kim edi?
- a) Goratsio Geyts
 - b) Abraxam
 - c) Florida
 - d) Jorj Vashington
7. AQSHning uchinchi prezidenti qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
- a) Tomas Jefferson
 - b) Jon Adams
 - c) Jeyms Medison
 - d) Aleksandr Gamilton
8. AQSHning to‘rtinchi prezidenti qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) Tomas Jefferson

b) Jon Adams

c) Jeyms Medison

d) Aleksandr Gamilton

9. Mustaqillik Deklaratsiyasi muallifi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) Tomas Jefferson

b) Jon Adams

c) Jeyms Medison

d) Aleksandr Gamilton

10. Amerikaliklar tomonidan "Eng ilg'or amerikaliklar orasidagi birinchi shaxs" deb baho berilganlar shaxs kim?

a) Jon Adams

b) Jeyms Medison

c) Aleksandr Gamilton

a) Benjamin Franklin

18-MAVZU: XVII-XVIII ASRLARDA GERMANIYA VA ITALIYADA MA'RIFATPARVARLIK IDEOLOGII

Reja:

1. Germaniyada feodal tarqoqlik sharoitida ma'rifatparvarlik mafkurasining xususiyatlari, undagi oqimlar.

2. X. Tomaziyning siyosiy-huquqiy qarashlari. X. Volf g'oyalari.

3. G. E. Lessing gumanizmi. Y. V. Gyote ijodi.

4. XVIII asrda Italiyada krepostnoy-absolyutistik tartiblar va mafkuraviy soha xususiyatlari.

5. Ma'rifatparvarlik harakati ideologlari. J. Viko tarixiy konsepsiyasi. Ch. Bekkaria gumanistik dunyoqarashi.

Tayanch tushunchalar: Germaniyada feodal tarqoqlik sharoitida ma'rifatparvarlik mafkurasining xususiyatlari, undagi oqimlar; Tabiiy huquq doktrinasining sistemalashtirilishi; Siyosiy nazariya sekulyarizatsiyasi; X.Tomaziyning siyosiy-huquqiy qarashlari; X.Volf g'oyalari; I.Knuttssenning inqilobiy g'oyalari; G.E.Lessin gumanizmi; XVIII asrda Italiyada krepostnoy-absolyulistik tartiblar va mafkuraviy soha xususiyatlari; Ma'rifatparvarlik harakati ideologlari; J.Viko tarixiy konsepsiyasi; Ch.Bekkaria gumanistik dunyoqarashi. Germaniya va Italiyada ma'rifatparvarlik ideologiyasining umumevropa ahamiyati.

XVII asr boshlariga kelib Germaniyada feodal tarqoqlik saqlanib qoldi. 30-yillik urush (1618-1648) ning asosida katoliklar va protestantlar o'rtasidagi kurash yotardi. Nemis knyazlari bu urushda diniy masalalarni hal etish bilan bir qatorda, Muqaddas Rim imperatoridan mustaqillik uchun kurashdilar va unda ishtirok etgan boshqa davlatlar G'arbiy Yevropada gabsburglar hukmronligiga qarshi kurashdilar.

Ko'plab qishloqlar va shaharlar vayron qilingan yoki yoqib yuborilgan, ko'p joylar bo'sh, o'rmonlar bilan qoplangan, bo'rilar bilan to'lgan edi. Aholi soni sezilarli darajada kamaydi. Omon qolgan odamlar ochlikdan o'lishdi, ildiz, o't yeyishdi, kannibalizm holatlari kuzatildi. Qishloq xo'jaligi, savdo, sanoat tanazzulga yuz tutdi, fan, adabiyot va san'atning rivojlanishi o'nlab-yillar davomida sekinlashdi.

Ushbu urushni tugatgan 1648-yildagi Vestfaliya tinchligi Muqaddas Rim imperiyasi va unga rahbarlik qilgan Avstriya Gabsburglarining siyosiy zaiflashuviga olib keldi.

Diniy masala katoliklar, lyuteranlar va kalvinistlarning tengligi foydasiga hal qilindi. "Kimning hokimiyati bo'lsa, uning e'tiqodi" qoidasi bekor qilindi, lekin eng muhimi, nemis knyazlari va erkin shaharlari mustaqil deb tan olindi. 1648-yildagi Vestfaliya tinchligi nafaqat deyarli barcha Yevropa davlatlariga ta'sir qilgan va ularni vayron qilgan O'ttiz-yillik urushni tugatganligi uchun ham tarixda alohida o'rin tutadi (masalan, Germaniya mintaqalarida, aholining deyarli uchdan ikki qismi). urush, epidemiya va ocharchilikdan vafot etgan).

Vestfaliya tinchlik shartnomasi tuzilgan 24-oktyabrda Germaniyaning Myunster va Osnabryuk shaharlarida ikkita shartnoma imzolandi. Nega ikki shaharda? Myunster katoliklar shahri, Osnabryuk esa asosan protestantlar shahri edi. O'ttiz-yillik urush diniy urush, katoliklar va protestantlar o'rtasidagi to'qnashuv sifatida boshlandi. Katolik va protestant shaharlarida shartnomaning imzolanishi Vestfaliya tinchligini diplomatik modelga aylantirgan kelishuvlardan biri edi.

Tinchlik shartnomasini imzolashda Muqaddas Rim imperiyasi imperatori nemis xalqi va Fransiya, balki Shvetsiya, Ispaniya, Niderlandiya, Rim papasi, Venetsiya Respublikasining nufuzli vakillaridan iborat 150 ga yaqin diplomat ishtirok etdi. Bir tomondan, Avstriya va Ispaniya Gabsburglari va ularning ittifoqchilari, boshqa tomondan, Fransiya, Shvetsiya va ularning ittifoqchilari. Uchinchi tomon ham bor edi - katta mustaqillik uchun kurashgan shaharlar.

Vestfaliya tinchlik shartnomasining asosiy natijalari quyidagilardan iborat:



45-rasm
Xristian Tomaziy

- U bundan deyarli yuz-yil oldin e'lon qilingan, lekin amalda hurmat qilinmagan xalqaro huquq darajasida din erkinligini e'lon qildi.
- Agar ilgari xalqaro huquq subyektlari monarxlar bo'lsa, endi suveren davlatlarga subyektga aylandi.
- Davlatlarning huquqiy tengligi, bir davlatning boshqa davlatning ichki ishlariga aralashmasligi prinsipi e'lon qilindi.
- Barcha savdo blokadalari va cheklovlar bekor qilindi.

Albatta Vestfaliya tinchlik shartnomasi Yevropaga to'liq va yakuniy tinchlik keltirmadi. Shunga qaramay, o'sha paytda ishlab chiqilgan xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillari butun sayyoramizda tinchlikni saqlash uchun ko'p ishlarni amalga oshirdi.

Xristian Tomaziy (1655-yil 1-yanvar, Leypsig, Germaniya - 1728-yil 23-sentyabr, Galle, Germaniya) - nemis faylasufi va huquqshunosi, ma'rifat arbobi, nemis tilida huquqshunoslik bo'yicha asarlar yozgan va muntazam ma'ruzalar qilgan birinchi nemis faylasuflaridan biri(45-rasm). Nemis falsafiy terminologiyasiga asos solgan, umumiy ta'lim uchun nemis tilidagi birinchi "Oylik

suhbatlar” (die Monatsgespräche) (1688-1690) ilmiy jurnalining asoschisi, Galle universitetini tashkil etitishda ishtirok etgan (1694), “Milliy va tabiiy huquq asoslari”⁶² (1705) asari muallifi. U “jodugar ovi”ga nisbatan jamoatchilik fikrini o‘zgartirishga katta hissa qo‘shdi va ko‘p jihatdan Germaniyada uni rasmiy ravishda taqiqlashning boshlanishiga hissa qo‘shdi. Jodugar ovi - sehrgarlikda gumon qilingan odamlarni ta’qib qilish.

Jodugarlar va sehrgarlarni jinoiy ta’qib qilish qadim zamonlardan beri ma’lum bo‘lgan, ammo G‘arbiy Evropada XV asr oxiri - XVII-asr o‘rtalarida keng tarqalgan.

Tomaziy nemislar orasida birinchi bo‘lib falsafa ilohiyotning xizmatkori bo‘lishini to‘xtatish vaqti kelganini, uni umumiy foydali dunyoviy donolik deb tushunish kerakligini baland ovoz bilan e’lon qilishga jur’at etgan. Inson o‘zining axloqiy dunyosi bilan falsafaning predmeti bo‘lishi kerak; uning bevosita vazifasi olimlik emas, balki ta’lim, uning quroli sog‘lom fikrdir.

U halol, munosib va qonuniy (honestum, decorum, justum) xulq-atvor qoidalari to‘g‘risidagi ta’limotni shakllantirdi. Ulardan birinchisi: “Boshqalar qilishi kerak



46-rasm

Xristian fon Volf

bo‘lgan narsani qiling”. Ikkinchi qoidada shunday deyilgan: “Boshqalar sizga nima qilishlarini xohlasangiz, ularga ham shunday qiling”. Uchinchisi quyidagicha ifodalangan: “Siz boshqalarning sizga qilishini istamasangiz, ularga ham qilmaysiz”.

Uning uchun yagona doimiy qadriyatlar Xudo va davlat edi. Uning

fikricha, huquq pirovardida Xudo irodasiga asoslanadi. U huquqning vazifasini davlatni din ta’siridan ozod qilish, ilohiyot va dunyoviy bilimlarni farqlash deb bilgan. Axloq va qonun ustuvorligi o‘rtasidagi farqni birinchilardan bo‘lib, ularga rioya etilishi davlatning majburlash choralari bilan ta’minlanadi.

Xristian fon Volf (1679-yil 24-yanvar, Breslau, Sileziya, Muqaddas Rim imperiyasi — 1754-yil 9-aprel, Galle, Saksoniya, Muqaddas Rim imperiyasi) — nemis entsiklopedik olimi, faylasufi, huquqshunosi va matematiki, taniqli

⁶² Thomasius Ch. Fundamenta Juris Naturæ Et Gentium Ex Sensu Communi Deducta. URL: <https://www.digitale-sammlungen.de/de/view/bsb10007853?page=14,15> (murojaat sanasi 10.01.2023)

kishilardan biri(46-rasm). Leybnitsdan keyingi va nemis falsafasi tilining asoschisi Kantgacha bo‘lgan davr faylasuflari. M. V. Lomonosovning o‘qituvchisi bo‘lgan.

Falsafa yoki metafizika Volf tomonidan ratsional fan sifatida ta’riflangan. Metafizikaning tuzilishi to’rtta fanni o‘z ichiga oladi: birinchisi falsafa yoki



ontologiya (umumiy va insoniy bilimlardagi narsalarning dastlabki asoslari haqidagi fan); psixologiya yoki pnevmatologiya (ruh haqidagi empirik va oqilona fan); ratsional kosmologiya (butun dunyo haqidagi ta’limot); tabiiy ilohiyot (xudo, uning borligi, mohiyati va boshqalar haqidagi oqilona ta’limot).

47-rasm
Lessing Gotxold
Efraim

Davlat-huquqiy va siyosiy qarashlari ehtiyotkor va mo‘‘tadil konservativ edi: u tabiiy huquq va ma’rifiy monarxiyani himoya qildi, uning maqsadi tartib, davlatda osoyishtalik, barcha fuqarolarning farovonligi va baxt-saodati va boshqalar bo‘lishi kerak, deb hisobladi.

Lessing Gotxold Efraim (1729. 22. 1, Kamens, Saksoniya — 1781. 15. 2, Braunshveyg) — nemis dramaturgi, san’at nazariyotchisi, adabiyotshunos, ma’rifatparvar(47-rasm). Nemis mumtoz adabiyotining asoschilaridan biri. Nemis maorifining radikal-demokratik yo‘nalishiga boshchilik qilgan. Pastor oilasida tug‘ilgan. Leypsig (1746—48) va Vittenberg (1748) universitetlarida ta’lim olgan. Lessing yozuvchi va jurnalist sifatida mutlaq hokimiyat mafkurasiga qarshi, ilg‘or milliy madaniyat uchun kurashgan. U o‘z umrini o‘tab bo‘lgan fransuz klassitsizmi qonun-qoidalariga ko‘r-ko‘rona rioya etishni tanqid qilib chiqqan.

Klassitsizmga qarshi kurashda Germaniyada birinchi “Sara Sampson xonim”⁶³ (1755) oilaviy “meshchanlar” dramasini va milliy xarakterdagi bo‘lgan “Minna fon Barnxelm” (1767) komediyasini yozgan. “Emiliya Galotti” (1772) fojiasi Lessing ijodining cho‘qqisidir. Unda feodal knyazlarning zo‘ravonliklari qoralanadi. Lessing publitsistik faoliyatida ko‘proq ma’rifatparvarlik masalalariga e’tibor berdi (“Fossishe tsaytung” gazetasi bilan hamkorligi, 1751—55; “Teatr kutubxonasi”ning nashr etilishi, 1754— 58 va b.). Lessingning muhim xizmati she’riyatning birinchi

⁶³ Lessing G. Miss Sara Sampson. URL: <https://www.gutenberg.org/ebooks/9157> (murojaat sanasi 10.01.2023)

asosi sifatida (“Laokoon”, 1966) hayotni butun jo‘shqinligi bilan va to‘liq aks ettirish haqidagi ta’limotni olg‘a surganida, realistik teatr va dramaning nazariy tamoyillarini himoya qilganligidadir. Lessingning teatr xususidagi qarashlari fransuz ma’rifatparvari Deni Didro qarashlariga mos. Ular ikkisi ham teatr va dramaturgiyaning oddiy hamda haqqoniy bo‘lishining tarafdori edi. Falsafada



48-rasm
Gyote

Lessing Germaniyadagi materialistik an’analarning asoschilaridan biridir. 1888—1943-yillarda Berlinda “Lessing-teatr” mavjud bo‘lgan.

Gyote (Goethe) Yoxann Volfgang (1749. 28. 8, Frankfurtmayn — 1832. 22. 3, Veymar) — nemis yozuvchisi va mutafakkiri(48-rasm). Yangi davr nemis adabiyotining asoschisi. Ijodi XVII asrning 70—80-yillari Germaniyada mavjud bo‘lgan “Bo‘ron va hujum” adabiy harakatida ishtirok etishdan boshlangan. Shu davrda Gyote “Gets fon Berlixingen” (1773), “Prometey” (1773) kabi dramalar va lirik she’rlar yaratdi. Gyote adabiy faoliyatining ilk davriga mansub “Yosh Verterning iztiroblari” (1774) romani o‘sha davr nemis adabiyotida katta voqea bo‘ldi. Asarda ilg‘or nemis yoshlar avlodining ijtimoiy fojiasi o‘z aksini topgan. 1786—88 yillarda u Italiyaga safar qiladi. Shu davrda u “Ifigeniya Tavridda” (1779 — 81), “Egmont” (1788), “Torkvato Tasso” (1780— 89) kabi dramalar yozadi. “She’riyat va haqiqat” avtobiografik kitobi (1811— 33), “Vilxelm Maysterning o‘qish yillari” (1793—96), “Vilxelm Maysterning darbadarlik yillari” (1821— 29) romanlarida inson bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabat masalasi aks etgan.

Buyuk nemis shoirining “Faust”⁶⁴ tragediyasi jahon adabiyotining durdonalaridan sanaladi. Unda ikki mangu qarama-qarshi kuch: yaxshilik va yovuzlik , iqror va inkor kurashadi.

Faust - hayot oshig‘i, taraqqiyot jangchisi, adolat jarchisi.

⁶⁴ Гёте И.В. Файст. URL: <https://xn----7sbb5adknde1cb0dyd.xn--p1ai/%D0%B3%D0%B5%D1%82%D0%B5-%D1%84%D0%B0%D1%83%D1%81%D1%82/> (murojaat sanasi 10.01.2023)

Mefistofel - hayot yovi, taraqqiyot dushmani, adolat kushandasi. Asardagi murakkab voqealar silsilasi shu ikki qahramon xatti-harakatlari orqali rivojlanib boradi.

Italiyadagi franko-ispán raqobati davrida Italiyaning vayron bo'lishiga sabab bo'lgan bir qator urushlar sodir bo'ldi. Italiya parchalanib ketdi va natijada Apennin yarim orolida uchta davlat guruhi shakllandi: Madrid nazorati ostida Neapol, Sitsiliya va Milan gersogligi; rasman mustaqil, lekin Ispaniya, Genuya Respublikasi va Korsika, Toskana (sobiq Florentsiya Respublikasi), Modena, Parma va boshqa kichik knyazliklar ta'sirida; mustaqil davlatlar - poytaxti Rimda bo'lgan Papa davlatlari, Dalmatiyani nazorat qilgan Savoya va Sardiniya gertsogligi, poytaxti Turin va Venetsiyada. San-Marino Respublikasi ham mustaqil edi.

XVII asrda Italiyada urushlar hali ham davom etardi, Italiya davlatlari Turkiya bilan urushlar uchun o'z ittifoqchilarini tanlashga majbur bo'ldilar.

Italiyada Venetsiya, Genuya va Lukka eski respublikalari saqlanib qolgan. Shtatlarning aksariyati monarxiyalar - kichik dunyoviy knyazliklar va knyazliklar, shuningdek, teokratik papalik davlatlari va Neapol qirolligi edi. Aslida, bu davlatlarning barchasi avtonom tarzda harakat qilgan, ammo iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ular taxminan bir xil darajada edi. Italiya iqtisodiyotida faol rivojlanayotgan Shimoliy va turg'un yoki tanazzulga uchragan janubga bo'lingan.

Savdoda o'tgan asrning tendensiyalari davom etdi. Yagona ichki bozor yaratilmadi, ichki urf-odatlar saqlanib qoldi, turli pul tizimlari, o'lchov va vazn tizimlari saqlanib qoldi. Xalqaro savdo past edi, Toskanadagi Livorno Italiyaning eng yirik porti edi. Moliyaviy faoliyat Genuyada rivojlanishda davom etdi.

Umuman olganda, Italiya Yevropadan ancha orqada qoldi. Iqtisodiyotning zaifligi siyosiy zaiflikka olib keldi, bu Italiyaning birlashishiga to'sqinlik qildi.

Viko (Vico) Jambattista (1668.23.6. Neapol —1744.23.1.) — italiyalik faylasuf. 1698-yildan Neapol universitetida professori(49-rasm). Xalqlar tarixi va psixologiyasi falsafasi asoschisi. Aflotun va F.Bekonga alohida ixlos bilan qaragan. Dekart bilan bahs-munozaraga kirishib, shaxs zakovatiga umuminsoniy aqlni

qaramaqarshi qo‘ygan. Tarixiy jarayon obyektiv tarzda kechishi g‘oyasini ilgari surgan. Biz faqat qilayotgan ishlarimiznigina bilishimiz mumkin, degan fikrdan kelib chiqib, tarix fanini insoniyatning o‘z xatti-harakatlari to‘g‘risidagi bilimi deb hisoblagan.

Viko barcha millatlarning aylanma harakat yo‘sinida taraqqiy etishi nazariyasini ishlab chiqqan. Har bir xalq o‘z taraqqiyotida 3 davr — xudolar (davlat bo‘lmagan holat, kohinlarga bo‘ysunish), qahramonlar (aristokratik davlat) va insoniyat (demokratik respublika yoki vakolatli monarxiya) davrini boshidan kechiradi; bu bamisoli inson hayotining bolalik, o‘spirinlik va etuklik davrlariga o‘xshaydi. Har bir davr jamiyatning yalpi tanazzuli va parchalanib ketishi bilan tugaydi. Davrlar ijtimoiy to‘ntarishlar natijasida almashinadi. Asosiy asarlari: “Millatlarning umumiy tabiati haqidagi yangi fanning asoslari” (1725). “Yangi fan”⁶⁵.

Bekkaria (Beccaria) Chezare (1738.15.3, Milan – 1794.28.11) – italyan ma’rifatparvar adibi(50-rasm), huquq doktori (1758). Sudlarning qonunga asoslanmay turib, aybdorga jazo tayin etilishiga, ayblanuvchilarni qiynoqqa solib, iqrorga qildirish usuliga qarshi chiqqan. O‘lim jazosini umrbod qamoq bilan



49-rasm
Viko

almashtirishni, jismoniy jazoni umuman qo‘llanmaslikni yoqlagan. Qonun hamma narsadan ustuvorligini, fuqarolar esa qonun va sud oldida tengligini ta’minlash zarur, deb hisoblagan. Har qanday jinoyat uchun tegishli jazoni muqarrar ravishda zudlik bilan ijro etish, odil sudlovni chek tashlash yo‘li bilan saylanadigan maslahatchilar tomonidan olib borish tarafdori bo‘lgan. Bekkarianing “Jinoyat va jazo to‘g‘risida”⁶⁶ asarida

⁶⁵ Vico G. The First New Science. URL:

https://www.bard.edu/library/arendt/pdfs/Vico_ScienceGiambattistaVico.pdf (murojaat sanasi 10.01.2023)

⁶⁶ Беккариа Ч. О преступлениях и наказаниях. Сост. и предисл. В.С. Обнинского. — М.: ИНФРА-М, 2004. — VI, 184 с. URL: https://library.nlu.edu.ua/POLN_TEXT/KNIGI-2013/CHezare_Bekkaria_2004.pdf (murojaat sanasi 10.01.2023)

olg'a surilgan g'oyalar Yevropadagi ko'pchilik davlatlarning qonunlarida o'z aksini topgan.

“Jinoyat va jazo to'g'risida” kitobida sud-huquq tizimini insonparvarlashtirish g'oyasi aks etgan.

Bekkariya kitobining birinchi nashri 1764-yilda, muallif 26 yoshida paydo bo'lgan. Ikki yildan sal ko'proq vaqt o'tgach, rus imperatori o'zining ulkan davlatida islohotlarni tayyorlashda undan foydalanganligining o'zi ham bu kitobning kuchi va butun Evropada qanchalik tez mashhur bo'lganidan dalolat beradi. Nafaqat Evropada: Amerika Qo'shma Shtatlarining bo'lajak asoschilari bo'lmish amerikalik ma'rifatparvarlar ham Bekkariyaning asarlarini diqqat bilan kuzatgan va yigirma yil o'tgach, yangi davlatning birinchi qonunlarini ishlab chiqishda uning ko'plab g'oyalaridan foydalanganlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:



50-rasm
Bekkaria

1. Germaniyada feodal tarqoqlik sharoitida ma'rifatparvarlik mafkurasining xususiyatlari, undagi oqimlar.
2. X. Tomaziyning siyosiy-huquqiy qarashlari.
3. X. Volf g'oyalari.
4. G. E. Lessing gumanizmi.
5. Y. V. Gyote ijodi.
6. XVIII asrda Italiyada krepostnoy-absolyulistik tartiblar va mafkuraviy soha xususiyatlari.
7. Ma'rifatparvarlik harakati ideologlari. J. Viko tarixiy konsepsiyasi.
8. Ch. Bekkaria gumanistik dunyoqarashi.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Vestfaliya tinchlik shartnomasi tuzilgan yilni aniqlang.
 - a) 1748-yil
 - b) 1745-yil
 - c) 1734-yil
 - d) 1744-yil

2. Vestfaliya tinchlik shartnomasiga qadar xalqaro xuquq subyektlari kimlar kimlar edi?
- a) Deputatlar
 - b) Xalq
 - c) Monarxlar
 - d) Parlament a'zolari
3. "Milliy va tabiiy huquq asoslari" (1705) asari muallifi kim?
- a) Xristian Tomaziy
 - b) Xristian fon Volf
 - c) M. V. Lomonosov
 - d) Lessing Gotxold Efraim
4. Klassitsizmga qarshi kurashda Germaniyada birinchi "Sara Sampson xonim" (1755) oilaviy "meshchanlar" dramasini va milliy xarakterdagi bo'lgan "Minna fon Barnxelm" (1767) komediyasini yozgan nemis dramaturgi, san'at nazariyotchisi kim?
- a) Xristian Tomaziy
 - b) Xristian fon Volf
 - c) M. V. Lomonosov
 - d) Lessing Gotxold Efraim
5. "Gets fon Berlixingen" (1773), "Prometey" (1773) kabi dramalar va lirik she'rlari muallifi berilgan qarotni aniqlang.
- a) Xristian Tomaziy
 - b) Xristian fon Volf
 - c) M. V. Lomonosov
 - d) Gyote Yoxann Volfgang
6. Italiyalik faylasuf Viko (Vico) Jambattista qachon tavallud topgan?
- a) 1668-yil
 - b) 1677-yil
 - c) 1679-yil
 - d) 1654-yil
7. Viko Jambattista nazariyasi ko'ra har bir xalq o'z taraqqiyotida qanday davrlarni boshidan kechiradi deb fikr yuritadi?

a) Xudolar, qahramonlar, insoniyat

b) Tarix, bugungi kun, kelajak

c) Bolalik, yetuklik, qarilik

d) To'g'ri javob yo'q

8. Sudlarning qonunga asoslanmay turib, aybdorga jazo tayin etilishiga, ayblanuvchilarni qiynoqqa solib, o'lim jazosini umrbod qamoq bilan almashtirishni, jismoniy jazoni umuman qo'llanmaslikni yoqlagan italyan ma'rifatparvari va huquqshini kim?

a) Xristian Tomaziy

b) Xristian fon Volf

c) Bekkaria Chezare

d) Y. V. Gyote

9. Bekkaria (Beccaria) Chezarening "Jinoyat va jazo to'g'risida" kitobida qanday g'oyalar aks ettirilgan?

a) Kitobida sud-huquq tizimini insonparvarlashtirish g'oyasi

b) Jazoning muqarrarligi

c) Yurtda qonunlarga amal qilinmasligi

d) Qonunlarning adolatli emasligi

10. Y. V. Gyotening qaysi asarida ikki mangu qarama-qarshi kuch: yaxshilik va yovuzlik, iqrar va inkor kurashadi haqida fikr yuritilgan?

a) Ifigeniya Tavridda

b) Egmont

c) Faust

d) Torkvato Tasso

**19-MAVZU: XVIII ASR OXIRI –XIX ASR BOSHLARIDA
GERMANIYADA FALSAFIY TA'LIMOTLARNING SIYOSIY
MAFKURALARDA IFODALANISHI**

Reja:

1. XVIII asr oxiri –XIX asr boshlarida Germaniyadagi feodal tarqoqlik.
2. I. Kant siyosiy nazariyasi, liberalizmning tizimlashtirilishi.
3. Konstitutsiyaviy monarxiya va sotsial reformizm. “Abadiy tinchlik” loyihasi.
4. I. Fixtning ideal davlat haqidagi qarashlari, pangermanizmning tanqidi.
5. V. F. Gegel siyosiy ta’limotining konservativ tomoni. Gegel siyosiy falsafasiga turlicha munosabat.


Tayanch tushunchalar: XVIII oxiri va XIX asr boshlarida Germaniyadagi feodal tarqoqlik; Pruss monarxiyasining kuchayishi; Fransuz inqilobi g‘oyalarining ma’naviy hayotga ta’siri; Mahalliy burjuaziya zaifligining falsafiy ta’limotlarda, siyosiy mafkuralarda aks etishi; I.Kant siyosiy nazariyasi, liberalizmning tizimlashtirilishi;

Konstitutsiyaviy monarxiya va sotsial reformizm; “Abadiy tinchlik” loyihasi; I.Fixtning ideal davlat haqidagi qarashlari, pangermanizmning tanqidi; V.F.Gegel siyosiy ta’limotining konservativ tomoni; Gegel siyosiy falsafasiga turlicha munosabat.

XVIII asr oxirida Germaniya o‘z tarixida modernizatsiya jarayonining tezlashishi bilan ajralib turadigan yangi davrga kirdi. Etmish-sakson yil ichida Germaniya eski tartibdan zamonaviylikka o‘tdi. Sanoatlashgan jamiyatining asoslari shakllandi. Uning faol subyekti – “zamonaviy odam” edi, uning xulq-atvor dasturi vaziyatni mustaqil baholash va o‘z manfaatlarini oqilona hisobga olish asosidagi suveren harakatlardan iyuorat edi. O‘z harakatlarini o‘z-o‘zidan belgilash - muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari uchun shaxsiy javobgarlikni nazarda tutgan. Shunday qilib, shaxsning markaziy roli (individualizm) nihoyat qaror topdi.

XVIII-XIX asrlar oxirida Germaniyada eski ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarning buzilishi ichki va tashqi omillar ta’sirida boshlangan. Ichki omil nemis davlatlarida ma’rifatli absolyutizm tomonidan olib borilgan islohotlar edi.

Ma'rifatli absolyutizm – XVIII asrning 2-yarmida Yevropadagi bir qator monarxiya mamlakatlari tomonidan olib borilgan va bozor munosabatlari foydasiga o'rta asr feodal tuzumi qoldiqlarini bartaraf etishga qaratilgan siyosat. Asoschisi Tomas Gobbs hisoblangan “ma'rifiy absolyutizm” nazariyasi “ma'rifat” davrining ratsionalistik falsafasi bilan to'la singdirilgan. Uning mohiyati dunyoviy davlat



51-rasm
Prussiya qiroli
Fridrix II

g'oyasida, absolyutizmning markaziy hokimiyatni hamma narsadan ustun qo'yish istagidadir.

Ma'rifatparvarlik ruhidagi islohotlarning boshlanishi 1740-yilda, Prussiya qiroli Fridrix II (1712-yil 24-yanvar, Berlin – 1786-yil 17-avgust, Potsdam) Gogenzollerndan Prussiya taxtiga o'tirgan paytdan boshlanadi.

Fridrix II - 1740-1786-yillarda Prussiya qiroli, Buyuk laqabli ma'rifatparvar monarx. Yana bir taxallus – “Qari Frits”. Germaniya davlatchiligining asoschisi (51-rasm).

Yosh Frederik bir vaqtning o'zida Prussiya militarizmining ta'siri ostida fransuz ma'rifatparvarligi ta'sirida o'sgan.

Fridrix II butun umumgerman kodeksini tuzishga harakat qildi. U davlatda hamma narsa aniq taqsimlangan va o'zaro bog'liq bo'lishi kerak deb hisoblardi. Kodeks hukmdor va davlat huquqlarining o'ziga xos deklaratsiyasiga aylandi. Shu bilan birga, qirol suveren davlatning yagona qonuniy vakili ekanligini, u barcha huquqlarga ega ekanligini ta'kidladi. “Taxtdagi faylasuf”ning islohotlari mamlakatni modernizatsiya qilishga olib keldi va Prussiyada eski tartibni mustahkamladi.

- Taxtga o'tirgan Fridrix II islohotlari:
- Diniy bag'rikenglik o'rnatildi.
- Fanlar akademiyasini tikladi.
- Senzura bekor qilindi.
- Merkantilizm siyosatini kiritdi. Barcha import qilinadigan tovarlarga yuqori bojxona solig'i qo'yildi, 500 dan ortiq turdagi tovarlarni olib kirish umuman taqiqlandi.

- Sud jarayonlarida qiynoqlarga barham berildi. Sudyalarning ma'muriyatdan mustaqilligini o'rnatdi.

- Qishloq maktablarini ochish to'g'risida farmon chiqardi.
- Qirollik yerlarining dehqon egalariga yer uchastkalariga egalik va meros huquqini ta'minladi.
- Islohotlarning cheklangan va bir-biriga mos kelmasligiga qaramay, ular - va bu g'oya nemis tarixshunosligida alohida ta'kidlanadi - islohotchilik an'analariga asos soldi.

Nemis yerlarida modernizatsiya jarayoniga kuchli turtki bo'lgan tashqi omillar bir vaqtga to'g'ri kelgan Yevropadagi ikkita inqilob - ingliz sanoat va Buyuk fransuz inqiloblari, ularning bir vaqtdaligi va o'zaro ta'siri nemis tarixshunosligida "Doppefrevolution" ("ikki inqilob") atamasini keltirib chiqardi.



52-rasm
Kant Immanuel

Kant Immanuel (1724.22.4 — Kenigsberg — 1804.12.2) — nemis faylasufi(52-rasm). Nemis klassik falsafasining asoschilaridan biri. Kenigsberg universiteti professori. (1770-96).

Mantiq va metafizikadan hamda tabiiy fanlardan, xususan, geogr. dan dars bergan. Kant krititsizm yoki transtsendental falsafaning asoschisi hisoblanadi.

Kant falsafasi quyidagi rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi:

1) tabiiy-ilmiiy bosqich (1747-1755) — bu davrda "Osmonning umumiy tabiiy tarixi va nazariyasi" (1755) asarini yozdi, bunda u o'zining kosmogonik nazariyasini olga surdi;

2) metafizik bosqich — u Volf metafizikasidan voz kechib, tanqidiy olami va "Aql-idrok olamining shakli va asoslari haqida" (1770) yozdi;

3) tanqidiy bosqich — bu davrda Kant ko'proq bilish muammolari bilan shug'ullandi. "Sof aqlning tanqidi" (1781), "Amaliy aqlning tanqidi" (1789), "Mulohaza qobiliyatining tanqidi" (1790) asarlari shu davrda yozilgan. Kant bilish nazariyasida agnostitsizmga moyil. Kant bilish jarayonida "narsa o'zida" bilan "biz uchun narsa"ni bir-biridan farq qiladi. "Narsa o'zida" — o'zicha mavjud bo'lgan

ob'ektdir. "Biz uchun narsa" — ob'ektning inson idrok qilgan qismidir. Uning fikricha, inson "narsa o'zida" (mohiyat)ni bilishga qodir emas, u faqat "biz uchun narsa"ni, ya'ni hodisalarni bilishi mumkin. Kant agnostitsizmi inson bilimi aniq tarixiy xarakterga ega ekanligi bilan chegaralanganligiga, inson hech vaqt hamma narsani oxirigacha bilib ololmasligiga asoslangan. Borliqning barcha qismlari bilish obyekti bo'la olmasligi ham bu yerda muhim ahamiyatga ega;

4) tanqidiydan keyingi bosqich — bu davda Kant mantiq, pedagogika, tabiiy geografiya va pragmatik antropologiya (ya'ni xarakterologiya)ga oid ma'ruzalarini nashr ettirdi. Kant fikricha, inson tajriba va amaliyot bilan har qanday bilimga ega bo'lavermaydi. Insonda aprior (tajribagacha) bilimlar ham bo'ladi. Bular tug'ma bilimlardir. Ilmiy bilishning ishonchliligi va haqiqiyliigi uning eng umumiyliigi va zaruriyligi bilan belgilanadi. Kant o'z falsafasida bilish nazariyasini birinchi bo'lib falsafiy muammo sifatida atroflicha ishlab chiqishga harakat qildi.

Kantning axloqiy qarashlari uning "Axloq metafizikasi asoslari" (1775), "Inson tabiatidagi azaliy yomonlik" (1792) kabi asarlarida bayon qilingan. Axloqiy burchni axloqiy qonun shaklida ta'riflaydi. Uning ma'nosi shuki, har bir inson shunday xatti-harakat qilishi lozimki, bu boshqalar uchun ham qoidaga aylansin. Kant vijdonni axloqiy hakam deb ta'riflaydi. Insonlarning bir-biriga muhabbati va hurmati asosiy insoniy burchlardir. Gaman, Gerder va Yakobi Kantning g'oyalariga qarshi chiqdilar. Fixte, Shelling, Gegel esa o'zlarining idealistik metafizikasini Kant nomi bilan bog'ladilar. Kant o'zining ijtimoiy falsafasida axloqni siyosatdan ustuvorligini ta'kidlaydi. U boshqa xalqlar yerlarini bosib olib o'zini oqlashga urinishni, jinoyat qilib o'z aybiga iqror bo'lmaslikni, ajratib tashla va xukmronlik qil aqidasini axloqqa zid xatti-harakat deb baholaydi. Kant fikricha, inson huquqi muqaddasdir. Kantning qarashlari keyingi ilmiy va falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi. XIX asrning 60-yillarida Kant g'oyalari asosida neokantchilik vujudga keldi.

Kantning siyosiy falsafasi klassik respublikacha yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi. Kant o'z zamondoshlari orasida juda mashhur bo'lgan "Abadiy tinchlik"⁶⁷ (1795) asari - tinchlik o'rnatish muammosiga bag'ishlagan.

Kant o'zining "Abadiy tinchlik" asarida barcha urushlarni tugatish va mustahkam tinchlik o'rnatish uchun zarur bo'lgan bir qancha shartlarni sanab o'tdi.

I. Kant abadiy tinchlik o'rnatish uchun zarur bo'lgan oltita dastlabki (dastlabki) shart va to'rtta asosiy (yakuniy) shartni ajratib ko'rsatdi. Dastlabki shartlar qatoriga quyidagi shartlar kiritildi:

1) tinchlik shartnomasini tuzishda urushni qo'zg'atish uchun yashirin asoslar saqlanib qolmasligi kerak, ya'ni tomonlar o'rtasida harbiy harakatlarni tiklashi mumkin bo'lgan qoidalar shartnoma matniga kiritilishi mumkin emas;

2) davlat hududi yoki hududining bir qismini sovg'a qilish, meros qilib olish, mahr sifatida o'tkazish va hokazolar mumkin emas;

3) doimiy armiyalarni tarqatib yuborish kerak;

4) harbiy harakatlarni moliyalashtirish uchun olinadigan davlat qarzlari taqiqlanadi;

5) bir davlatning boshqa davlatning ichki siyosatiga aralashuviga yo'l qo'yib bo'lmaydi;

6) jangovar harakatlar tomonlarning kelajakda ishonchga putur etkazadigan vositalar bilan, masalan, yashirin qotillar, zaharlovchilar yuborish, taslim bo'lish shartlarini buzish, dushman davlatiga xiyonat qilishga undash kabi vositalar bilan olib borilmasligi kerak.

Kant tinchlik shartnomasini tuzishning asosiy shartlarini ko'rsatadi:

1) respublika tuzumida urush boshlash qiyinroq, shuning uchun respublikalar bitim ishtirokchilari bo'lishlari kerak;

2) shartnomani tuzish natijasida davlatlar ittifoqqa (erkin davlatlar federatsiyasi) birlashadilar, unda har bir davlat o'z suverenitetini saqlab qoladi;

3) davlatlar o'rtasida hamkorlik va o'zaro mehmondo'stlik o'rnatiladi;

⁶⁷ Кант И. К вечному миру. URL: https://www.civisbook.ru/files/File/Kant_K_vechnomu_miru.pdf (murojaat sanasi 11.01.2023)

4) (maxfiy shart) hukmdorlar davlat qarorlarini qabul qilishda faylasuflar bilan maslahatlashishlari kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, mutafakkir tomonidan shakllantirilgan sanab o'tilgan shartlar bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Davlat - bu qonunlarga bo'ysunadigan ko'p sonli odamlarning birlashmasi.

Huquqiy davlat bo'lmasa, mamlakat liberal-demokratik bo'la olmaydi.

Kant o'z asarlarida o'zidan oldingi ko'plab mutafakkir va huquqshunoslar singari qonun ustuvorligi masalasini ko'taradi va tahlil qiladi. Kant huquqiy davlat idealini (Rechtsstaat) paternalistik davlatga (imperium paternale) qarama-qarshi qo'ydi, chunki paternalistik davlatda "hukmdor o'z g'oyalariga ko'ra xalqni baxtli qilishni xohlaydi va mustabidga aylanadi".

Kant davlatni "tungi qorovul" sifatida talqin qilishda antietatistik an'anani rivojlantirdi, davlat tomonidan tartibga solish ko'lamini birinchi navbatda xususiy mulkdorning manfaatlarini huquqiy himoya qilish funksiyasi bilan cheklab qo'ydi va ta'lim, ijtimoiy va boshqa funksiyalarni davlatdan olib tashladi.

Kant boshqaruvning ideal shakllarini parlamentli respublika va hokimiyatlar bo'linadigan konstitutsiyaviy monarxiya deb atagan. Shuni ta'kidlash kerakki, Kant hokimiyatlarning bo'linishi prinsipini "nazorat va muvozanat" g'oyasi kontekstida emas, balki nazorat va muvozanat tizimi deb atalgan, balki funktsional jihatdan talqin qilgan. Ya'ni, hokimiyatning uch tarmog'i bir-birini "mukammallik uchun" to'ldiradi va hokimiyat tarmoqlarining hech biri boshqasining funksiyalarini o'z zimmasiga olmaydi.

Fixte (Fichte) Iogann Gotlib (1762.19.5, Rammenau 1814.29.1, Berlin) — nemis faylasufi, jamoat arbobi(52-rasm). Yena va Leypsig universitetlarida o'qigan. Yena (1794-99), Berlin (1810-yildan) universitetlarining professori 1798-yilda Fixte o'zini asossiz ravishda g'oyaviy o'zboshimchalikda ayblanganliklariga norozilik sifati universitetni tark etdi. 1810-yilda u Berlinda yangi tashkil etilgan Oliy maktabning birinchi rektori etib saylandi. "Nemis millatiga qaratilgan nutqlar"⁶⁸

⁶⁸ Fichte J.G. Reden an die deutsche Nation. URL: <https://www.gutenberg.org/ebooks/48340> (murojaat sanasi 11.01.2023)

(1808) da nemis xalqini axloqiy jihatdan uyg‘otishga va birlashishga da’vat etgan. Kantning “narsa o‘zida”sini inkor qilgan.

Fixte o‘z falsafiy ta’limotini tanqidiylik deb atagan. Fixte ta’limoticha, “tanqidiy falsafa”ning ibtidosi tafakkur qiluvchi “Men”dir. Undan sezgi va tafakkurning butun mazmunini aniqlash mumkin. Fixte “Men”ga hamma narsani yaratuvchi qudratli ijodiy kuch sifatida qaradi. “Men” uchun ikki tomonlama — amaliy va nazariy faoliyat xos. Fixte fikricha, sof “Men” g‘ayrihissiy, abadiy;



52-rasm
Fixte

empirik “Men” esa hissiy, vaqtincha. Oddiy individning empirik “Men”iga sof “Men”ni qarama-qarshi qo‘yadi. Uning fikricha, sof “Men” alohida kishining ongi emas, balki hamma kishilar ongining asosini, mohiyatini tashkil etuvchi sof reallikdir; uning mohiyati faoliyatida, o‘zo‘zini barqaror etishda. Fixte ta’limoticha, insoniyat parokandalik va buzuvchilik davrlaridan o‘tib, dastlabki begunohlik holatidan aql hukmronligiga

ko‘chadi. Fixtening xizmati shundaki, u insonning aqlli “Men”ini, uning faol bunyodkorlik qobiliyatini yuqori ko‘tardi. Asosiy asarlari: “Umumiy fan ta’limining asoslari” (1794), “Axloqiylik haqidagi ta’limot tizimi” (1794), “Tilga qobiliyat va tilning kelib chiqishi to‘g‘risida” (1795) va b.

Davlatning maqsadi, eng avvalo, har bir insonga mulkini berish, uni o‘z mulkiga egalik qilishini yo‘lga qo‘yish va keyin uni himoya qilishni boshlashdir. Shaxsga nisbatan davlat huquqlarining bunday tubdan kengayishi Fixteda barcha odamlarning tengligi talabi bilan asoslanadi, tenglik nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy ham bo‘lishi kerak. Zamonaviy davlatda, deydi Fixte, bunday tenglik yo‘q: har kim ham o‘zi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan mulkka haqli ravishda ega bo‘la olmaydi, “chunki boshqalar o‘z ulushlaridan ko‘proq narsani olganlar”.

Gegel (Hegel) Georg Vilgelm Fridrix (1770. 27. 8, Shtutgart — 1831. 14. 11, Berlin) — yirik nemis faylasufi, nemis mumtoz falsafasining eng mashhur vakili. 1788—93 y. larda Tyubingen institutida taxsil olgan(53-rasm). Bu yerda falsafa va ilohiyotni o‘rgangan. Bernda (1793—96), Frankfurtmaynda (1797— 1800) zodagon oilalarda o‘qituvchi, Iena (1801—07), Geydelberg (1815—18) universitetlarida

professor, Nyurnberg gimnaziyasida (1807—16) direktor, ayni paytda, “Bamberg gazetasi” da muharrir, Berlin universiteti professori (1818-28), rektori (1829-30).



53-rasm
Gegel

Gegel o‘z ta’limotini butun G‘arb falsafasi rivojining yakuni, deb hisoblagan bo‘lsada, aslida, uni Yangi davr Yevropa falsafasi taraqqiyotining so‘nggi, yuqori bosqichi deyish mumkin.

Gegel falsafiy ta’limotida barcha tabiiy va ijtimoiy hodisa hamda jarayonlarning tubida “olamiy ruh”, “olamiy aql”, “mutlaq ruh”, “mutlaq g‘oya”, deb atalmish mavhum ruhiy ibtido borligini asoslashga harakat qilgan. Mazkur ruhiy ibtido shuning uchun ham olamiy, mutlaqki, uning mavjudligi hech qanday boshqa narsaga bog‘liq bo‘lmay, u tabiat va jamiyat vujudga kelgunicha mavjud bo‘lgan. Bu ma’noda, “olamiy”, “mutlaq” ruh tushunchasi “ilohiy ong” tushunchasiga hamohang va mutanosibdir. Faylasufning e’tirof etishicha, falsafaning mazmuni, uning ehtiyoj va manfaatlari dinning ehtiyoj hamda manfaatlari bilan tamomila mushtarak, umumiydir; dinga xos narsa abadiy haqiqat, xudo va uni anglashdir; falsafa dinni qay darajada kashf qilsa, o‘zini shu darajada namoyon etadi va aksincha, u qay darajada o‘zini namoyon etsa, dinni shu darajada kashf qiladi; din va falsafa o‘zaro mutanosibdir. Gegelning fikricha, agar xudo dinda e’tiqod shaklida tasavvur qilinsa, u falsafada mantiqiy yo‘l bilan bilinadi.

Gegelning ta’kidlashicha, xudo barcha narsalarda mavjud bo‘lib, u faqat sof tafakkurdagina, o‘zining mohiyatiga mutanosib shaklda, mukammal namoyon bo‘ladi. Gegel falsafasida yakun topgan mutlaq bilim xudoning inson timsolidagi “o‘zini o‘zi bilishdan” boshqa narsa emas.

Gegel “Mantiq fani” asarida rivojlanish “triada” — 3 bosqichlilik (tezis, antitezis va sintez) shaklida yuz beradi. Shunga muvofiq, mazkur falsafaning markaziy tushunchasi — “mutlaq ruh” dialektik rivojlanish jarayonida 3 bosqichni bosib o‘tadi: 1. “Mutlaq ruh” ning tabiat yaratilganiga qadar bo‘lgan sof tafakkur

bosqichi. 2. “Mutlaq ruh” ning tabiatga aylanishi. 3. “Mutlaq ruh” ning tabiatning inkori sifatida yana o‘ziga qaytishi.⁶⁹

Gegel ta’limotiga binoan olam ruhiy tabiatga ega, uning rivoji shu sababdan ham yuz beradiki, sof ilohiy tafakkurning ichki mazmuni, muayyan bosqichda, unga hech ham mutanosib bo‘lmagan jismaniy borliq — tabiat shakliga o‘tadi va shu bois, uning uchun mudhish holat — ziddiyat vujudga keladi. Harakat — dialektik rivojlanishning muhim tamoyili bo‘lib, u ayni ziddiyatning mahsulidir. Xuddi tabiatning o‘zida ruhning undan, ya’ni o‘zining “o‘zgacha borlig‘i — begonalashuvidan” yana “o‘ziga qaytishi” boshlanadi. O‘z hayotining ilk bosqichlarida hali tabiat qo‘ynida bo‘lgan inson ongning vujudga kelishi (fenomenologiya) natijasida o‘z mavjudligining ibtidoiy holatidan asta-sekin uzilib, ko‘tarila, yuksala boshlaydi va u ruhiy mavjudot (“subyektiv ruh”) sifatida, o‘zining bunday mohiyatini tegishli (anglovchi va xohlovchi) xususiyati va uning mazmuniga mos tarzda payqamas, o‘zlashtirmas ekan, ibtidosi qanday bo‘lsa, shundayligicha qolaveradi.

“Obyektiv ruh” ning ko‘rinishlari ijtimoiy hayot shakllari — huquq, axloq, urf-odat va davlat ham xuddi shunday tadrijiylik jarayonlarini bosib o‘tadi. Bu yerda ham boshqa joylardagidek, uchinchi bosqich uzidan avvalgi ikkitasining omixtasi (sintezi) hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda huquqiy mazmun bilan axloqiy e’tiqodning mushtarakligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur mushtaraklik davlat timsolida o‘zining oliy ifodasini topadi.

Xudo subyektivlik bilan obyektivlikning (biluvchi va biluvchiga bog‘liq bo‘lmagan mohiyatning) birligidir. Substantsiya (mohiyat) va biluvchi (subyekt) ning mutlaq ayniyligini mushohada qilish, tasavvur etish va bilish, ya’ni “mutlaq ruh” ning uchta shakli “obyektiv ruh” ning tegishli ko‘rinishlariga tayanadi. Mazkur mushtaraklik san’atda “mushohada” qilinadi, dinda esa “tasavvur” etiladi, faqat mutlaq ilm — falsafada u bilinadi, ya’ni ayni shu yerda pirovard maqsadga — inson cheklangan mohiyatining cheksizlikka daxldor bo‘lishligiga erishiladi. Ilohiy aql

⁶⁹ Гегель Г.В.Ф. Наука логики. - СПб., - 1997. URL: <https://www.marxists.org/russkij/hegel/nauka-logiki.pdf> (murojaat sanasi 11.01.2023)

bilan ana shu mushtaraklik Gegel falsafasining sir-sinoati, asl ma'nosini tashkil etadi. Gegelning falsafiy ta'limoti davlat va tarixii tushunish sohalariga katta ta'sir ko'rsatdi. U umumiy jahon tarixiga "olamiy ruh" ning o'zini o'zi anglash jarayoni va shu bilan birga "ozodlikni anglashdagi taraqqiyot" sifatida qaraydi. Biroq ozodlik shundan iboratki, inson o'zining "mutlaq g'oya" bilan mohiyatan birligini biladi va o'zini obyektiv ruh hosilalari hamda uning xohish-irodasi (davlat va huquq) bilan tenglashtiradi. Bu hosilalar pirovard natijada "mutlaq ruh" tomonidan vujudga keltirilgandir. Ozod fuqaro o'zining umumozodlik bilan jiddiy o'xshashligini anglaydi, qonun tashqi buyruqqa o'xshab ko'rinishini uning o'zi biladi.

Gegel falsafasida tabiat va tafakkurning, ayni paytda jamiyat dialektik rivojlanishining poydor tamoyillari — ziddiyat, sifat va mikdor o'zgarishlari, inkorni inkor konunlari ifodalangan.

Gegel ta'limoti tizimining turli sohalarida Sharq, jumladan O'rta Osiyo xalqlari tarixi, falsafasi, diniy, badiiy va umuman ma'naviy dunyosi masalalari tegishli tarzda talqin topgan.

Gegel davlatni g'oya sifatida ulug'laydi, ilohiylashtiradi va falsafiy asoslaydi. Agar, Gobbsning fikriga ko'ra, davlat ulkan mashina bo'lsa va odamlar bu sun'iy mexanizmning faqat yordamchi "vinti", "tishli murvati" bo'lsa, Gegelning fikriga ko'ra, davlat "mexanizm" emas, balki erkinlik anglashga asoslangan oqilona hayotdir, ma'naviyat dunyosining tizimi, shuningdek, uning tamoyillarini anglashdir.

Huquqiy davlatning gegelcha etatistik versiyasi demokratiya (xalq suvereniteti) va liberalizm (davlat huquqlariga nisbatan shaxs huquq va erkinliklarining ustuvorligi individualligi) tushunchasi, turli despotik boshqaruv shakllaridan sezilarli darajada farq qiladi.

Gegelning fikricha, davlat g'oyasi huquqiy voqelik bo'lib, uning ierarxik tuzilishida davlatning o'zi eng o'ziga xos qonun bo'lib, huquqiy davlat sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat konkret erkinlikning realligi sifatida individual davlatdir. Rivojlangan shaklda u hokimiyatlar bo'linishiga asoslangan konstitutsiyaviy monarxiyadir. Lokk

va Monteskyedan farqli o'laroq, o'zlarining hokimiyatlar bo'linishi konsepsiyasida Gegel turli xil hokimiyatlarning shunday organik birligini yoqlaydi, bunda barcha vakolatlar (qonun chiqaruvchi, hukumat va hukmdor hokimiyati) hokimiyatdan, butunning hukmronligidan kelib chiqadi. Turli hokimiyatlarning davlat birligiga qaramligi va bo'ysunishi, Gegelning fikricha, davlatning ichki suverenitetining mohiyati bo'lib, u turli suveren irodalarning to'qnashuvi, ularning o'zaro bog'liqligi dialektikasi (xalqaro huquq umumbashariy) orqali namoyon bo'ladi. Huquqning mavhum shakllaridan butun davlatning konkret qonuniga o'tish organik axloqiy yaxlitlik ko'rinishidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVIII asr oxiri –XIX asr boshlarida Germaniyadagi feodal tarqoqlik.
2. I. Kant siyosiy nazariyasi, liberalizmning tizimlashtirilishi.
3. Konstitutsiyaviy monarxiya va sotsial reformizm mafkurasi.
4. I. Fixtning ideal davlat haqidagi qarashlari, pangermanizmning tanqidi.
5. V. F. Gegel siyosiy ta'limotining konservativ tomoni.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Tomas Gobbsning "Ma'rifat nazariyasi" kitobida qanday g'oyalar aks ettirilgan?
 - a) Dunyoviy davlat g'oyasida, absolyutizmning markaziy hokimiyatni hamma narsadan ustun qo'yish
 - b) Ta'lim va tarbiyaning o'rni
 - c) Germaniya aholisi madaniyatidagi kamchiliklar
 - d) Insonparvarlik, vatanparvarlik
2. Fridrix II qachon Gogenzollerndan Prussiya taxtiga o'tirgan?
 - a) 1740-yilda
 - b) 1742-yilda
 - c) 1732-yilda
 - d) 1766-yilda

3. Umumgerman kodeksini tuzishga harakat qilgan, davlatda hamma narsa aniq taqsimlangan va o‘zaro bog‘liq bo‘lishi kerak deb fikr yuritgan shaxs kim?
- a) Fridrix II
 - b) V.F.Gegel
 - c) Tomas Gobbs
 - d) Fridrix I
4. Kant falsafasining birinchi bosqichi qanday nomlanadi?
- a) Tabiiy-ilmiy bosqich
 - b) Metafizik bosqich
 - c) Tanqidiydan keyingi bosqich
 - d) Tanqidiy bosqich
5. Kant falsafasining ikkinch bosqichi qanday nomlanadi?
- a) Tabiiy-ilmiy bosqich
 - b) Metafizik bosqich
 - c) Tanqidiydan keyingi bosqich
 - d) Tanqidiy bosqich
6. Kant falsafasining uchinchi bosqichi qanday nomlanadi?
- a) Tabiiy-ilmiy bosqich
 - b) Metafizik bosqich
 - c) Tanqidiydan keyingi bosqich
 - d) Tanqidiy bosqich
7. Kant falsafasining to‘rtinchi bosqichi qanday nomlanadi?
- a) Tabiiy-ilmiy bosqich
 - b) Metafizik bosqich
 - c) Tanqidiydan keyingi bosqich
 - d) Tanqidiy bosqich
8. Buyuk nemis faylasufi Kant Immanuilning “Sof aqlning tanqidi” asari qachon chop etilgan?

- a) 1770-yil
- b) 1781-yil
- c) 1789-yil
- d) 1790-yil

9. Buyuk nemis faylasufi Kant Immanuilning “Amaliy aqlning tanqidi” asari qachon chop etilgan?

- a) 1770-yil
- b) 1781-yil
- c) 1789-yil
- d) 1790-yil

10. “Axloq metafizikasi asoslari” asari muallifi kim?

- a) Kant
- b) V.F.Gegel
- c) Tomas Gobbs
- d) Fridrix I

20-MAVZU: XVIII-XIX ASRLARDA ROSSIYADAGI MAFKURAVIY YO‘NALISHLAR VA OQIMLAR

Reja:

1. XVIII-XIX asrlarda Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va imperiya mafkurasi.
2. Rus ma’rifatparvarlik ideologiyasi, S. Desnitskiy, Ya. Kozelskiy g‘oyalari.
3. Dehqonlar harakati va mafkuraviy o‘zgarishlar.
4. Dekabristlar ideologiyasi. Slavyanofillar va g‘arbchilar mafkurasi.

Tayanch tushunchalar: Dvoryanlar monarxiyasi, imperiya mafkurasining shakllanishi; Burjuaziya manfaatlarining mafkuraviy sohada ifodalanishi; Rus ma’rifatparvarlik ideologiyasi manbalari; S.Desnitskiy, Ya.Kozelskiy g‘oyalari; Dehqonlar harakati va siyosiy talablari; A.Radishchev - inqilobiy demokratizm mafkurasi asosichisi; M.Speranskiy islohotlarining g‘oyaviy negizi; Karamzinning

dvoryanlar mafkurasini rivojlantirishi; Dekabristlar ideologiyasi; P.Pestelning “Rus haqiqati”, A.Muravyovning konstitutsiya loyihasi; Slavyanofillar va g‘arbchilar mafkurasini.

XVIII asrda Rossiyaning ikkita taniqli avtokratik hukmdorlar boshqargan: dengiz kuchini yaratgan, mamlakatni Yevropa modeliga muvofiq modernizatsiya qilgan va g‘arbga qaragan yangi poytaxti bo‘lgan imperiyaga asos solgan Pyotr I va uning islohotlarini davom ettirgan va Polsha va Usmonli imperiyasi ustidan harbiy g‘alabalar orqali imperiya chegaralarini kengaytirgan Yekaterina II.

Rossiya tarixida XVIII asr siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida katta islohotlar va umumiy rivojlanish davri sifatida qoraladi. Asr boshlarida Pyotr I rivojlanishning G‘arbiy vektorini tanladi, Pyotrning vorislari ham unga muvofiq davlat siyosatini olib boradi.

Pyotr I (30-may [9-iyun], 1672-yil - 28-yanvar [8-fevral], 1725-yil) - Rossiyaning oxirgi podshosi (1682-yildan) va birinchi imperatori (1721-yildan).

XVIII asrda Rossiyada quyidagi muhim voqealar sodir bo‘ldi:

1700-yil - Shimoliy urushning boshlanishi, Boltiq dengizini nazorat qilish uchun Rossiya va Shimoliy Yevropaning boshqa davlatlari Shvetsiyaga qarshi harbiy qarama-qarshilik;

1703-yil 27-may - Sankt-Peterburg qal’asi qurildi, shahar ham huddi shunday nomlanadi;

1709-yil 8-iyul - Poltava jangi, Shimoliy urushda Rossiya podsholigi foydasiga burilish nuqtasi;

1721-yil - Shimoliy urushning tugashi. Rossiyaning g‘alabasi, Boltiq dengiziga chiqish. Rossiya imperiya deb e’lon qilindi;

1755-yil - M. V. Lomonosov tomonidan Moskvada birinchi rus universitetining ochilishi;

1762-yil — davlat to‘ntarishi natijasida hokimiyat tepasiga imperator Yekaterina II keldi;

1773-yil - Pugachyov qo'zg'oloni, Yekaterina II hukumati bilan dehqonlar urushiga aylangan yoyiq kazaklarining qo'zg'oloni;

1775-yil 10-yanvar - Yemelyan Pugachyov va uning sheriklari Moskvada ommaviy qatl qilindi;

1796-yil – Pavel I hokimiyat tepasiga keldi.

XIX asrning boshlarida Rossiya jahon miqyosida eng kuchli davlatlardan biri sifatida joy oldi. Ammo shunga qaramay, mamlakat texnologik, siyosiy va ijtimoiy rivojlanishda Yevropaning yetakchi davlatlaridan ancha orqada edi. Bu asrda Rossiya tarixi uchun shunday muhim voqealar sodir bo'ldi:

- 1812-yilgi Vatan urushi;
- Dekabristlar qo'zg'oloni (1825-yil 14 dekabr);
- Qrim urushi (1853-1856);
- krepostnoylik huquqining bekor qilinishi (1861-yil 19-fevral);
- Rossiyada XVIII asrning ikkinchi yarmida rus ma'rifatchiligini Pyotr I islohotlari natijasida jamiyatda kechayotgan keng ko'lamli g'oyaviy-madaniy jarayonlar hayotga olib keldi.

Biroq, rus ma'rifatparvar falsafasining Yevropa falsafasidan farqli o'laroq, asosiy va muhim xususiyati shundaki, G'arbdagi kabi burjuaziya emas, balki ma'rifatparvarlik g'oyalari kuylovchisi va bastakori zodagonlar bo'ldi.

Rossiyada kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va burjuaziyaning paydo bo'lishi feodal tuzumning kuchayishi va aholining asosiy qismining krepostnoylarga aylanishining kuchayishi fonida sodir bo'ldi. Avtokratiya dvoryanlar imtiyozlarining kafolati edi, shuning uchun dvoryanlar podsho hokimiyatini bor kuchi bilan himoya qildilar va uning qonuniyligi(legitimligi)ni oqladilar.

Mamlakatdagi ma'rifatparvarlik g'oyalari avtokratik hokimiyatning adolati va oqilonaligini yoqlash zaruriyatiga bo'ysundi va unga moslashdi.

1762-yil iyun oyining oxirida "faylasuf imperator" Yekaterina II rus taxtiga o'tirdi. U fransuz ma'rifatparvarligining ko'plab mutafakkirlari bilan yozishmalar olib bordi va ularning g'oyalari faol himoyachisiga aylandi. Imperator Volter ta'limotini ayniqsa yaxshi ko'rar edi. Uning ortidan rus zodagonlarining vakillari

ham bu g'oyalarni qabul qildilar va vaqt o'tishi bilan "Volterianlik" deb nomlangan harakat rus jamiyatining tobora kengroq qatlamlarini qamrab ola boshladi.

Volterianlik — Rossiya imperiyasidagi ma'rifatparvarlik g'oyalari ga yo'naltirilgan, fransuz pedagogi va faylasufi, yozuvchi Volter (1694-1778) g'oyalari va ijodiga asoslangan ijtimoiy-siyosiy oqim. Volterianlik mahalliy "Eski zamonlar"ni tanqid qilish va zudlik bilan islohotlarni talab qilish bilan tavsiflanadi. Volterianlikning gullab-yashnashi 1750-1760-yillarning oxiriga to'g'ri keldi.

Yakov Pavlovich Kozelskiy (1729-yil, Kiev guberniyasi, 1793-yil Kiev gubernatorligi, Rossiya imperiyasi) — rus faylasufi, pedagog, tarjimon, yozuvchi, o'qituvchi va siyosatchi. Davlat maslahatchisi, Kichik rus kollegiyasi boshqaruvi a'zosi, Rossiya imperiyasining yangi qonunlar kodeksi mualliflaridan biri, absolyutizm tarafdori(54-rasm).

Kozelskiy rus adabiy tilidagi falsafaga oid birinchi tizimli asarlardan biri, Buyuk imperator Yekaterina II ga bag'ishlangan "Falsafiy takliflar"⁷⁰ (1768) muallifi. Kozelskiy matematika, mexanika, artilleriya va boshqalarga oid asarlarga ham ega. Kozelskiyning "Xitoy faylasufi yoki ikki hindu Kalan va Ibragimning inson bilimlari haqidagi ilmiy suhbatlari" (Sankt-Peterburg, 1788) asari Rossiyadagi Sharq falsafiy an'analari ga bag'ishlangan birinchi asarlardandir.

Russo, Monteskye, Gelvetsiyning fransuz ta'lim falsafasi ta'sirida bo'lgan Kozelskiy inson aqlining kuchini yuqori baholagan, ammo faqat aqlni takomillashtirish, ma'rifat hali "haqiqiy adolat" g'alabasining kafolati emas deb



54-rasm
Yakov Kozelskiy

hisoblagan. Kozelskiy despotizmni rad qilar ekan, shunga qaramay, "ma'rifatli monarx" g'oyasiga moyil bo'ldi va shu bilan birga xalqning o'z taqdirini tashkil etishga faol aralashuvini oqladi. Kozelskiyning ideali mehnatga asoslangan jamiyat edi, unda na dabdaba, na qashshoqlik, na xususiy mulk mavjud, balki shaxsiy mehnat va vatandoshlarning xizmatlari bilan cheklanadi.

⁷⁰ Козельский Я.П. Философические предложения. URL: http://az.lib.ru/k/kozelskij_j_p/text_1768_filosof_predlozhenia.shtml (murojaat sanasi 11.01.2023)

Semyon Efimovich Desnitskiy (1740-1789) - rus pedagogi, Moskva universitetining birinchi rus huquqshunos professori, Rossiya akademiyasining a'zosi. Moskva, Sankt-Peterburg va Glazgo (Angliya) shaharlarida tahsil olib, u yerda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilgan(55-rasm). Uning faoliyati krepostnoylikka qarshi yo'nalishga ega edi, bu yangi kodeksni ishlab chiqish bo'yicha komissiya tomonidan ularga yuborilgan islohotlar loyihasida namoyon bo'ldi.

Ijtimoiy institutlar, oila va mulkning kelib chiqishi haqidagi qarashlarida u tarixiylik pozitsiyasida turdi; Insoniyat jamiyatining bir-birini bosqichma-bosqich o'rni bosuvchi tarixiy shakllari: ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va tijoratni ajratib ko'rsatdi. Asarda Desnitskiyning falsafiy qarashlari bayon etilgan: "Huquqni o'rganishning bevosita va eng yaqin yo'li haqida so'z"⁷¹ (1768), "Xalqlarning mulkka egalik qilish to'g'risidagi turli xil tushunchalar haqida huquqiy fikrlar" (1781), "Qadimiy xalqlar o'rtasidagi nikohning boshlanishi va kelib chiqishi haqidagi huquqiy fikrlar" (1775) va boshqalar.

Desnitskiy yuridik terminologiyaning rivojlanishiga, jinoyat, oilaviy, fuqarolik va boshqa huquq sohalari masalalariga katta e'tibor berdi.

Desnitskiy davlatning paydo bo'lishini xalqning iqtisodiy faoliyati bilan bog'ladi. Insoniyat o'z taraqqiyotida to'rtta tarixiy ketma-ket holatni bosib o'tgan: ovchilik (hayvonlarni tutish va yovvoyi mevalarni yig'ish); chorvachilik; "dehqonchilik" va "tijorat" holatlari. Davlat faqat tijorat holatida vujudga keladi,



55-rasm
Semyon
Desnitskiy

hokimiyat esa boylikka ega bo'lganlar qo'lida to'planadi. Davlatning maqsadi imkon qadar ko'p odamlarni safarbar etib, ko'proq ne'matlarga erishishdir.

Desnitskiy mutlaq monarxiyani boshqaruvning eng yaxshi shakli deb hisobladi va unda bir qator konstitutsiyaviy islohotlarni o'tkazishni taklif qildi.

⁷¹ Десницкий С.Е. Слово о прямом и ближайшем способе к изучению юриспруденции. URL: http://az.lib.ru/d/desnitskiy_s_e/text_1768_slovo_o_pryamom.shtml (murojaat sanasi 11.01.2023)

Nikolay Mixaylovich Karamzin (1766-yil 1 dekabr, Znamenskoe, Simbirsk viloyati - 1826-yil 22-may [3-iyun], Sankt-Peterburg, Rossiya imperiyasi) - rus tarixchisi, sentimentalizm davri shoiri va yozuvchisi, davlat maslahatchisi(56-rasm).

Rossiya tarixi bo'yicha birinchi umumlashtiruvchi asarlardan biri "Rossiya davlati tarixi"ni⁷² yozgan (1-12-jildlar, 1803-1826), Moskva jurnali (1791-1792) va "Vestnik Yevropi" (1802-1803) muharriri.

Karamzin tarixga rus adabiy tilining islohotchisi sifatida kirdi. U tilni ba'zi izdosh so'zlar bilan boyitgan va oldingi so'zlarni ommalashtirgan, aynan u "sanoat" atamasining zamonaviy talqinini bergan. 1797-yilda u "yo" harfini kiritdi (birinchi marta – "Aonides" jurnalida).

Boshqaruv shakli haqidagi munozaralarida Karamzin o'zining respublikachi ekanligini qayta-qayta ta'kidlab, hatto monarxiya sharoitida ham respublikachi bo'lib qolishi mumkinligini qo'shimcha qildi. Davlat va jamiyat hayotini tashkil etishning respublika shaklining o'zi uning uchun jamiyatning yuksak ma'naviy maqomiga ega bo'lgan barcha fuqarolarning erkinlik va xavfsizlikka erishishini anglatardi. Odamlarning haqiqiy ma'naviy darajasi, ularning siyosiy savodxonligi darajasi u yoki bu davlat qanday boshqaruv shakliga tayyorligini belgilovchi ko'rsatkichdir. Masalan, respublikani juda orzu qilgan Fransiya bunga tayyor emas edi va shuning uchun oxir-oqibat Bonapartga bo'ysundi va u Karamzinning so'zlariga ko'ra, hokimiyat o'zlashtirib olmadi, aksincha, haqiqiy monarxiyaning tashuvchisi bo'ldi.



56-rasm
Nikolay
Karamzin

N.M.Karamzinning ideali kuchli monarx (merosxo'r bo'lishi shart emas), o'z faoliyatida qonunlarga asoslanib, o'z mamlakati xalqlarini axloqiy tarbiyalash va siyosiy ma'rifatga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'rdi. Karamzinning monarxiya boshqaruv shaklini afzal ko'rishiga geografik omillar ham sabab bo'lgan.

Tarixchi Rossiya hududining kengligi, aholisining kattaligi va tarixiy buyukligi uni monarxiya uchun oldindan belgilab qo'yilgan deb hisoblardi.

⁷² Карамзин Н.М. История государства Российского. URL:
<http://www.spsl.nsc.ru/history/karam/karahist.htm> (murojaat sanasi 11.01.2023)

“Qadimgi Rossiyani, - deb yozgan edi A. S. Pushkin, - Karamzin Amerikani Kolumb kashf etgani kabi topdi”. Zamondoshlari Karamzinning despotizmni “zarracha ham, so‘z pardasida yashirmasdan” qoralayotganini, zolimlar va hokimiyatning zolim shaklini ochiq va g‘azab bilan qoralayotganini hayrat bilan ko‘rdilar. Ivan IV ning zolim hukmronligini fosh etishga bag‘ishlangan Karamzin tarixining to‘qqizinchi jildi rus jamiyati tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Aleksandr Nikolaevich Radishchev (1749-1802) krepostnoylikka qarshi norozilikni avtokratiyaga qarshi kurash bilan bog‘lagan birinchi ma‘rifatparvarlardan biri edi. U XVIII asr ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini mantiqiy yakuniga yetib bordi. Mazlumlarning zo‘ravonlikka zo‘ravonlik bilan javob berish huquqini e‘lon qildi. Radishchevning inqilobiy xulosalari o‘z davrining notinch voqealari: Amerika va Fransiya burjua inqiloblari va Pugachyov boshchiligidagi dehqonlar urushi bilan bevosita bog‘liq edi.

Falsafiy tafakkurning chuqurligi va inqilobiy pafosi bilan ajralib turadigan “Ozodlik” (1781-1783) she‘rida Radishchev zo‘ravon inqilob g‘oyasini ochiqchasiga e‘lon qildi. Uning asosiy mazmuni monarxiya hokimiyatining xalq boshiga olib keladigan ofatlarini tasvirlash, xalq qo‘zg‘olonining adolatli ekanini e‘lon qilishdan iborat.

Yemelyan Pugachyov boshchiligidagi qo‘zg‘olonning mafkuraviy asosini tushunish uchun bir qancha muhim masalalarni ko‘rib chiqish kerak, ular orasida qo‘zg‘olonning ilhomlantiruvchisi kimligi juda muhim.

Yemelyan Pugachyov don kazaklarining kambag‘al oilasidan chiqqan, 1742-



57-rasm
Yemelyan
Pugachyov

yilda tug‘ilgan(57-rasm). U yoshligidan janglarda o‘zini yaxshi ko‘rsatgan, jasoratli va yaxshi harbiy mahoratga ega edi.

U yetti-yillik urushda, 1768-1774-yillardagi rus-turk urushida va boshqa yurishlarda ishtirok etgan.

Kasal bo‘lgan Pugachyov iste‘foga chiqishni so‘radi, ammo uning murojaati rad etildi. U har doim adolatsizlikka qarshi kurashishga tayyor bo‘lgan va ko‘pincha dehqonlar va kambag‘al kazaklar uchun arizalar bilan murojaat qilgan.

Binobarin, Pugachyov o'z pozitsiyasini himoya qilishdan va ko'pchilikdan farqli fikrga ega bo'lishdan qo'rqmadi. Shu sababli, iste'foga chiqmasdan, ruxsatsiz xizmatni tark etdi.

Pugachyov boshchiligidagi qo'zg'olonchilarning maqsadlari va talablari:

Zamon bilan hamnafas bo'lgan Pugachyov qo'zg'olonning boshidanoq targ'ibot-tashviqot ishlarini yo'lga qo'ydi, mamlakatning turli hududlariga manifest va farmonlar yubordi. Odatda ular hukumat hujjatlariga o'xshash hujjatlar bo'lib, ular ko'pincha dehqonlar tomonidan uzoq kutilgan erkinlikni e'lon qiladi.

Biroq, qo'zg'olon boshida, manifestlarga ko'ra, maqsadlar oddiy va faqat kazaklarga tegishli bo'lgan - ularda doimiy ravishda qisqartirilgan imtiyozlarini qaytarishga intilishdi, savdo erkinligini talab qilishdi, chunki ko'plab kazaklar uchun, baliqchilik va savdo, harbiy yurishlar yagona daromad manbai edi.

Xalq qo'zg'olonining asosiy sabablari ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda yotadi:

XVIII asr davomida davlat erkinlikni sevuvchi kazaklarning huquq va erkinliklarini doimiy ravishda cheklab qo'ygan, bu ularning noroziligi va itoatsizligiga sabab bo'lgan.

Uralda yashovchi mahalliy xalqlar yerlarini tortib olgan va ularning e'tiqodlarini tan olmagan podsho hokimiyatining zulmini boshdan kechirdi. Ural metallurgiya zavodlarida ishlagan dehqonlar og'ir mehnatdan aziyat chekardilar. Bo'lajak qo'zg'olonning kuchi shunday to'plangan edi, uning yadrosi yoyiq kazaklari edi. Qochoq mahkum Yemelyan Pugachyov uni harakatga keltirdi va o'zini Yekaterina II tomonidan ag'darilgan taxtning qonuniy vorisi imperator Pyotr III deb atadi.

Qo'zg'olonning maqsadlari: kazaklar oliy adolatni tiklash bahonasida mavjud adolatsiz hukumat imperatori Yekaterina II ni yo'q qilishga intildi va mazlum xalq manfaatlarini ifodalovchi xudo tanlagan podshohni taxtga o'tkazishni xohlar edi.

Qo'zg'olon to'rt bosqichga bo'linadi:

1-bosqich (1773-yil sentyabr – 1774-yil mart) – Pugachyov armiyasining shakllanishi va o'sishi, qo'zg'olonchilar tomonidan yangi hududlarni egallab olish.

2-bosqich (1774-yil-aprel - 1774-yil iyul o'rtalari) - qo'zg'olonning muvaffaqiyatsizligi va Pugachyovning yana qochib ketishi.

3-bosqich (1774-yil iyul - 1775-yil sentyabr oyining boshi) - Pugachyov qo'shinlarining yakuniy mag'lubiyati.

4-bosqich (1775-yil sentyabr-yanvar) - qo'zg'olonning so'nggi markazlarining yo'q bo'lishi va qo'zg'olon rahbarining qatl etilishi. Pugachyovning sheriklari uni hukumatga topshirishadi, shundan so'ng u Moskvadagi Bolotnaya maydonida izdoshlari bilan birga shafqatsizlarcha qatl etiladi.

Mixail Speranskiy (1772-1839) "Men Rossiyada ikkita holatni ko'raman: davlatning qullari va yer egasining qullari. Birinchisi faqat ikkinchisiga nisbatan erkin deyiladi; Rossiyada tilanchilar va faylasuflardan tashqari haqiqatan ham erkin odamlar yo'q".

Aleksandr I hukmronligi davlat hayotining deyarli barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadigan ko'plab islohotlar bilan ajralib turadi. O'sha paytda Rossiyadagi o'zgarishlarning ilhomlantiruvchilaridan biri Mixail Speranskiy bo'lib, u mamlakatning siyosiy tuzilmasini tubdan isloh qilishni, uning hokimiyatini hokimiyat tarmoqlarini ajratish prinsipi asosida tashkil etishni taklif qildi. Ushbu g'oyalar bugungi kunda Speranskiyning islohotlari sifatida tanilgan. Islohotlarning o'zi 1802-yildan 1812-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirildi va o'sha paytda Rossiya uchun katta ahamiyatga ega edi.

Speranskiyning islohot loyihasi quyidagi o'zgartirishlarni taklif qildi:

- hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi tamoyilini joriy etish;

- uch darajadagi mahalliy o'zini o'zi boshqarishni joriy etish: volost, okrug (okrug) va viloyat;

- barcha yer egalarini, shu jumladan davlat dehqonlarini (jami 45%) saylovga qabul qiladi. Bu islohotlar amalga oshmadi, Speranskiy surgun qilindi.

Aleksandr I vafotidan keyin (1825-yil 19-noyabr) uning ukasi Nikolay I imperator bo'ladi. Anarxiya va beqarorlik lahzasida, 1825-yili, yangi imperator hali taxtga o'tirmagan paytda, mamlakatdagi vaziyatdan norozi bo'lgan dekabrist

zodagonlarining yashirin jamiyatlari foydalanishga qaror qildi. Ularning asosiy talabi mamlakatda konstitutsiyani joriy etish edi. 1825-yil 26 dekabrda qo‘zg‘olon boshlandi, u Nikolay I tomonidan shafqatsizlarcha bostirildi va tashkilotchilar qatl qilindi yoki surgunga jo‘natildi.

Dekabristlar nimani xohlashdi?

Rossiyada yaxshi tomonga o‘zgarishlarni, konstitutsiyaning joriy qilinishi va krepostnoylikni bekor qilish, adolatli sudlov, barcha tabaqadagi odamlarning qonun oldida tengligi - umuman olganda – islohotlarni talab qilishdi. Aniq masalalarda ularning qarashlari ko‘pincha keskin farq qilar edi.

1810-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab rus zodagonlari va dvoryanlarining ayrim vakillari samoderjaviye(avtokratiya) va krepostnoylikni mamlakatning keyingi rivojlanishi uchun halokatli deb hisobladilar. Ular orasida tarqalgan mavjud qarashlar tizimini amalga oshirilishi rus hayotining asoslarini o‘zgartirishi kerak edi. Bo‘lajak dekabristlar mafkurasini shakllantirishga quyidagi omillar ta’sir qildi:

- rus armiyasining Napoleonni mag‘lub etish bo‘yicha xorijiy harbiy kampaniyada qatnashgan ko‘plab ofitserlarning G‘arbiy Yevropa davlatlarining siyosiy va ijtimoiy hayoti bilan tanishganligi;

- ma’rifatparvarlik davri g‘arb yozuvchilari: Volter, Russo, Monteskye, F. R. Vayss asarlarining ta’siri;

- imperator Aleksandr I hukumatining siyosati bilan kelishmovchilik.

Dekabristlar yagona mafkuraga ega emas edi, asosan samoderjaviye (avtokratiya) va krepostnoylikka qarshi qaratilgan edi. Shu bilan birga, dekabr harakati Polsha maxfiy jamiyatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bilan 1824-yildan boshlab birgalikda qo‘zg‘olon ko‘tarish to‘g‘risida kelishuvi bor edi.

Slavyanofillarning asosiy xizmatlaridan biri shundaki, ular Rossiya, uning jamiyati va davlatining tarixiy yo‘lining o‘ziga xosligi g‘oyasini o‘z aks ettirdi. Slavyanofillik Kiev va Moskva Rusida paydo bo‘lgan siyosiy va huquqiy g‘oyalar va ta’limotlarning o‘ziga xos qayta tiklanishiga aylandi. Avvalo, bu Qadimgi Rossiyaning siyosiy va huquqiy institutlarining asoslarini qo‘ygan va keyingi davlat

paradigmalariga immanent ravishda ko'chirilgan pravoslav ta'limotining g'oyalariga murojaatdir.

Rossiyada mafkuraviy harakat sifatida slavyanofillik uzoq tarixga ega bo'lib, uni taxminan to'rt bosqichga bo'lish mumkin. Birinchi bosqich 19 asrning 30-yillarda harakatning shakllanishi.

Ikkinchisi slavyanofillar ta'limotining muhim yo'nalishi bo'lgan zamin ta'limotining paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Uchinchisi - neoslavyanofillikning paydo bo'lishi bilan.

To'rtinchisi - evrosiyochilik bilan.

Nemis klassik falsafasi va pravoslav ilohiyoti slavyanofillikning muhim manbalari bo'lib xizmat qildi. Slavyanofillar Rossiyaning "G'arb sivilizatsiyasi" yo'lidan farqli "maxsus yo'l"ga ega ekanligini bayon qildi. Ularning fikricha, Pyotr I Rossiya tarixiy taraqqiyotining asl yo'lini sun'iy ravishda o'zgartirdi va unga qaytish kerak edi; G'arb qadriyatlari rus zaminida ildiz otishi mumkin emas, eng yaxshi holatda ularni moslashtirish mumkin, ammo o'z tarixiy ideallari va an'analarga murojaat qilish yaxshiroqdir. Slavyanofillikning asoschisi yozuvchi A. S. Xomyakov hisoblanadi va taniqli slavyanofillar (yoki ularga yaqin) orasida faylasuf I. V. Kireevskiy, aka-uka Konstantin va Ivan Aksakovlar, "Jonli buyuk rus tilining izohli lug'ati" muallifi bo'lgan V. I. Dal va boshqalar; zaminchilar (mutadil slavyanofillar) orasida shoir A. A. Grigorev, yozuvchi F. M. Dostoevskiy va boshqalar bor.

1844-yil 4 mayda Aksakov zodagonlarining Moskva uyida tantanali ziyofat bo'lib o'tdi, unda g'arbchilik va slavyanofillik vakillari yarashdilar. Ikkala mafkuraviy oqim ham Rossiyaning rivojlanish yo'liga turlicha qaradi, lekin uning buyuk kelajagiga bir xil ishonch va krepostnoylikka mutlaqo salbiy munosabatda edi.

G'arbchilar, ayniqsa, madaniyat, ijtimoiy tuzum va fuqarolik hayoti masalalarida Rossiya G'arb mamlakatlari yo'lidan borishi kerakligini ta'kidladilar. Shu bilan birga, g'arbchilar ruslarning o'ziga xosligini qoloqlik deb atashgan. Pyotr I siymosida ular mamlakatni har tomonlama rivojlanishini to'g'ri yo'liga

soluvchi, o'zgarishlarga intiluvchi bosh islohotchini ko'rdilar. G'arbchilarning taniqli tarafdorlari orasida inqilobiy fikrlovchi A. I. Gertsen, N. P. Ogaryov, N. G. Chernishevskiy, adabiyotshunos V. G. Belinskiy, yozuvchilar I. S. Turgenev, N. A. Nekrasov, M. E. Saltikov-Shchedrin va boshqalar bor edi. 1840-yillarning o'rtalarida g'arbchilar ikki qanotga bo'lindi: liberal va inqilobiy-demokratik. Buning sababi ikkita asosiy masala: dinga munosabat va islohot usullari, shuningdek, Rossiyaning islohotdan keyingi rivojlanishi edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVIII-XIX asrlarda Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat va imperiya mafkurasi.
2. Rus ma'rifatparvarlik ideologiyasi.
3. S. Desnitskiy, Ya. Kozelskiy g'oyalari.
4. Dehqonlar harakati va mafkuraviy o'zgarishlar.
5. Dekabristlar ideologiyasi.
6. Slavyanofillar va g'arbchilar mafkurasi.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Rossiyaning birinchi oxirgi podshosi va birinchi imperatori kim?
 - a) Pyotr I
 - b) Pyotr II
 - c) Yakov Pavlovich Kozelskiy
 - d) Semyon Efimovich Desnitskiy
2. Boltiq dengizini nazorat qilish uchun Rossiya va Shimoliy Yevropaning boshqa davlatlari Shvetsiyaga qarshi harbiy qarama-qarshiligi qachon boshlangan?
 - a) 1700-yil
 - b) 1703-yil
 - c) 1721-yil

- d) 1755-yil
3. Qaysi yili Sankt-Peterburg qal'asi qurildi, shahar ham huddi shunday nomlanadi?
- a) 1700-yil
- b) 1703-yil
- c) 1721-yil
- d) 1755-yil
4. Qachon M. V. Lomonosov tomonidan Moskvada birinchi rus universitetining ochildi?
- a) 1700-yil
- b) 1703-yil
- c) 1721-yil
- d) 1755-yil
5. Pugachyov qo'zg'oloni qachon sodir bo'lgan?
- a) 1700-yil
- b) 1703-yil
- c) 1721-yil
- d) 1773-yil
6. 1762 yilda rus taxtiga o'tirgan va "faylasuf imperator" deb nom qozongan imperator kim edi?
- a) Pyotr II
- b) Yakov Pavlovich Kozelskiy
- c) Semyon Efimovich Desnitskiy
- d) Yekaterina II
7. Yakov Pavlovich Kozelskiyning "Falsafiy takliflar" asari kimga bag'ishlangan?
- a) Pyotr II
- b) Yekaterina II
- c) Gelvetsiy
- d) Semyon Efimovich Desnitskiy

8. Rus pedagogi, Moskva universitetining birinchi rus huquqshunos professori, Rossiya akademiyasining a'zosi. Yuqorida keltirilgan ta'riflar kimga tegishli?
- a) Gelvetsiy
 - b) Semyon Efimovich Desnitskiy
 - c) Yakov Pavlovich Kozelskiy
 - d) Desnitskiy
9. Rossiya tarixi bo'yicha birinchi umumlashtiruvchi asarlardan biri "Rossiya davlati tarixi"ni yozgan tarixchini ko'rsating.
- a) Nikolay Mixaylovich Karamzin
 - b) Yakov Pavlovich Kozelskiy
 - c) Desnitskiy
 - d) Gelvetsiy
10. Yemelyan Pugachyov boshchiligidagi qo'zg'olon nechta davrga bo'linadi?
- a) 4 ta davrga
 - b) 3 ta davrga
 - c) 2 ta davrga
 - d) 5 ta davrga

21-MAVZU: XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA G'ARBIY YEVRUPADA SIYOSIY MAFKURALAR

Reja:

1. G'arbiy Yevropada kapitalistik munosabatlar taraqqiy etishi, ijtimoiy hayotning demokratlashishi.
2. Mafkuraviy sohada liberalizmning mavqei. Fransuz liberalizmi. B. Konstan nazariyasi. A. Tokvil konsepsiyasi.
3. Ingliz liberalizmi. I. Bentam utilitarizmi. J. S. Mill g'oyalari.
4. Germaniyada liberal mafkuralar. V. fon Gumboldt konsepsiyasi. L. Shteyn doktrinasi.

Tayanch tushunchalar: G‘arbiy Yevropada kapitalistik munosabatlar taraqqiy etishi, ijtimoiy hayot demokratlashishi; Mafkuraviy sohada liberalizm mavqei; Fransuz liberalizmi; B.Konstan nazariyasi; A.Tokvil konsepsiyasi; Ingliz liberalizmi; I.Bentam utilitarizmi; J.S.Mill g‘oyalari; Germaniyada liberal mafkuralar; V.fon Gumbold konsepsiyasi; L.Shteyn doktrinas; Sotsializm ideologlari; O.Kont sotsiokratiyasi.

Liberalizm (fransuzcha – xur fikrli, erkin shaxs, murosasoz ma’nosini ham anglatadi) – odamlarning o‘zini, xatti-harakatlarini, mulkini boshqarishda erkin degan nuqtai nazarga asoslangan falsafiy, iqtisodiy va siyosiy dunyoqarash, nazariya⁷³.

Liberalizm (lot. liberalis — erkin) — inson huquqlari va shaxsiy erkinliklarining daxlsizligini e’lon qiluvchi falsafiy va ijtimoiy-siyosiy oqim.

So‘z erkinligi (omma oldida so‘zlash erkinligi), vijdon erkinligi (dinni davlatdan, dunyoviy jamiyatdan ajratish), adolatli va erkin saylovlarda ishtirok etish erkinligi zamonaviy liberalizmning eng muhim erkinliklari sifatida e’tirof etilgan.

Liberalizm har bir insonning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb e’lon qiladi va ularni ijtimoiy va iqtisodiy tartibning asosi sifatida belgilaydi. Liberalizm - bu inson ruhiyatini din, urf-odat, davlat va boshqalar tomonidan qo‘yilgan cheklovlardan ozod qilishga, shaxs va jamiyat erkinligiga qaratilgan ijtimoiy islohotlarga intilishdir. Shu bilan birga, davlat va cherkovning jamiyat hayotiga ta’sir qilish imkoniyatlari konstitutsiya bilan cheklanadi.

Fransuz liberalizmi. XIX asrning birinchi yarmida B. Konstan va A. Tokvil o‘zlarining liberal qarashlari bilan ajralib turadi.

Benjamin Konstan (1767-1830) qarashlarining asosiy qismini individual erkinlik muammosi egallaydi. Yangi davr yevropalik uchun bu erkinlik davridir.

⁷³ “Ёш рахбар” Энциклопедик луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2018 й.



59-rasm
Aleksis de Tokvil

Zamonaviy yevropalik uchun erkinlik - shaxsiy mustaqillik, xavfsizlik, davlat boshqaruviga ta'sir qilish huquqidir. Uning "Haqiqiy zamonaviy erkinlik bu shaxsiy erkinlikdir, siyosiy erkinlik uning kafolati bo'lib xizmat qiladi" degan fikrida uning g'oyasi ifodalanadi.

B. Konstan (58-rasm) quyidagilarni siyosiy erkinlikdan shaxsiy erkinlikka o'tish sabablari deb biladi:

- davlatlar aholisi va hududining o'zgarishi;
- qullikni bekor qilish va mehnat axloqini o'zgartirish;
- xalqlar psixologiyasi va turmush tarzidagi o'zgarishlar.

Odamlar erkin bo'libsagina hayotda mustaqil va o'zini yuzaga chiqarishi mumkin. Ular o'zlarining shaxsiy sa'y-harakatlari bilan o'zlari uchun munosib hayotni ta'minlashga qodir.



58-rasm
*Benjamin
Konstan*

Aleksis de Tokvil (1805-1859) - Fransiyadagi liberalizmning namoyondasi, "Amerikadagi demokratiya haqida"⁷⁴, "Eski rejim va inqilob" asarlari muallifi(59-rasm). Uning nazdida zamonaviy tarix aristokratik boshqaruvni demokratiya bilan almashtirish jarayonidir. Demokratiyaning asosiy tamoyili tenglikdir. U demokratiyani feodal tuzumiga qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiy tuzum sifatida ko'radi.

Tokvilning fikricha, erkinlik va tenglik turli tartibli hodisalardir. Odamlar har doim erkinlikdan ko'ra tenglikni afzal ko'radilar, chunki u oson tushuniladi, ko'pchilik tomonidan mehr bilan qabul qilinadi, zavq bilan boshdan kechiriladi va hech qanday kuch talab qilmaydi. Erkinlik insondan keskinlikni, mustaqil bo'lishni, har safar o'z tanlovini qilish, o'z harakatlari va oqibatlari uchun javobgar bo'lish zarurati bilan bog'liq katta sa'y-harakatlarni talab qiladi.

Zamonaviy demokratiya faqat tenglik va erkinlikning chambarchas ittifoqida yuzaga kelishi mumkin, shuning uchun ularning muvozanatini yuzaga keltirish va saqlashni ta'minlaydigan siyosiy va huquqiy institutlarni rivojlantirish kerak.

⁷⁴ Токвиль А. Демократия в Америке. URL:
https://www.civisbook.ru/files/File/Tokville_Democracy_1.pdf (murojaat sanasi 11.01.2023)

Erkinlik uchun zarur bo'lgan asosiy institutlar: hokimiyatlar bo'linishi, mahalliy (jamoat) o'zini o'zi boshqarish, matbuot erkinligi, diniy erkinlik, sudlovning hay'at tomonidan olib borilishi, sudyalarning mustaqilligi va boshqalar.

Demokratiyaning asosiy muammosi davlat hokimiyatining haddan tashqari markazlashuvidir. Ko'pchilikning zulmidan institutsional kafolatlar (vakillik hokimiyati, ishlab chiqilgan qonunchilik, sudlov hay'ati va boshqalar), jamiyatning hududiy birliklari (mahalliy hokimiyat organlari) mustaqilligi va ishtirok demokratiyasi (birlashmalar va matbuot orqali aholini siyosiy jarayonlarga keng jalb qilish) o'rnatish saqlab qoladi. Boshqaruvshakli unchalik muhim emas, vakillikning mavjudligi muhim.

Tokvil fuqarolarning huquqiy madaniyatini tarbiyalashga alohida e'tibor beradi.

Volterning ta'kidlashicha, erkinlik masalasi juda oddiy, ammo shunga qaramay, odamlar bu haqda doimo bahslashadilar, natijada hamma sarosimaga tushadi. Fransuz faylasufining o'zi erkinlikka shunday ta'rif beradi: "Erkinlik - bu harakat qilish uchun istisnosiz imkoniyatdir".


Volterning vatandoshi P. A. Golbax "Erkinlik – bu jamiyatning boshqa a'zolari baxtiga zarar keltirmaydigan hamma narsani o'z baxti uchun qilish qobiliyatidir".

Ingliz liberalizmining ildizlari J. Lokk (1632-1704) ijodida aks etgan.

Uning "Boshqaruv to'g'rida ikki risola" asarida liberalizmning quyidagi asosiy g'oyalari aks etgan:

- Shaxs manfaatlarining jamiyat va davlat manfaatlaridan ustivorligi;
- Ijtimoiy shartnoma, davlat tabiiy huquqlarning kafolati, davlat shaxsdan qudratli bo'lishi mumkin emas, jamiyat va davlat bir narsa emas, jamiyat mavjud hokimiyat o'zini oqlamagan taqdirda yangi oqil hokimiyatni tashkil etishi mumkin;
- Tabiiy holat g'oyasi;
- O'z shaxsi va mulkini tasarruf etishda to'la erkinlik;
- Mulk huquqi;
- Tenglik;

- Tabiiy huquqlarning daxlsizligi;
- Insonlarning erkinligi va mulki tajavvuzga uchrashi mumkin, zero tenglik sharoitida hamma adolatga bo‘ysunavermaydi;
- Hokimiyat bo‘linishi prinsipining zarurligi;



61-rasm

Jon Stuart Mill

- Qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat.

Jeremi Bentam (1748-1832) “Qonunchilik tamoyillari”, “Hukumat fragmenti”, “Deontologiya yoki axloq haqidagi fan”, “Barcha davlatlar uchun konstitutsiyaviy qonunlar to‘plami uchun ko‘rsatmalar” asarlari muallifi(60-rasm). Utilitarizm – (foйда, naf, yaxshi) - xulq-atvorning yaxshi yomonligi (axloqiy nazariyaning) uning foydaliligi bilan belgilanishiga asoslanadi. Bentam liberalizm da individlarga davlatning dahl qilmasligini tabiiy huquq nuqtai nazaridan emas, utilitarizm orqali asoslab beradi. U inson o‘zi to‘g‘risida o‘zi qayg‘urishi kerak, deb hisoblaydi.

Ijtimoiy shartnoma nazariyasini inkor qilib, davlatlar kuch ishlatish yo‘li bilan tashkil topgan va odat orqali qaror topadi, deb yozadi. Davlatning respublika shaklini, bir palatali parlamentni, hokimiyat bo‘linishini yoqlaydi. Davlatning asosiy vazifasi xavfsizlik va fuqarolar mulkini kafolatlashdan, ya’ni asosan “tungi qorovul” vazifasini o‘taydi.



60-rasm

Jeremi Bentam

Jon Stuart Mill (1806-1873) so‘z erkinligi va senzuraning g‘ayratli dushmani bo‘lgan(61-rasm). U demokratiya nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy nazariyotchisi edi. U davlatning eng kam himoyalangan qatlamlar, umuman jamiyat manfaatlarini himoya qilish yo‘nalishidagi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari isloh qilinadi, shu jumladan mehnatkashlar va kasaba uyushmalari keng siyosiy va ijtimoiy huquqlarga, shu jumladan ish tashlash huquqi ega bo‘ladilar, deb hisoblagan. Qullikning bekor qilinishi tarafdori bo‘lgan.

U siyosiy erkinlikning uchta jihatini aniqlaydi:

- Fikr erkinligi,

- Hayotiy maqsadlarini tanlash erkinligi (bu uz qarashlariga muvofiq yashash imkoniyatini o‘z ichiga oladi),
- Uyushish erkinligi (har qanday tashkilot doirasidagi boshqa odamlar bilan birlashish).

Fikr yuritish erkinligi zarurligini asoslab, u shunday deydi, taqiqlangan fikr to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, agar taqiqlangan fikr yolg‘on bo‘lsa ham, uni bilish haqiqatni yaxshiroq anglashga xizmat qiladi, taqiqlangan fikr qisman to‘g‘ri va qisman yolg‘on bo‘lishi mumkin.

Nemis liberalizmi vakili Vilgelm fon Gumboldt (1767—1835) “Davlat faoliyati chegaralarini belgilash tajribasi”⁷⁵ nomli asarida “fuqarolik jamiyati” va davlatni farqlashni nazarda tutadi(62-rasm). Fuqarolik jamiyati va davlat uchta asosga ko‘ra (mos ravishda) farqlanadi:

- milliy muassalar tizimi (tashkilotlar, uyushmalar va shaxslarning o‘zlari tomonidan tuzilgan boshqa birlashmalar) va davlat institutlari hamda xizmatlari;
- tabiiy huquq va davlat tomonidan yaratilgan pozitiv huquq;
- “shaxs” va “fuqaro”.

Jamiyat prinsipial jihatdan davlatdan ko‘ra muhimroq, shaxs fuqarodan ko‘ra



62-rasm
Vilgelm fon
Gumboldt

ko‘proqni tashkil qiladi, “tabiiy huquq” pozitiv huquqning yagona asosi bo‘lishi kerak. Davlatning maqsadi jamiyatga xizmat qilish, fuqarolarning ichki va tashqi xavfsizligini ta‘minlashdan iborat. Gumboldt “minimal davlat” tushunchasini yoqlaydi. “Davlat faoliyatining haqiqiy ko‘lami jamiyat farovonligi uchun xizmat qilish bilan cheklanadi”. Davlat inson taraqqiyoti vositasidir. Inson jamiyatda ichki qadr-qimmat va erkinlikka ega shaxs sifatida shakllanadi.

Davlat aralashuvi aslida jamiyat mavjudligiga xos xilma-xillik darajasini pasaytirishga qaratilgan. Davlat paternalistik funksiyalarni o‘z zimmasiga olmasligi

⁷⁵ Humboldt W. The Sphere and Duties of Government (1792, 1854). URL: <https://oll.libertyfund.org/title/coulthard-the-sphere-and-duties-of-government-1792-1854> (murojaat sanasi 11.01.2023)



63-rasm
Lorents fon Shteyn

kerak, chunki bu shaxslarning irodasi va kuchini zaiflashtiradi, ularni hayotda yuzaga keladigan muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga, o'z kuchlari bilan qiyinchiliklarni engishni kuchsizlantiradi.

Davlat hokimiyatining harakat doirasi qanchalik keng bo'lsa, shaxslarning erkinligi shunchalik kam bo'ladi. Gumboldt "ishonchim komilki, davlat qonunlari, ularning o'ziga xos mazmunidan qat'i nazar, axloqsiz va ijtimoiy yovuzdir, chunki ular odamlarning xulq-atvorini boshqaradi va majburlov sanksiyasi bilan ta'minlanadi".

"Fuqarolari hech bo'lmaganda eng yaxshi qonunlarga rioya qilishga majburlangan yoki rag'batlantirilgan davlat tinch, osoyishta va boy davlat bo'lishi mumkin; lekin bu menga qonun doirasida faoliyat yurituvchi erkin odamlar birlashmasi emas, balki to'yib-to'yib ovqatlangan qullar olomoni sifatida ko'rinardi". Davlat tuzilishi har doim erkinlikni cheklash bilan bog'liq bo'lganligi sababli, u "zarur bo'lsa ham" yovuzlikdir. Davlat ayrim ijtimoiy va himoya funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur.

Lorents fon Shteyn (1815-1890) "Boshqaruv to'g'risidagi ta'limot"⁷⁶, "Germaniyada davlat va huquq fanining buguni va kelajagi", "Zamonaviy Fransiyada sotsializm va kommunizm" asarlarining muallifi(63-rasm). U "sinfiylikdan yuqori" konstitutsiyaviy monarxiya shakliga ega sotsial huquqiy davlat konsepsiyasini ilgari surgan. Shaxsni harakatga keltiradigan asosiy motiv - daxlsiz bo'lgan moddiy ne'matlarni qazib olish, qayta ishlash, ishlab chiqarish va ko'paytirishga qaratilgan o'zini o'zi namoyon qilish istagidir. Inson yolg'iz o'zini o'zi namoyon qila olmaydi va shuning uchun jamiyat vujudga keladi.

Fuqarolik jamiyati - mulkchilik shakliga bog'liq bo'lgan, mehnat taqsimotiga asoslangan, kundalik ehtiyojlar sohasidir. Ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida muqarrar ravishda ikki qarama-qarshi tabaqa - mulkdorlar va mulksizlar paydo

⁷⁶ Лоренц III. Учение об управлении и право управления с сравнением литературы и законодательств Франции, Англии и Германии. URL: <https://www.prilib.ru/item/388966> (murojaat sanasi 11.01.2023)

bo‘ladi. Jamiyatda odamlarning bir-biriga har tomonlama qaramligi mavjud, ammo undagi har bir kishi faqat o‘z irodasi bilan boshqariladi. Shuning uchun jamiyatda erkinlik uchun asos yo‘q. Jamiyat asoslanadigan tamoyil erksizlikdir. Jamiyatni tashkil etuvchi odamlarning xilma-xil individual irodasi va harakatlarining uzviy birligini o‘rnatadigan, urushayotgan sinflarni murosaga keltiradigan davlat. Davlatning prinsipi erkinlikdir.

Jamiyat va davlat bir-biriga qarama-qarshi turadi va doimiy ravishda bir-biriga ta’sir qiladi: jamiyat davlatni o‘z qiyofasida va o‘xshashida qurishga intiladi, davlat esa o‘ziga xos va mos ijtimoiy tizimni yaratishga intiladi. Davlatni “shaxsiy manfaatlar”ni himoya qilish vositasidan umumiy muhim ehtiyojlar vakiliga aylantirish uchun davlat qonuniy bo‘lishi kerak. Shteyn huquqiy davlatning optimal shaklini konstitutsiyaviy monarxiya deb hisobladi, bunda qonun chiqaruvchi hokimiyat parlamentga tegishli, ijro hokimiyati parlament tomonidan tayinlanadigan va uning oldida javobgar bo‘lgan vazirlar tomonidan amalga oshiriladi. Davlat boshlig‘i monarx bo‘lib, u “sinfiylikdan yuqori” manfaatlarni ifoda etgan holda jamiyatda alohida manfaatlarning ustun bo‘lishiga to‘sqinlik qila oladi. Davlatning asosiy vazifasi mehnatkashlarning moddiy-madaniy ahvolini yaxshilash maqsadida ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. G‘arbiy Yevropada kapitalistik munosabatlar taraqqiy etishi, ijtimoiy hayotning demokratlashishi.
2. Mafkuraviy sohada liberalizmning mavqei.
3. Fransuz liberalizmi.
4. B. Konstan nazariyasi.
5. A. Tokvil konsepsiyasi.
6. Ingliz liberalizmi.
7. I. Bentam utilitarizmi.
8. J. S. Mill g‘oyalari.
9. Germaniyada liberal mafkuralar.
10. V. fon Gumboldt konsepsiyasi.

11. L. Shteyn doktrinası.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Liberalizm soʻzining maʼnosi fransuz tilida qanday maʼnoni anglatadi?
 - a) Xur fikrli, erkin shaxs, murosasiz
 - b) Yangilanish, oʻzgarish
 - c) Moslashish, adaptatsiya
 - d) toʻgʻri javob yoʻq
2. “Shaxs manfaatlarining jamiyat va davlat manfaatlaridan ustivorligi” gʻoyasi J. Lokkning qaysi asarida koʻrish mumkin?
 - a) Boshqaruv toʻgʻrida ikki risola
 - b) Hukumat fragmenti
 - c) Qonunchilik tamoyillari
 - d) Davlat boshqaruvi
3. “Qonunchilik tamoyillari”, “Hukumat fragmenti”, “Deontologiya yoki axloq haqidagi fan”, “Barcha davlatlar uchun konstitutsiyaviy qonunlar toʻplami uchun koʻrsatmalar” asarlari muallifi kim?
 - a) P. A. Golbax
 - b) J. Lokk
 - c) Jeremi Bentam
 - d) Jon Stuart Mill
4. ... siyosiy erkinlikning uchta jihatini aniqlaydi: Fikr erkinligi, hayotiy maqsadlarini tanlash erkinligi, uyushish erkinligi.
 - a) P. A. Golbax
 - b) J. Lokk
 - c) Jeremi Bentam
 - d) Jon Stuart Mill
5. “Amerikadagi demokratiya haqida”, “Eski rejim va inqilob” asarlari muallifi kim?

- a) Aleksis de Tokvil
 - b) P. A. Golbax
 - c) J. Lokk
 - d) Jeremi Bentam
6. “Odamlar har doim erkinlikdan ko‘ra tenglikni afzal ko‘radilar, chunki u oson tushuniladi, ko‘pchilik tomonidan mehr bilan qabul qilinadi, zavq bilan boshdan kechiriladi va hech qanday kuch talab qilmaydi”. Yuqoridagi fikrlar kimning qalamiga mansub?
- a) Aleksis de Tokvil
 - b) P. A. Golbax
 - c) J. Lokk
 - d) Jeremi Bentam
7. Aleksis de Tokvil fikriga ko‘ra demokratiyaning asosiy muammosi
- a) Yaqqol hokimiyatning mavjud emasligi
 - b) Davlat hokimiyatining haddan tashqari markazlashuvi
 - c) Aholi o‘z huquqlarini bilmasligi
 - d) Odil siyosatchilar etishmasligi
8. “Boshqaruv to‘g‘risidagi ta’limot”, “Germaniyada davlat va huquq fanining buguni va kelajagi” asarlari muallifi kim?
- a) P. A. Golbax
 - b) J. Lokk
 - c) Jeremi Bentam
 - d) Lorents fon Shteyn
9. “Jamiyatda erkinlik uchun asos yo‘q. Jamiyat asoslanadigan tamoyil erksizlikdir” deb fikr yuritgan mutafakkir ismini aniqlang. P. A. Golbax
- a) J. Lokk
 - b) Jeremi Bentam
 - c) Lorents fon Shteyn
 - d) P. A. Golbax

10. “Taqiqlangan fikr to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, agar taqiqlangan fikr yolg‘on bo‘lsa ham, uni bilish haqiqatni yaxshiroq anglashga xizmat qiladi, taqiqlangan fikr qisman to‘g‘ri va qisman yolg‘on bo‘lishi mumkin”. Ushbu misralar kimning qalamiga mansub?

- a) P. A. Golbax
- b) J. Lokk
- c) Jeremi Bentam
- d) Jon Stuart Mill

22-MAVZU: XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA G‘ARBIY YEVRUPADA SIYOSIY MAFKURALAR RIVOJI

Reja:

1. XIX asrning ikkinchi yarmida bozor munosabatlari rivoji va mafkuraviy jarayonlar.
2. Burjua tartiblar va sotsialistik o‘zgarishlar tarafdorlari o‘rtasidagi g‘oyaviy qarama-qarshilik, mafkuraviy kurashlar.
3. F. Mering konsepsiyasi. Esmen liberalizmi.
4. Neokantchilarning siyosiy qarashlari. G. Spenser siyosiy g‘oyalari. F. Nitshe ta’limotining mafkuraviy funksiyasi.

Tayanch tushunchalar: XIX asrning ikkinchi yarmida bozor munosabatlari rivoji, aholi qatlamlarining siyosiy jarayonlarga tortilishi; Burjua tartiblar va sotsialistik o‘zgarishlar tarafdorlari o‘rtasidagi g‘oyaviy qarama-qarshilik, mafkuraviy kurash; R. Mering konsepsiyasi; Esmen liberalizmi; Neokantchilarning siyosiy qarashlari; G. Spenser siyosiy g‘oyalari; F. Nitshe ta’limotining mafkuraviy funksiyasi.

Fransiyada Napoleon qulagandan so‘ng, uning ustidan g‘olib bo‘lganlar Venadagi Muqaddas Kongressga yig‘ilishdi (1815). Monarxiyalar hamma narsani qaytarib olishga harakat qilishdi. Ammo kuch bilan qaytarilgan eski tuzum uzoq davom etmadi.

1830-yilda iyul inqilobi qiroli Karl X ni taxtdan ag‘dardi. Uning o‘rniga Lui Filipp keldi. 1848-yilda yangi inqilob boshlandi. U darhol boshqa Yevropa mamlakatlarida aks-sado berdi: Avstriya-Vengriya, Germaniya, Italiya. Fransuz qiroli taxtdan voz kechdi, ammo bu ba’zi inqilobchilarni qoniqtirmadi, ishchilarning qo‘zg‘olonlari boshlandi. Buyuk sarkardaning jiyani Napoleon Bonapart prezident etib saylandi.

U 1851-yilda davlat to‘ntarishi uyushtirdi va o‘zini imperator deb e‘lon qildi. “Kichik Bonapart” deb atalgan bo‘lsa-da, u buyuk amakisiga taqlid qilishga harakat qildi, lekin uning iste’dodidan butunlay mahrum edi. Fransiya ko‘p urushlar olib bordi, ularning aksariyati unga umuman kerak emas edi. Shu bilan birga, Napoleonning ichki siyosati iqtisodiy o‘rishga yordam berdi. Yevropada yetakchi mavqeini saqlab qolish uchun Fransiya Germaniyaning birlashishiga to‘sqinlik qilishga urindi. Shu tariqa Franko-Prussiya urushi (1870-1871) boshlandi. Bu Fransiyaning to‘liq mag‘lubiyati va Ikkinchi imperiyaning qulashi bilan yakunlandi. Fransiya respublika tashkil etildi. 1871-yilda Parij kommunasi deb nomlanuvchi qo‘zg‘olon bo‘lib o‘tdi.

Germaniya uchun XIX asr masalasi uni birlashtirish masalasi edi. Birlashish Prussiya atrofida sodir bo‘ldi. Uning qiroli Vilgelm I 1871-yilda Germaniya imperatori bo‘ldi. Germaniyada sanoat, ayniqsa og‘ir sanoat jadal rivojlana boshladi. Kech birlashganligi sababli, Germaniya mustamlakalarni egallashga “kechikdi”. Fransiya bilan Yevropa ishlarida ustunlik uchun kurashdi.

Birlashish Italiya uchun ham muhim edi. XIX asr boshlariga kelib Italiya yerlarining bir qismi Avstriya hukmronligi ostida edi. Milliy ruhning tiklanishi Risorgimento harakatiga xos edi (italyancha tiklanishdan tarjima qilingan). Afsonaviy Juzeppe Garibaldining otryadlarida chet elliklar ham jang qilishgan, ruslar ham bor edi.

1861-yilda Italiya Savoylar sulolasi atrofida birlasha oldi.

XIX asrda Britaniya imperiyasi dunyodagi eng katta imperiya edi. Sanoat inqilobini boshqa Yevropa mamlakatlariga qaraganda ancha oldin boshlab, u oldinga chiqdi, ammo uning og‘ir sanoati Germaniyadan orqada qola boshladi.

Angliya o'zining asosiy raqibini Fransiya yoki Germaniya emas, balki Rossiya deb hisobladi. Rossiyaning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik uchun 1856-yilda Angliya Rossiya imperiyasiga qarshi Qrim urushini boshladi.

Sharqiy Yevropa va Bolqon mamlakatlarining aksariyati davlat mustaqilligi uchun kurashdilar. Gretsiya 1830-yilda mustaqillikka erishdi. 1878-yilda Rossiyaning yordami bilan Bolqon xalqlari turk iskanjasidan xalos bo'ldi.

Barcha Yevropa mamlakatlarida sanoatning jadal rivojlanishi ishchilarning o'z huquqlari uchun kurashining kuchayishi bilan birga kechdi. O'sib borayotgan ziyolilar qatlami so'z erkinligi va boshqa erkinliklar uchun kurashdi. Butun Yevropada ko'plab inqilobiy jamiyatlar faol edi. Ammo hukumatlar erkinliklar doirasini kengaytirar ekan, inqilobchilar paydo bo'laverdi. Ular o'z partiyalarini tuzib, parlamentga a'zo bo'lishdi.

Parij kommunasi (1871-yil 18-mart — 28 may) — Fransiya-Prussiya urushi (1870—71)da bonapartchilar rejimining mag'lubiyatga uchrashi, 3-respublika hukumatining siyosati Parij xalqining qo'zg'olon ko'tarishiga va A. Tyer rahbarligidagi Versalga qochib ketgan hukumatni ag'darib tashlanishiga olib kelgan (18-mart). 18—28-martda Milliy gvardiya Markaziy qo'mitasi inqilobiy muvaqqat hukumat vazifasini bajargan. 28 martda Parij Kommunasi e'lon qilingan. Hukumat 2 fraksiyadan: "ko'pchilik" (asosan, blankistlar) va "ozchilik" (asosan, prudonistlar)dan iborat edi. Blankizm - fransuz utopik kommunisti L. Blanka nomi bilan bog'liq siyosiy harakat, inqilobiy harakatdagi fitna taktikasi tarafdori. Har qanday partiya, har qanday harakat faoliyatida sektantlik taktikasi. Prudonizm - P.J.Prudon ning falsafiy va sotsiologik qarashlariga asoslangan XIX asrning ikkinchi yarmidagi sotsializmni mayda tovar ishlab chiqaruvchilar jamiyati deb talqin qilgan oqim. Parij Kommunasi ham qonun chiqaruvchi, ham ijroiya organi bo'lgan. 21-mayda versalchilar Parijga kirganlar; 28-maygacha kommunarlar barrikadalarda jang qilishgan. Kommuna versalchilar tomonidan bostirilgan.

1871-yil 18-martda parijliklar va Milliy gvardiya bo'linmalari poytaxtning barcha davlat idoralarini egallab, kommunani sayladilar. (Rasmiy ravishda, uning

yaratilishi o'n kundan keyin e'lon qilindi). Parij kommunasi rahbariyatiga sotsialistlardan tortib anarxistlargacha bo'lgan turli siyosiy oqimlar vakillari kirgan.

Parij kommunasining islohotlari:

- davlat apparatini qayta tashkil etish;
- armiyaning tugatilishi va uning o'rniga Milliy gvardiya timsolida xalqning umumiy qurollanishi;
- politsiya prefekturasini tugatish;
- mansabdor shaxslarning yuqori maoshlarini bekor qilish;
- barcha davlat xizmatchilarining saylanishi, javobgarligi va almashinuvi tamoyillarini e'lon qilish;
- sud-huquq islohoti va boshqalar.

Kommuna aholining moliyaviy ahvolini yaxshilash bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi: ijara qarzlarini bekor qilish, lombardda 20 frankgacha bo'lgan miqdorda garovga qo'yilgan narsalarni omonatchilarga bepul qaytarish, tijorat to'lovlarini to'lash uchun uch-yilga bo'lib to'lash rejasi (1871-yil 15-iyuldan). Mehnatkashlar manfaatlarini ko'zlab, Kommuna Prussiyaga besh milliard frank harbiy tovonini urush aybdorlari - qonun chiqaruvchi korpusning sobiq deputatlari, senatorlar va imperiya vazirlariga to'latishga qaror qildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat sohasida amalga oshirilgan muhim islohotlar: nonvoyxonalarda tungi ishlarning bekor qilinishi, ishchi va xizmatchilarning ish haqidan o'zboshimchalik bilan jarimalar va noqonuniy ushlab qolinishlarning taqiqlanishi, ish haqining majburiy eng kam miqdorini joriy etish, korxonalarda ishchilar nazoratini tashkil etish bo'ldi. Parijdan qochib ketgan mulkdorlar tomonidan tashlab ketilgan korxonalarni ishchilar kooperativ uyushmalari qo'liga topshirish to'g'risida farmon chiqarildi, ammo Kommuna bu ishni yakunlashga ulgurmadi.

Birinchi internatsional (Xalqaro ishchilar uyushmasi), birinchi ommaviy xalqaro proletariat siyosiy tashkiloti. 1864-yil 28-sentyabrda 13 Yevropa mamlakati va AQShning ishchilar uyushmalari vakillari tomonidan tashkil etilgan.

Uning boshqaruv organi — kongresslarda saylanadigan Bosh kengash (Londonda, 1872-yildan Nyu-Yorkda joylashgan). Tashkil etishda manifest va nizomi K. Marks tomonidan ishlab chiqilgan va 1864-yil 11-yanvardagi Bosh kengash tomonidan tasdiqlangan. Ushbu hujjatlarda ishchilar harakatining maqsadlari umumiy shaklda - barcha ko‘rinishlardagi sinfiy hukmronlikni yo‘q qilish, proletariat hokimiyatini o‘rnatish. Harakatning asosiy tamoyili - «ishchi sinfining ozodligi ishchilar sinfining o‘zi tomonidan g‘alaba qozonishi kerak». 1876-yilgacha faoliyat ko‘rsatdi.

Ikkinchi internatsional ishchilar partiyalari uyushmasi - 1889-yil iyul oyida Parijda Fransiya inqilobining 100-yilligi munosabati bilan chaqirilgan kongressda tashkil etilgan. Uni yaratish uchun zarur shart-sharoitlar Yevropaning ko‘p mamlakatlarida ommaviy sotsial-demokratik partiyalar shakllanishi, shuningdek, birinchi internatsionalning milliy proletar tashkilotlardan yuqori uyushmasi sifatidagi tajribasi. F. Engels 1895-yil vafotigacha uning faoliyatida katta rol o‘ynadi. Ishchilar harakati va ishchilar sinfi birligi uchun kurash dasturi va taktikasini ishlab chiqdi. Kongressda o‘sha paytda mavjud bo‘lgan Yevropa va AQShdagi ishchilar va sotsialistik partiyalari va kasaba uyushmalari deyarli



64-rasm
Mering Frans

barchasidan vakil bo‘lgan 393 delegat ishtirok etdi.

1918-yilda bir qator mamlakatlarda internatsionalistik guruhlar asosida kommunistik partiyalar vujudga keldi. Bu 1919-yil mart oyida Kommunistik Internatsionalni yaratishga yo‘l ochdi.

II jahon urushidan keyin 1951-yil Ishchilar Internatsionali asosida Sotsialistik Internatsionalni tuzdi va u o‘zini 2-Internatsional vorisi deb e‘lon qildi.

Mering Frans (27. 2. 1846, Shlave, Pomeraniya, hozirgi Polsha — 28. 1. 1919, Berlin), nemis siyosiy arbobi, jurnalist, tarixchi, adabiyotshunos(64-rasm). Soliq xodimi, sobiq Prussiya zobiti oilasida tug‘ilgan. Leyptsig (1866-68) va Berlin (1868-1870) universitetlarida ta‘lim olgan. 1867-yilda u A. Bebel, V. Libknext va Bavariya xalq partiyasi rahbarlari bilan yaqinlashdi. 1868-yilda u gazetada jurnalistik faoliyatini boshlagan. Mehringning tarixiy asarlari F.Engels tomonidan yuqori

baholangan “Lessing afsonasi” (“Die Lessing-Legende”, 1893), “Germaniya tarixi oʻrta asrlar oxiridan boshlab”⁷⁷ (T1 1-2, 1910, rus tiliga tarjimasi, qism) 1-2, 1920) va boshqalar Germaniya tarixining marksistik kontseptsiyasining oʻziga xos rivojlanishini oʻz ichiga oladi. Mehring ishchilar harakati tarixiga oid asarlarida va birinchi navbatda “Germaniya sotsial-demokratiyasi tarixi”⁷⁸ (T1 1-2, 1897-98, ruscha tarjimasi, 1-4-jildlar, 1923-24) asarida Umumevropa va umumgerman tarixining keng fonida Germaniyadagi ishchilar harakatining muvaffaqiyatlari va ularning proletariatning xalqaro kurashi bosqichlari bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatdi.

Oʻz dunyoqarashida dastlab sotsialistik tusga ega burjua radikalizmidan nariga oʻtmadi. 1890-yilga kelib idealizmdan dialektik va tarixiy materializmga, burjua demokratizmdan proletar sotsializmga oʻtdi. 1891-yilda sotsial-demokratik partiyaga aʼzo boʻldi. Oʻsha paytdan boshlab olim va publitsist sifatidagi isteʼdodini marksistik dunyoqarashni targʻib qilishga bagʻishladi, revizionistlar va islohotchilarga faol qarshilik koʻrsatdi.

Mering Rossiyada 1905-1907-yillardagi inqilobni olqishladi; kapitalistik mamlakatlarning hukmron doiralarini, jumladan, Germaniyani imperialistik urushning qoʻzgʻatuvchilari sifatida qoraladi. 1916-yilda u militarizmga qarshi chiqishlari uchun hibsga olingan. Sotsial-shoviniistlar va markazchilarni qoralar ekan, boshqa soʻlchilar singari ulardan nafaqat mafkuraviy, balki tashkiliy jihatdan ham uzoqlashish zarurligini kech angladi. U Gʻarbda birinchilardan boʻlib-oktyabr toʻntarishi gʻoyalarini himoya qildi va targʻib qildi va “. . . nemis ishchilariga sotsializmni faqat bolsheviklar toʻgʻri tushunishlarini . . .” isbotlashga harakat qildi. Germaniya Kommunistik partiyasining asoschilaridan biri edi.

Davlat va huquq tarixi boʻyicha eng nufuzli nazariyotchilaridan biri fransuz huquqshunosi Ademar Esmen (1848-1913) oʻzining “Konstitutsiyaviy huquqning

⁷⁷ Мering Ф. История германии с конца средних веков. Перевод и предисловие И. Степанова. –М.: 1924.URL: https://imwerden.de/pdf/mering_istoriya_germanii_s_kontsa_srednikh_vekov_1924_text.pdf (murojaat sanasi: 12.01.23)

⁷⁸ Мering Ф. История германской социал-демократии. Книга третья. Агитация Лассалья. 1896. URL: https://rusneb.ru/catalog/000200_000018_v19_rc_1806760/ (murojaat sanasi: 12.01.23)

umumiy asoslari” (1895) asarida davlatni konstitutsiyada mavjud bo‘lgan qoidalar majmui, qonun ustuvorligi bilan birlashtirilgan huquqiy tuzilma sifatida ko‘rsatdi(65-rasm). Davlat, Esmenning fikricha, “millatning huquqiy yuzidir; u ijtimoiy hokimiyatining subyekti va timsolidir”. Zamonaviy davlat ma’lum bir sinf manfaatlarining vakili bo‘lishni to‘xtatib butun xalq uchun xizmat qiladi. “Milliy suverenitet huquqiy ma’noda har qanday sinfiy tuzumni inkor etishdir”. Faqat xalq ta’sis hokimiyatiga ega, konstitutsiyani qayta ko‘rib chiqish huquqiga ega, uning normalari ushbu davlatni tashkil qiladi.

Esmenning hokimiyat bo‘linishining konstitutsiyaviy modeli qonun chiqaruvchi hokimiyatda jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlarini ifodalashni ijro etuvchi hokimiyatning samaradorligi g‘oyasi bilan birlashtirishga intiladi. Shu bilan birga, parlamentning ustunligi despotik bo‘lmasligi kerak, Buning uchun vakillik organi – parlamentni tuzishda ikki palatalilik tamoyilidan foydalanish zarur.

XIX asrning ikkinchi yarmida Germaniyada Kant ta’limotining haqiqiy qayta tiklanishi sodir bo‘ldi. Birinchi jahon urushigacha nemis falsafasida eng ta’sirli yo‘nalish bo‘lgan neokantchilik paydo bo‘ldi.

Neokantchilikda ikkita maktab rivojlandi: Marburg va Baden. Marburg maktabining asoschisi Germann Koen (1842 - 1918) edi, u 1875-yildan 1912-yilgacha Marburg universitetida falsafa kafedrasini boshqargan. Uning shogirdlari va izdoshlari orasida Pol Natorp (1854-1924) va Ernst Kassirerni (1874-1945) esga olish kerak.



65-rasm
Ademar Esmen

Neokantchilik o‘z vazifasini Kant g‘oyalarini qayta tiklash va yanada rivojlantirishda ko‘rdi. Shu bilan birga, neokantchilar tanqidiy falsafa g‘oyasini eng ustuvor g‘oya deb bilgan, ya’ni, falsafa, bilim imkoniyatlari va chegaralarini tanqidiy tahlil qilishdan boshlanishi kerak. Shu bilan birga, neokantchilik Kantning tanqidiy falsafasi ruhiga sodiq qolgan holda, hozirgi tabiatshunoslik talablaridan kelib chiqib, ko‘p jihatdan Kant ta’limotini qayta ko‘rib chiqishni amalga oshirdi.

Bilish obykti bizga shunchaki berilgan, degan tushunchani rad etgan va bilish obykti mohiyatan bilish subyektining konstruksiyasi ekanligini ta'kidlagan Kant ta'limotining pafosi neokantchilikda Kantning o'ziga qaraganda chuqurroq davom etdi. Neokantchilar pozitivizm, empirizm va induktivizmga qarshi bo'lib, ilmiy nazariyalar tajriba ma'lumotlaridan kelib chiqmaydi, balki ongning erkin konstruksiyasi ekanligini ta'kidladilar. Ongning konstruktiv faoliyati o'ziga xos



66-rasm
Gerbert Spenser

apriori shakllari bilan neokantchilar tomonidan fanning ham, u o'rganayotgan voqelikning ham, shunga mos ravishda tajriba ma'lumotlarining ham universal asosi sifatida qaralgan.

Gerbert Spenser (1820-yil 27-aprel — 1903-yil 8 dekabr) — ingliz faylasufi va sotsiologi, XIX asr oxirida g'oyalari juda mashhur bo'lgan evolyutsionizm asoschilaridan biri, sotsiologiyadagi organik maktab, liberalizm mafkurasi vakili(66-rasm).

“Sotsiologiya tamoyillari”⁷⁹ning so'nggi, uchinchi jildida (1898) Spenser zamonaviy jamiyatning sotsialistik o'zgarishlari natijalari to'g'risida o'ziga xos sotsiologik prognozni taklif qildi. Kapitalistik raqobat sharoitida ijtimoiy hayotning qiyinchiliklari va pastligini tan olgan va umuminsoniy birodarlik g'oyasining jozibadorligiga hurmat ko'rsatgan holda, Spenser bir vaqtning o'zida sotsializm hal qila oladiganidan ham ko'proq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, deb hisobladi.

Shaxsiy manfaatlarning jamoatchilikka bo'ysunishi va mehnatni ijtimoiy tashkil etish, uning fikricha, davlatning majburlash faoliyatini kengaytirishni, byurokratiya va uning keng vakolatlarini kuchaytirishni talab qiladi. Shunda byurokratiya kuchayadi, o'z hokimiyatini mustahkamlaydi va yangi aristokratiyaga aylanadi, mehnatkash omma uni qo'llab-quvvatlashga majbur bo'ladi. Davlatni inkor etish yoki yo'q qilish o'rniga, mehnatkashlarning ekspluatatsiyasi hisobiga yashayotgan hukmron ierarxiyaning yig'ilishi bo'ladi. Sinflar yo'qolmaydi, faqat

⁷⁹ Спенсер Г. Принципы социологии. URL:

http://read.newlibrary.ru/read/spenser_gerbert/page0/principy_sociologii.html (murojaat sanasi: 12.01.23)



67-rasm
Nitshe Fridrix

yangilanadi. Sotsializm, agar u paydo bo'lsa, faqat davlat byurokratik sotsializmga aylanadi va boshqa hech narsa emas.

Nitshe Fridrix (1844-1900) - nemis faylasufi, irratsionalizm va volyuntarizm namoyandasi, “hayot falsafasi”ning asoschilaridan biri(67-rasm). Uning falsafiy tizimi pragmatizm va ekzistentsializm kabi XX asr falsafiy yo'nalishlariga ham katta ta'sir ko'rsatdi. U 1864-68 ylarda Bonn va Leypsig universitetlarida filologiyani o'rgandi va 1869-yildan Bazel universitetida professor lavozimida ishladi. Uning “Musiqqa ruhidan fojia (tragediya)ning tug'ilishi” (1872), “Zardo'sht tavallosi” (1883— 1884), “Hamma uchun va hech kim uchun” (1883—1892), “Hokimiyatga iroda”⁸⁰ (1906) kabi yirik va mashhur asarlari mavjud.

Uning falsafasida “hayot” tushunchasi markaziy o'rin egallaydi va uni faqat intuitiv yo'l bilan bilish mumkin bo'lgan reallik deb izohlaydi. O'z mohiyatiga ko'ra, irratsional bo'lgan hayotiy reallikni bilishning obrazli-simvolik usullarini ilmiy bilishga qarama-qarshi qo'ydi.

Butun tarix hokimiyat uchun kurash tarixidir: bu kuchli (yuqori, aristokratik xo'jayinlar) va kuchsizlar (omma, qullar, olomon) hokimiyati o'rtasidagi kurash.

Nitshe davlatning ikki turini ajratadi: aristokratik va demokratik. Ikkinchisi u tomonidan “qora xalq” hukmron bo'lgan dekadent shakl sifatida tavsiflanadi. Hokimiyat uchun kurashda buyuk shaxslar paydo bo'ladi. Ular juda kam uchraydi, ammo ularning tarix uchun ahamiyati katta. Insoniyatning maqsadi aynan uning eng mukammal “nusxalari” - daholarda, oliy shaxslardadir.

Insonni baxtsiz yoki baxtli qiladigan narsa faqat fikrlar, tashqi sharoitlar emas. O'z fikrlarini nazorat qilish orqali u o'z baxtini boshqaradi.

F. Nitshe falsafiy fikrlaridan parchalar:

Agar siz harakat qilishga qaror qilsangiz, shubha qilish uchun eshiklarni yoping.

⁸⁰ Ницше Ф. Воля к власти. URL: <https://www.nietzsche.ru/userfiles/pdf/vola2016.pdf> (murojaat sanasi: 12.01.23)

Inson qancha sukut saqlasa, shunchalik aqlli gapira boshlaydi.

Siz o'zingiz qochayotgan narsadan ozod bo'lolmaysiz.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XIX asrning ikkinchi yarmida bozor munosabatlari rivoji va mafkuraviy jarayonlar.

2. Burjua tartiblar va sotsialistik o'zgarishlar tarafdorlari o'rtasidagi g'oyaviy qarama-qarshilik, mafkuraviy kurashlar.

3. F. Mering konsepsiyasi.

4. Esmen liberalizmi.

5. Neokantchilarning siyosiy qarashlari.

6. G. Spenser siyosiy g'oyalari.

7. F. Nitsshe ta'limotining mafkuraviy funksiyasi.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Fransuz qirol Karl X qachon taxtdan ag'darilgan?

a) 1830-yil

b) 1827-yil

c) 1833-yil

d) 1845-yil

2. Napoleon Bonapart qachon o'zini imperator deb e'lon qildi?

a) 1847-yil

b) 1851-yil

c) 1857-yil

d) 1860-yil

3. Qrim urushi yuzaga kelishi sababi?

a) Rossiya kuchayishiga yo'l qo'ymaslik uchun

b) Rossiyada iqtisodiy inqilobdan foydalanish maqsadida

c) Ozodlik uchun

d) To'g'ri javob yo'q

4. Qaysi yili Angliya Rossiya imperiyasiga qarshi Qrim urushini boshladi?

a) 1851-yilda

- b) 1856-yilda
 - c) 1866-yilda
 - d) 1870-yilda
5. Gretsiya qachon mustaqillikka erishdi?
- a) 1830-yilda
 - b) 1828-yilda
 - c) 1832-yilda
 - d) 1834-yilda
6. “Lessing afsonasi”, “Germaniya tarixi o‘rta asrlar oxiridan boshlab” asarlari muallifi kim?
- a) F.Engels
 - b) Mering Frans
 - c) V. Libknext
 - d) A. Bebel
7. Nima uchun 1916-yilda Mering Frans hibsga olingan?
- a) Kapitalistik qarashlarni qoralagani uchun
 - b) Militarizmga qarshi chiqishlari uchun
 - c) Marksistik dunyoqarashni targ‘ib qilgani uchun
 - d) Revizionistlar va islohotchilarga faol qarshilik ko‘rsatgani uchun
8. “Davlat, millatning huquqiy yuzidir; u ijtimoiy hokimiyatining subyekti va timsolidir”. Yuqorida keltirilgan fikrlar qaysi fransuz huquqshinosi qalamiga mansub?
- a) Ademar Esmen
 - b) V. Libknext
 - c) A. Bebel
 - d) F.Engels
9. Marburg maktabi asoschisi kim?
- a) Ademar Esmen
 - b) Germann Koen
 - c) Pol Natorp

d) Ernst Kassirerni

10. Neokantchilik o'z vazifasi qanday?

- a) Kant g'oyalarini qayta tiklash
- b) Kant g'oyalarini tanqid qilish
- c) Kant falsafiv qarashlarini qoralash
- d) Kapitalizmni qoralash.

23-MAVZU: MARKSIZM MAFKURASI, UNING GENEZISI, RIVOJLANISHI VA TARIXIY TAQDIRI

Reja:

1. Marksizm vujudga kelishi va shakllanishi davrida tarixiy sharoit, mafkuraviy jarayonlar.
2. Marksizm mafkurasining tarixiy ildizlari va nazariy manbalari.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya nazariyasi hamda bazis va ustqurtma haqidagi ta'limot.
4. Marksizmning g'ayriinsoniy, totalitar mohiyati. Marksistik mafkuralar inqirozi.

Tayanch tushunchalar: Marksizm vujudga kelishi va shakllanishi davrida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, mafkuraviy jarayonlar; Marksizm ideologiyasining tarixiy ildizlari va nazariy manbalari; Marksizmning ishchilar harakatiga rahnamolikka da'volari; Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya nazariyasining ilmiy jihatdan cheklanganligi; Bazis va ustqurtma haqidagi ta'limot; Marksistik g'oyalarning bo'zg'unchi, regressiv mazmuni; Marksizmning g'ayriinsoniy, totalitar mohiyati; Marksistik mafkuralar inqirozi sabablari.

Marksizm falsafasi XIX asr o'rtalarida paydo bo'lgan. Uning paydo bo'lishi G'arbiy Yevropaning ijtimoiy-iqtisodiy va g'oyaviy-nazariy rivojlanishining natijasi edi. Marksizmning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi va proletariatning o'sishi edi. XIX asrning tabiiy fanlaridagi uchta eng muhim kashfiyot marksizm uchun tabiiy ilmiy manbaga aylandi:

1) moddiy olamning birligidan dalolat beruvchi energiyaning saqlanishi qonuni;

2) barcha tirik organizmlarning irsiy munosabatlari haqidagi tirik materiyaning hujayra tuzilishi;

3) Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi jamiyat evolyutsiyasi imkoniyatlarini va bu evolyutsiya qonuniyatlarini bilishni nazarda tutgan.

Karl Genrix Marks 1818-yilning 5-may kuni Prussiya (hozirgi Germaniya)ning Trir shahrida tugʻilgan(68-rasm). Kelib chiqishi yahudiy boʻlgan Karlning otasi Genrix Marks asli advokat edi-yu, ammo falsafani ham juda yaxshi bilar va aynan u oʻgʻlining faylasuf boʻlishida muhim rol oʻynagandi.

Trirdagi gimnaziya dastlabki tahsilni olgan Marks bu yerda nemis, fransuz, lotin va yunon tillarini oʻrganadi. Gimnaziya dan soʻng Bonn universitetiga oʻqishga qabul qilinib, tarix, falsafa va yurisprudensiya boʻyicha mutaxassisga aylanadi. Oliygoʻhdagi-yillarida Gegel falsafasi bilan tanishgan yigitda ateistik va inqilobiy dunyoqarash shakllanadi.

Marks 24 ga kirganida antik faylasuflar: Demokrit va Epikur falsafasini oʻrganish boʻyicha dissertatsiya yoqlaydi. Uning niyati oʻzi oʻqigan Bonn universitetida oʻqituvchilik qilish edi. Biroq oʻsha davrda millatchilik va buyuk davlatchilik kayfiyati hukmron boʻlgan Prussiyada soʻl qarashdagi insonlar (soʻllar — ijtimoiy tenglik tarafdorlari boʻlib, xususiy mulkchilik, sinfiy boʻlinish, liberalizm, kapitalizmga qarshi boʻlgan)ni taqib qilish boshlandi.

Marksning ustozlari Lyudvig Feyerbax va Bruno Bauer soʻl qarashlari sabab universitetdagi ishidan ayrilgach, shogird ham oliygohda dars berish fikridan qaytadi hamda Bonndagi muxolif “Reyn gazetasi”ga ishga kiradi. Gazetada siyosiy tahlillar yozish bilan shugʻullangan Marks oʻzining iqtisodiy siyosat sohasidagi bilimlari kamligini sezadi va iqtisod sohasini oʻrganishga kirishadi.

Oʻng qarashdagi (konservatorlar, ijtimoiy tengsizlik tarafdorlari, kapitalistlar, mutaassiblar) hukumatni tanqid qiluvchi maqolalar yozgan Marksga hokimiyat bilan hamkorlik qilish taklifi beriladi. Biroq u bu taklifni rad etadi-yu, mamlakatni tark etishga majbur boʻladi.

Fransiyaga ko‘chib kelgan Marks bu yerda hamyurti, adabiy do‘stiga aylangan faylasuf Fridrix Engels va shoir Haynrix Hayne bilan tanishadi. Marks fransuzlarning radikal islohotchilar guruhida harakat qila boshlaydi. Biroq Prussiya hukumati Marksni Fransiyada ham tinch qo‘ymaydi va uni bu yerni ham tark etishga majbur qiladi.

Faylasuf 1845-yili Belgiyaning Bryussel shahriga ko‘chib o‘tadi. Shu yerda u Engels bilan birga kommunistlarning “Adolatlilar ittifoqi” tashkilotiga a’zo bo‘ladi.



68-rasm
Karl Marks

Tashkilotning so‘rovi bilan Karl Marks va Fridrix Engels hammualliflikda “Kommunistik partiya manifesti”⁸¹ni yozadi. Manifestga ko‘ra, butun tarix sinfiy kurashlardan iborat bo‘lib, yaqinlashib kelayotgan proletar (maosh evaziga ishlovchi o‘rta va quyi qatlam) inqilobi kapitalizmni butunlay yo‘q qiladi va mehnatkashlarni dunyoning yangi hukmron sinfiga aylantiradi.

1848-yil butun Yevropa bo‘ylab inqiloblar (proletar inqilobi emas) boshlangach, Belgiya hukumatining qistovi bilan Marks yana Parijga keladi va u yerdan vataniga qaytadi. Engels bilan qisqa muddat “Yangi Reyn gazetasi”ni yuritgan Marks endi Angliyaga, Londonga yo‘l oladi va umrining oxirigacha shu yerda yashaydi.

Aynan Buyuk Britaniyada Karl Marks kommunistik va kapitalistik jamiyat kurashi haqidagi fikrlari bayon qilingan ko‘p jildlik mashhur “Kapital”⁸² asarini yozadi. Marks boshchiligidagi “Xalqaro ishchilar assosiatsiyasi” anarxistlar, fransuz sotsialistlari, italyan respublikachilar, britan mehnat birlashmalarini o‘z tarkibga oladi.

Faylasuf umrining so‘ngiga qadar do‘sti Fridrix Engelsning moliyaviy ta’minoti evaziga kun ko‘radi.

Marksizm o‘zi nima?

⁸¹ Маркс К., Энгельс Ф. Манифест Коммунистической партии. URL: <https://socialist.news/assets/pdf/manifest.pdf> (murojaat sanasi: 12.01.23)

⁸² Маркс К. Капитал. Государственное издательство политической литературы. 1952. URL: https://istmat.org/files/uploads/59307/k._marks._kapital._tom_1._1952_g.pdf (murojaat sanasi: 12.01.23)

Marksizm — Karl Marksning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy falsafa nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra, butun insoniyat taraqqiyoti sinfiy (ijtimoiy sinflar bu ishchilar, tadbirkorlar, harbiylar, dehqonlar, hunarmandlar va hokazo) kurashlardan iborat bo‘lgan. Marksning fikricha, kapitalistlar va burjuaziya vakillari boshqalarni arzon haq evaziga ishlatadi va oson boylik orttiradi. Marks kapitalistlar va ishchilar o‘rtasidagi hokimiyat munosabatlari tabiatan ekspluatatsiyaga asoslangani va muqarrar ravishda sinfiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi haqida yozadi. U bu kurash oxir-oqibat kommunistik inqilob bilan tugashi va butun dunyoda ishchilar sinfi hukmronlik qilishiga ishonadi.

“Mavjudlik ongni belgilaydi” formulasiga asos solgan Marksning fikriga ko‘ra, har qanday jamiyatning asosini ishlab chiqaruvchi kuchlar (ishchilar) tashkil etadi.

Shunday qilib, marksizmning umumiy ma‘nosi sinfiy kurashga, ya‘ni kapitalistlar va ishchilar o‘rtasidagi kurashga qaratilgan.

Nemis mumtoz falsafasini (Gegel, Feyerbax va b.), Ingliz siyosiy iqtisodini (Smit, Rikardo va b.), Fransuz xayoliy sotsializmini (Sen-Simon, Fure va b.) o‘rganishga tayanib, Marks va Engels dialektik, tarixiy materializmga asoslangan falsafa, qo‘shimcha qiymat nazariyasiga asoslangan siyosiy iqtisod va kommunizm haqidagi soxta ta‘limotni ishlab chiqdilar.

Marksizm asoschilari dastlab Hegel falsafasining tarafdorlari bo‘lib, yosh gegelchilarga mansub edilar. Din va absolyutizmga qarshi kurashda Hegel falsafasidan foydalangan faylasuflar shunday nomlanadi.

1844-yilda “Gegel huquq falsafasining tanqidi” asarida Marksning materializm pozitsiyalariga o‘tishi aniq ko‘rsatilgan. Falsafasining o‘ziga xos xususiyati - nazariy emas, balki inqilobiy amaliy faoliyatga yo‘naltirilganidir. Marks tarixni materialistik tushunishni o‘zining asosiy yutuqlaridan biri deb atadi.

Marksizmda moddiy ishlab chiqarish usuli, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari jamiyatning negizi sifatida karaladi. Marksizm xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatda ishlab chiqarishning ijtimoiy va o‘zlashtirishning xususiy xarakterga ega ekanligiga tayanib, ijtimoiy inqilob to‘g‘risidagi qonunni asoslashga urinadi. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, sinfiy

kurash bilan bog'liq nazariyani ilgari suradi. Jamiyat tarixiga sinflar kurashi tarixi sifatida qaraydi. Marksizmga ko'ra, sinfiy kurash proletariat diktaturasiga olib keladi. Proletariat diktaturasining maqsadi esa sinfsiz jamiyat qurishdan iborat deb hisoblaydi. Marksizm ishlab chikarish vositalariga faqat ijtimoiy mulkchilikni tan oldi, boshqa mulk shakllarini inkor etdi. Xususiy mulkni barcha ijtimoiy illatlarning asosiy sababi degan noto'g'ri qarashni ilgari suradi.

Marksizmning qo'shimcha qiymat qonuni kapitalizmning asosiy iqtisodiy qonuni deb qaralgan. Marksizm tarixni materialistik tushunish orqali jamiyatning rivojlanish qonunlari, kapitalizmning sotsializm bilan almashinishi muqarrarlighi, kapitalizmdan sotsializmga o'tish davri, kommunizmning ikki fazadan iborat ekanligi g'oyasi ilgari suriladi va sotsializm kommunizmning quyi fazasi sifatida qaraladi.

Marksizm XIX asrda ijtimoiy fikr taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatdi. Ayni vaqtda undagi xayoliy, ziddiyatli va xato tasavvurlar tanqidga uchradi. Marksizm ijtimoiy qarama-qarshiliklar, sinfiy kurash va zo'rlik nazariyasi mutlaqlashtirildi, proletariatning tarixiy roli asossiz ravishda ulug'landi. Rossiyadagi Oktyabr to'ntarishi va kommunistik totalitarizmga xizmat qildi.

Marksizm davlat mafkurasi bo'lib qolgan ko'p mamlakatlarda 20 asrning 80-yillaridan boshlab mustabid rejimlarning emirilishi va mustaqil davlatlarning taraqqiyot yo'llarini belgilab olishi marksizmni tanqidiy o'rganish va unga baho berishda yangi davrni boshlab berdi.

Marksning fikricha, odamlar eng avvalo oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va hokazolarga bo'lgan eng oddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlashi kerak. Shundan keyingina ular siyosat, fan bilan shug'ullanishlari mumkin. Moddiy ishlab chiqarish jamiyatning mavjudligi va rivojlanishining asosidir. Marks ijtimoiy borliq ijtimoiy ongni belgilaydi degan xulosaga keldi. U "ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya"ning fundamental konsepsiyasini ishlab chiqdi. Xullas, Marks jamiyatni o'ziga xos iqtisodiy asosi va ma'naviy-mafkuraviy ustki tuzilishiga ega bo'lgan taraqqiyotning ma'lum bosqichidagi jamiyat deb atagan. U insoniyat tarixini bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning ikkinchisi tomonidan ketma-ket o'zgarishi

jarayoni deb hisoblagan. Hammasi bo‘lib, u beshta ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani ajratib ko‘rsatdi: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodal, kapitalistik va kommunistik.

Marks va Engels hamisha amaliyotga katta ahamiyat berishgan. Ular hatto buni haqiqat mezoni deb ham atashgan (ya’ni, u yoki bu pozitsiyaning haqiqat yoki yolg‘onligini faqat amaliy sinovdan o‘tgandagina baholash mumkin). Marks, shu paytgacha “faylasuflar dunyoni faqat turlicha izohlab keldilar, ammo gap uni o‘zgartirishda” degan edi. Ko‘pincha Marks mafkurani - voqelikdan kelib chiqqan va unga kiritilgan voqelikning xayoliy timsoli. Mafkura - shaxsning ong bilan bo‘lsa-da, lekin soxta ong bilan amalga oshiradigan jarayondir. Uni harakatga undaydigan haqiqiy harakatlantiruvchi kuchlar unga noma’lum bo‘lib qoladi, aks holda bu mafkuraviy jarayon bo‘lmaydi.

Marks va kommunizmni nima bog‘lab turadi?

Karl Marks va Fridrix Engels g‘oyalari barcha boylik va mulk umumiy bo‘lgan (xususiyl bo‘lmagan) sinfsiz jamiyat yaratishni ko‘zda tutuvchi kommunizm nazariyasiga asos soldi. Marks jamiyatning asosiy vazifasi ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini muvozanatda saqlash ekanini ta’kidlaydi, yo‘qsa bu ijtimoiy inqilobga olib kelishi mumkin. Marks tarixni tavsiflar ekan, quldorlik, feodal, burjua va kommunistik tuzumlarning xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi. Uning fikricha, kommunizm ikki bosqichga bo‘linadi: sotsializm — kommunizmning boshlang‘ich bosqichi, ikkinchisi: kommunizm — barcha moliyaviy institutlar tugatilgan va umumiy mulkchilikka asoslangan jamiyat.

Marksning g‘oyalari tez orada ovoza bo‘ladi, chunki bu davrda Yevropa qurollanish poygasiga tortilgan, aholi, ayniqsa ishchilar daromadi juda past edi. Sanoat monopollar (Rokfeller, Rotshild, Karnegi, Krupp) qo‘lida bo‘lib, hukumat ularni ularni qo‘llab-quvvatlar, monopollar esa ishchilariga arzimagan maosh to‘lardi. Ushbu vaziyatda Marksning g‘oyalari minglab tarafdorlarga ega bo‘ladi. Ulardan biri Vladimir Lenin edi.

Ammo Marksning tiriklik davrida kapitalistik tuzum hali ancha kuchli edi va shu bois Marks o‘zi orzu qilgan inqilobni ko‘ra olmaydi. Karl Marks 1878-yil vafot etadi. Uning mashhurligi esa vafotidan deyarli 40-yil o‘tib boshlanadi.

1917-yil Rossiyadagi-oktyabr inqilobidan so‘ng Marks g‘oyalari asosida yangi sotsialistik jamiyat qurishni niyat qilgan Vladimir Lenin mamlakatda Karl Marks nomini ulug‘lash kampaniyasini boshlaydi. U-oktyabr inqilobini Marks aytgan kommunistik inqilob ekanini ta’kidlaydi. SSSRning har bir aholi punktlarida Karl Marks nomidagi maktablar, oliygohlar, kutubxonalar, joy nomlari va ko‘chalar paydo bo‘ladi. Maktab darsliklariga faylasufning “Kapital” asari va Fridrix Engels bilan yozishmalari kiritiladi.

SSSR Karl Marks va Fridrix Engelsning xususiy mulkchilik bo‘lmagan jamiyatini qurishga bel bog‘laydi. Biroq Lenin Marks g‘oyalaridan farqli ravishda inqilobga ishchilardan tashqari dehqon va askarlarni ham jalb qiladi va davlatda “Ishchi, dehqon va askar ittifoqi” kengashlarini tashkil qiladi. Qolaversa, sovetlar Marks g‘oyalariga tsenzura va qatag‘on siyosatini ham qo‘shadi.

Marks kommunizmi qanday oqibatlariga olib keldi?

- Karl Marks g‘oyalari reallikdan butkul uzoq edi. Insoniyatga tarixdagi ibtidoiy tuzum elementlarni qaytarmoqchi bo‘lgan faylasuf aynan xususiy mulkchilik ibtidoiy to‘dalar sivilizatsiyasida muhim rol o‘ynaganini hisobga olmadi. Insoniyat xususiy mulkchiliksiz yashashi mumkin emas edi, bu mehnat samaradorligining keskin kamayib ketishga olib kelardi. Marksizm va kommunizm o‘rnatilgan hech qaysi davlatda, na SSSR, na Xitoy va na Kubada moliyaviy institutlar va xususiy mulkchilik butunlay yo‘qolmadi. Aksincha, bu davlatlar ham oxir-oqibat xususiy mulkchilikka yo‘l berishga majbur bo‘ldi (masalan, Xitoy).

Karl Marksning tuzumni inqilob, ya’ni kuch bilan almashtirish g‘oyasi esa minglab insonlar o‘limiga olib keldi. Birgina SSSRda marksizm g‘oyalarini amalga oshirish uchun feodal, burjua vakili, kapitalist deya millionlab insonlar mahv etildi. Jamiyatning eng asosiy ishlab chiqaruvchisi bo‘lmish o‘rta qatlam deyarli yo‘q qilindi. Natijada kommunistik SSSR hech qachon kapitalistik davlatlar bilan iqtisodiy teng raqobat qila olmadi. Marksning iqtisodiy nazariyasi sabab mamlakat harbiy salohiyati yuqori bo‘lsa-da, moliyaviy jihatdan kuchsizligicha qoldi. Xitoyda ham Mao Szedun boshliq kommunistlar millionlab kishini avval harbiy inqilob, keyin esa “madaniy inqilob” nomi ostida qatl etdi.

Marksning umumiy mehnat g'oyasi mutlaqo samarasiz edi. Masalan, SSSRdagi kolxoz ishchilari umumiy mulkni qadrlamadi va ishga mas'uliyat bilan yondashmadi. Misol uchun kolxoz traktorchisi o'z texnikasini qadrlamas edi, chunki uning xarajatlari ham, foydasi ham umumiy kolxoz hisobiga yo'naltirilar edi. Bundan tashqari, mansabdorlar tomonidan umumiy mulkni talon-toraj qilish ham kuchaydi. Ishga bir kishining mas'ul emasligi sabab ishlab chiqarishda boshboshdoqlik yuz berdi. Oxir-oqibat kommunizm iqtisodni rivojlantirmadi, balki deyarli o'ldirdi.

- Aniqroq qilib aytganda, marksizm-kommunizm nazariyasi amaliyotda:
- davlat barcha korxona va ishlab chiqarishga egalik qiladi;
- garchi ba'zi hududlarga mos kelmasa-da, davlat markazning qat'iy rejalariga binoan ish ko'radi;
- iste'molchilarning ehtiyojlarini inobatga olmaydi;
- shaxsiy foydasiz ishchilarning samaradorligini oshirishga harakat qiladi;
- narx mexanizmsiz talab va taklif o'rtasidagi ichki muvozanatga erishishga urinadi.

Karl Marks, Fridrix Engels va Vladimir Leninning kommunizm haqidagi g'oyalari reallikdan uzoq ekani allaqachon isbotini topib bo'lgan. Kommunizm bayroqdori va uning butun dunyo bo'ylab tarqatuvchisi ("Butun dunyo proletarlari, birlashingiz!") bo'lgan davlat — SSSR allaqachon tarqalib ketdi. Xitoy hali ham kommunistik mafkuraga ega bo'lsa-da, iqtisodda to'la kapitalistik bozor qonunlarini joriy etgan. Marksning umumiy mulkka ega jamiyat g'oyasi utopik sotsializmning bir ko'rinishi edi, xolos.

- Hozirda Karl Marks qabri Buyuk Britaniyada joylashgan va har-yili minglab marksist va kommunistlar uni ziyorat qiladi. 1991-yilgacha Sovet davlati Britaniyaga faylasufning qabrini obod saqlab turish uchun pul to'lab kelgan. Ammo ittifoq tarqalib ketgach, bunga hech kim e'tibor bermay qo'ydi.

- Shunday qilib, Karl Marks va Fridrix Engelsning g'oyalari insoniyatning bir asrlik kurashiga sabab bo'ldi va oxir-oqibat o'zining puch ekanini ko'rsatdi. Biroq

ushbu g'oya sabab millionlab insonlar halok bo'ldi va ko'plab mamlakatlar taraqqiyotda orqada qolib ketdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Marksizm vujudga kelishi va shakllanishi davrida mafkuraviy jarayonlar.
2. Marksizm mafkurasining tarixiy ildizlari va nazariy manbalari.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya nazariyasi.
4. Bazis va ustqurtma haqidagi ta'limot.
5. Marksizmning g'ayriinsoniy, totalitar mohiyati.
6. Marksistik mafkuralar inqirozi.

Mavzu yuzasidan testlar:

1. Karl Genrix Marks qachon va qayerda tavallud topgan?
 - a) 1812-yil Fransiya
 - b) 1823-yil Polshada
 - c) 1818-yil Prussiyada
 - d) 1814-yil Prussiyada
2. Marks 24 ga kirganida yoqlagan dissertatsiyasi nima haqida edi?
 - a) Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi jamiyat evolyutsiyasi imkoniyatlarini va bu evolyutsiya qonuniyatlari
 - b) Demokrit va Epikur falsafasini o'rganish
 - c) Borliq falsafasi haqida
 - d) Ong falsafali haqida
3. ko'p jildlik mashhur "Kapital" asarini muallifi kim?
 - a) Karl Genrix Marks
 - b) Fridrix Engels
 - c) Haynrix Hayne
 - d) Charlz Darvin

4. “Odamlar eng avvalo oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va hokazolarga bo‘lgan eng oddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlashi kerak. Shundan keyingina ular siyosat, fan bilan shug‘ullanishlari mumkin” yuqorida keltirilgan fikrlar muallifi kim?

a) Karl Genrix Marks

b) Fridrix Engels

c) Haynrix Hayne

d) Charlz Darvin

5. Marksning umumiy mehnat, mulkchilik g‘oyasi kutilgan rivojlanishga erisha olmaganligi sabablari nimada.

a) Ishchilar umumiy mulkni qadrlamadi va ishga mas’uliyat bilan yondashmadi

b) Haddan tashqari ko‘p mehnat

c) Homashyo etishmasligi

d) To‘g‘ri javob ko‘rsatilmagan

6. Karl Marks nechanchi yilda vafot etgan?

a) 1787-yilda

b) 1877-yilda

c) 1880-yilda

d) 1890-yilda

24-MAVZU: XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARIDA ROSSİYADA G‘OYAVIY-SIYOSIY VA MAFKURAVIY KURASHLAR

Reja:

1. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

2. Reformatörler, radikallar, liberallar va konservatorlar. Narodniklar mafkurasi.

3. Marksistik g‘oyalarning rus jamiyatiga kirib kelishi. “Legal marksizm”.

4. V. Solovyovning slavyanofilchilik va sotsializmga munosabati.

N. Berdyayev personalistik sotsializmi.

5. S. Frankning inqilobiy mafkuralarga munosabati. P. Sorokinning konvergensiya nazariyasi.

Tayanch tushunchalar: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat; Mafkuraviy sohadagi keskin qutblashuv; Reformatorlar, radikallar, liberallar va konservatorlar; Narodniklar mafkurasi; Marksistik g'oyalarning rus jamiyatiga kirib kelishi; "Legal marksizm"; Rus diniy faylasuflarining mafkuraviy mo'ljallar; V.Solovyovning slavyanofilchilik va sotsializmga munosabati; N.Berdyaev personalistik sotsializmi; Demokratiya va shaxs g'oyasi; S.Frankning inqilobiy mafkuralarga munosabati; P.Sorokinning konvergensiya nazariyasi.

XIX asr butun Yevropa qit'asida ijtimoiy, huquqiy, intellektual, institutsional, iqtisodiy qayta qurish davri bo'ldi. Bu sanoat jamiyatining shakllanishi va qaror topishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi, xalqlar va milliy davlatlarning shakllanishi, Yevropa imperiyalarining yuksalishi va qulashi davri edi. XIX asrda zamonaviy jamiyatning asosiy institutlari: demokratiya, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy himoya va ijtimoiy tenglik, ommaviy madaniyat shakllandi.

Bu jarayondan Rossiya ham chetda qolmadi biroq, uning evolyutsiyasi o'ziga xosligi shundaki, bu jarayonlar avtokratiya va alohida ijtimoiy institutlarning siyosiy rejimini saqlab qolish harakati bilan birga kechdi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi xalqaro siyosatning to'la huquqli ishtirokchisi sifatida harakat qildi va 1812-yilgi Vatan urushi va xorijiy yurishlardagi g'alabadan keyin Rossiya xalqaro maydonda yetakchi o'yinchilardan biriga aylandi.

XIX asrda Rossiya tarixidagi eng muhim bosqich - Buyuk islohotlar, birinchi navbatda 1861-yilgi dehqonlar islohoti bo'ldi. Asrning birinchi yarmida hokimiyat uchun ham, jamiyat uchun ham krepostnoylik institutining arxaizmi allaqachon ayon bo'lgan edi. Davlat dehqonlar muammosini vaqtinchalik choralar orqali hal qilish yo'llarini topishga harakat qilgan bo'lsa-da, feodal tuzum doirasida ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiyani davom ettirdi. Aleksandr I davrida siyosiy tizimni isloh qilishga urinishlar bo'ldi, qonunchilikni insonparvarlashtirish bo'yicha ko'p ishlar

qilindi, imperiyani boshqarish mexanizmlari isloh qilindi, rus universitet ta'limi tizimi vujudga keldi.

Nikolay I davrida davlat avtoritar usullar bilan iqtisodiy modernizatsiyani amalga oshirishga harakat qildi, bu esa boshqaruv tizimining markazlashuvining kuchayishiga, byurokratiyaning kuchayishiga, jamiyat ustidan davlat nazoratining kuchayishiga olib keldi. Natijada, davlat resurslarini safarbar qilish avtokratiyaga ma'lum sohalarda aniq muvaffaqiyatlarga erishish imkonini berdi: qonunlarni kodlashtirish, byurokratiya va ofitserlar korpusini professionallashtirish, universitet va kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, qishloqni isloh qilish, Sankt-Peterburg-Moskva temir yo'lining qurilishi. Biroq, Nikolay I ning krepostnoylik huquqini bekor qilishni boshlashga bo'lgan urinishlari muvaffaqiyatli bo'lmadi. Shu bilan birga, davlat vasiyligi tizimi jamoat va xususiy tashabbusni orqaga tortdi, arxaiik tabaqaviy tuzumning saqlanib qolishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy-texnikaviy rivojlanishiga to'sqinlik qildi, uning bevosita raqobatchilardan va ayniqsa, ortda qolishiga olib keldi, Qrim urushidagi mag'lubiyatga sabab bo'ldi.

Tashqi siyosatdagi og'riqli muvaffaqiyatsizlik hokimiyatni keng ko'lamli islohotlar (krepostnoylikni bekor qilish, zemstvo, shahar, sud-huquq, harbiy islohotlar, ta'lim islohoti) zarurligini anglashiga olib keldi.

1860-1870-yillardagi buyuk islohotlar Rossiya jamiyatining deyarli barcha sohalariga ta'sir qildi. Ular yangi ijtimoiy qatlamlarning, iqtisodiyotning yangi tarmoqlarining shakllanishiga, madaniyat sohasida jiddiy o'zgarishlarga hissa qo'shdilar. Rossiyaning tashqi siyosati ham o'zgardi: uning Markaziy Osiyo va Uzoq Sharq vektori yanada yaqqol namoyon bo'ldi.

